

DOSH LANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN



O'ZBEK TILINING

IZOHLI LUG'ATCHASI



SO'Z



SANDIQCHASI

Nizomiddin MAHMUDOV

Nizomiddin MAHMUDOV

SO‘Z SANDIQCHASI

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATCHASI

**(BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI
UCHUN)**

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2016

UO'K 811.512.133-053.2(038)

KBK 81.2 O'zb-4

S99 M37

Ozbek tilining izohli lug'atchasi. Nuzam

Mas'ul muharrir:

A.P.Madvaliyev, filologiya fanlari nomzodi,
katta ilmiy xodim

So'z sandiqchasi: O'zbek tilining izohli lug'atchasi /
tuzuvchi N.Mahmudov. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2016. –
216 b.

O'zbek tiliga chinakam muhabbat qo'yish uchun g'ayrat va
jur'at bilan uning sehrli olamiga kirish kerak. Bu olamdag'i eng
ajoyib va g'aroyib xazina esa so'z boyligidir. Ana shu xazina
qanchalik yaxshi egallansa, til burrolashib, zehn o'tkirlashib,
fikr tiniqlashib boraveradi. Ana shu tariqa bolada sog'lom
til tuyg'usi, nozik so'z sezgisi, go'zal va ta'sirli nutq zavqi
shakllanadi va asta-sekin kamol topib boradi. Bu yo'lida bola-
larga beminnat yordamchi bo'ladigan ushbu izohli lug'atchada
yetti yuz atrofidagi so'z, ular ma'nolarining sodda, ixcham
va lo'nda shakldagi izohlari jamlangan. Dunyo lug'atchiligi
tajribasida (rus, turk, ingliz va boshqa) aynan bolalarbop bunday
izohli lug'atlar tuzish an'anasi ko'pdan beri mavjud bo'lsa-da,
mazkur lug'at o'zbek tilidagi dastlabki ishdir.

UO'K 811.512.133-053.2(038)

KBK 81.2 O'zb-4

ISBN 978-9943-03-865-3

© Nizomiddin Mahmudov
© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2016.

20.16/134

Alisher Navoiy

nomidagi

A9299

O'zbekiston

BEBaho va BOQIY BOYLIGIMIZ

Odamni odam qilgan narsa uning fikrlash va so‘zlash qobiliyatiga egaligidir. Fikrlash va so‘zlash bir-biri bilan juda ham bog‘liq bo‘lib, ularning asosini til tashkil etadi. Agar shu qobiliyat bo‘lmasa, odamning boshqa tirik mavjudotlardan farqi qolmaydi. Bu haqiqatni ulug‘ shoir va dunyoga dovruq solgan donishmand bobomiz Alisher Navoiy go‘zal shaklda mana bunday ifodalagan: “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilki guhari sharifroq yo‘q ondin”.

Dunyoni bilishning, uning sir-u jumboqlarga to‘la hodisalarini o‘rganishning, ko‘pdan-ko‘p notanish narsalar mag‘zini chaqishning asosiy va birlamchi vositasi ham tildir. Bilimni tilsiz egallab bo‘lmaydi. Faqat bilimnigina emas, balki olamning go‘zalligini ham tilsiz bilib bo‘lmaydi. Odob-axloq degan odamlilikning asosiy o‘lchovlarini ham tilsiz tasavvur etish qiyin. Hadisi shariflarda “Kishining zeb-u ziynati, go‘zalligi uning tilidadir” deyiladi. “Odobning boshi til” ekanligi odamlarni saodatga eltmoqni istagan ulug‘ bobomiz Yusuf Xos Hojib tomonidan bundan ming yillar ilgari aytilgan.

Til odamlarning yaxlit bir millat degan jamoa sifatida birlashuviga xizmat qiladi. Shuning uchun ham millatning bosh belgisi til hisoblanadi.

Yer yuzida tillar ko‘p, mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, bugun ularning soni yetti mingga yaqin. Bir odam, agar zehni o‘tkir bo‘lsa, astoydil g‘ayrat qilsa, qiyinchiliklardan qo‘rqmasa, bir necha tilni o‘rganishi, bu tillarda erkin gapirishi mumkin. Ammo har qanday odamning tamoman o‘ziniki bo‘lgan, bevosita o‘z onasidan o‘tgan, shuuriga sut bilan kirgan va jon bilan chiqadigan faqat bitta tili bo‘ladi. Bu, albatta, ona tilidir. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlariday, “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”¹.

Bizning ona tilimiz o‘zbek tilidir. O‘zbek tili dunyodagi qadimiy va eng boy tillardan biri sanaladi. Uning tarixi ming yilliklar bilan o‘lchanadi, lug‘at xazinasidagi so‘zlarning miqdori yuz minglardan oshadi. Bu tilning yozma adabiy asoslarining shakllanishi va barqarorlashuvi ulug‘ Alisher Navoiyning o‘lmas ijodi bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida yaratilgan juda ko‘plab so‘z san’ati durdonalari bu tilning o‘tkir ifoda imkoniyatlari va haqli ravishda qozongan shon-u shavkatini dunyoga ko‘z-ko‘z qilib turibdi. Jahonning bir qancha mamlakatlarida o‘zbek tili katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

O‘zbekistonda o‘zbek tili davlat tili maqomini olib, Yurtboshimiz ta’rifi bilan aytganda, “mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat», 2008, 39-b.

aylandi”. O‘zbek tili ona tili sifatida o‘zbek millatini birlashtirsa, davlat tili sifatida yurtimizda yashayotgan turli millatlarga mansub kishilarni yagona mustaqil O‘zbekiston davlatining fuqarolari qilib birlashtiradi.

Xalqimizda “Tilga e’tibor – elga e’tibor” degan hikmatli so‘z bor. O‘zbek tiliga muntazam e’tibor, cheksiz hurmat-ehtirom jonajon O‘zbekistonimizga tiganmas hurmat va muhabbat demakdir. Ota-onaga, yurtga, jon va tanimiz bo‘lgan Vatanga munosib, sadoqatli farzand bu haqiqatni aslo unutmasligi lozim.

Qadrli o‘quvchi!

Bir narsani juda qattiq va astoydil sevmoq, qadrlamoq uchun, eng avvalo, bu narsaning ma’no-mohiyatini chuqur anglamoq, qimmatini aniq bilmoq zarur. O‘zbek tiliga chinakam muhabbat qo‘yish uchun ham g‘ayrat va jur’at bilan uning sehrli olamiga kirish kerak. Bu olamdagi eng ajoyib va g‘aroyib xazina esa so‘z boyligidir. Ana shu xazinani qanchalik yaxshi egallasangiz, tilingiz burrolashib, zehningiz o‘tkirlashib, fikringiz tiniqlashib boraveradi. Sizda sog‘lom til tuyg‘usi, nozik so‘z sezgisi, go‘zal va ta’sirli nutq zavqi shakllanadi va asta-sekin kamol topib boradi.

Ana shu yo‘lda Sizga beminnat yordamchi bo‘lishi uchun ushbu izohli lug‘atcha tayyorlandi, bu so‘z sandiqchasida yetti yuz atrofidagi so‘z, ular ma’nolarining sodda, ixcham va lo‘nda shakldagi izohlari jamlangan.

LUG‘ATCHANING TUZILISHI HAQIDA

Lug‘atchada so‘zlar odatdagiday alifbo tartibida joylashtirilgan. Albatta, lug‘atchilikda qabul qilingan qoidalarga ko‘ra, lug‘atda so‘zlarni joylashtirish ketma-ketligida faqat birinchi harflar emas, balki keyingi harflar ham hisobga olinadi. Shuning uchun lug‘atdan kerakli so‘zni qidirganda, buni unutmaslik lozim.

Har bir lug‘at maqolasida so‘zdan keyin, eng avvalo, uning ma’nosi izohlangan. Masalan:

“AHD Biror ishni bajarish uchun qilingan qat’iy qaror”.

Undan keyin, agar tilda bu ma’noga zid ma’noli so‘z mavjud bo‘lsa, “*Zidi*” degan tavsif bilan shu so‘z berilgan. Masalan:

“ABJIR Tez harakat qila oladigan, har qanday ishni eplay biladigan. *Zidi*: **bo‘sang, landavur, lapashang, noshud**”.

Agar izohlanayotgan so‘zning ma’nodoshi ham tilda mavjud bo‘lsa, u “*Ma’nodoshi*” degan tavsif bilan “*Zidi*” dan keyin keltirilgan. Masalan:

“ABJIR Tez harakat qila oladigan, har qanday ishni eplay biladigan. *Zidi*: **bo‘sang, landavur, lapashang, noshud**. *Ma’nodoshi*: **epchil, chaqqon, uddaburon**”.

Agar izohlanayotgan so‘zning ma’nosi bitta emas, balki bir nechta bo‘lsa, bu ma’nolar raqamlar bilan ajratib ko‘rsatilgan. Masalan:

“BULOQ 1 Yer ostidan qaynab chiqadigan suv manbayi...

2 Biror narsa mo‘l bo‘ladigan joy, biror narsaning koni...”

So‘z ma’nosi izohidan keyin bu ma’noni tasavvur qilishga yordam beradigan, muayyan manbadan olin-gan bir necha dalillovchi misol berilgan, misolda izohlangan tegishli so‘z ajratib ko‘rsatilgan. Masalan:

“BAHONA Biror ishni qilish yoki qilmaslik uchun yolg‘ondan o‘ylab topilgan sabab. *Har xil bahona axtaravermasdan, jangda o‘zingni ko‘rsatib qo‘y* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Izlamayman bahona, Chiqib qolsa biror ish* (Abdurahmon Akbar. Tamagir). *O’tloqda bedana ko‘p, Dangasada – bahona* (Maqol).”

Tarkibida izohlanayotgan so‘z qatnashgan birliklar (ibora, turg‘un birikma kabi) ham alohida izohlangan. Masalan:

“AQL 1 Odamning fikrlash qobiliyatি, idrok...

Aqli yetmoq To‘g‘ri tushuna bilmoq, bir narsaning mohiyatini to‘g‘ri anglay olmoq. *Aqlim yetdi – har holda, Men yaxshi ish qilmadim* (Habib Rahmat. Aqlim yetdi). *Ahmoq podsho gap nimada ekanligiga aql yetmay, noiloj orqasiga qaytibdi* (“Oqila qiz” ertagi). **Aql kirmoq** Aql bilan ish tutadigan bo‘lmoq. *Qizim Qimmatxonga ham aql kirib, bekor o’tirmaydigan bo‘ldi* (“G‘uncha”dan). **Aql o‘rgatmoq** Birovga kerakli-keraksiz maslahat bermoq, yo‘l-yo‘riq



ko'rsatavermoq. *Shunda aql o'r g a t i b Barchaga Baqa, Dedi:* "Tashkil etaylik, Vaq, musobaqa" (Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea)."

Ma'noni dalillash uchun keltirilgan misollar she'riy matndan olingan bo'lsa, she'riy misralar ketma-ket yozilgan, bunda har bir misraning boshlanishini ko'rsatish uchun undagi birinchi so'z bosh harf bilan yozilgan. Masalan, Anvar Obidjonning. "Juda qiziq voqea" she'ridan olingan:

Shunda aql o'rgatib
Barchaga Baqa,
Dedi: "Tashkil etaylik,
Vaq... musobaqa"

tarzidagi to'rt misra *Shunda aql o'rgatib Barchaga Baqa, Dedi:* "Tashkil etaylik, Vaq... musobaqa shaklida ketma-ket yozilgan va bunda "Barchaga", "Dedi" "Vaq" so'zlarining bosh harf bilan yozilishi misraning boshini ko'rsatadi.

Lug'atchani tuzishda quyidagi lug'atlardan foy-dalanilgan:

O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.

Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1980.

Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1974.

O'ZBEK ALIFBOSI

A a B b D d E e F f G g
H h I i J j K k L l M m
N n O o P p Q q R r S s
T t U u V v X x Y y Z z
O' o' G' g' Sh sh Ch ch Ng ng





ABJIR Tez harakat qila oladigan, har qanday ishni eplay biladigan. *Zidi: bo'shang, landavur, lapashang, noshud. Ma'nodoshi: epchil, chaqqon, uddaburon. Balki, mendan a b j i r dirsan, Balki, sendan kuchliman. Qulog'ingga bitta gapni Aytmoqlikka burchliman* (Abdurahmon Akbar. O'zbekcha shart). *Bo'ston ukam ko'p a b j i r, Askarlarga bosh bo'lsin* (H.Murodov. Bo'ston). *Bola epchil, a b j i r ekan. Birpasda ishga kirishib ketib, o'tinlarni yorib tashlabdi* ("Yarimtanon" ertagi).

AHD Biror ishni bajarish uchun qilingan qat'iy qaror. *Ona yurtni saqlamoq Botirlarning a h d idir* (Zafar Diyor. Ikkimiz ham a'lochi). *A h d imiz qat'iy. Javob bersangiz ham, javob bermasangiz ham, jangga ketamiz* ("Bir siqim tuproq" ertagi).

Ahd qilmoq Biror ishni bajarishga qat'iy qaror qilmoq. *U qilgan ishidan pushaymon bo'lib, ota-onasidan kechirim so'rashga a h d q i l i b d i* (T.G'oipov. Ertak). *A h d q i l g a n m a n, bilishmas, Ko'pdan vrach bo'lishga* (Z.Isomiddinov. Alixo'ja kim bo'l-sin?). *Qizaloq endi doimo "besh" bahoga o'qishga, yanada balandroq cho'qqilarga intilishga a h d q i l d i* (M.Tojimurodova. Bir kunda uchta "besh").

AHIL O‘zaro juda yaqin, do‘stona munosabatdagi. *Ma’nodoshi: inoq. Bir partada o’tirardi Ikki oshna darsida. Juda-juda a h i l ular Aka-uka tarzida* (Po‘lat Mo‘min. Ahil do‘stlar). *Hammamiz a h i l bo‘lib, Tayyorlaymiz darsslarni. Bilmasvoy yo‘q orada, Biz qo‘llaymiz do‘stlarni* (M.Oqmamatova. Ustozim). *Hali ham kech emasdир, A h i l bo‘lib birlashsak. Bosqinchi dushmanlarni Yerimizdan quvlasak* (H.Murodov. Bo‘ston).

AHMOQ Aql bilan ish tutmaydigan, bema’ni ishlar qiladigan. *Zidi: aqlli, oqil. Qovoqvoy (jahli chiqib): Dangasaman, bemazaman, Qovoqman. Kallam sira ishlamaydi – a h m o q m a n* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Hamma kitob o‘qiganligi uchun bu yerda birov-birovni “a h m o q”, “kallavaram”, “esi past” deb urishmaskan. Chunki hammaning esi ham, aqli ham yetarlicha baland ekan* (“G‘uncha”dan).

AJDOD Ilgari o‘tgan ota-bobolar. *Zidi: avlod. Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston, A j d o d lar mardona ruhi senga yor!* (A.Oripov. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi). *A j d o d lardan meros bo‘lib Qolgan tuproq. Bobolarning qon va teri Tomgan tuproq* (T.Adashboyev. Tuproq). *Bizga a j d o d Buxoriy, Naqshbandiy bobolar, Amir Temur, Ulug‘bek, Shoir Bobur Mirzolar* (D.Imomaliyeva. Saboq).

ALBATTA Hech ikkilansmasdan, shubhasiz. *Katta bo‘lgach, a l b a t t a, Qushlar uchishi kerak... Bolalarchi, a l b a t t a, A’lo o‘qishi kerak* (U.Abduaazimova. O‘rgatarlar). *Qovoqvoysa, a l b a t t a, Rahmat deymiz eng katta* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti).

A l b a t t a, ustozlarimni juda-juda hurmat qilaman
(M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni).

ALDAMOQ Yolg‘on gapirmoq, yolg‘on gaplar bilan laqillatmoq, chalg‘itmoq. *Yo‘q, yo‘q, kecha men sizni... a l d a g a n e d i m, yolg‘on so‘zlagandim* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Yomg‘irsharros quydi-yu, Bir zumda chiqdi quyosh. Tulki bolaladi deb, Ukasin aldar G‘iyos* (B.Ubaydullayev. Kim ayyor?). *Qancha shaldiramagin, Qancha valdiramagin, Bizni a l d a y o l m a y s a n, To‘q yong‘oq bo‘lmaysan* (Miraziz A’zam. Puch yong‘oq).

ALP Pahlavon, juda ham bahodir. *Bu a l p larning jasorati Bugun yurtni kezadi* (T.Adashboyev. Shuhrat ko‘rki). *Ana, turar boshliq «A», A l p dek kerib oyog‘in* (Anvar Obidjon. Harflar nimaga o‘xshaydi?).

ANIQLAMOQ Noma’lum narsani bilib olmoq. *Odil koptok kimnikiligini a n i q l a sh uchun qancha urinmasin, bilolmadi* (M.Murodov. Koptok). *Sovg‘adan qo‘shti mamlakat sultonining boshi osmonga yetibdi va saroy ahlini yig‘ib, qo‘g‘irchoqlarning biri ikkinchisidan nimasi bilan farq qilishini a n i q l a b b e r i n g l a r, deb buyuribdi* (“Uchta oltin qo‘g‘irchoq”ertagi).

ANOYI Har kimning gapiga ishonaveradigan, o‘z ishiga puxta emas. *Ma’nodoshi: sodda, go‘l. Yo‘q, Hoshimjon a n o y i bolalurdan emas. Uni osonlikcha qamab bo‘lmaydi!* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Tulkivoy, bu qarg‘alar a n o y i emas. Maqtaganing bilan nina ham bermas* (Yahyo Tog‘a. Tulkiga maslahat).

AQL 1 Odamning fikrlash qobiliyati, idrok. *Birdan cho‘chib uyg‘ondim, Bari tush ekan. Odamni odam*

qilgan A q l -u hush ekan (Miraziz A'zam. G'alati tush). *Chol qizining a q l i g a tasanno aytib, kechqurun o 'g illarini mehmonxonaga chaqiribdi* ("Ilm afzal" ertagi). *Sog 'tanda – sog 'lom a q l* (Maqol).

Aqli yetmoq To'g'ri tushuna bilmoq, bir narsaning mohiyatini to'g'ri anglay olmoq. *A q l i m y e t d i – har holda, Men yaxshi ish qilmadim* (Habib Rahmat. Aqlim yetdi). *Ahmoq podsho gap nimada ekanligiga a q l i y e t m a y, noiloj orqasiga qaytibdi* ("Oqila qiz" ertagi). **A q l k i r m o q** Aql bilan ish tutadigan bo'lmoq. *Qizim Qimmatxonga ham a q l k i r i b, bekor o 'tirmaydigan bo 'ldi* ("G'uncha"dan). *Aql o 'rgatmoq Birovga kerakli-keraksiz maslahat bermoq, yo 'l-yo 'riq ko 'rsatavermoq.* *Shunda a q l o 'r g a t i b Barchaga Baqa, Dedi:* "Tashkil etaylik Vaq... musobaqa" (Anvar Obidjon. Juda qiziq voqeа).

2 Yaxshi fikr, foydali maslahat. *Ko 'pdan ko 'p a q l chiqar* (Maqol).

ARAZLAMOQ Xafa bo'lib, achchiqlanib, gaplashmay, ko'rishmay qo'ymoq. *Yoki mendan xafamisan, ayt. A r a z l a g a n kabi So 'nggi payt – Chetlatyapsan mendan o 'zingni, Opqochasan mendan ko 'zingni?* (Anvar Obidjon. Odil Burgutshoh... haqida ertak). *Shunday kunda biz nega A r a z l a sh i b yuramiz? Seni kechirdim, sen ham Kechir meni, Miraziz* (Dilshod Rajab. Navro'z). *Ana shunaqa qilsang, Bo 'z bola sendan a r a z l a b, biror tomonga ketib qoladi* ("Bo 'z bola" ertagi).

ARDOQLAMOQ 1 Izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lmoq. *Gulla, yashna, Vatanim, A r d o q l a y-m a n men seni* ("G'uncha"dan). *To 'g 'rilarni hamisha*



*Ar do q l a y m i z, sevamiz. O'qni, to'g'ri bo'lsa ham,
Yoqtirmaymiz hecham biz* (Dilshod Rajab. O'q).

2 Avaylamoq, ehtiyot qilmoq. *Dahasida tutam-tutam Barg solaman, to'ysin deb, Ar do q l a y m a n erta kunda Ipagini qo'ysin deb* (Obid Rasul. Pilla – tilla).

ARZON Bahosi, narxi yuqori bo'limgan. *Zidi: qimmat. Bu qo'g'irchoqlar bir xil bo'lsa ham, ularning narxi har xil, biri a r z o n, ikkinchisi qimmat* (“Uchta oltin qo'g'irchoq” ertagi). *Uzum pishdi Marjon-marjon... Bozorlarda A r z o n - a r z o n* (Anvar Obidjon. Serobchilik). *Birdan sovuq tushgan choq, Kerak bo'ldi junpaypoq. Savdolashib bozordan Sotib oldim a r z o n r o q* (N.Omonova. Junpaypoq).

ASBOB Biror ish qilganda foydalaniladigan buyumlar, ish qurollari. *Charxlattirib bolta, pichoq, As b o b larni, Ishga soldi guzardagi Qassoblarni* (T.Adashboyev. Beshta...). *Ish boshlashdan avval, ishdan so'ng a s b o b larni artib tozalashim kerak ekan* (X.To'xtaboyev. Sariq devning o'limi).

ASKAR Harbiy xizmatdagi odam. *Harbiy xizmat faxrimiz, Bu mardlar maydonidir. Jasur a s k a r larimiz Ona yurt qalqonidir* (Dilshod Rajab. Yurtning metin qalqoni). *Qalpoq kiygan a s k a r ga O'xshaydi mix polvon ham* (Qudrat Hikmat. Mix). *Yovning o'qi hech qachon A s k a r idan o'tmaydi* (Hamid Olimjon. Vatan).

ASR Yuz yil, yuz yillik davr o'ichovi. *Mana, a s r lar bo'yi xalqimiz Navro'zni an'anaviy nishonlab keladi* (“G'uncha”dan). *Kitob hayotimizning bo'sh joylarini to'ldiradi. Biz, a s r imiz farzandlari o'z ichki olamimiz go'zalligini uningsiz tasavvur qila olmaymiz* (“G'uncha”dan).

ASRAMOQ Buzmay, sindirmay, yo‘q bo‘lishga yo‘l qo‘ymay, ehtiyot qilib saqlamoq. *Nafsingni tiymay, tishlaringni a s r a m a g a n s a n. Hatto vaqtida yuvmagansan ham* (Olim Mahkam. Nega og‘ridi?). *Darslik kitob qo‘lingda, Berilgandir u senga. Yirtmay, ko‘zday a s r a s a n g, Kerak ukang Erkinga* (Obid Rasul. Kitob). *Havodagi zararli tutunlardan tanangizni a s r a sh uchun badantarbiya bilan muntazam shug‘ullanib, o‘zingizni chiniqtiring!* (“G‘uncha”dan).

ASTOYDIL Rostakamiga, chin ko‘ngildan berilib. *A s t o y d i l o‘qib, odam bo‘lish payidan bo‘lgin* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Maqtovlarga yarasha Botir bo‘libsan, qoyil. Kurashibsan a s t o y -d i l* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Ishlashga masalani A s t o y d i l kirishaman* (Z.Ismiddinov. Yechim).

AVVAL 1 Hammasidan oldin, birinchi galda. *Avval Chigirtka yugurib-sakrab o‘tadi-da, sheriklarini imlaydi* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Qilar ishingni a v v a l O‘ylab olgin mukammal* (Po‘lat Mo‘min. Hikmatli so‘z).

2 O‘tgan vaqtarda, hozirgacha. *Zidi: endi, hozir. Ma’nodoshi: ilgari, burun.* *A v v a l go‘dak edim, shuning uchun tuzsiz yesam ham, bilmagan edim. Endi katta bo‘lib qoldim-da* (“Huriy” ertagi).

3 Oldingi vaqtida. *Zidi: keyin, so‘ngra. Ma’nodoshi: oldin.* *A v v a l o‘yla, keyin so‘yla* (Maqol). *Kuchuk a v v a l cho‘chigandek orqasiga tisarildi-da, keyin nonga yaqinlashib hidlab ko‘rdi-yu, yemasdan menga tikilib qoldi* (X.To‘xtaboyev. Erkinlik). *Bo‘ri*



esa xush ko 'rmas Hazil, kulgini. A v v a l yedi Xo 'rozni, So 'ngra – Tulkini (Anvar Obidjon. Xabar sotuvchi). *Juda ravshan ko 'raman Kelajakni, dunyoni. Asli insondan a v v a l Kashf etganman metroni* (Dilshod Rajab. Ko 'rsichqonning malomati).

AVLOD 1 Bir ota-bobodan tarqalgan bolalar. *Zidi: ajdod. Ma'nodoshi: nasl. Aytib turadir So 'z-u ko 'zimiz. Temur a v l o d i Bizning o 'zimiz* (Po'lat Mo'min. Dovyuraklar). *Sher va arslonlar a v l o d idan ekan, sher va arslonlar bo 'yniga zanjir bog 'latmaydi. Mag'rur bo 'lishadi* (X.To'xtaboyev. Erkinlik). *Bu oddiy tariq emas, Qoravoy. Umenga ota-bobolarimdan qolgan. Uni a v l o d larimga ham yetkazishim kerak* (A.Qudratova. Oltin tariq).

2 Ma'lum bir davrda yashagan odamlar. *Bag 'ri keng o 'zbekning o 'chmas iymoni, Erkin, yosh a v l o d l a r senga zo 'r qanot!* (A.Oripov. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi).

AXLOQ Yurish-turish, o'zini tutish, muomala odobi. *Biroq, menimcha, asosiy gap bunda emas. Muhimi yaxshi a x l o q ni boshqalarga ko 'rsatib qo 'yib, shunaqalar ko 'payib borayotganidan quvonib o 'tirishda* (Anvar Obidjon. Kezargon Boychechak). *A x l o q i o 'xshamas butunga, O 'pkasin to 'ldirar tutunga* (Po'lat Mo'min. Sog'lig'in yondirar). *Mallamosh bosh chayqadi: – Nimasini aytasiz, hozirgi yoshlarning achchig 'i burnining uchida turadi, biri biridan qaysar. Odob qani? A x l o q qani?* (Anvar Obidjon. Kezargon Boychechak).

AYAMOQ 1 Rahm-shafqat bilan munosabatda bo'lmoq. *Turli zararkunanda Hasharotni ko 'rganda,*

A y a m a s d a n tez, shartta Qirib tashlar, albatta (Qudrat Hikmat. Uch o'rtoqning sovg'asi). Tosh aka va Xol tog'a Urishtirdi itlarin. Itlar tishlar a y a m a y, Bir-birlarin etlarin (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi).

2 Ehtiyyot qilmoq, ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'lmoq. *Gulni o'stirgan misol Bizni a y a y s i z. Bizning baxtimiz uchun Ishlab, yashaysiz (Po'lat Mo'min. Siz bizni deysiz, biz sizni deymiz).*

3 Hayf deb bilmoq, qizg'anmoq. *Saxiy o'z odatiga ko'ra pulni a y a m a b d i, kambag'allarga yordam berib, ularni xursand qilibdi ("Saxiy bilan baxil" ertagi). Bizlar uchun ayamaydi Ular hatto nonini. A y a m a y d i, a y a m a g a n Hattoki o'z jonini (Po'lat Mo'min. Ota-onal qalbi, ota-onal qadri).*

AYB 1 Odob-axloq me'yorlariga zid xattiharakat. *Ma'nodoshi: gunoh. O'sha kezlar aqlim ekan xom, Keksalarga bermasdan salom, O'tar edim doim gerdayib. Eh, bu holat juda ham a y b (Po'lat Mo'min. Uzr so'rayman). A y b o'zida bo'la turib, jahli chiqqan odamga nimayam deyish mumkin, axir. Dars o'tayotgan ustozning aytganlarini tinch o'tirib tinglash kerak-ku (M.Tojimurodova. Badjahl).*

2 Mavjud rasmiy qonun-qoidalarga zid xattiharakat. *Akamning hech qanday a y b i yo'q deb, otning boshidek keladigan ikkita oltindan akalariga ham bo'lishib berishibdi-da, keyin o'z shaharlariga qaytib, maqsadlariga yetishibdilar ("Aqli, idrokli, zehnli" ertagi). Qora papoqli askarlar: «Bizda nima a y b? Tartibga ko'ra, lashkarboshining orqasidan ketyapmiz», – deb javob qilishdi (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).*



3 Odam uyaladigan xatti-harakat. *Ma'nodoshi: uyat. So'raganning a y b i yo'q* (Maqol).

4 Odatiy holatga mos kelmaydigan belgi-holat. *Ma'nodoshi: kamchilik, nuqson. Bir a y b i bor: betoqat, Juda-juda shoshqaloq* (Habib Rahmat. Shoshqaloq). *Shunchalik a y b im ko'pmi? O'zidachi, a y b yo'qmi? Bo'lди, undan xafaman, Boshqa o'rtoq topaman* (H.Imonberdiyev. Bir so'z). *Kimki a y b in yashirib, O'z bahosin oshirib, Ko'pirtirsa toshirib, Kulgi bo'lar hammaga* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

AYBLAMOQ Aybi bor deb hisoblamоq. *Qibla mahallaning bolalari birlashib, Egamberdini g'irromlikda a y b l a sh a b o sh l a sh d i* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Mir Alisher yigitni bu gal ham ozod qildi. Oradan o'n kun o'tdi. Nosirni bezorilikda a y b l a sh i b, yana Alisherning qoshiga keltirishdi* (“Ziyrak yigit” hikoyati).

AYNIQSA O'zidan keyin kelgan so'z ifodalagan odam, narsa, belgi yoki harakat-holatni alohida ajratib ko'rsatadigan so'z. *U, a y n i q s a, nonni juda sog 'inib ketgandi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *A y n i q s a, yolg'onni hamma yomon ko'radi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Kechki sayr, a y n i q s a, Alomatga yoqadi* (M.Hamidova. Uch og'a-ini).

AYYOR Turli hiyla bilan aldab, laqillatib keta oladigan. *A y y o r tulki o'z tumshug'idan qopqonga ilinib, ko'p azob chekib o'libdi* (“Hiylagar bedana” ertagi). *Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir a y y o r bilan sodda bo'lgan ekan* (“Ayyor bilan

sodda” ertagi). *Vazirning qizi juda a y y o r ekan* (“Hasan va Zuhra” ertagi).

AZAMAT 1 Juda katta, bahaybat. *Qachonlardir kesilib, vaqtida tashib ketilmagan a z a m a t daraxtlar bu yerda uyum-uyum bo'lib yotardi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

2 Juda ham kuchli, bahodir. *Shu vohada yashovchi bir qariyaning uch a z a m a t o'g'li bor ekan* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Barakalla, ofarin! Lekin a z a m a t yigit ekansiz! Siz bilan har qanday ishni bajarsa bo'larkan* (X.To'xtaboyev. Sariq devning o'limi).

AZIZ 1 Yashash uchun eng zaruriy, tengi yo'q. *Barcha gap shu a z i z nondan. Bunga mehrimiz kuchi, dehqonlar, novvoylar mehnati singgan* (T.G'oipov. O'qilon va non). *Oyijonim, dadajonim, jondan a z i z singillarim bilan maza qilib dam oldim* (X.To'xtaboyev. Sariq devning o'limi).

2 Izzat-hurmatga loyiq, qadri. *Ota-onada juda a z i z, Quyoshga teng bahosi* (Po'lat Mo'min. Ota-onada qalbi, ota-onada qadri). *A z i z mehmon kelganday Kel, deya tabriklaymiz* (Po'lat Mo'min. Intilamiz quyoshga).

3 O'ziga yaqin olish munosabatini bildiradi. *A z i z bolajonlar, ruxsat bersangiz, qissamni shu yerda tugatsam* (M.Hamidova. Uch og'a-ini).

AZOB Tananing biron joyidagi og'riq yoki jonning qiynalishi. *Zidi: rohat. A z o b lardan qushchaning Ko'zlarida yosh qotdi* (H.Imonberdiyev. Turnalar). *Bu yugurishlar endi menga avvalgiday a z o b emas, balki rohat bo'lib tuyulardi* (M.Hamidova. G'oliblik “siri”).



Azob bermoq Qiynoqqa solmoq, qiynameq. *U qushlarga a z o b b e r a r, polaponlarini oyog 'iga ip boylab uchirar, inlaridagi donlarni to 'kib tashlar ekan* (M.Hamidova. Berahm Rahim). *Nortuyaning oyog 'iga Ketganida mix kirib: – Voy-voy, og 'riq a z o b b e r a r, – Dedi sho 'rlik bo 'kirib* (Qambar Ota. Birovning dardi).

ACHCHIQ 1 Qalampir (garmdori)ning ta'mi, tilni achitib yuboradigan. *Zidi: shirin. Achchiq san-ku, Bilishar. Nega seni Ekishar?* (Anvar Obidjon. Qalampirga yozilgan she'r) *Yo 'q – yo 'q, dori ichmayman. Dori a ch ch i q* (U.Abduazimova. Buvimning hamma gapi to'g'ri). *Shundan keyin Anvar podsho: "Dunyoda hamma narsadan nima a ch ch i q?" – deb so 'rabdi. "Qalampir", – debdi donishmandlardan biri ("Dono Zulayho" ertagi).*

2 Dovuchcha (g'o'ra)ning ta'mi, nordon. *Achchiq olma. Achchiq anor.*

3 Qattiq ta'sir qiladigan, achitadigan. *Tamakining a ch ch i q tutunidan Botirning ko 'zi achishib, to mog'i bo 'g 'ildi* ("G'uncha"dan).

4 Jazillatib jonni og'ritadigan. *Yurmas achchiq izg 'irin, Dalalarda izillab. Kelar yoqimtoy, shirin Shabadalar g 'izillab* (Dilshod Rajab. Hademay). *O'tib ketdi badqovoq Qishning achchiq ayozi, Tabiat kiymoqda shod Bayramona libosin* (Dilshod Rajab. Varraklar quvonchi).

5 Ko'ngilga qattiq tegadigan, xafa qiladigan. *Kechir, Gapirdim ochiq, Haqiqat bo 'lar a ch ch i q* (Anvar Obidjon. Qalampirning Shavlaga yozgan xati).

6. Alamli, xafalikka to‘la. *Mana shu bir og‘iz so‘z... Gulzorning a ch ch i q ko‘z yoshlariga sabab bo‘lgan edi* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni).

Achchig‘i burnining uchida (yoki ustida) Bekordan bekorga, sal narsaga jahli chiqaveradigan. *Mallamosh bosh chayqadi: – Nimasini aytasiz, hozirgi yoshlarning a ch ch i g‘i b u r n i n i ng u ch i d a turadi, biri biridan qaysar* (Anvar Obidjon. Kezargon boychechak). **Achchig‘i kelmoq** (yoki chiqmoq) Jahli qo‘zg‘amoq, qattiq xafa bo‘lmoq. *Kampirning a ch ch i-g‘i kelib, Tohirni qarg‘abdi* (“Tohir va Zuhra” ertagi). *Bu ahvolni ko‘rgan shamolning achchig‘i kelib, yomg‘irni yuboribdi* (“Do‘stlik sinovda chiniqar” ertagi). *A ch ch i g‘i ch i q i b, poxol savatni shartta olib yerga uribdi va orqasiga qaramay ketaveribdi* (“Parishonxotir” ertagi). *Bu gapdan a ch ch i g‘i ch i q-i q a n Rustam o‘zini suvga otdi-da, bir to‘xtamasdan uzoq-uzoqlarga suzib ketdi* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni). **Achchiq qilmoq** Birovga jahl qilmoq, birovga g‘azabini bildirmoq. *Aybini aytsam ochiq, U menga q i l a r a ch ch i q* (Rauf Tolib. Jim turay qandoq?).

A’LO 1 Eng yaxshi, har jihatdan yuqori, oliv. *A ’lo o‘qishdir burchim, Sarf etaman bor kuchim, Ishlayman xalqim uchun, Qadrdonim maktabim!* (Ilyos Muslim. Maktabim) *Ustoz top, eng avvalo, Ishlaring bo‘lar a ’lo* (Po‘lat Mo‘min. Shoirlarga yigirma qoida). *Qo‘li bog‘liq yashushdan O‘lim a ’lo d i r. Bosqinchi yov o‘limga Mahkum balodir* (Shuhrat. To‘maris).

2 O‘quvchining bilimiga qo‘yiladigan eng yuqori baho. *O‘qishlarda ilg‘ormiz, Faqat “a ’lo” – baholar,*



“Sog ‘tanda – sog ‘lom aql”, – Deyishgan-ku bobolar
(Dilshod Rajab. “Tez yordam”chi sinf).

A’ZO 1 Odam yoki hayvon tanasining muayyan bir qismi. *Zarurdir barcha a’z o Sog ‘-salomat yashashga* (“G‘uncha”dan).

2 Biror butunlik tarkibida yashovchi, unga tegishli odam. *Biz oila a ’z o larimiz bilan har oy oxirida dalabog ‘imizga beda o’rishga borar edik* (“G‘uncha”dan).

3 Biror rasmiy tashkilot yoki guruh tarkibiga kiruvchi odam. *“Kamalak”ka yangi a ’z o larni qabul qilish tadbirlari viloyatlarning barcha mакtablarida katta bayramga aylandi* (“G‘uncha”dan). Komissiya a ’z o lari to ‘plangan xonaga Egamberdi bilan Karimberdi tortinibroq, Eshon aya bo ‘lsa istamaygina kirib bordilar (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati).

A’zoyi badan Tananing barcha a’zolari. *Shu payt nogoh elektr simini ushlab olganday a ’z o y i b a d a n i jimirlab, tizzalari bo ‘shashib ketdi: to ‘pda bitta bola yo ‘q edi* (“G‘uncha”dan). *Ho ‘kiz ularni suzaverib, a ’z o y i b a d a n i ni yara qilib tashlabdi* (“Susambil” ertagi). *Chaqaloqqa chillasida kasal tegdi-yu, a ’z o y i b a d a n i yara bo ‘lib ketdi* (“Sirli gilamcha” ertagi).



BAHAYBAT Juda ham katta, haybatli. *Bir kuni uzoqdan b a h a y b a t tosh qasr ko'rindi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Ikki oyoqlab yuruvchi kuchukchalar deysizmi, raqsga tushuvchi mushukchalar, b a h a y b a t arslonlar, eh-he-e, sanab sanog'iga yetolmaysiz* ("G'uncha"dan). *Birpasdan keyin tashqariga chiqsa, b a h a y b a t dev turgan emish* ("Yarimta non" ertagi).

BAHODIR Juda ham kuchli, hech narsadan qo'rqmaydigan. *Oralaringda dahshatli Meshpolvon degan b a h o d i r bor ekan* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Undan olmang xavotir, O'g'lingiz – chin b a h o d i r* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Uhar ishni uddalaydigan tadbirli, b a h o d i r yigit bo'lib yetishibdi* ("Hasan va Zuhra" ertagi).

BAHONA Biror ishni qilish yoki qilmaslik uchun yolg'ondan o'ylab topilgan sabab. *Har xil bahona axtaravermasdan, jangda o'zingni ko'rsatib qo'y* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Izlamayman b a h o n a, Chiqib qolsa biror ish* (Abdurahmon Akbar. Tamagir). *O'tloqda bedana ko'p, Dangasada – b a h o n a* (Maqol).

Bahona qilmoq Biror ishni qilish yoki qilmaslik uchun yolg'ondan sabab o'ylab topmoq. *Yostiq qattiq*

ekan, botyapti, – dedi Gulnora b a h o n a q i l i b (M.Murodov. Endi quvmaydi). *Bahona qilmang, aka, O'yinni bilmayman deb* (Abdurahmon Akbar. Nog'ora qo'shilg'i). *Bola tobim qochib qoldi deb, b a h o n a q i l i b d i* ("Yarimta non" ertagi).

BAJARMOQ Biror ish, vazifa yoki topshiriqni amalga oshirmoq. *Sizga qanday qaytarsam ekan, men ishdan qochmayman, ishlaringizni jon-dilim bilan bajaraman* ("Zumrad va Qimmat" ertagi). *Oyimning kayfiyati yaxshi bo'lsin deb, aytganlarini o'zim bajarib qo'yaman* ("G'uncha"dan). *Va'da berdingmi – bajar! Bajarmas an g-chi agar, Seni derlar betayin* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti).

BAMAYLIXOTIR Hech bir shoshilmasdan. *Ma'nodoshi: xotirjam, bemalol. Qiz ham dutorda mashqini qilib, b a m a y l i x o t i r o'tira beribdi* ("Uch avliyo" ertagi). *Rahim akaning issiq qo'ynida kelgan toshbaqaga ancha jon kirib qolgan, shekilli, yerga oyog'i tegishi bilan kosasi tagidan boshini chiqarib, atrofga olazarak qarab chiqdi. Keyin b a m a y l i x o t i r yuqoriga o'rmaladi* (M.Hamidova. Uch og'a-ini).

BARDAM Kuch-quvvati yomon emas, jismoniyruhiy ahvoli joyida. *Ma'nodoshi: tetik. Ikki yuzim anorday, Ko'ngil kular bahorday. Endi men sog'lom, b a r d a m, Gurs-gurs bosaman qadam* (Rauf Tolib. Tabib tosh). *Yuray desang sog', b a r d a m, Yugur, mashq qil, Mirhamdam* (Abdurahmon Akbar. Quvnoq alifbe).

BARDOSH Qiyingchiliklarga chidamlilik, sabr-toqat, har qanday ta'sirga dosh berish quvvati. *Bersin*

senga bobolaring B a r d o sh ini, sabrini. Ziyorat qilib turgin, O'g'lim, otang qabrini (T.Adashboev. Onamning so'nggi iltimoslari). *Issiqqa zo'r bardoshing, Tegirmonlar qondoshing, Tandirjon* (Anvar Obidjon. Tandir haqida qo'shiq). *Qandaydir juda katta chidam, b a r d o sh, hatto mardlik talab qiladigan ishlarga ham qodirdek sezardim o'zimni* (Sh.Xolmirzayev. Chillak o'yin).

Bardosh bermoq Qiyinchiliklarga, har qanday ta'sirga chidamoq, sabr-toqat qilmoq. *Hammasiga b e-ri b b a r d o sh, Og'rig 'ini bilmasdi* (Habib Rahmat. Yo'lida). *Shunda ajdarho olov purkaydi. Qo'rqmay, olovga b a r d o sh b e r a o l s a n g, sening yutganining* (“Kunni qarg‘ab bo‘lmaydi” ertagi).

BARDOSHLI Qiyinchiliklarga, har qanday ta'sirga chidamli. – *Kasallik qo'rqrar kimdan?.. – Qo'rqadi u yoshlikdan, Chidamli – b a r d o sh l i dan, Mehnatda chiniqqandan, O'ziga kuch yig'gandan* (Po‘lat Mo‘min. Kasallik qo'rqrar kimdan?).

BARKAMOL Hech bir kamchiligi yo‘q, har jihatdan mukammal, kamolotga erishgan. *Vatan derki, ilm ol, Bo'l aqli, b a r k a m o l. Ming-ming ziyo maskani Biz uchun doim tayyor* (Dilshod Rajab. Bosh Qomus kitobimiz). *Biz, b a r k a m o l avlodlar Senga tayanch, madadkor. Jannatmakon zaminda Tinchlik bo'lsin barqaror* (I.Sultonov. Vatan).

BARVAQT Odatdagi vaqtadan ilgari. *Bir Tuyaqush kelib b a r v a q t, joy olibdi oldinroqdan* (Anvar Obidjon. Parranda sayli). *Tong uyquni shart bo'lib, Juda b a r v a q t turaman* (“G‘uncha”dan). *Unda, ota, men ertaga dalaga b a r v a q t roq ketmoqchiman. Mengayangi omoch bilan*

yana bitta ho 'kizni ertalabgacha tayyorlab qo 'ysangiz, – debdi bola (“Tadbirli bola” ertagi).

BAXIL 1 Birovga biror narsa berishni xohlamaydigan, sarf-xarajat qilishni yoqtirmaydigan. *Zidi: saxiy. Ma'nodoshi: xasis, ziqna.* *B a x i l suv solgan meshining og'zini hech ochmabdi, oziq-ovqat solgan xaltasini yechmabdi* (“Saxiy bilan baxil” ertagi). *Kajdum, tojdar bu dakang Bo'lmasa buncha b a x i l, Yegan bilan semirib, Botmon bo'lmaymiz, axir* (Dilshod Rajab. Chumchuqning shikoyati).

2 Birovning muvaffaqiyatidan xafa bo'ladigan, birovga yaxshilik istamaydigan, birovni ko'ra olmaydigan. *Baxi l ning bog'i ko'karmas* (Maqol). *Sinchalak bilan Chittak Yashardi inoq, ahil, Tashvishga qo'ydi qittak Ularni chumchuq b a x i l* (T.Adashboyev. Chaqimchining jazosi). *Hammaga Badjahsan, Hammamizga B a x i l san. Hammamizdan No'noqsan, Hammamizdan Uzoqsan* (Anvar Obidjon. Odamovi).

BAXT Odamning o‘z hayoti, ishi, o‘qishi, harakatlaridan to‘la qoniqishi, xursandligi, mammunligi holati. *Ma'nodoshi: saodat. Yastanishib qirlarda B a x t haqida kuylaymiz* (Zafar Diyor. Qaldirg‘och). *Hunar sizni yetaklagay b a x t ga tomon, Qani, bo'ling, g'ayrat qiling, siz, bolajon!* (“G'uncha”dan). *Serquyosh, hur o'l kam, elga b a x t, najot, Sen o'zing do'stlarga yo'l dosh, mehribon!* (A.Oripov. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi.)

BAXTIYOR Baxtga ega, baxti bor, baxtli. *Dunyoda eng b a x t i y o r, Hammadan ko'p baxti bor – Sen o'zingsan, bilib ol, Ulg'ay va o's bemalol* (Po‘lat Mo‘min. Quyosh bilan suhbat). *Biz dunyoda*

eng quvnoq, Eng b a x t i y o r bolamiz. Tezroq yangra, qo'ng'iroq, Biz mакtabga boramiz (A.Ko'chimov. Tezroq yangra, qo'ng'iroq). *Shodligim ko'kka sig'mas, Bitmas baxtim bor manim. Meni b a x t i y o r qilgan, Shu yengilmas Vatanim* (Hamid Olimjon. Vatan).

BAYRAM 1 Muhim tarixiy va madaniy-ma'naviy voqealarga bag'ishlab uyuştiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni. *Minbarga taklif etilgan Prezident bobomiz xalqimizni istiqlol b a y r a m i bilan qutladi* ("G'uncha"dan). *B a y r a m kuni onamga Sovg'a qildim men atir* (S.Sa'dullayeva. Sovg'a).

2 Biron-bir munosabat bilan tantanali tarzda o'tkaziladigan yig'in. *Alifbe b a y r a m i. She'riyat b a y r a m i. San'at b a y r a m i.*

BEBAHO Hech bir baholab bo'lmaydigan, bahosi yo'q, juda ham qimmat. *Yig'dik, ana, sof mehnatim Natijasi to 'q pilla. Shoyi-atlas kiyar yurtim, Be b a h o ipak – tilla* (Obid Rasul. Pilla – tilla). *Dema, yigit boyligi Faqat mol-u dunyodir. Or-nomusi, sog'ligi Sotilmas – b e b a h o dir* (Dilshod Rajab. Eng buyuk boylik).

BEHUDA Hech qanday foydasi yo'q, amalga oshmaydigan. *Attang, yana bir kunim, B e h u d a o 'tdi. Daqiqalar soatning, Etagin tutdi* (Y.Xo'jayev. Azim – keyin). *Qo'y, birodar, mening ishim ko 'p. Sen bilan b e h u d a so'zlarni so'zlashib turishga vaqtim yo'q* ("G'uncha"dan).

BEKAT Avtobus yoki yo'lovchi tashiydigan boshqa transport vositalarining maxsus to'xtab o'tish joyi. *Botir b e k a t da avtobus kutib o'tirgan edi* ("G'uncha"dan). *Elmira Zufarovna so'ng avtobuslar*

to 'xtab o 'tadigan b e k a t tomon yurdi (“G‘uncha”dan). *Fikrlarning b e k a t iman – Nuqtadirman, Har darak gap oxirida to 'xtaydirman* (Sulton Jo‘ra. Tinish belgilarining majlisi).

BEMOR Tanasidagi biror a’zo odatdagiday ishlamaydigan, kasallikka chalingan. *Zidi: sog‘, sog‘lom. Ma’nodoshi: betob, kasal, xasta. B e m o r tuzalgisi kelsa, tabib o ‘z oyog ‘i bilan kelar* (Maqol). *Mahallalarni halim, sumalak isi tutadi. Pishganida esa tarqatish birinchi bo ‘lib b e m o r lardan, yoshi ulug ‘lar va qo ‘shnilardan boshlanadi* (“G‘uncha”dan). *Keyin shu daqiqadan boshlab, b e m o r qizining sog‘ayib ketishiga ishona boshladi* (H.K.Andersen. Bir qo‘zodidan chiqqan besh no‘xat).

BEOZOR Ozor bermaydigan, qiynamaydigan, muloyim. *Egamberdi har narsaga qiziquivchan bola, uy ishlariga qarashadi, mol-ko ‘ylarini ham boqadi, Karimberdi bo ‘lsa yumshoqqina, b e o z o r gina bola* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Qizaloq sabzilarni yerga to ‘kkach, quyonlarni b e o z o r gina qilib yana silay boshladi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Ahmoq, – deyishdi uch og ‘a-inilar, – kuching shu b e o z o r mushukchaga yetdimi?* (M.Hamidova. Uch og‘a-ini).

BEPARVO Hech narsaga e’tibor bermaydigan, diqqat bilan qaramaydigan, hech narsa bilan ishi yo‘q. *Botir esa b e p a r v o Qiqirlab kular shu choq. Botirning tili yo‘q-da, Botir hali chaqaloq* (Habib Rahmat. So‘zlari ochdi-qo‘ydi). *Rustamjon bu gal ham odatdagiday kechki payt gulxayrini suv bilan siylayotgandi, gulkosachada b e p a r v o gina*

sharbat emayotgan Tillaqo 'ng 'izchani ko 'rib qoldi (M.Hamidova. Uch og'a-ini). *Nahotki, biz shunchalik b e p a r v o bo 'lsak? O'z sodiq do 'stlarimizni unutib yuboribmiz-ku!* (M.Hamidova. Berahm Rahim).

BEPOYON Cheki-chegarasi yo‘q, cheksiz, juda ham keng. *Yeri ekan b e p o y o n, Lekin ko 'ngli tor ekan* (Po‘lat Mo‘min. Oltin tosh). *Ko 'kdek b e p o y o n, Boyliklarga kon, Keng paxta maydon Mening Vatanim* (Qudrat Hikmat. Mening Vatanim). *B e p o y o n yaylov, Ketardim yayov. O'tlar xilma-xil, Hammayoq yashil* (Po‘lat Mo‘min. Yaylov rohati).

BETOB Biror kasallik bilan og‘rigan, tobi qochgan. *Zidi: sog‘, sog‘lom. Ma'nodoshi: bemor, kasal, xasta.* *Kunlardan bir kuni mo 'ysafid ota b e t o b bo 'lib yotib qolibdi* (“Aqli, idrokli, zehnli” ertagi). *Oftob hissasi Ko 'pdir, qisqasi. Uchrasa b e t o b, Davolar oftob* (Po‘lat Mo‘min. Tabib).

BEZAMOQ 1 Turli narsalar yordamida chiroyli qilmoq, ko‘zni quvontiradigan holatga keltirmoq. *Novdalarni b e z a b, g 'unchalar Tongda aytdi hayot otini* (Hamid Olimjon. O‘rik gullaganda). *Bog 'larimda, Tog 'larimda Kezar bahor. Dalalarim Yashil rang-la B e z a r bahor* (Po‘lat Mo‘min. Bahor sabog‘i). *Gulnora bayram dasturxonini b e z a sh uchun astoydil tayyorgarlik ko 'rdi* (“G‘uncha”dan).

2 Obro‘-e’tiborli qilmoq, izzatini oshirmoq. *Qarilikni donolik b e z a y d i, yoshlikni – kamtarlik* (Maqol).

BEG‘UBOR Hech bir g‘ubori, kirligi yo‘q. *Ma'nodoshi: musaffo, toza. Keng osmon yaqin, Havo sal salqin, B e g ' u b o r, toza. Rohat-u maza* (Po‘lat



Mo‘min. Yaylov rohati). *Osmonimiz b e g‘ u b o r, Posbonlar doim hushyor* (K.Turdiyeva. Xotirjam ona Vatan). *Osmoni keng, b e g‘ u b o r, Shifobaxshdir havosi* (Zafar Diyor. Serquyosh o‘lka).

BILAG‘ON Ko‘p narsani biladigan, ko‘p narsadan xabardor. Zidi: **bilmasvoy**. *Birinchilar – b i l a g‘ o n, Fikri bo‘lar ilag‘on. Doim hushyor yurishar, Ko‘p ishga ulgurishar* (Po‘lat Mo‘min. Birinchilik tilayman). *Ustozim meni doim, Bilag‘onim deydilar. She’rlarimni o‘qisam, Erkalab, suyadilar* (M.Oqmamatova. Ustozim). *B i l a g‘ o n deb atashar Do‘stlaring seni, Suyun, Top-chi, qanday kun o‘zi, Deylik, birinchi iyun?* (Abdurahmon Akbar. Birinchi iyun).

BISYOR Juda ham ko‘p, miqdorining chegarasi yo‘q. Zidi: **oz, kam**. *Ma’nodoshi: ko‘p, mo‘l. Garchi qurol-yarog‘ b i s y o r, lek qushga ham bermay ozor, sarhadlarda ogoh, shaymiz, el tinchligin asragaymiz* (Dilshod Rajab. Askar aytar). *Biz hushyormiz, b i s y o r m i z, Sizga gard ham tegmagay. Oramizdan yov tugul, Hatto qil ham o‘tmagay* (Dilshod Rajab. Chegarachilar).

BIYRON Gappa chechan, burro-burro gapiradigan. *Tili b i y r o n bolakaylor! Shirin-shakar qizaloqlar! Sizlar judayam omadlisiz* (A.Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Ey so‘zları b i y r o n im, Chopqillaganjiyronim. Erkatoyim, polvonim, Bolajon, Bolajonim* (Po‘lat Mo‘min. Bolajon, bolajonim). *Jajji jurnal “G‘uncha”jon, Tiling b i y r o n muncha ham. Seni olganda har bor, Quvnab o‘qiyman takror* (Fayzi Shohismoil. Marjonaning she’ri).

BOQIY Hech qachon tugamaydigan, doimiy davom etadigan. *Ma'nodoshi: abadiy, mangu, o'limas. Ne baxt, besh yuz yildan beri B o q i y dir bir bobom she'ri* (Muhammad Yusuf. Menga bering). *Zamona ardog'ida B o q i y yashang, sog' bo'ling. Hur Vatan gulbog'ida Doim vaqt chog' bo'ling* (O.Po'latov. Boqiy yashang).

BOSQINCHI O'zga elni, birovning yurtini bosib oluvchi. *O'n kecha-yu o'n kunduz Davom etdi qirg'in, jang. B o s q i n ch i lar to'dasin Holi oxir bo'ldi tang* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). *Ichsam sening qoningni, Bolam uchun qasos bu! Jazo tortsa b o s q i n ch i, Olam uchun qasos bu!* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon).

BOTIR Xavf-xatardan, har qanday qiyinchilikdan qo'rqlmaydigan. *Zidi: qo'rqoq. Ma'nodoshi: qo'rqlmas, jasur, dovyurak. B o t i r aslo qo'rqlmaydi, Go'yoki o'q o'tmaydi* (Zafar Diyor. Qahramon). *Pichoq shamshirman desa, To'mtoq o'tkirman desa, Qo'rqoq b o t i r man desa, Kulgi bo'lar hammaga* (A.Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Yuritimizchi, azaldan B o t i r larga kon bo'lgan* (H.Murodov. Bo'ston).

BULOQ 1 Yer ostidan qaynab chiqadigan suv manbayi. *Ma'nodoshi: chashma. B u l o q suvlari suv o'tlarini goh ko'tarib, goh tushirib o'ynaydi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Ichga sig'may sevinchi, Qaynab toshar b u l o q lar, O'zaniga sig'masdan, Toshar soy-uirmoqlar* (Dilshod Rajab. Varraklar quvonchi).

2 Biror narsa mo'l bo'ladigan joy, biror narsanining koni. *Onaning qalbi – mehr bulog'i* (Maqol).



BURRO Juda ham aniq, tushunarli va ta'sirli. *Men o'rta ga chiqib, yodlagan she'rlarimni b u r-r o qilib, yoddan ayta boshladim* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni). *She'rlar yozar go'zal chunon, o'qib berar burro, ravon* ("G'uncha"dan). *Nodiraxon yaqinda besh yoshga to'ladi. Tili b u r r o, zehni o'tkir* ("G'uncha"dan).

BURCH Bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa, xatti-harakat. *A'lo o'qishdir b u r ch im, Sarf etaman bor kuchim, Ishlayman xalqim uchun, Qadrdonim maktabim!* (Illyos Muslim. Maktabim). *Keksalarni qadrlab, Doim hurmat qilamiz. Ko'rsak, salom berishni Bur ch imiz deb bilamiz* (Yahyo Tog'a. Keksalarni qadrlang). *Toki tirik, hayotsan, Bitta daraxt ekib qo'y.* *Ona yurtga farzandlik Bur ch ing ado etib qo'y* (H.Murodov. Bo'ston).

BUYRUQ 1 Biror ish, xatti-harakatni bajarish haqidagi yozma rasmiy hujjat. *Karimberdini ham bezori sifatida maktabdan haydash haqida b u y r u q chiqarib qo'ygan* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

2 Biror ish, xatti-harakatni bajarishga qat'iy undash. *B u y r u g' im – qat'iy b u y r u q!* *Hech biring demagin yo'q* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Uloqchilar yetakchisi B u y r u q berar shu onda: Har bir toyga bittadan Minsin abjir chavandoz* (T.Adashboyev. Yetmay qoldi).

BUYUK 1 Juda ham katta, ulkan. *B u y u k bino.* *B u y u k tog'.*

2 Tengi, o'xshashiyo'q, qadr-qimmati juda baland, ulug'. *B u y u k olim bobomiz Beruniy o'z asarida Navro'z to'rt – to'rt yarim ming yil muqaddam vujudga kelganini aytadi* ("G'uncha"dan). *Ular dunyoda*

do 'stlikdan-da b u y u k roq kuch yo 'qligiga iqror bo 'lishibdi (“G'uncha”dan). *Bu diyor ko 'p qadimdan Jahonga taratgan nom. B u y u k olimlarini Tanigan butun olam* (Shukrullo. Serquyosh o'lka).

BO'HTON Birovni yomonlash, qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan yolg'on gap. *Bu la 'nati devona ko 'chalarda sizni yomonlab, sha 'ningizga b o ' h t o n so 'zlarni aytib yurgan mish, siz bo 'lsangiz, unga har kuni bitta oltin in 'om qilasiz* (“Ko'kka tupursa, betga tushadi” ertagi).

BO'STON 1 Gullar ekilgan, gullar bilan qoplangan joy. *Xilma-xil gullar xushbo 'y hid sochib, b o ' s t o n ni yashnatib turar, shishadek tiniq suvlar shildirab oqib turar ekan* (“Ovchi, Ko'kcha va Dono” ertagi).

2 Gullab-yashnagan, obod joy. *Mehnatsevar xalqimiz Cho 'lni ayladi b o ' s t o n* (Zafar Diyor. Mehnat qo'shig'i). *Zar desam shu tuproqlaring, Zilol suvli buloqlaring, Ko 'z qoramdek ardoqlayin, Chamanzor, nurli b o ' s t o n im* (O.Quvvatov. Yurtim).

BO'SHANG Hech bir ishni, gapni eplay olmaydigan. *Zidi: abjir, epchil, chaqqon, uddaburon. Ma'nodoshi: epsiz, landavur, lapashang. Biling, orzular – Misoli qushlar, B o ' sh a ng ushlolmas, Intilgan ushlar* (Po'lat Mo'min. Orzu qushi). *Lapashanglar, b o ' sh a ng lar, Baring ishdan bo 'shanglar* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *B o ' sh a ng emas, endi men Harakatchan bolaman* (Abdurahmon Akbar. E'tiroz).





DAKKI Nojo‘ya xatti-harakat uchun aytildigan achchiq gap, qattiq tanbeh, koyish. *Ma’nodoshi: dashnom. Chakki yursang, d a k k i yersan* (Maqol). *Usmonjon ustozlaridan d a k k i eshitaverib, qulog ‘i qotib qolgan* (“G‘uncha”dan). *Hamma menga achinsa, D a k k i bersa dam-badam. Sen-chi, parvo qilma deb, Yapatarding avval ham* (Habib Rahmat. “Ikki”ning yig‘isi).

DANGAL Tortinmasdan, qo‘rqmasdan, qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha, ochiq. *So ‘zladi dangal: – Bo‘ri, xo ‘p to ‘qsan, O‘zingda yo ‘qsan. Niyating hamon Men uchun yomon* (Po‘lat Mo‘min. Uch haqiqat). *Fikr bo‘lsa, shartta aying, Da ng a l so ‘zni xush ko ‘raman* (T.Adashboyev. Xulosa). *Bolalar maqsadlarini dangal aytishdi* (“G‘uncha”dan).

DANGASA Foydali mehnat qilishni yaxshi ko‘rmaydigan, jonini qiyashni xohlamaydigan, ishdan qochadigan. *Zidi: ishchan, mehnatsevar. Ma’nodoshi: ishyoqmas, tanbal, yalqov. Qimmat esa... tantiq, qo ‘pol va d a n g a s a ekan* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Yig‘masajoyini, Ichmasa choyini, Yuz-qo ‘lin yuvmasa, U bola d a n g a s a, d a n g a s a* (Po‘lat Mo‘min. Bog‘chaga bormasa...). *Ustozing chin dildan maqtasa, Bo‘lmasang hech qachon*

dangasa Eng maza, Eh, maza! (Po'lat Mo'min. Eng maza, Eh, maza!).

DAQIQA 1 Soatning oltmishdan bir bo'lagiga teng vaqt. *Ma'nodoshi: minut.* Yayov yursam ham, yigirma d a q i q a da maktabga yetib boraman. *Bo'lganda Sobir; Bir d a q i q a ichida Topardi Tadbir* (Abdurahmon Akbar. Ehtiyyotkor toshbaqa). *Ro'y berdi shu d a q i q a Ajabtovur hodisa* (Habib Rahmat. To'rt hunarmand haqida ertak).

2 Vaqtning juda qisqa bo'lagi, juda oz vaqt. *Tursunboy Adashboyev va u kishining tengdoshlari bolalikning shirin d a q i q a laridan benasib qolishgan* (Tohir Malik. Qo'sh qanot). *Mana shu og'ir d a q i q a da ufqni birdan chang-to'zon qopladi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

DARHOL Bir onda, o'sha paytning o'zida, tez vaqt ichida. *Ma'nodoshi: darrov.* *Borib ushlay deganda, Shoshib d a r h o l uchasan. Sira tutqich bermasdan, Guldan gulga ko'chasan* (Zafar Diyor. Kapalak). *Og'rigan kim, bilaylik, D a r h o l yordam qilaylik* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Yashirinib qolgan bir dona tariq d a r h o l tulkiga aylanib, tovuqni yeb qo'yibdi* ("Kashmirlik sehrgar" ertagi).

DARMON 1 Tanadagi kuch-quvvat, mador. *Dadasi xiyla darmon to'plab ulgurgan Meshpolvonni yetaklab, to'yga olib chiqadigan bo'ldi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Erta tongdan mashq qilamiz, Esnab yotish juda yomon. Mevalar-u sabzavotlar Tanga d a r m o n, bo'ling omon!* (D.Kamoljonova. Doktor Voyjonimdan xat). *Oromgohi oromijon, Suv-havosi jonga d a r m o n.*

Chiniqamiz, kuch yig'amiz, Bo'lib yana sog'lom-sog'lom (Dilshod Rajab. Oromgoh madhiyasi).

2 Kasallikning davosi, qiyinchilikni yo'qotishning chorasi. *Dardini yashirgan darmo n topmas* (Maqol). *Darding uchun darmo n – kitob* (Charxiy. Kitob).

DARROV Vaqt ni o'tkazmay, qisqa vaqt ichida, tezlik bilan. *Ma'nodoshi: darhol. Onam oshga urinsa, Sabzi to'g'rab turaman. Yuvgan kiri qurisa, Darrov dazmol uraman* (Miraziz A'zam. Onam ishdan keladi). *Olapar vovullamay, Qani, jo'nab qoldarrov* (M.Valixonov. Jim, Dilorom uxlayapti). *Minglab qo'ylar orasidan Darrrov seni topaman* (Yo'ldosh Sulaymon. Qo'zim).

DAST Birdaniga, hech narsaga qaramasdan, shartta. *Xolam kela solib, meni dasht ko'tarib, toshoyna oldiga olib bordilar* (S.Barnoyev. Assalomu alaykum). *Tulki ko'zdan yo'qolishi bilan ayiq toshni dasht ko'tarib, yelkasiga ortmoqlab, allaqayoqqa jo'nab qolibdi* ("G'uncha" dan). *To'xtang! – dedi shu fursat Esh o'rnidan turib dasht* (Abdurahmon Akbar. Bir qishloq bolalari).

Dastidan Sababidan, yomonligi tufayli. *Bezori Egamning dashti idan hamma dod deydi, shuni aytmoqchiman, uning kimligini mendan so'rang* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

DASTYOR Qo'lidan kelgan ishni bajarib, boshqalarining ishini yengillatuvchi. *Ma'nodoshi: yordamchi. Juda qadim zamonda Chol-u kampir bor edi. O'g'il va qiz ko'rmagan, Dastyor gachi zor edi* (Jo'ra Rahim. Bir butun oy, o'n ikki yulduz). *O'yindan ortmas G'olib, Qachon dasstyor*

bo'ladi? Ish buyursang, sudralib, Qo'l uchida qiladi (“G‘uncha”dan). *Ayasiga das tyo r der Uning bo'yini ko'rgan* (Yo'ldosh Sulaymon. Bo'y va es).

DAVO *Kasalning tuzalishi uchun qo'llanadigan narsa, shifobaxsh narsa. Anor degan mevaning suvi davo emish, uni ichsa tuzalar emish* (“Navro‘z” ertagi). *Havo emas yutganingiz, Dardingizga ming davo* (Dilshod Rajab. Xonobod). *Qayda salqin havadir, Tan-jonimga davo dir* (Anvar Obidjon. Nok).

DASHNOM *Nojo‘ya xatti-harakat uchun uyaltirish, qattiq koyish. Ma'nodoshi: dakki, tanbeh. To‘g‘ri so‘zning to‘qmog‘i bor deganday budashnom onaga qattiq tasir qildi* (Hakim Nazir. Mayoq sari).

Dashnom bermoq *Nojo‘ya xatti-harakati uchun uyaltirmoq, qattiq koyimoq. Tulki: – Ey bo‘ri o'rtoq, chol seni shunday o‘limdan qutqarsa-yu, sen shunday qari cholni yeysanmi? – deb dashnom beribdi* (“Bo‘ri bilan mergan” ertagi).

DA‘VAT *Biron-bir harakatni bajarishga undash, chaqirish. To‘garak rahbarining da‘vati bilan maktabda “jonli burchak” tashkil qildik* (“G‘uncha”dan).

Da‘vat qilmoq *Biror ishga undamoq, biror tadbirga chaqirmoq. Huzuriga ertalab Chorlab ayyor Kekbuni, O‘ta razil bir ishga Da‘vat qildi shoh uni* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon). *O‘quvchilarни musobaqada faol qatnashishga da‘vat qildi.*

DEHQON *Kasbi yerga ishlov berib, ekin ekib, hosil yetishtirish bo‘lgan kishi. Qadoq qo’lli dehqonlar Terlar to‘kib ekishgan. Shuning uchun har boshoq,*

Oltin bo 'lib yetishgan (T. Adashboyev. Bug' doyzorda). *Omon bo 'lsin d e h q o n lar, Tugamasin shirmonlar, Tandirjon* (Anvar Obidjon. Tandir haqida qo'shiq). *D e h q o n yerga egilar, Ko 'chat, urug' ekilar. Bahor tansiq fursatdir, G'ayratningni ko 'rsat der* (Po'lat Mo'min. Bahor kelaveradi).

DIQQAT Alovida e'tibor, butun o'y-xayol, sinchkovlik. *Ko 'rganlarini bizga Qilib berdi hikoya, D i q q a t bilan tingladik, Achinib benihoya* (Miraziz A'zam. Nozima). *D i q q a t bilan quloq solib, Taraddudga tushdi u* (Miraziz A'zam. Musichalar). *Munisa gulxayrilar chaman ochilib yotgan bog 'chani shoshmay, d i q q a t bilan kuzatdi* (M. Hamidova. O'rtoq topib oldi).

Diqqatni tortmoq Boshqalarning e'tiborini o'ziga qaratmoq. *Tursunboy Adashboyevning matbuotda e'lon qilinayotgan she'rlari ustozlar d i q q a t i n i t o r t d i* (Tohir Malik. Qo'sh qanot). *Kattaqo 'rg'on tumanidagi 14-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilimi va zehni bilan diqqatimizni tortdi* ("G'uncha"dan). **Diqqat bo'lmoq** Xafa bo'lmoq, bo'g'ilmoq. *Mayli, qolsin o'yinim, Bo 'la qolay ko 'p diqqat* (Habib Rahmat. "Ikki"ning yig'isi). **Diqqat qilmoq** 1) e'tibor bermoq. *Hali diqqat qilmagan ekanman: yuzlari sip-silliq, xuddi toshdan yasalganga o'xshaydi* (X. To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati). *Eshak daraxtlardagi mevalarga, polizdag'i qovoqlarga qarab, d i q q a t q i l i b d i* ("Farosatsiz eshak" ertagi); 2) xafa qilmoq, yuragini siqmoq. *Farzandining nojo 'ya harakatlari onani diqqat qilaadi.*

DONISHMAND Mavjud ilmlarni egallagan, turli bilimlardan xabardor, hamma narsani biladigan. *Hatto dadam ham har doim bobomdan maslahat so'raydi. Donishmand degani mening bobom bo'lsa kerak* (“G'uncha”dan). *Bo'lgan ekan bir o'lka, Bizning yurtdek chiroyli. Keksalari donishmand, Yigitlari yurakli* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). *Meni yegan Donishmand Bo'lur degan Naqlim bor* (E.Vohidov. Yong'oq).

DONO Ko'p narsani biladigan, aql-zakovati ortiq. *Zidi: nodon. Nodon kuzatar, Donotuzatar* (Maqol). *Dono muallim, Mehri bulog'im. Harfni tanitgan, Qalbi chirog'im* (“G'uncha”dan). *Ko'rmasam ham, taniyman, Siz dunyoda eng dono. Siz yaxshilar yaxshisi, Siz otasiz, Siz ona!* (Yo'ldosh Sulaymon. O'qituvchim).

DOVRUQ Shon-shuhrat, obro'-e'tibor, mashhurlik. *Uning dovrug'i oxir Dushmanga ham yetibdi* (H.Murodov. Yakka tut – mingta tut). *Xullas, Ko'pdır urug'im. Shu bois Zo'r dovrug'im* (Anvar Obidjon. Bodring).

Dovruq solmoq (yoki **dovruq taratmoq, dovrug'i tarqalmoq**) Hammaga tanilmoq, juda mashhur bo'lmoq. *Kirib o'tli maydonga, Dovrug solib har yonga, Otam kabi jang qilib, ... Ulug' yurtni saqlayin* (Zafar Diyor. Maktab...). *Buyuk Temur jahon bo'ylab, Dovrug'ini solgan tilim. Mir Alisher bobomlardan Meros bo'lib qolgan tilim* (T.Adashboyev. Ona tilim). *O'zbekiston dovrug'i nidi dunyoga tarata digagan yurt erkasi! Senga bu ishonch qutlug' bo'lsin!* (“G'uncha”dan). *Bog'ning*

d o v r u g‘ i hammayoqqa t a r q a l i b, odamlar kelib qo‘silib, sahro ham bir kattakon podsholikka aylanibdi (“Yarimta non” ertagi).

DOVYURAK Hech narsadan cho‘chimaydigan, tap tortmaydigan. *Zidi: qo‘rraq. Ma’nodoshi: botir, jasur, qo‘rqmas. Dovyurak, odil Farzand kerakdir.* *O’shanday avlod Bizning o‘zimiz* (Po‘lat Mo‘min. Dovyuraklar). “*Chegarachi yigitlar Dovyrak gumard*” debsiz, “*O‘z nomiga sira ham yuqtirmaydi gard*” debsiz (Yo‘ldosh Sulaymon. Chegarachi amakiga). *Hoy dovyurak menganlar, Poylab oting yovlarni* (Zafar Diyor. Biz yashamoq istaymiz)!

DUO Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o‘zi yoki boshqalar uchun so‘ralgan yaxshiliklar. *Zidi: qarg‘ish. Ota-onam mehnatkash, Men ularga o‘xshayman. Duo lari qo‘llaydi, Gulday bo‘lib yashnayman* (T.O‘tarova. Gulday bo‘lib yashnayman). *Tog‘larning havosidan, Hur ko‘ngil navosidan, Ulug‘lar du o sidan Taxting bo‘lsin, bolajon* (N.Boymurodova. Chaqaloq). *Mo‘ysafid... biroz jim qolibdi, so‘ng eng kenja o‘g‘liga qarab: – ...Ha, otaning du o si tillo, lekin qarg‘ishi yomon! – debdi* (“Boylidan ilm afzal” ertagi).

Duo qilmoq Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o‘zi yoki boshqalar uchun yaxshiliklar so‘ramoq. *Kampir tamaddi qilibdi, orqasidan suv ichibdi va dehqon ayolni astoydil du o qili badi* (“Kimning qo‘li chiroyli” ertagi).

DURADGOR Kasbi yog‘ochdan bino, eshikderaza va boshqa buyumlar yasash bo‘lgan kishi. *Mayli, biringiz sartarosh, biringiz duradgor bo‘ling, yana bittangiz elektrga qaraydigan montyor bo‘ling.*

Ishqilib, yo ilmli, yo hunarli bo‘lish payidan bo‘linglar (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Temirdan uning tishi, Taxta, yog‘och yemishi, Duradgorda bor ishi, Foydalidir yumushi* (Topishmoqning javobi: arra) (“G‘uncha”dan).

DURANG Sport musobaqasida ikki tomon kuchi-ning teng kelib qolishi, ya’ni o‘yinning hech kimning g‘alabasisiz tugashi. *Tez orada tugar “jang”, Bahsdan mammun bo‘lishar, Natija bo‘lib durang, Ochkoni teng bo‘lishar* (Do‘shton Matjon. Ochkoni teng bo‘lishar).

DURBIN Uzoqni yaqin qilib ko‘rsatadigan, uzoqdagi narsalarni ko‘rishga yordam beradigan asbob. *Sepkilshoh d u r b i n dan kuzatayotgan joyni mo‘ljallab, tapira-tupur ot yeldirganicha janggohga kirib bordi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Qo‘ldan qo‘ymay d u r b i n ni, Necha oy, necha kunni Bedor o‘tkazgan olim Sakrab tushdi bir kuni* (H.Imonberdiyev. Noyob mol).

DUSHMAN 1 Doim yomonlik qilishni istaydigan, tarafdar bo‘lmaydigan, o‘y-fikrlari yaqin bo‘lмаган. *Zidi: do‘s. Tanib oldim quyoshni, Tanib oldim osmonni, Tanib oldim do‘stlarni, Tanib oldim dushman ni* (Anvar Obidjon. Kapalakning tarjimayi holi). *Do‘s t achitib gapiradi, du sh m a n – kuldirib* (Maqol).

2 Jangda raqib tomon. *Jang qilay, tan bersin olam, Faxrlansin bir kun bolam, Desin: “D u sh m a n larin dadam Qilichida mundoq chopgan!”* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Ko‘pchilikdan arslon ham Aslo gochib qutulmas. Kuch birlashsa chinakam,*

Dushman qarshi kelolmas (G‘ayratiy. Qulqochin). *Bir og‘izdan xalq dedi: – Dushman ga o‘lim! Xalq qalbida nafrati, Qahri limmo-lim!* (Shuhrat. To‘maris).

3 Zarar keltiruvchi, qarshi turuvchi. *Jahl – dushman, aql – do‘st* (Maqol). *So‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman* (Maqol). *Agar gapni cho‘zvorsam, Do‘stlar, meni kechiring, Fikr-u yodim tozalik, Dushman iman kir-chirning* (Po‘lat Mo‘min. Tish cho‘tka, poroshok va atirsovun ertagi).

DO‘ST Doim yaxshilik qilishni istaydigan, har jihatdan tarafdar bo‘ladigan, o‘y-fikrlari yaqin bo‘lgan. Zidi: **dushman**. *Do‘s t dan qochmas edingiz, Aqlingiz bo‘lsa qittak* (Yo‘ldosh Sulaymon. Chittak). *Hammamiz ahil bo‘lib, Tayyorlaymiz darslarni. “Bilmasvoy” yo‘q orada, Biz qo‘llaymiz do‘s t larni* (M.Oqmamatova. Ustozim). *Bu yaxshi-da, bolam, qushlar bilan odamlar do‘s t bo‘lsa, yurtimizga baraka kiradi* (M.Hamidova. Laylaklar).

DO‘STLIK Do‘sstar o‘rtasidagi munosabat, yaqinlik, ahillik. *Baholansa bunday do‘s t l i k, “Besh” baho ham oz bo‘lar. Yoshlikdagi qalin do‘stlik Bir umrga soz bo‘lar* (Po‘lat Mo‘min. Ahil do‘sstar). *Do‘s tlik bilan, Tinchlik bilan Yashnar olam, Yashnar Vatan* (Umarali Qurbon. Yashnar olam). *Boshqalar ham sezishsaydi Ahil do‘s t l i k nafini, Ko‘payishin istar edim Bunday do‘sstar safini* (Po‘lat Mo‘min. Ahil do‘sstar).



EGIZ(AK) Birga tug‘ilgan ikki yoki undan ortiq bola, ikkalasi birlikda, qo‘sish. *Sharl Perro* 1628-yil 12-yanvarda *Fransiyada tug‘ilgan*. *Uning e g i z a g i Fransua uzoq yashamagan* (“G‘uncha”dan). *Odatda e g i z a k tug‘ilgan o‘g‘il bolalarga Hasan va Husan ismlari qo‘yiladi* (“Folklor”). *O‘zbek, qirg‘iz, Go‘yo e g i z.* *Yon qishloqdan, Jon qishloqdan Xayrixon, Maylixon* (Obid Rasul. Xayrixon va Maylixon).

EGRI 1 To‘g‘ri emas. *Zidi: to‘g‘ri. Ma‘nodoshi: qiyshiq, qing‘ir.* *Soz edi bundan ko‘ra E g r i bo‘lsa o‘rogdek. Kamlik qilar dunyoda Faqat to‘g‘ri bo‘lmoqlig* (Dilshod Rajab. O‘q). *To‘g‘ri aytding, E g r i m a n.* *Ulkan yo‘lning O‘g‘liman.* *Ammo seni Uyingga Yetkazaman.* *To‘g‘riman* (G.Gabriyelyan. So‘qmoq).

2 Haqiqatga, axloq-odob, qonun-qoida me‘yorlari-ga mos kelmaydigan, ularga zid, noto‘g‘ri. *Bolam, dunyoda ikki yo‘l bor:* *biri – to‘g‘ri yo‘l, ikkinchisi e g r i yo‘l.* *To‘g‘ri yo‘ldan borsang, yetarsan murodga, egri yo‘ldan yursang, qolarsan uyatga, – deb nasihat qilibdi va bolaga ijozat beribdi* (“Uch nasihat” ertagi). *Bolam, doim rost gapirgin.* *To‘g‘ri til tosh yorar, e g r i til – bosh, – deb nasihat qilibdi mo‘ysafid* (“Uch nasihat” ertagi).

EHTIROM Juda ham yuksak hurmat. *Yaxshiga e h t i r o m bor el dilida, tilida, El dilida, tilida yaxshiga ehtirom bor* (Dilshod Rajab. Yaxshi va yomon). *Qanday yaxshi, bizda yoshi ulug'lar har doim izzat-u e h t i r o m da* (“G‘uncha”dan).

EKMOQ O‘simlik urug‘ini yerga tikmoq, ko‘chatni yerga o‘tqazmoq. *Salim danakni e k a y, Bog‘bon bo‘lay, deb qo‘ydi. Lek shaharga yetguncha Uni chaqib yeb qo‘ydi* (N.Dushayev. “Nafs”). – *Bahorda yuzdan ortiq E k k a n m i z ko‘chat.* – *Ko‘rdim, qurib, beshtacha Qolibdi faqat* (Rauf Tolib. So‘z boshqayu ish boshqa). *Sarvarjon bobosini Biram yaxshi ko‘radi. Daraxt e k s a, yonida Yordamlashib yuradi* (O.Po‘latov. Yordamchi).

ELCHI 1 Bir davlatdan boshqasiga tegishli vakolat bilan yuborilgan kishi. *Men shahar yaqinidagi tog‘da yashovchi xalqdan e l ch i bo‘lib keldim* (“Donishmand cho‘pon” ertagi).

2 Biror voqeadan darak beruvchi narsa, belgi. *Bahordan e l ch i – chechak, Rahmat senga, boychechak* (T.Adashboyev. Boychechak). *Yerda asta unadi, Oftob chiqsa kuladi. U bahorning e l ch i si, Buni hamma biladi* (Topishmoqning javobi: boychechak; S.G‘afurov).

EPLAMOQ Biror ishni bajara bilmoq, biror ishning uddasidan chiqmoq. *Cho‘milsin deb nabiram, O‘rgansin deb suzishni, E p l a s i n deb, menimcha, Boshqalardan o‘zishni, Sher bilakli bobolar Zo‘r ishga bel bog‘lashgan, Shu Farg‘ona kanalin Qirq besh kunda kovlashgan* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi).

EPSIZ Biror ishni uddalay olmaydigan, noshud. *Zidi: epchil. Hatto e p s i z musicha O‘tirmas xas-cho‘p*

tashib. Chordoq bilan bo'g'otga Qoldi u o'troqlashib
(T.Adashboyev. E'tiroz).

EPCHIL Har qanday ishni tez, uddaburonlik bilan bajara oladigan. *Zidi: bo'shang, epsiz, landavur, lapashang. Ma'nodoshi: abjir, chaqqon, uddaburon.* *Ko'zi lov-lov mushukvoy, Aytganingga ko'naman. Epchil chumchuq va epsiz mushuk haqida ertak). O'zi juda chiroyli, Ham e p ch i l, ham tirishqoq. Qo'rmas, botir va lekin Sal fe'li tor: urishqoq* (B.Bekmatov. Xo'rozim).

ERINMOQ Biror ishni bajarishga xohishi, hafsalasi bo'lmaslik, hafsalasizlik qilmoq. *Uyg'ongan-dan ertalab, Sepgan donim erkalab, Terib yeysiz e r i n m a y, Bitta, bitta, bittalab* (O.Po'latov. Mitti jo'jalar). *Poshshaxon opa boshimni tizzasiga olib, yuz-ko'zlarimni ho'l ro'molcha bilan e r i n m a y yaxshilab artdi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Hoy, senga aytyapmiz, qoch, kuyasan! – deb baqirishibdi hammalari birdan. Xo'ja tanbal qimirlagani e r i n i b d i* (“Xo'ja tanbal” ertagi).

ERINCHOQ Biror ishni bajarishga erinaveradigan. *Ahmad, Feruza, Dilso'z O'ynashar bekinma-choq. Topishga kelganda-chi, Ular rosa e r i n ch o q* (D.Tillaboyeva. G'alati o'yin). *E r i n c h o q, bilmasvoy ayiqcha malina maysazor, quyoshli yalangliklarda o'sishini qayerdan ham bilsin* (Raim Farhodiy. Yozgi saboq). *E r i n ch o q ning qo'li qisqa, erinnmaganning – yo'li* (Maqol).

ERK Odamning o'z xohishi, istagiga ko'ra ishharakat qilish huquqi, mustaqillik. *Nomus uchun,*

e r k uchun El esa berarkan jon (Miraziz A'zam. Erk qushi). *Tongda esgan sabosi, Tog'i, bog'i, daryosi – Endi o'z mol-u mulking, O'z qo'lingda o'z e r k ing* (J.Jabborov. Istiqlol). *Kimning bo'lса o'z e r k i, O'sha baxtli jahonda* (Habib Rahmat. Parvoz).

Erk bermoq Ixtiyorini o'ziga berib qo'ymoq, yo'l qo'ymoq, cheklamaslik. *Insofsizga erk bersang, elni talar* (Maqol). *Ikrom bir dam erk berdi Xayoli – uchqur toyga* (H.Imonberdiyev. Yomg'irdan so'ng).

ERKA 1 Hamma yaxshi ko'radigan. *Ma'nodoshi: suyukli. E r k a farzandsan elga, Tezroq ulg'ay, top kamol* (J.Jabborov. Istiqlol). *Kelajakning o'zisiz, Ota ko'nglin so'zisiz. Baxti balqigan elning E r k a o'g'il-qizisiz* (Yusufjon Hamdam. Kelajakning o'zisiz). *Otasining serkasi Uxlab qolsin, alla-yo. Onasining e r k a si Bo'lzin inson sarasi, Alla-yo, alla* ("Beshik qo'shiqlari"dan).

2 Ko'ngliga kelgan ishni qilaveradigan, taltayib ketgan. *Ma'nodoshi: tantiq. Qadimda katta bir boyning yolg'iz o'g'li bo'lgan ekan. U tejamkorlikni bilmas, doim nonni yerga tashlab, uvol qilarkan. Kunlar o'tib, boy olamdan o'tibdi. Bor davlati aqlsiz o'g'ilning qo'lida qolibdi. E r k a o'g'il bir bo'lak nonga zor bo'lib, och qolibdi* ("G'uncha"dan). *U boyning kayf-safoga berilgan, e r k a bir o'g'li bor ekan* ("G'uncha"dan).

ERKIN 1 Erki-ixtiyori o'zida, harakatlariga hech bir to'siq bo'lmanan. *Ma'nodoshi: hur, ozod. Biz e r k i n bolalarmiz, Tinchlikdir tilagimiz. Yashnagan lolalarmiz, Vatan kelajagimiz!* (O.Quvvatov. Avlod). *Quvnab e r -k i n, shod, Bo'laman katta. Baxt bor umrbod, Tinch*

mamlakatda (Obid Rasul. Tinchlik yashar). *Kuchuging bo'ynida zanjir bilan tobe bo'lib ovqat yegandan ko'ra, e r k i n bo'lib, och yurishni afzal ko'ribdi* (X.To'xtaboyev. Erkinlik). *Vatan obod makondir, E r k i n, ozod zamondir. Elim omon-omondir, Yo'lim quyosh tomondir* (Dilshod Rajab. Navro'zi olam keldi).

2 Hech bir qiyinchiliksiz, tortinmasdan. *Ma'nodoshi: bemalol.* *Sinfimizda ingliz tilida ham e r k i n gaplasha oladigan o'quvchilar ancha-muncha bor* ("G'uncha"dan). *Cho'chimasdan suzaver, Soyda e r k i n kezaver* (Anvar Obidjon. Baliq haqida qo'shiq).

ESDALIK Keyinchalik eslab yurish, biror voqeani xotirada saqlash uchun berilgan yoki qoldirlgan narsa, xotira ramzi. *Menga, ayniqsa, bitiruvchi sinfdagi opakalarimiz bizga e s d a l i k uchun bergen "Rasmlarni o'zing bo'ya" kitobchasi judayam yoqdi* ("G'uncha"-dan). *Bizlar uchun bu telpak Sen – Quyondan e s d a l i k* (Anvar Obidjon. Telpakka yozilgan she'r).

EZGU Yaxshilik keltiruvchi, xayrli. *Kechirilmas xatodir, Oq-qoranibilmamasam, Biron e z g u niyatda Elga xizmat qilmamasam* (Qambar Ota. O'n yoshdamon). *E z g u ishda omon bo'l, Hamisha haq tomon bo'l!* (O.Quvvatov. Bobur bobom sabog'i). "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakati homiyligidagi "Kamalak" bolalar tashkiloti o'tayotgan 2013-yilda ko'pgina e z g u ishlarni amalgalashdi ("G'uncha"dan).

EZGULIK Yaxshi ish, xayrli harakat. *Quyosh doim Sochsin ziyo, E z g u l i k ka To'lsin dunyo* (E.Fazliddinova. Quyosh). *E z g u l i k mayog'i bu, Ozod yurt bayrog'i bu!* (Dilshod Rajab. Yurt bayrog'i). *Adolatdan so'zlaydi, E z g u l i k ni ko'zlaydi, Teng-*

tenglikni istaydi Bizning Bosh Qomus kitob (Dilshod Rajab. Bosh Qomus kitobimiz).

EZMA Keraksiz ko‘p gapiradigan, og‘zi gapdan tinmaydigan. *Zidi: kamgap. Ma’nodoshi: sergap. Bugun nechuk jim desam E z m a ukam Miryo‘ldosh, Og‘zi og‘rib, hattoki Yeyolmasdan qopti osh* (Abdurahmon Akbar. Bechora). *Og‘zi charchamaydigan e z m a odam kerak buncha gapirishga* (Erkin A’zam. Shaytonchalar ko‘chasi). *E z m a ekan o‘ziyam, Gapin tugatdi arang* (Abdurahmon Akbar. Bizning Nor).

E’TIROF Biror fikrning to‘g‘riligini tan olish. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2010-yilda qabul qilingan qaroriga binoan 21-mart butun dunyoda xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qilindi. Bu beba ho qadriyatimizning dunyo bo‘yicha e’tirof i d i r* (“G‘uncha”dan).

E’TIROZ Qarshi fikr, rozi emaslik. *Men ham siz bilan birga, Do’st bo‘lay bir umrga. Bari aytdi: – Rozimiz, Yo‘q hech e’tiroz imiz* (Dilshod Rajab. Kuch birlikda). *Uning g‘alati odati bor – hech qachon, hech kimga e’tiroz bildirmas ekan* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi).

E’ZOZ Hurmat-e’tibor. *Uchrab qoldi yana bir odam, Odobga boy edi chinakam. Hamma yerda topolgan e’zoz, Ilmi kabi odobi ham soz* (Po‘lat Mo‘min. Ilmdan odob kuchli).

E’zoz qilmoq (yoki **etmoq**) Hurmat-e’tibor bilan qaramoq, mehr bilan munosabatda bo‘lmoq. – *Bizga bilimni Kim berar? – Ustoz. Ustozimizni Qila miz e’zoz* (“G‘unchadan”). *Non bo‘lgach u, sabr qilib*

*Bor sinov-otashlarga, E'zoz qili b, ko'zga surib,
Ko'tardilar boshlariga* (Dilshod Rajab. Bug'doyning
taqdiri).

E'ZOZLAMOQ Mehr-e'tibor bilan qaramoq, e'zoz qilmoq. *Prezident bobomiz 2015-yilni "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilganlarida, rosa xursand bo'ldik* ("G'unchadan"). *Chunki biz ham o'shanday Boy o'lkada yashaymiz. Tilimizni e'zozlab, "Ona tili" ataymiz* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). *Kitob, kitob, kitobjon, Seni o'qib to'ymayman. E'zozla yaman har bir on, Qo'llarimdan qo'ymayman* (O.Mutallipova. Kitobdan o'r ganib).





FALOKAT 1 Kutilmaganda yuz beradigan ko‘ngilsiz voqeа-hodisa. *Arava salgina tezlashsa ham g‘ildiragi o‘qidan chiqib, bir f a l o k a t yuz berarkan* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Xullas, f a l o k a t dan Tosh Qutulibdi bosh bilan* (Dilshod Rajab. Ertak). *Keyin otlarini bu f a l o k a t dan qutqazish yo‘lini o‘ylab, u bir qarorga kelibdi* (“Donishmand cho‘pon” ertagi).

2 “Yaramas, ahmoq” ma’nolarida qo‘llanadi. *Podsho g‘azab bilan: –Ey f a l o k a t, nega bunday yomon ishlarni qilding? Senga qattiq jazo beraman! – debdi* (“Tuhmatga uchragan kelin” ertagi).

FAROSAT Har narsani tez va to‘g‘ri idrok etish qobiliyati. *Ma’nodoshi: fahm. Aql-u idrokniyam, f a r o s a t niyam ko‘z bilan qulog boyitadi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Ular f a r o s a t da ham hammaga ibratli bo‘lib o‘sishgan ekan* (“Ota ulug‘, otadan mehmon ulug“ ertagi). *Farosatsiz, qo‘pol, ishyoqmas bo‘lgan boyning qizi f a r o s a t i bor, ziyrak ayolga aylanibdi* (“Iskandar bilan boyning qizi” ertagi).

FAROVON Har jihatdan to‘la-to‘kis, hech narsaga muhtojligi yo‘q, to‘q. *Olamdagi biron-bir o‘lkada bundan f a r o v o n roq, bundan charog‘onroq joy yo‘q*

(Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Xalqi to'q va far o v o n bo'lib, hech narsaga muhtojligi yo'q ekan* (O.Quvvatov. Podshoh, kiyik bolasi va pazanda qiz).

FASL Yilning to'rt davridan biri. *Yoz, kuz, qish, bahor – to'rt f a s l Aslo tartib buzmaydi. Izzat i l a hurmatda Bir-biridan o'zmaydi.* (E.Ro'zimatov. Fasllar ulug'i). *Bir-birini qay usulda Kuzatishar f a s l lar? Bir-biriga nimalarni Uzatishar f a s l lar? F a s l lar; bu – Yilboboning O'g'illari, qizlari. Har qadamda seziladi O'ziga xos izlari* (Po'lat Mo'min. Bir-birin kuzatishar fasllar).

FAXR 1 Odamning o'ziga hurmat, o'zidan rozilik tuyg'usi. *Zidi: uyat, nomus. Ma'nodoshi: g'urur, iftixor.* – Aytganday, Abdullajon qalay? Katta yigit bo'lib qolgandir? – Ha, – dedi f a x r bilan G'afurjon aka. – Maktabni oltin medal bilan tamomladi (O'. Umarbekov. Odam bo'lish qiyin).

2 Odamning o'ziga hurmat, o'zidan rozilik tuyg'usini tug'diradigan, paydo qiladigan narsa yoki voqea-hodisa (haqida). *Farzandlaring – f a x r ingdir, yurtim, Har birining o'zi bir doston* (Yo'ldosh Sulaymon. Ming bir qo'shiq). *Orzularim bir jahon, Bo'lmoqchiman shifokor: Ota-onamning f a x r i, El-u yurtga madadkor* (D.Jo'rayeva. Orzu). *Butkul xalos bo'lguncha Yirtqichlardan bu olam, Ko'z va chopqir oyoqlar F a x r imizdir, jon bolam* (Anvar Obidjon. Ohuchaning onasi).

Faxr qilmoq Biror narsa yoki voqea-hodisa tufayli odamning o'ziga hurmati, o'zidan roziligi oshmoq.



*Ota-bobosi bilan Har kim q i l a r k a n f a x r, O'zlari
ham munosib Farzand bo 'lsin-da, axir (Rauf Tolib.
Nega shunaqa-ya?).*

FAZILAT 1 Odamning yaxshi xislati, ibrat
bo'ladigan xulqi, xususiyati. *Insonning eng yaxshi
f a z i l a t i javobgarlik, mas 'uliyat ekanini aytib,
tushuntirdim* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni).
*Bu f a z i l a t ing yaxshi, o 'g 'lim. Atrofdagilarga
doimo g 'amxo'r bo 'lsang, ular ham senga mehribon
bo 'ladi* (Ulug'bek Mustafo. Bo'laklangan olma).
F a z i l a t im ko 'pdir, yana Aybimni ham aytganman.
Lekin endi yangi zamon, Men yolg 'ondan qaytganman
(E.Vohidov. Shum bola).

2 Biror narsaning yaxshi tomoni, afzalligi. *Gul
faslning f a z i l a t in Ko 'rish mumkin har yoqda*
(Po'lat Mo'min. Bir-birin kuzatar fasllar).



GAVDALI Gavdasi, tanasi odatdagidan katta.
U Karimberdining dadasidek g a v d a l i, baland bo 'yli, xo 'mrayibroq qaraydigan bir kishi ekan (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Gimnastikachi – G a v d a l i, durkun, Gardani uzun Gorilla maymun* (Dilshod Rajab. Qiziq alifbo).

GAVHAR 1 Juda ham qimmatbaho tosh. *Ashraf aka anor so 'ydi, Anormisan – anor deysiz. Har donasi g a v h a r misol, Yalt-yult etar fanor deysiz* (T.Adashboyev. Chumchuqlarga uyadir).

2 Juda ham bebaho, qimmatli narsa. *So 'zimning g a v h a r, duri, Oilamiz g 'ururi, Ikki ko 'zimning nuri Mehribon onajonim* (“G‘uncha”dan). *Ahil-inoq saflarimiz, Do 'stlar – oltin, g a v h a r imiz. Tiniq ko 'kda uchib yurar Tinchlik qushi – kaptarimiz* (Dilshod Rajab. Oromgoh madhiyasi).

GAVJUM Odam bilan liq to‘lgan, odam ko‘p yig‘ilgan. *Keldi Ayub, Keldi Nor, Keldi Erkin, Gulbahor, Keldi Otabek, Ramz, G a v j u m bo 'ldi hovlimiz* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi). *Guzardagi shinam choyxona Juda g a v j u m bo 'lib ketardi* (T.Adashboyev. Ibrat). *Dam olish kuni bo 'lgani uchun bozor juda g a v j u m edi* (M.Murodov. Yaxshi amaki).

GAZANDA 1 Ari, ilon, chayon kabi chaqadigan jonivorlarning umumiyligi nomi. *Ilon o'ttiz-qirq qadam nariga shaloplab tushgach, o'sha yoqqa chopishar, sulayib yotgan ga z a n d a ning o'lganiga ishonch hosil qilishgandan so'nggina unga yaqinlashishardi* (Qamchibek Kenja. Baliq ovi). *Tillarangsan bunchalar, Chayonboy? Xunukmassan unchalar, Chayonboy. Dumginang ham gajakdor, Chayonboy. ...Dumginangda zahar bor, Chayonboy!* (Anvar Obidjon. G a z a n d a).

2 Juda ham shafqatsiz, yovuz odam. *Azob ko'rib shirin jonim bu tanda, Otingning tizginin tortgin, ga z a n d a!* (“Murodxon” dostoni).

GARMSEL Yozdag'i issiq va o'simliklar uchun zararli shamol. *Kuch ko'p bo'lsa ildizda, Gar m-s e l ham asar qilmas* (E.Ro'zimatov. Fasllar ulug'i). *Suvvizlikdan so'lmasdan, Gar m s e l dan saqlab jon, Yengib yovuz sahroni, Yashayapsiz sog'-omon, Ballisizga, yantoqlar!* (Anvar Obidjon. Yantoqlar haqida qo'shiq).

GERDAYMOQ Keragidan ortiq mag'rurlanmoq, o'zini boshqalardan baland tutmoq. *Ma'nodoshi: kekkaymoq. Sinfingizda, bolalar; Naq bitta qo'rs bola bor. Siz ham yaxshi bilasiz, So'zi cho'rs-cho'rs bola bor. Doim yurar ge r d a y i b, Hech yaxshilik yoqmaydi. Bachkanalik bo'lar deb, Sira kulib boqmaydi* (Po'lat Mo'min. Qo'rs). *O'sha kezlar aqlim ekan xom, Keksalarga bermasdan salom – O'tar edim doim ge r d a y i b. Eh, bu holat juda ham ayb* (Po'lat Mo'min. Uzr so'rayman). *Ko'p ge r d a y m a, Baribir – Bilamiz siring. Iching to'la kumushmas, Tuzlangan*

bodring (Anvar Obidjon. Yog'och bochkaga yozilgan she'r).

GOVMISH Sutni ko‘p beradigan sigir. *Buzoqcha bir maromda Yalqovlanib mo‘o‘raydi. Ona g o v-m i sh bo‘bo‘lab, Hol-ahvolin so‘raydi* (T. Adashboyev. Hushtak chalib turasiz). *Sakkiz sigir asraguncha, bir g o v m i sh asra* (Maqol). *Yashil qinga tinqilgan Qilichday oq teraklar. Saxiy g o v m i sh sigirlar – Sut berguvchi chelaklab* (Dilshod Rajab. Shahardan xat).

GULASTA Dastalab bog‘langangul, bir bog‘ gul. *Eh, hamma yasangan, Ustozlar yoshargan. Bolalar havasda, Ko‘targan g u l d a s t a* (Po‘lat Mo‘min. Birinchi qo‘ng‘iroq). *Ertasi kuni Tipratikanoy qo‘lida yangi noutbuk va ustoziga atalgan go‘zal g u l d a s-t a ni ko‘tarib, maktabga yo‘l olibdi* (Go‘zal Begim. Tipratikanoy). *Maysazorda yugurib charchamaydi, kichkinagina qo‘lchasi bilan qoqigullarni terib onasiga tutadi. Kaftchasida ezilib ketgan g u l d a s t a ni olarkan, ona bolasini bag‘riga bosadi* (“G‘uncha”dan).

GULXAN Biron-bir maqsad bilan yoqilgan o‘t-olov. *Birga g u l x a n yoqamiz, Osmon bo‘yi gurullar* (Miraziz A’zam. Xush kelibsiz). *Do‘slik kamarin taqib, O‘ynaymiz g u l x a n yoqib* (Miraziz A’zam. Yerga dovrug solamiz). *Mushtdek bo‘lib poda boqdim, Cho‘qqilarda g u l x a n yoqdim* (Azim Suyun. She’r).

GUNOH 1 Diniy aqidalarga, qoidalarga teskari bo‘lgan xatti-harakat. *Zidi: savob. Suvga axlat tashish u yoqda tursin, hattoki tupurish ham katta g u n o h hisoblangan* (“G‘uncha”dan). *Nonni uvol qilish – g u n o h.*



2 Odob-axloq doirasiga sig‘maydigan xattiharakat, nojo‘ya ish. *Ma‘nodoshi: ayb. Hal qilamiz bu ishni Besh-olti kun orasi. G u n o h iga yarasha Ko‘riladi chorasi* (T.Adashboyev. Adolatli qozi). *Bug u n o h ni yuvishing, xalqing oldida o‘zingni oqlab olishing kerak* (M.Hamidova. Berahm Rahim). *Uniurma! Moshda g u n o h yo‘q. Ayb musichalarning o‘zida* (M.Hamidova. Uch og‘a-ini).

GURUNG Bir necha kishi bo‘lib, gaplashib o‘tirish. *Ma‘nodoshi: suhbat. Mirzacho ‘llik dehqon bobo G u r u ng boshlar olisdan: – O‘tar osmon chegarasi Bizning qovun polizdan* (T.Adashboyev. Osmon qaydan boshlanar?). *Bir yerning farzandimiz, Boshlaymiz zo‘r g u r u ng lar* (Miraziz A’zam. Xush kelibsiz). *Har kun oqshom choy bahona Dildan g u r u ng quramiz* (T.Adashboyev. Qismat).

GUVOH Biror voqeа-hodisaning chindan ham bo‘lib o‘tganligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan kishi. *Musichalar hayotini Qilar edim tomosha, Ko‘p ishlarga g u v o h bo‘ldim Tomoshamga yarasha* (Miraziz A’zam. Musichalar). *Qudrat akaning yoshlarga mehribonliklariga o‘zim g u v o h bo‘lganman* (T.Adashboyev. Qo‘s sh qanot).

GUZAR Qishloq yoki mahallaning obod va gavjum markazi. *Ko‘rdinglarmi, chipor Xo‘roz Minib olib Tulkini, O‘tib ketdi g u z a r tomon, Ortib mol-u mulkini* (T.Adashboyev. Bu dunyoning ishlari). *G u z a r gavjum go‘zal joy, Gulzori gullarga boy* (Abdurahmon Akbar. Quvnoq alifbe).

GO‘ZAL Har jihatdan kelishgan, mukammal, ko‘zni quvontiradigan. *Zidi: xunuk. Ma‘nodoshi:*

chiroyli. *Shunday g o ' z a l, Ulug ' yurtkim, Tuprog 'ini Ko 'zga surtgin* (T.Adashboyev. Qiyosi yo'q). *Qishloq etagidan Chirchiq daryosi oqib o ' tadi. Shundanmi, qishloq juda g o ' z a l* (M.Hamidova. Mehr). *O 'qing, o 'qing, g o ' z a l bu hayot, Kamolotga yetsin aqlingiz* (Zafar Diyor. Vatan agar...).





HADYA Birovni xursand qilish uchun tekin berilgan narsa. *Ma'nodoshi: sovg'a, tortiq, tuhfa. Yashna, Vatan, Jon Vatan, Senga sharaf-shon, Vatan! Sensan Bizning onamiz, Ha dy a senga jon va tan!* (Zafar Diyor. Yashna, Vatan). *Bor ekan bir kambag'al, O'ylar ekan har mahal: Yaxshilik qilsam deya, Bersam kimgadir ha dy a* (Po'lat Mo'min. Yaxshilik noni).

Hadya qilmoq Birovni xursand qilish uchun biron narsani tekin bermoq. *Laylakvoy cholga "Ur, to'qmoq" ni ha dy a qilibdi* ("Ur, to'qmoq" ertagi).

HAFSALA Biror ishni astoydil va sinchkovlik bilan bajarish xohishi. *Ishlash uchun ha fs ala, Aql kerak, shundaymi? Shu sababdan masala Fikrlashga undaydi* (Z.Isomiddinov. Ko'zingni och, hoy bola!). *Bobomda tish, menda esa Yo'q ekan-da ha fs ala* (N.Murodov. Gap buyoqda ekan).

Hafsala qilmoq Astoydil ishga kirishmoq. *Buni o'zi to'qibdi, Darsni durust ugibdi. Qilsa agar ha fs ala, Unda ham ishlar kalla* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti).

HAKAM Turli musobaqa, tortishuvlarda ishtirokchilarga xolis baho beruvchi shaxs. *O'zim bo'laman ha ka m, Yutganga bor zo'r hadyam* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Bir necha tilda*

mukammal so 'zlashmagan h a k a m ning maydonga tushishga haqqi yo 'q (“G‘uncha”dan).

HALOL 1 Islom dini qoidalariga ko‘ra yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan. *Zidi: harom. O‘lib qolgan hayvonning go‘shti h a l o l emas, harom sanaladi.*

2 G‘irromliksiz, turli noto‘g‘ri, nopol yo‘llarga kirmasdan. *Hammaning haq-huquqi Aniq bayon etilgan. H a l o l yashash yo‘llari Qonun qilib bitilgan* (Qambar Ota. Baxt qomusi). *Shon-shuhratga ko‘milur; Har kim h a l o l ishlasa* (Zafar Diyor. Mehnat qo‘shig‘i). *H a l o l mehnat, bilasizki, Keltiradi doim rohat* (Safar Barno. Vijdon).

3 G‘irromlikka o‘rganmagan, birovni aldamaydigan. *Ma‘nodoshi: sofdil. Qobil bobo tarvuz ular-sharkan: – Faqat sinagim keldi. Barakalla, sizlar h a l o l bolalar ekansizlar! – dedi* (“G‘uncha”dan).

4 O‘zbek kurashida sof g‘alabaga beriladigan bahoni bildiruvchi atama.

HAMISHA Hamma vaqt. *Zidi: hech qachon. Ma‘nodoshi: doimo. Quchoqlar to‘lsin Hamish a gulga* (Yo‘ldosh Sulaymon. Qo‘shiqchining tilagi). *Ishdan keyin h a m i sh a Tartib-qoida o‘sha* (Yo‘ldosh Sulaymon. Kulib turar). *Eng muhimi, h a m i sh a Salomat bo‘l, omon bo‘l* (Abdurahmon Akbar. Samolyot).

HAMJIHATLIK Kishilarning barcha harakatlarda ajralmasligi, birgalik, ahillik. *Bitarkan har qanday ish, H a m j i h a t l i k bo‘lsa, bas* (H. Murodov. Qaldirg‘och). *Bizning oilamizda Hamjihatlik barqaror. Bu rishtani bog‘lovchi, Ota-onam mehri bor* (“G‘uncha”dan).

HAMROH 1 Yo‘lda birga boruvchi. *Ma‘nodoshi: yo‘ldosh. Yo‘lga tushdi Mirg‘olib, Unga h a m r o h*



do'stlari: Bahodir, Sarvar, Tolib (H.Aminov. Sayohat). *Men senga do'st bo'laman, qayerga borsang, birga boraman, ha m r o h bo'laman* (“Handalak polvon” ertagi). *Shu quduqdan suv chiqarib, ha m r o h larim chanqog'ini qondirsangiz bas* (“Yarimta non” ertagi).

2 Yonida bo'luvchi, sherik bo'luvchi shaxs. *U har yili yozni qishloqda, bobosiga hamroh bo'lib o'tkazardi* (O.Jo'rayev. Tiniq soy).

3 Doimo birga bo'luvchi narsa. *Bolaligim xuddi bol, Menga ha m r o h baxt-iqbol* (Habib Rahmat. Orzu). *Menga yoz manzaralari aks etgan kitoblar yoz bo'yi ha m r o h bo'ldi* (“G'uncha”dan).

HAQIQAT 1 Rostdan ham bo'lgan, chin holat.

H a q i q a t ni tan olmay, Yolg'on gapirish gunoh (Qambar Ota. Halol yashagan odam). *Odamlar-chi, odamlar Qolishganda urishib, H a q i q a t ni aniqlab, Olishadi yarashib* (Qambar Ota. Urishib qolsa). *Baribir ha q i q a t ni aytishga majbur qilaman uni* (X.To'xtaboyev. Sariq devning o'limi).

2 Qonun-qoidalarga mos ish, xatti-harakat, holat, rostlik, to'g'rilik. *Seni chetlab o'tsin kulfat va yolg'on, H a q i q a t yo'lingda bo'lsin mash'ala* (Miraziz A'zam. Ko'zлari xayolga tolgan bir bola). *Nasriddin Afandi hamisha oddiy kishilar orasida yurib,adolatni, ha q i q a t ni himoya qilib, amaldorlarning qing'ir ishlarini fosh etdi* (“G'uncha”dan).

HAQIQIY 1 Chindan ham mavjud, rostdan ham bo'lgan. *Zidi: soxta. Ma'nodoshi: asl, haqqoniy. Darhol ichkariga kirib pullarni ko'zdan kechiribdi va sanab chiqibdi. H a q i q i y pullar, yana roppa-rosa yuz ming so'm* (U.Ismoilov. Ertaklarda matematika).

Endi boshqa biror bir h a q i q i y yumush bilan band bo'laman. Asal izlayman (Raim Farhodiy. Ayiqcha Taptapvoy).

2 Chin ma'nodagi. *Ne buyursak, bajarar naqd, Eh, mana bu h a q i q i y baxt!* (H.Imonberdiyev. Sirli ko'za). *H a q i q i y inson kichikligidanoq ilmga qiziqishi, hunar o'rganishi, do'stga sodiq bo'lishi kerak* ("G'uncha"dan). *Bolalarning qiziqarli sahna ko'rinishlaridan kitobning h a q i q i y mo'jizaligini angladik* ("G'uncha"dan).

HAROM 1 Islom dini qoidalariga ko'ra yesa, ichsa, foydalansa bo'lmaydigan. *Zidi: halol. Tiqib tumshuq-og'izni, H a r o m qildi hovuzni* (H.Imonberdiyev. Ko'ppak). *Anavi ko'ppak go'shtni hidlab, h a r o m qilyapti* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Xachir go'shti g'irt h a r o m* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

2 Jirkanch ish-harakat, noto'g'ri yo'l bilan topilgan narsa yoki shunday yo'l tutadigan odam. *H a r o m pulning qadri yo'q ekan* ("Osma savat" ertagi.)

HARORAT 1 Issiqlik, kuchli darajadagi issiqlik. *Quyosh o'z yorug'ligin, Tuganmas h a r o r a t in Barchaga teng ularashar, O'zgartirmay odatin* (G'afur G'ulom. Quyoshning yorug'ligi barcha xalqqa barobar). *Olov kelar dunyoga H a r o r a t berish uchun* (Qambar Ota. Burchim). *Kun qiziy boshlagan sari yam-yashil bedalar ustidan jimir-jimir h a r o r a t ko'tariladi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

2 Issiq-sovuqlik holati, temperatura. *Termometrga boqsa: H a r o r a t oshib ketgan* (Miraziz A'zam. Asror). *Quyosh bo'lmasa, yerda har o r a t 100 daraja*

sovugdan ham past bo‘lib, hamma joyni muzlik qoplar edi (“G‘uncha”dan).

HASAD Boshqalarning fazilatlarini, yaxshi ish va yutuqlarini ko‘rolmaslik. *U h a s a d dan yonibdi, Tunlari uyg‘onibdi. Sira chiday olmabdi, Hech udda qilolmabdi. H a s a d ga berolmay tob, Bo‘lib qolibdi betob* (Po‘lat Mo‘min. Oltin tosh).

Hasad qilmoq Hasadli munosabatda bo‘lmoq. *H a s a d q i l s a n g Bulbulga, Arzimaysan Bir pulga* (Anvar Obidjon. Havas qil). *Quyonvoyning martabasiga h a s a d q i l i b, shohning oldida yurganini, u bilan yaqinligini, birgalikda shirin taomlar yeyishini eslab, ichi ko‘mirdek kuyib, alam qilarkan* (O.Quvvatov. Hasadgo‘y tulki qismati).

HAVAS 1 E’tibor va zavq tuyg‘usi. *Borliq boqar H a v a s da. U bahorga Guldasta* (H.Murodov. Bodom). *H a v a s bilan har birin Olib ko‘rdim qo‘limga, Oltin kabi ko‘rinar Ular mening ko‘zimga* (Zafar Diyor. Olma).

2 Biron narsaga katta qiziqish bilan berilish. *Matematikaga h a v a s ingiz baland ekan, shuning uchun... sizga shu taklifni qilyapman* (O‘. Umarbekov. Odam bo‘lish qiyin). *Tengdoshlarim yozgani, Turli rasm chizgani Meni o‘ziga tortar, Ko‘rib h a v a s i m ortar* (Fayzi Shohismoil. Marjonaning she’ri). *Gurs-gurs qadam bosganda, H a v a s bilan qarayman. Men ham bir kun ulg‘ayib, El tinchligin asrayman* (Dilshod Rajab. Posbonlar).

Havas qilmoq Biror narsaga o‘xshash orzusi bilan alohida qiziqib qaramoq. *Burgutlar ham bu parvozga H a v a s q i l g a y. Botirlar ham sen shovvozga H a-*

v a s q i l g a y (Anvar Obidjon. Dorboz bola haqida qo'shiq). *Bo'lay desang Bulbulcha, Ha v a s q i l g i n Bulbulga* (Anvar Obidjon. Havas qil). *Bizning kichkina Avaż Mehnatdan hech cho 'chimas. Novvoy bo'laman deydi, Shu kasbni q i l a r - h a v a s* ("G'uncha"dan). *Havasi kelmoq O'shanday bo'lishni orzu qilib, biron narsaga qiziqib qaramoq. Rostin aytsam, unga Ha v a-s i m k e l a r – Menden kichik bo'lsa ham, Suzishni bilar* (Abdurahmon Akbar. O'rdakcham). *Bolalar, sizlarga Aytayin rostim, Har qachon, har yerda Ke l a r h a v a s i m* (Po'lat Mo'min. Keltirasiz havasim). *Ha v a s i n g i z k e l a d i Nozik husnixatiga* (Qambar Ota. Komilning kundaligi).

HASHAR Biror ishni bajarishda odamlarning ko'plashib, ixtiyoriy va haq olmasdan beradigan yordami. *Tunov kun biznikida Bo'ldi kattakon hashar. Ko'chib keldi deyman-ov, Ha sh a r ga butun shahar... Hashar rosa qizidi, Bitdi, eh-he, qancha ish* (Abdurahmon Akbar. "Yordamchilar"). *Ha sh a r bilan bo'lgan-da Hamma katta qurilish* (S.Hojiboyev. Quvnoq alifbe).

HIMOYA 1 Turli xavf-xatarlardan saqlash, qo'riqlash. *Ma'nodoshi: mudofaa.* Endi aytsam, armiyamiz – bizning metin h i m o y a m i z (Dilshod Rajab. Askar aytar...). *Vatan h i m o y a s i – muqaddas burch.*

2 Qo'llab-qo'ltiqlash, yordam berish, homiylik qilish, ehtiyyot qilib asrash. *Adham uxlab yotganida, pish-pish nafas olar, yuzi ham muloyim tortib, h i- m o y a ga muhtoj yosh bolaning xuddi o'zi bo'lib qolar ekan* (Ahmad A'zam. Almisoqdan qolgan Karim). *Bola ota-onasi tomonidan jazolanishini bilsa,*

darrov buvisi yoki bobosi h i m o y a siga oshiqadi
(Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo‘li).

3 Turli zararli narsa-hodisalardan saqlash, asrash. *Bola g‘oyat nafisdir, uning hali h i m o y a quvvati yo‘q, u bor-yog‘i bir kurtak, xolos, shu faslda uni sovuq urmasin, aldovga yo‘liqmasin* (T.Sodiqova. Dunyo buyuk ustxonadir).

Himoya qilmoq 1) turli xavf-xatardan saqlamoq, qo‘riqlamoq. *Yurtimni h i m o y a q i l a m a n deb, mard yigitlar oyoqqa turgan, nomardlar o‘zini panaga olgan zamonlar edi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Bir kuni bobom menga Aytdi ajib kinoya: – Odamlardan odamni Itlar q i l a r h i m o y a* (M.Saidova. Ajabo). *Xo‘roz esa kampirga qarab: – Meni so‘yib yuborsang, tovuqlaringni yovvoyi mushukdan kim h i m o y a q i l a d i? – debdi* (“G‘uncha”dan); 2) Qo‘llab-quvvatlamoq, homiylik qilmoq, ehtiyot qilib asramoq. *Bolalarni h i m o y a q i l i sh kuni bugundir* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi. 1-iyun). *Chumolilarni h i m o y a q i l ganini bilib: – Ha, yaxshi qilibsan, – dedi otasi* (Zohir A’lam. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam); 3) Turli zararli narsa-hodisalardan saqlamoq. *Oqbars boychechakni o‘z gavdasi bilan devordek to‘sib, uni izg‘irinning ignalaridan h i - m o y a q i l i sh ga tirishdi* (Anvar Obidjon. Kezargon boychechak).

HIYLA Birovni aldash uchun qilingan ayyorlik. *Ma‘nodoshi: nayrang, firib. Ishlataman bir h i y l a, Mehmonim sirin bilmas* (Habib Rahmat. Uddaburon maymun). *Oqko‘ngil quyon tulkinining uchinchi h i y l a siga ham ishonibdi* (O.Quvvatov. Hasadgo‘y tulki qismati).

Hiyla qilmoq Aldash uchun ayyorlik qilmoq, hiyla ishlatmoq. *Kampir ularga h i y l a q i l i b:* «Men musofirman, pulim, molim yo‘q, meni sizlar shu yerda olib qolinglar, men sizlarning ovqatlaringizni pishirib berib yuray», – deb yig‘labdi (“Burgtular” ertagi).

HOSIL Daraxt, turli o‘simliklar, ekinlardan olinadigan mevalar. *Olmalarning shoxlari-chi.* Mo‘l h o s i l dan engashgan (Po‘lat Mo‘min. Olim otaning olmalari). *H o s i l bo‘lسا mo‘l-u ko‘l, To‘y, ma‘raka ko‘payar* (E.Ro‘zimatov. Fasllar ulug‘i). *Istagancha H o s i l olgin, – deya va‘da berar yer* (Zafar Diyor. Bahor keldi). *Yonidagi bodomlarning esa h o s i l i ko‘p bo‘libdi* (“G‘uncha”dan).

Hosilga kirmoq Hosil bera boshlamoq. *Ko‘p o‘tmay maktab bog‘idagi yosh o‘rik daraxtlari birin- ketin h o s i l g a k i r d i* (S.G‘afurov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Hosil bo‘lmoq Yuzaga kelmoq, paydo bo‘lmoq. Beshni ikkiga ko‘paytirsak, o‘n h o s i l b o‘l a d i.*

HOVLIQMOQ 1 O‘rinsiz shoshilmoq, shoshib-pishib harakat qilmoq. *To‘xtang, yigit, h o v l i - q i sh ning o‘rni yo‘q, oxirini eshitaylik* (“Tuhmatga uchragan kelin” ertagi). *Dilobar uyga shoshib kirdi. – Ha, qizim, buncha h o v l i q m a s a n g? – so‘radi onasi Gulnora opa. – Dugonalarim kutyapti. Koptogimni olgani keldim, – dedi qizi* (“G‘uncha”dan).

2 Juda bezovta, hayajonli holatga tushmoq. *Maktabidan qaytgan Oyzoda bugun uyiga h o v l i q i b yugurib kirdi... Onasi unga: – Hov qizim-ey, bunchalik h o v l i q a s a n? Nima bo‘ldi? Biron narsa izingdan quvdimi? – deb qizining chaqnab turgan ko‘zlariga tikildi* (M.Tojimurodova. Bir kunda uchta “besh”).



3 O‘zini asossiz katta tutmoq, maqtanchoqday harakat qilmoq. *Bu tagi pastlar podsholikning ayg‘irini minvolib, h o v l i q i b ketganga o‘xshaydi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Do‘l h o v l i q i b toshman der, Muz va qorga boshman der* (T.Adashboyev. Do‘l).

HOZIRJAVOB Har doim tez va to‘g‘ri javob bera oladigan. *Ma‘nodoshi: bilag‘on. Ota-bobolarimiz topqirligiga tan bergen Nasriddin Afandini bilasizmi? Bu quvnoq, h o z i r j a v o b qahramonning nomini eshitishimiz bilanoq bir jilmayib qo‘yamiz* (“G‘uncha”dan).

HUNARMAND 1 Biron-bir kasb-hunar egasi. *Butun h u n a r m a n d a h l i – Kulol, kosib, qassoblar Jang qilarkan sher taxlit, Qirarkan yovni boplab* (Miraziz A’zam. Erk qushi).

2 O‘z isini juda yaxshi biladigan. *To‘rtovingiz h u n a r m a n d, O‘z ishingiz ustasi* (Habib Rahmat. To‘rt hunarmand haqida ertak).

HUR Har jihatdan erkin, hech kimga qaram bo‘limgan. *Ma‘nodoshi: ozod. Serquyosh, h u r o ‘lkam elga baxt, najot* (A.Oripov. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi). *H u r Vatan farzandlari – O‘zbegim askarlari. Kuch-qudrat birlikdadir – Mustahkamdir saflari* (Dilshod Rajab. Posbonlar).

HURMAT 1 Odam yoki narsani qadrlash, ulug‘-lash, izzat qilish tuyg‘usi. *Chol ularni h u r m a t bilan kutib olibdi, mehmon ham qilibdi* (“Iskandar bilan boyning qizi” ertagi). *Shunday qilib, niyatini yaxshi qilgani uchun yigit boyibdi va hammaning h u r-m a t iga sazovor bo‘lib yashabdi* (“Yaxshi niyat –

yarim davlat” ertagi). *Bolangdan h u r m a t istasang, otangni hurmat qil* (Maqol).

2 Boshqalar tomonidan ko’rsatiladigan izzatli e’tibor. *Ma’nodoshi: obro‘*. Eh, “besh” olib chamanga kirsang, *Guldan ko’char yuzlaringga rang*. *Oshib borar h u r m a t, obro‘ying*, *Sevinadi mahallang, uying* (Po’lat Mo’mun. O’qituvchi baho qo‘yganda). *Shunda savdogarning shogirdi: – Sizning el ichida h u r m a t ingiz nimaga buncha balandligi sababini bildim. Siz nonni aziz bilar ekansiz, – debdi* (“G’uncha”dan).

Hurmat qilmoq Hurmat bilan munosabatda bo‘lmoq. *Ana shuning uchun ham ustozni otadan ulug‘ ko’rib, h u r m a t q i l i sh kerak* (M.Tojimurodova. Ustoz – otangdan ulug‘). *Quchib, o’pib, so’zjadi ona: – H u r m a t q i l g i n har bir keksani* (Oybek. Odobli Turg‘un). *Birimizni birimiz Qattiq h u r m a t q i l a m i z. Qattiq h u r m a t q i l g a n ni Chin inson deb bilamiz* (Miraziz A’zam. Yerga dovruq solamiz).

HUZUR I Juda ham maza qilish tuyg‘usi. *Zidi: azob. Ma’nodoshi: rohat*. *Har safar sinfga kirib, bolalarning ko’ziga ko’zim tushishi men uchun h u z u r edi* (T.Sodiqova. Dunyo buyuk ustaxonadir). “*Mehmon*” o’yini *Qizigandan qizir: Mezhonga qiyin, Mehmonga h u z u r* (H.Imonberdiyev. Mehmon haddidan oshsa).

Huzur qilmoq Juda ham maza qilmoq, ortiq darajada rohat qilmoq. *Tinglab, so’zlab, Q i l a y h u - z u r. Sen bilan shod Kun, oy, yilim, Ona tilim, ona tilim* (Po’lat Mo’mun. Ona tilim). *Birovlar uning gapiga laqillab, g’am-qayg‘uga tushsa, hakkavoy... sevinib,*

h u z u r q i l i b k u l a r k a n (Rauf Tolib. Yolg‘onchi hakka).

HUZUR II Biror odamning oldi, qarshisi, yoni. *Izlaganiningiz Qovoq H u z u r ingizda shu choq* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Karimberdi tabiatan kamgap bola, buning ustiga ustozlar h u -z u r ida uyalib ham turibdi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Yigit kashmirlik sehrgar h u z u r iga borib, hunar o‘rgatishini so‘rabdi* (“Kashmirlik sehrgar” ertagi).

HUSHYOR 1 Har bir narsani tez tushunib yetadigan. *Ma’nodoshi: ziyrak.* *H u sh y o r gina bola bo ‘lganim uchunmi, roppa-rosa to ‘rt oy deganda, juda zo ‘r bo ‘lmasam ham, har qalay, o ‘rtacharoq usta bo ‘lib yetishdim* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi).

2 Har narsani darrov sezadigan. *Ma’nodoshi: sergak, sezgir.* *H u sh y o r bo ‘lmasa, tamom, Quyonvoy tayyor taom* (Rauf Tolib. Quyon nega shalpangquloq?). *Sog ‘ – h u sh y o r botirlar g ‘ofil dushmanning boshini kesadi* (Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig). *Uxlaysan miq etmasdan, “Xir-xir” xurrak otasan. Qulog ‘ing ding aslida, Doim h u sh y o r yotasan* (Q.Shermatov. Mushukvoy.).

Hushyor tortmoq Es-hushini yig‘ib olmoq, sergaklanmoq. *Bir dam ohu h u sh y o r t o r t a r, Ding qilgancha qulog ‘in* (H.Imonberdiyev. Ohu). *Bilmadim, uyalganimdanmi, birdan h u sh y o r t o r t i b, o ‘rnimdan turmoqchi bo ‘ldim* (Sh.Xolmirzayev. Oqtosh.).



IBRAT Boshqalarga o‘rnak, namuna bo‘ladigan xatti-harakat. *Quvnar, to ‘yb simirib, Gul-chechakning xush atrin, Qisqagina hayoti Bir umrlik i b r a t-dir* (Dilshod Rajab. Kapalak). *Ishlari ko‘p ziyoda, Bo ‘lg ‘usi elga i b r a t* (Habib Rahmat. Uvoq qadri).

IDROK Bilish, tushunish qobiliyati. *Ma ’nodoshi: zehn, fahm. Olamdagi eng qimmatli jonzot – odam, – deya shohona qiyofada osmonga qo ‘lini bigiz qildi gadoy. – Chunki, unda aql bor, i d r o k bor. Aql-u i d-r o k niyam, farosatniyam ko ‘z bilan qulog boyitadi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

ILDAM Tez, chaqqon. *Yo ‘limni to ‘sib chiqdi, Qadam bosdim i l d a m roq* (S.Barnoyev. Izg‘irin). *Oyoqlarim hamma vaqt i l d a m, Loyni, suvni pisand qilmaydi* (Oybek. Odobli Turg‘un). “Tez yordam”-u “Tez yordam”, *Biz tomonga kel i l d a m* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti).

ILOJ Bajarish, amalga oshirish, hal qilish imkonи. *Guloyim: Bir i l o j ini toparmiz, peshonamizga nima yozilgan bo ‘lsa, shuni ko ‘raveramiz-da, – debdi* (“Sabr tagi – sariq oltin” ertagi). *Afandi hal etolmaydigan birorta muammo bo ‘lмаган, har qanday mushkullikka bir zumda i l o j topgan* (“G‘uncha”dan). *Bo ‘rining*



*esa dumini qisib gochib qolishdan boshqa i l o j i
qolmabdi* (Ch.Aytmatov. Jimjiloq).

ILG‘OR Oldinda boruvchi. *Zidi: qoloq. Ma’nodoshi: peshqadam.* *Bilasizmi, bir sinfda Bilag‘onlar yetishmas. I l g‘ o r larni qoloqvoylar Sira quvib yetishmas* (Po‘lat Mo‘min. Yetishmas). *Bizning sinf maktabda Birinchi, i l g‘ o r* (Rauf Tolib. So‘z boshqayu ish boshqa). *O‘qishlarda i l g‘ o r miz, Faqat a’lo baholar* (Dilshod Rajab. “Tez yordam”chi sinf).

INJIQ O‘rinli-o‘rinsiz xarxasha qilaveradigan, hech narsaga ko‘nmaydigan, aytganga yurmaydigan. *Ma’nodoshi: o‘jar. Tag‘in bu nima qiliq, Buncha bo‘lmasang i n j i q?* (Rauf Tolib. Davronsher). *Qimmat esa ishyoqmas, i n j i q va dimog‘dor qiz ekan* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Axir, o‘g‘il bola ham i n j i q bo‘larmi shuncha?* (M.Qodirov. Hovlida futbol qizir).

INOQ O‘zaro yaqin, do‘stona munosabatdalik. *Ma’nodoshi: ahil. Ha, biz shunday i n o q miz, Hazilkash do‘s t-o‘rtoqmiz. Ahillikda hikmat ko‘p, Bir et-u bir tirnoqmiz* (N.Boymurodova. Men – toychoq). *Doimo i n o q bo‘lsak, Ayting, bizdan kim o‘zar?* (N.Boymurodova. Men – toychoq). *Kichkina qora uloq O‘ynar oshib o‘mbaloq, Men bilan i n o q, o‘rtoq* (Shukur Sa’dulla. Uloqcham).

INSOF Adolat va vijdonga muvofiq ish tutish tuyg‘usi, halollik, to‘g‘rilik. *Men o‘ylab turib shu tob, Dedim: – Senda yo‘q i n s o f!* (K.Turdiyeva. Qush bo‘lib uchgan ona). *Sen qanday odamsan? Tag‘in minoradan tashlash kerak deysan. Senda i n s o f bormi?*

(“Tuhmat” ertagi). *Qushlarda hech i n s o f yo‘q, Sal narsaga kulishar* (Anvar Obidjon. G‘ulg‘ultovuq qo‘srig‘i).

INTIZOM Jamiyatda barcha qat’iy amal qilishi, bo‘ysunishi lozim bo‘lgan tartib-qoida. *Behzod bu yutuqlarga o‘zidagi qat’iy intizom, mustahkamiroda, qunt va ziyrakligi tufayli erishdi* (“G‘uncha”dan). *Maqtansam arzir: bizda A’lo i n t i z o m* (Rauf Tolib. So‘z boshqa-yu ish boshqa).

INTIZOMLI Intizomga doimo amal qiluvchi, tartibli. *Sho‘x, g‘ayrati ichiga sig‘maydigan bolakay mashg‘ulotlar vaqtida diqqatini ustoziga qaratgan i n t i z o m l i shogirdga aylandi* (“G‘uncha”dan).

INTIZOMSIZ Intizomga hech bir amal qilmaydigan, tartibsiz. *Siz sinfrahbari sifatida bu i n t i z o m s i z bolalarni nega ro‘yxatga kiritdingiz?* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar saltanati).

IRODA Maqsadga erishish yo‘lidagi qat’iyat, matonat, chidam. *Yo‘l juda olis, Yetmoq mashaqqat. Kerak behad kuch, I r o d a faqat* (Qudrat Hikmat. Oyga poyga). *Behzod bu yutuqlarga o‘zidagi qat’iy intizom, mustahkam i r o d a, qunt va ziyrakligi tufayli erishdi* (“G‘uncha”dan).

ISROF O‘rinsiz, befoyda sarf qilish, bekordanbekorga yo‘q qilish. *Tejam bilan ishlatsang, uy-ro‘zg‘oring but. I s r o f bilan ishlatsang, yomon kunni kut* (“Qanotli so‘zlar”).

Isrof qilmoq Bekordan-bekorga ishlatmoq, yo‘q qilmoq. *Nonni i s r o f q i l g a n l a r Bir kun kelib xor bo‘lar* (D.Imomaliyeva. Non). *Yozda o‘rik danaklarin*



Is rof q i l m a y terib ol (Obid Rasul. Mag‘iz holva). *Vaqtni i s r o f q i l m a. Har ishda tejamkor bo‘l* (“G‘uncha”dan).

ISTAK 1 Biror narsani xohlash, xohish. *Oyijon, menda Bor bitta i s t a k: Shu bug‘doyimdan Qilsak sumalak* (Po‘lat Mo‘min. Besh boshoqdan sumalak). *O‘zbek tilida “niyat”, “i s t a k”, “xohish”, “umid” so‘zлari “orzu”ga yaqin tursa-da, aynan uning ma‘nosini ifodalab berolmaydi* (“G‘uncha”dan).

2 Yaxshi niyat ifodalangan gap, tilak. *Do‘stlar do‘stni tabriklab, I s t a k larin ta‘kidlab, Kutadilar bahorni, Bahorni – bebahoni* (Po‘lat Mo‘min. Bahor kelaveradi).

ISTIQBOL 1 Oldindagi, keladigan zamon, hayot. *Zidi: o‘tmish. Ma‘nodoshi: kelajak. I s t i q b o l dan so‘zlaymiz, Yurt ravnaqin ko‘zlaymiz. Tolmay mehnat qilamiz, Sog‘lom bola bo‘lamiz* (M.Dadaboyev. Sog‘lom bola qo‘shig‘i). *Salom, maktab! Yana keldik. Bizni shodon kutib ol. Biz yoshlarmiz – kelajakmiz, Kutar porloq i s-t i q b o l* (Qadam G‘oyib. Salom, maktab).

2 Kutib olish (uchun). *Bobo egat boshida paydo bo‘libdi. Ota-o‘g‘il uning istiqboliga qo‘zg‘alishibdi* (T.G‘oipov. Egasi kim?).

ISTIQLOL Boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashash, mustaqillik, erkinlik. *I s t i q l o l dan bahra olgan, Yurt mehrini dilga solgan, Shodlik kuyin baland chalgan Biz bolalar...* (Dilshod Rajab. Istiqlol bolalari). *Qo‘shiq aytib o‘ynayman, I s t i q l o l ni kuylayman. Baxtli farzandman elga, Gulday bo‘lib yashnayman* (T.O‘tarova. Gulday bo‘lib yashnayman).

IZZA Uyalish, xijolat bo‘lish.

Izza bo‘lmoq (yoki **tortmoq**) Uyat holatiga tushmoq, xijolat bo‘lmoq. *Bu savolning hemaza. O‘zing b o‘l a s a n i z z a* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Gapingga kirsam, keyin yomon i z z a b o‘l a r k a n m a n* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Ko‘k qalampir Mazza bo‘lar...* Kim ishonsa, *I z z a b o‘l a r* (Anvar Obidjon. Aldoqchi). *Ushunday oyog ‘i tagida yotgan botinkasini ko‘rmaganiga i z z a t o r t a d i* (Ahmad A’zam. Oyning gardishi). **Izza qilmoq** Uyaltirmoq, xijolat qilmoq. *Podsho Yoqubni i z z a q i l i b, saroydan haydab yuboribdi* (“Usmon bilan Yoqub” ertagi). *Shunda vazir podshodan uyalishini, uni i z z a q i l i sh i dan qo‘rqishini aytibdi* (“Podsho bilan vazir” ertagi). *Islom diniga xos tarbiya usullariga ko‘ra, kishi bir noto‘g‘ri ish qilsa, uning xatosini birodari, albatta, aytishi shart. Lekin ko‘pning orasida i z z a q i l i sh yoki sharmandasini chiqarish yo‘li bilan emas, yakka o‘ziga xoli joyda bosiqlik bilan tushuntirishi kerak* (Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo‘li).

IZZAT O‘zganing hurmat-e’tibor ko‘rsatish tuyg‘usi, ana shunday tuyg‘uli munosabat. *Sihat tilasang – kam ye, i z z a t tilasang – kam de* (Maqol). *Aka bo‘lsa i z z a t ida, Uka esa xizmatida* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi). *O‘ylasam, hamma narsa Men uchun xizmatda-ku! Koinotaro odam Ehtirom, i z z a t da-ku!* (Qambar Ota. Burchim).

Izzat-hurmat (yoki **izzat-ikrom**) Yuqori darajadagi hurmat-ehtirom. *Xullas, ustozning xizmatini sanab oxiriga yetkazish qiyin. Shuning uchun ham, har bir*

o'quvchi ustozlarning i z z a t-h u r m a t ini joyiga qo'yishi lozim (M.Tojimurodova. Ustoz otangdan ulug'). **Izzat qilmoq** Hurmatlamoq, hurmat-ehtirom ko'rsatmoq. *Men Hakimdan kattaman-ku, Meni i z z a t q i l s i n-d a u* (Po'lat Mo'min. Hakimjonga rahmat...).

IZOH So'z, voqeа-hodisa yoki boshqa narsalarga berilgan tushuntirish. *Mahoratli sarkarda, betakror shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" javonimizda...* Ayniqsa, "Boburnoma"da botanika", "Boburnoma"da zoologiya" suratlari siz uchun atalgandek. Sharh va i z o h larni o'qisangiz, ko'p narsadan xabar topasiz ("G'uncha"dan).

Izoh bermoq Tushuntirish bermoq. *Xayri yalt etib tarbiyachi ayolga qaradi. U esa shoshib i z o h b e r a b o sh l a d i* (Said Ahmad. Begona).

IZOHLAMOQ So'z, voqeа-hodisa yoki boshqa narsalarning ma'no-mazmunini tushuntirmoq. *Ertasi kuni Muxtor o'zi to'plagan maqollarni birma-bir aytib, ma'nosini ham i z o h l a b b e r d i* (M.Tojimurodova. Ustoz – otangdan ulug').

IZOHLI Ma'no-mazmuni tushuntirilgan, izohga ega.

Izohli lug'at So'zlarning ma'nolarini misollar asosida tushuntirib beruvchi lug'at. *Qani, i z o h l i l u g ' a t dan topib, o'qib ko'ray-chi, ma'nosini nima ekan* (X.To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati).

ISHKAL Chalkash, g'alvali holat. *O'rganmasam karra jadval, Ko'p ishlarim bo'lar i sh k a l* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *It ishonchli izquvar, Ishini yaxshi bilar. I sh k a l qilsa kim-birov,*

Izini olib darrov Izlab-izlab topadi, Irillaydi, qopadi
(Dilshod Rajab. Qiziq alifbo).

ISHTAHA Ovqatlanishga bo‘lgan kuchli xohish, ovqat yeish istagi. *Ochiqqan Yulg‘ich ovqatlarni zo‘r i sh t a h a bilan yemoqqa boshlabdi* (T.G‘oipov. *Yulg‘ichning tavbasi*). *U ovqatni i sh t a h a bilan yeb, sog‘aya boshlabdi* (T.G‘oipov. *Yashirilgan qiz*). *I sh t a h a si zo‘r, Ashaddiy sutxo‘r O‘g‘ri mushuk bor* (Anvar Obidjon. *Botirvoyning kundaligi*).

Ishtaha(ni) ochmoq Ishtaha paydo qilmoq. *I sh t a h a ham o ch i l d i lang, Turdi hayron, turar hang mang* (H.Imonberdiyev. *Turdi*, o‘g‘ri va Ketmonvoy). *Ish i sh t a h a o ch a r, Dangasa ishdan qochar* (Maqol). *Ishtahasi karnay Ishtahasi juda ham yaxshi. Qarang, harqalay, I sh t a h a m k a r n a y* (Po‘lat Mo‘min. *Ertakdan ertakka*).

ISHCHAN G‘ayrat bilan astoydil ishlaydigan, ishdan qochmaydigan. *Zidi: ishyoqmas, dangasa, tanbal, yalqov. Ma‘nodoshi: mehnatsevar. Mening i sh ch a n va chaqqon, Mehnatsevar opam bor* (Zafar Diyor. *Bizning oila*). *Ming bir i sh ch a n bolaga Boshdir bitta enaga. Asal yig‘ar tun-u kun, Qo‘nib turfa gullarga* (“G‘uncha”dan. Topishmoq; javobi: asalari). *I sh ch a n man deb maqtanmayman, Arzanda ham emasman. Yozish, chizish lozim bo‘lsa, Hech charchadim, demasman* (Abdurahmon Akbar. *Avtoruchkaning yozganlari*).





JADAL Tezlik bilan, shoshilinch. *Bo'pti, j a d a l-roq yuraylik, o'zing aytganingdek, tezroq Xonsupaga yetib olsak, marra bizniki* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Tuzalay desa kasal, Tabib kelarkan j a-d a l* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Fil ko'rindi bir mahal, Kelardi yurib j a d a l* (Habib Rahmat. Mehmon otangdan ulug').

JAJJI Kichkinagina. Zidi: **ulkan**. *Ra'no kichkina hali, Ishiga hamma hayron: Qo'lida j a j j i supurgi, Chinnidek hovli, ayvon* (Ilyos Muslim. Odobli qizcha). *Ukam xursand, ortidan Silkir j a j j i qo'lini* (H.Murodov. Yo'l). *Quyosh tomon yo'l olib, Uchib borar j a j j i qush* (H.Murodov. Halokat).

JANJAL Bir-biri bilan o'rinsiz aytishish, behuda urishish. *Ot va Tuya baravar Deyishdi dangal: "Qaysi Eshak j a n j a l ni Boshladi avval?"* (Qambar Ota. O'xshamay ketgur). *Hazil-hazil bilan bo'p, Boshlanib ketdi j a n j a l* (Abdurahmon Akbar. Bir qishloq bolalari). *Ortib j a n j a l, mashmasha, Qizidi xo'p tomosha* (Rauf Tolib. Katta tanaffusda). *Bularning j a n j a l ini eshitib qolgan Moshvoy sekin kelib, ikkala sichqonni ham yeb qo'yibdi* ("Sichqonlar tortishuvi" ertagi).

JARANGDOR Yoqimli aks sado beradigan, qo'ng'iroqning ovoziga o'xshagan. *Qo'ng'iroqning*

jarang dor Ovozini eshiting, Go 'yo ochar jaranglab, Ilm-u saboq eshigin (E.Fazliddinova. Birinchi qo‘ng‘iroq). *Yosh shoirning goh qo ‘ng‘iroqday j arang dor, goh tong shamoliday mayin ovozi bulbulni o ‘ziga maftun etibdi* (“Alisher bilan bulbul” rivoyati).

JASORAT Dovyuraklik, botirlik. *Bu alplarning jasoratni kezadi* (T.Adashboev. Shuhrat ko‘rki). *Bu mardlik va mahorat, Bu kuchquvvat, jasorat Insonlarga yo‘ldoshdir* (Zafar Diyor. Yuksak tog‘...).

JASUR Jasoratga ega, jasorati bor. *Mard va jasur malika La’nat o‘qib sur yovga, Janggoh sari otildi, Minib uchqur bedovga* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon). *Vatanim sarhadlari Daxlsiz va juda go‘zal. Uni jasur o‘g‘lonlar Qo‘riqlab kelgan azal* (O.Suyundiqova. Yosh askar). *Yo‘q, yo‘q, qo‘rqaq emasman, Juda jasur bolaman* (K.Turdiyeva. Qush bo‘lib uchgan ona.).

JAHON Butun yer yuzi. *Ma‘nodoshi: dunyo, olam. Oxiri tilga kirdi Samarqandlik Hakimjon, Dedi: Bizning shaharni Biladi butun ja hon* (A.Oripov. Dehqonbobo va o‘n ikki bolakay qissasi). *Yashab shu hur zamonda, Shunday obod makonda, Dil-dilingdan iqror bo‘l – Bunday yurt yo‘q ja hon da!* (O.Quvvattov. Qadriga yet). *Har qanaqa urushga Bizlar doim qarshimiz. Uyda, elda, ja hon da Totuvlik bo‘lsin hargiz* (Po‘lat Mo‘min. Uch bolaning janjali).

JAZIRAMA Kuydirib yuboradigan darajada, juda issiq. *Jazirama yozda boshidan issiq o‘tib ketmasin deb, gullarning ustiga qog‘ozdan soyabon vasab qo‘yarkan* (Oydinniso. Kashfiyotning kash-

fiyotlari). *J a z i r a m a issiqda Ketardim yo'lda* (Po'lat Mo'min. Yo'ldagi sada). *J a z i r a m a da holdan toygan kishilar kechki salqinda biroz dam olmoqchi bo'lib to'xtashibdi* ("Dushmanning katta-kichigi bo'lmas" ertagi).

JIMJIT Hech qanday ovoz, shovqin-suron yo'q, tinch. *Chindan ham, ko'l sohili va o'rmon suv sepgandek j i m j i t edi* ("G'uncha"dan). *Bog' ichi j i m j i t, hech kim yo'q ekan* ("Tohir va Zuhra" ertagi). *Tevarak-atrofj i m j i t, faqat chigirkalarning chirillashi-yu, oyoq tagidagi xaslarning shitirlab sinishidan boshqa tovush eshitilmas emish* ("Nima eksang, shuni o'rasan" ertagi).

JISMONIY Tanaga, vujudga tegishli. *J i s m o n i y sog'lom, aqlan barkamol bola kelajagi ta'minlandi: hamma narsa bola uchun, uning salomatligi, baxt-u kamoli, ertasi uchun bunyod etildi* ("G'uncha"dan). *Hakamning j i s m o n i y tayyorgarligi futbolchinikidan kam bo'lmasligi kerak* ("G'uncha"dan).

JONIVOR Tabiatdagi hamma joni bor narsalar. *J o n i v o r l a r o'lmasin, Biron o'qqa duch kelib* (Habib Rahmat. Yaxshi qildim). *Belkuraksiz yer kovlar, Tosh, tuproq – unga makon. Quyosh nurin ko'rmaydi, Bu j o-n i v o r... ko'rsichqon* ("G'uncha"dan). *Atrof-muhitni toza, ozoda saqlash, to'kilgan xazonlarni maxsus joy-larga toplash, j o n i v o r larni asrash-avaylash haqida ko'p ma'lumotlarni bilib oldik* ("G'uncha"dan).

JUDO Ajralgan, ajratib qo'yilgan.

Judo bo'lmoq Biror odam yoki narsadan ayrilmoq, mahrum bo'lmoq. *Boqijon cholga o'z boshidan kechgan kunlarni so'zlab beribdi. Nihoyat, mana shu*

dardga mubtalo bo'lganini, tuzala olmay yotganini, shu kasal tufayli o'z vatanidan j u d o b o' l g a n larini aytib beribdi (“Sabr tagi – sariq oltin” ertagi).

Judo qilmoq Biror odam yoki narsadan ayirmoq, mahrum qilmoq. *Hech bandani, Ey falak, Ju d o q i l - m a elidan, Farzandlarni onadan Hamda ona tilidan!* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon).

JUMBOQ 1 Topishmoqning yana bir nomi. *Ayting, qani, bolalar, Bu j u m b o q ni kim yechar: Qorbobo bilan Qorqiz Yil bo'yi ne ish qilar?* (T.Adashboyev. Jumboq).

2 Hal qilinishi kerak bo'lgan ish, muammo. *Navoiy bu j u m b o q ni yechishni ularning o'zlariga havola qilibdi* (“Oqilona javob” rivoyati). *Baxtomading Undan qidir. U ko'p j u m b o q Kalitidir* (“G‘uncha”dan). *Qachon tugar bu janjal? Kim j u m - b o q ni etar hal?* (Habib Rahmat. To‘rt hunarmand haqida ertak).

JUFT 1 Hamisha qo'shaloq holda bo'ladigan (narsa). *Farangiz qutichani shoshib ochdi. Ichida bir j u f t oppoq etikcha bor edi* (“G‘uncha”dan).

2 Ikkiga qoldiqsiz bo'linadigan (sonlar haqida). *Zidi: toq. Ikki joyda ikki bo'lsa, Ju f t bo'larmi yoki toq? Top o'rtoq!* (Obid Rasul. Top, o'rtoq!). *Bahri qizim, sanab boq. Ko'k koptoging j u f t mi, toq?* (Quddus Muhammadiy. Tabiat alifbesi).

JUR'AT Qiyinchiliklardan qo'rmaslik, hayiqmaslik. *Qiz boladagi bunday j u r ' a t Qibla mahalla bolalarining ham niyatini qo'zg'ab yubordi, shekilli* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Qo'rmaslik fotoaparatdan, Tushdim hatto suratga. Qoyilmisiz, oshna-*

voylar, Mendagi bu j u r ' a t ga?! (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi).

Jur'at qilmoq (yoki etmoq) Qo‘rqmasdan, hayiqmasdan dadil harakat qilmoq. *Shu paytgacha buloqning Sirin hech kim bilganmas. Shundanmi, yuvingga Hech kim j u r ' a t q i l g a n m a s* (H.Imonberdiyev. Sirli buloq). *Zolim hukmdorning beshafqat qonuni tufayli unga qarashli joylarga yaqin kelishga hech kim j u r ' a t e t o l m a s ekan* (U.Ismoilov. Ertaklarda matematika). *Shunday yolg‘on gapirishga qanday j u r ' a t e t d i n g?* (“Yolg‘on” ertagi).



KAMBAG‘AL Yashash uchun kerakli narsasi yetarli bo‘l magan. Zidi: **boy**. Ma‘nodoshi: **qashshoq**. Xon: “Men xon bo‘lsam-u, o‘sha k a m b a g‘ a l, qashshoq cholning uyiga mehmondorchilikka boramanmi?” – deb bormabdi (“Ur, to‘qmoq” ertagi). Do‘sning katta-kichigi, boy-k a m b a g‘ a l i bo‘lmaydi. Eng muhimi, mehribon va sadoqatli bo‘lsa bo‘ldi (H.Ahmedova. Do‘slik). Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir k a m b a g‘ a l dehqon bor ekan (“Oltin tarvuz” ertagi).

KAMOL Hamma tomondan yetuklik, har jihatdan mukammallik. Shogirdlarimning k a m o l i mehnatimga berilgan bahodir, – deydi raqs to‘garagi rahbari Noila Ortigova (“G‘uncha”dan). Ko‘z qamashar jamolingdan, Yurak quvnar k a m o l ingdan (Qambar Ota. Qirqog‘ayni).

Kamol topmoq Hamma tomondan yetuklikka erishmoq. Erka farzandsan elga, Tezroq ulg‘ay, t o p k a m o l, G‘ururing solib dilga, Senikidir Istiqlol (J.Jabborov. Istiqlol). O‘qib, k a m o l t o p, yuksal, Bari o‘zingga bog‘liq (O.Quvvatov. Qadriga yet).

KAMTAR O‘zini boshqalardan baland, ortiq ko‘rmaydigan, ortiqcha maqtanishni istamaydigan. Zidi: **manman**. K a m t a r g a – kamol, manmanga –

zavol (Maqol). Omon to 'g'riso 'z, k a m t a r, rahmdil ekan. Yomon esa, yolg'onchi, baxil ekan, do'sti Omonning baxtini hech ko 'rolmas ekan (“Omon bilan Yomon” ertagi). *G'azalxon G'oz sahnada Qo 'shiq aytar g'oq-g'oq deb, Kekkaymang davralarda, K a m -t a r bo 'ling, o'rtoq deb* (Dilshod Rajab. Qiziq alifbo).

KASB O'qish, o'rganish, alohida tajriba-tay-yorgarlik bilan egallanadigan ish-faoliyat turi. *Ma'nodoshi: hunar. Dunyoda k a s b juda ko 'p, O'g'limiz kim bo 'ladi?* (Z.Isomiddinov. Guldasta). *U bor joyda qahqaha, Gurros yangrar qarsaklar. Uning k a s b i shunaqa, Barchaga shodlik tilar* (D.Omonova. Masxaraboz). *Jon toychog 'im, o'sa qol, Ota-bobong k a s b in ol* (Obid Rasul. Toychog 'im).

KEKKAYMOQ 1 Gavdani tik, boshni baland tutmoq. *Ba'zi bir manman odam Xo'roz kabi k e k k a y a r* (E.Ro'zimatov. Fasllar ulug'i).

2 O'zini hammadan yuqori tutmoq, hech kimni nazariga ilmaslik. *Kekkayganni oqlash mumkin, Enkayganni oqlash mumkin, Xiyonatni oqlab bo 'lmas* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *So'ng bu so'zlarni aytib, bamisoli qahramonlik ko 'rsatgandek k e k k a y i b, o'tirganlarga bir-bir qarab chiqdi* (X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati). *Lekin shuni bil, yong'oq: Zo'rman, deya k e k k a y m a* (Miraziz A'zam. Zo'r yong'oq).

KEKSA Katta, ulug' yoshdagi (odam). *Zidi: yosh.* *Ma'nodoshi: qari. Bo'lgan ekan bir o'lsa, Bizning yurtdek chiroyli. K e k s a lari donishmand, Yigitlari yurakli* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). *Oppoq kumush soqolli K e k s a larga qarangiz. Bu*

sovg‘alar kimga? – deb Keksalardan so‘rangiz (Zafar Diyor. Sovg‘a). *K e k s a larga bermasdan salom – O‘tar edim doim gerdayib.* Eh, bu holat juda ham ayb (Po‘lat Mo‘min. Uzr so‘rayman).

KEMSHIK Bir-ikki old tishi tushib, o‘rnii ochiq qolgan. Nortojining hozir yoshi oltida, *Biroq chollar kabi k e m sh i k bechora* (G‘afur G‘ulom. Nortoji...). *Uchinchi choragimga hisobdan “uch” chiqqanligini Karim k e m sh i k aytib qo‘yganga o‘xshaydi* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha). *Karimning sir saqlay olmasligini Sherzod bu gal ham tushib qolgan oldingi ikkita tishining k e m sh i k ligidan ko‘rdi* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha).

KENJA Oilada eng oxiri tug‘ilgan bola. Zidi: **to‘ng‘ich.** *Mana shu xonadonda k e n j a farzand – jajjigina Masturaxon ham ulg‘ayayotgan ekan* (Z.Hasanova. Qorboboning sovg‘asi). *Salim deymiz kattasini, Eng k e n j a sin esa Hakim* (Po‘lat Mo‘min. Hakimjonga rahmat der har kim). *K e n j a o‘g‘lining javobi cholga yoqibdi* (“Aql va boylik” ertagi).

KULBA Juda ko‘rimsiz va kichkina uy. *O‘zi ham sezmay, asta-sekin shu ovoz kelgan tomonga qarab ketaveribdi. Yurib-yurib bir qorong‘i k u l b a ga kelib qolibdi, nay ovozi o‘sha yerdan eshitilayotgan ekan* (“Cho‘pon yigit bilan boy” ertagi).

KUMUSH 1 Oq rangli qimmatbaho metall. *Xazinamizdan istaganingcha tilla, k u m u sh olib xarajat qilaver! – debdi* (“Dushmanning katta-kichigi bo‘lmas” ertagi).

2 Kumushday oq va yaltiroq. *K u m u sh qishdan, zumrad bahordan Qolishmaydi kuzning ziynati*

(Uyg‘un. Kuz qo‘shiqlari). *K u m u sh soqol, mo ‘ylovi Yuzin bosgan bus-butun* (Zafar Diyor. Baxt bayrami).

KO‘HNA 1 *Uzoq zamonlardan beri kelayotgan.* *Ma’nodoshi: qadimiy.* *K o ‘ h n a tarix bu kunga Gar bo ‘Isa ibrat, Uni eslab turmoqlik Kerakdir, albat* (Shuhrat. To‘maris). *Yodgorliklar tarixin Qilishibdi zo ‘r kino. Sonsiz ekan Xivada Jilokor k o ‘ h n a bino* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi).

2 Vaqtlar o‘tishi bilan asl sifatini kamaytirgan. *Zidi: yangi.* *Ma’nodoshi: eski.* *U (no ‘xat) k o ‘ h n a yog ‘och uychaga uchib bordi-da, boloxona derazasi tagidagi tirqishga dumalab kirib ketdi* (H.K.Andersen. Bir qo‘zoqdan chiqqan besh no‘xat).

KO‘MAK Biron-bir jihatdan qo‘llab-quvvatlash. *Ma’nodoshi: yordam.* *Bizdan qanday k o ‘ m a k zarur bo ‘lsa, tortinmay ayting* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar). *Yigitlardan birining k o ‘ m a g i da otga minib, jilovini qo ‘ydi* (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon).

KO‘MAKLASHMOQ Biron ishni bajarishda qo‘llab-quvvatlamoq, ko‘mak bermoq. *Ma’nodoshi: yordamlashmoq.* *Qo ‘ltig ‘idan olib, o ‘rnidan turishiga k o ‘ m a k l a sh i b yubordim* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Oyim palov damlasa, Doimo chiqar xushta’m, Chunki oyijonimga K o ‘ m a k l a sh a m a n men ham* (Abdurahmon Akbar. Qaysi taom shirin?).

KO‘NMOQ 1 Rozi bo‘lmoq, xo‘p demoq. *Biz yashamoq istaymiz!* *Qul bo ‘lishga k o ‘ n m a y m i z.* *Demak, ozod yashash-chun Yovga omon bermaymiz* (Zafar Diyor. Biz yashamoq istaymiz). *Ko ‘zi lov-lov mushukvoy, Aytganingga k o ‘ n a m a n* (Miraziz A’zam. Epchil chumchuq va epsiz mushuk haqida

ertak). *Karvonboshi oldiniga k o' n m a b d i, keyin rozi bo'lib, jo'nab ketibdi* ("Yarimta non" ertagi).

2 Xarxasha, yig'idan to'xtamoq. *Ma'nodoshi: ovunmoq.* "Qand" deb yig'lar buzog'im, *Hech tinchimas qulog'im, Mo'-o'.* *Ko'nmayaapti usira Bersam hatto kunjara, Mo'-o'* (Anvar Obidjon. Sigir qo'shig'i).

KO'RKAM Ko'rinishi chiroyli. *Ma'nodoshi: go'zal.* *Mehnatingiz bilan taqir yerni k o' r k a m bog'-ga aylantirdingiz* (T.G'oipov. Bo'ri bilan ertakchi). *Ko'nglim yana Tog'day o'sar, Ko' r k a m bahor kelganda* (Zafar Diyor. Bahor yaqin). *Biram k o'r k a m, Shundoq shinam, Juda toza mahallamiz* (S.Barnoyev. Mahallamiz).

KO'ZLAMOQ Biror narsa yoki maqsadni mo'ljalamoq, ana shu yo'lda harakat qilmoq. *Tizilishib simlarga Shirin-shirin so'zlashdi. Ahil bo'lib, do'st bo'lib, In qurishni k o' z l a sh d i* (H.Murodov. Qaldirg'och). *Ochig'ini so'zlayman, Doim "besh" ni ko'zlayman* (Yo'ldosh Sulaymon. O'ylarim). *Burgut xayoli shirin, Balki, k o' z l a r osmonni* (H.Murodov. Hayvonot bog'ida). *Gapni kam so'zla, ishni ko'p k o' z l a* (Maqol).





LAHZA Ko‘z ochib yumguncha o‘tadigan vaqt. *Ma‘nodoshi: on. Mehnatini qadrlab, Quyoshday nur sochar baxt. Umrin har l a h z a s i ga “Besh” baho qo‘yar hayot* (Qambar Ota. Komilning kundaligi). *Shu l a h z a d a n eng sodiq Hamrohim To‘ra bo‘ldi* (Ravshan Fayz. Men shamolni tutvoldim).

LANDAVUR Hech bir ishni uddalay olmaydigan. *Zidi: abjir, epchil, chaqqon, uddaburon. Ma‘nodoshi: bo‘shang, noshud, lapashang.* *Bir l a n d a v u r bolakay Maktabdan qaytayotib, Yurar papka yo‘qotib* (Po‘lat Mo‘min. Maktabdan qaytayotib).

LAPASHANG Biror ishni eplay olmaydigan, bo‘shashib yuraveradigan. *Zidi: abjir, epchil, chaqqon, uddaburon. Ma‘nodoshi: bo‘shang, noshud, landavur.* *Senlar tekin yeysanlar, So‘zni yolg‘on deysanlar. L a p a sh a ng l a r, bo‘shanglar; Baring ishdan bo‘shanglar* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti).

LAQMA Har narsaga ishonaveradigan, mulohaza qilib o‘tirmaydigan, yolg‘onga laqqa tushadigan. *Ma‘nodoshi: go‘l. Sirim aslo ochilmasin deb, Yurar Yolg‘on ich-etini yeb. Shu sababdan egri yo‘l chizar, Anqov bilan l a q m a n i izlar* (Po‘lat Mo‘min. Chin va Yolg‘on). *Biz kutgandan ziyoda Laqmalar ko‘p*

dunyoda (H.Imonberdiyev. Imtihonda). “*Olabo ‘ji*” – *quruq vahma, Sendan qo ‘rqar faqat laqma* (H.Imonberdiyev. Olabo ‘ji).

LAZZAT Huzur tuyg‘usi, maza qilish hissi. *Bu so ‘zlarga javoban ari shunday dedi:* “*Oh do ‘stim! Bu sening turmushing. Qanday yashash o ‘zingga havola. Mashaqqatsiz taomda l a z z a t bo ‘larmi?!*” (Abdulla Avloniy. Bolari bilan pashsha). *L a z z a t olib hididan Bolarilar uchadi* (Zafar Diyor. Gunafsha). *Ne ‘matlarning ichida L a z z a t i zo ‘r sumalak* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar).

LOYIQ 1 To‘g‘ri keladigan, munosib bo‘lgan, arziydigan. *Shundagina boy har bir odamga o ‘ziga l o y i q ish berish kerakligi haqida o ‘ylabdi* (“O‘ziga loyiq ish” ertagi). *Shunday hurmatga l o y i q Bizning elda ishchilar* (Asqad Muxtor. Hafta). *Menga shogird bo ‘lishga l o y i q san* (T.G‘oipov. Mardni maydonda sinang).

2 O‘lchami mos keladigan. *Farangiz etikchani shoshgancha, oyoqlariga kiyib ko ‘rdi. L o y i q, xuddi o ‘ziga moslab tikilgandek* (“G‘uncha”dan).





MADADKOR Yordam beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi. *Orzularim bir jahon, Bo'lmoqchiman shifokor. Ota-onamning faxri, El-u yurtga m a d a d-k o r* ("G'uncha"dan). *Biz barkamol avlodlar, Senga tayanch, m a d a d k o r* (I.Sultonov. Vatan).

MAHMADONA O'zini bilag'on hisoblab, bilsa ham, bilmasa ham, gapga aralashaveradigan. *Ishga yo'q, m a h m a d o n a, Maqtanishda yagona* (H.Imonberdiyev. Rassom.). *Og'zi charchar, kimki bo'lsa Ma h m a d o n a. Ochofatning charcharmikan Qorni sira?* (Po'lat Mo'min. Ishlagan charchaydi). *Ko'p m a h m a d o n a bo'laverma. Hozir bog'chaga boramiz* (S.Barnoyev. Bog'chaga – do'mboqchaga...).

MAKON 1 Yashash joyi, turarjoy, vatan. *Yashab shu hur zamonda Shunday obod m a k o n da, Dil-dilingdan iqror bo'l – Bunday yurt yo'q jahonda* (O.Quvvatov. Qadriga yet). *Yurtning mard o'g'lonlari... O'z ona m a k o n ini Ayamasdan jonini Qo'riqlar har on, har dam* (K.Turdiyeva. Xotirjam ona Vatan). *U qarg'a, sichqon va toshbaqaning totuv bo'lib yurishganini ko'rib, qarg'aning m a k o n iga qarab yo'l olibdi* ("Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagi).

2 Biror narsa ko'p bo'lgan, to'plangan joy. *Ona kabi mehribon, Ilm-fanlarg'a m a k o n, Yayrab*

o‘qiyman har on, Qadrdonim maktabim! (Ilyos Muslim. Maktabim).

MALHAM 1 Xamirga o‘xshagan surtma dori. *Malham bilan tez kunda Bitib ketdi bu yara* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon). *Keyin onasi uning malham surtib bog‘langan boshini silab, ... nasihat qildi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

2 Davo bo‘ladigan har qanday narsa. *Ozodalik odamning Tani-joniga malham* (Po‘lat Mo‘min. Tish cho‘tka, poroshok va atirsovun ertagi). *So‘lim, soz tabiatni Malham bo‘lar dardlarga* (H.Murodov. Mehmon bo‘ling, do‘stilarim). *Endi oftobning issig‘i unga malham bo‘ladi, kuch beradi* (“G‘uncha”dan).

MANGU Hech qachon tugamaydigan, hamisha davom etadigan, dunyo turguncha, poyoni yo‘q. *Zidi: vaqtincha. Ma‘nodoshi: abadiy.* *O‘zing mang u emas, oting mang u dir, Oting qolar bo‘lsa, mangilik shudir* (Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig). *Haqsevar ona yurt, mang u bo‘l obod* (A.Oripov. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi). *Sen ona Yerimizning Mang u yashil bolasi* (H.Murodov. Archa).

MANMAN O‘zini katta tutadigan, boshqalarni mensimaydigan. *Zidi: kamtar.* *Ba‘zi bir manmagan odam Xo‘roz kabi kekkayar* (E.Ro‘zimatov. Fasllar ulug‘i). *Kamtarga – kamol, manmagan zavol* (Maqol).

MAQSAD Qo‘lga kiritilishi, amalga oshirilishi, erishilishi mo‘ljallangan narsa, niyat. *Ma‘nodoshi: murod.* *Maqsadimiz tog‘day ulug‘ – Chambarchasdir tutash qo‘llar.* *Ozodlikning yo‘li qutlug‘ – Olg‘a,*

do'stlar, og'aynilar (Miraziz A'zam. Biz yengamiz bo'ronlarni). *Bizlarga zavq ularishish – Maqsad ing tayin. Kelaqol, peshonangdan o'pib qo'yayin* (N.Dushayev. Muzqaymoq).

Maqsadga erishmoq (yoki **maqsadga yetmoq**) Avvaldan mo'ljallangan narsa, niyatni amalga oshirmoq. *Chin ko'ngildan uringan Maqsad i g a y et arka an* (Z.Isomiddinov. Masala). *Yo'llar eltar mакtabga, Yetkazar adi m a q s a d g a* (Po'lat Mo'min. Suqatoy Konfetvoy).

MAQTANCHOQ Boshqalardan o'zini ustun qo'yib, o'zini o'zi maqtaydigan, maqtanishni yaxshi ko'radigan. *Maqtanchoq bo'lman — xijolat tortmaysiz* ("Uch og'a-ini botirlar" ertagi). *Bir maqtanchoq, qarang, rosa Maqtanar...* (Po'lat Mo'min. Betayin maqtanadi). *To'satdan turgan shamol... Maqtanchoq qushchalarning Unlarini o'chirdi* (H.Imonberdiyev. Kim zo'r?).

MAQTOV Yaxshi xususiyatlar ulug'lanib, aytilgan yoki yozilgan gap. *Zidi: tanqid.* *Qo'rqmadi hech tanqiddan, Taltaymadi maqtovga* (Rauf Tolib. G'olib). *Maqtov imdan quvonib, quvnoq o'yini qolib, U kam ketar uzoqqa, O't o'rish-chun buzoqqa* (N.Dushayev. Shirin so'zning kuchi). *Osmon to'la uchgan qush Shu o'ikaning kaptari. Maqtov iga yetmaydi Shoirlarning daftari* (Zafar Diyor. Serquyosh o'lka).

MARD Qo'rquv nimaligini bilmaydigan, aytgani ning ustidan chiqadigan. *Zidi: nomard, qo'rqoq. Ma'nodoshi: qo'rqmas, botir, jasur.* *Amakimning gaplariga quloq tutaman. Bir kun kelib Vatanimning mard o'g'loni bo'laman* ("G'uncha"dan). *Yurtimni*

himoya qilaman deb, m a r d yigitlar oyoqqa turgan, nomardlar o'zini panaga olgan zamонлар edi (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *M a r d To'maris dovrug 'in El qildi doston* (Shuhrat. To'maris).

MARDONA Mardlar kabi, mardlarcha. *Jangga kirdi m a r d o n a, Iftixor bilan. Ishonch bilan, o'ch bilan, Nomus-or bilan* (Shuhrat. To'maris). *Ko'zлari o'tkir Merganlar kerak. Mardon a ko'krak Kerganlar kerak* (Po'lat Mo'min. Dovyuraklar). *Bizlar bo'lsak, bu yerda Mehnat qildik m a r d o n a* (Zafar Diyor. Qahramonning kelishi).

MARRA 1 Musobaqada bosib o'tiladigan masofa-ning oxirgi nuqtasi. *Poygada charchab, horib, Nafasin olib arang, M a r r a ga eng oxiri Yetib kelsa ham, qarang...* (Abdurahmon Akbar. Ehtiyotkor toshbaqa). *Shoshib uzoq o'lkadan qaytar qushlar galasi, Oldin keldi m a r r a ga sho 'x Chumchuqlar pirillab* (Anvar Obidjon. Bahor).

2 Umuman, erishilishi lozim bo'lgan eng yuqori natija, yutuq. *Bo'pti, jadalroq yuraylik, o'zing ayganingdek tezroq Xonsupaga yetib olsak, m a r r a bizniki* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

MASLAHAT Biror ishni qanday qilsa, yaxshi natija bo'lishi haqida aytigelgan gap, fikr-mulohaza. *Bolamizning tarbiyasi haqida bizga m a s l a h a t bersangiz. Toki katta bo'lgach, el-yurtga foydasi tegadigan kishi bo'lsa* ("Ikki savdogar" ertagi). *Bayram kuni oyimning m a s l a h a t i bilan uxlash uchun o'rningma ertaroq yotdim* ("G'uncha"dan). *Hatto dadam har doim bobomdan m a s l a h a t so'raydi. Donishmand degani mening bobom bo'lsa kerak* ("G'uncha"dan).

MASXARA Birovni kamsitib, ermak qilib aytilgan gap-so‘z yoki shu ma’noda qilingan xatti-harakat. *Ma’nodoshi: mazax, kalaka. Fotima m a s x a r a va mazaxlarga chiday olmadi, titrab ketdi* (Parda Tursun. O‘qituvchi).

Masxara qilmoq Birovni kamsitib, ermak qilib gap-so‘z aytmoq, ana shu ma’noda xatti-harakat qilmoq. *Shokirning m a s x a r a q i l i b, ustidan kulishi unga alam qildi, juda-juda alam qildi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Tarnovlarda osilgan Sumalaklar – tiling, Qish. Hech gunoh qilmasak-da, Chimchilab yuz-burunni, Tag‘in q i l i b m a s x a r a, Ko‘rsatasan tilingni* (Dilshod Rajab. Qishga). *Yuksaklikdan qo‘rqqanlarni Q i l i b go‘yo m a s x a r a – O‘zin otib, Qotib-qotib Qah-qah urar sharshara* (Dilshod Rajab. Xonobod).

MAXSUS 1 Alovida ajratilgan, biror maqsadga mo‘ljallangan. *Shahar. Asfaltli ko‘cha. Ammo ko‘cha bo‘lakcha. Bir yonida hayvonlar Uchun m a x s u s yo‘lakcha* (H.Imonberdiyev. O‘rmondagi “tomosha”). *Atrof-muhitni toza, ozoda saqlash, to‘kilgan xazonlarni m a x s u s joylarga to‘plash, jonivorlarni asrab-avaylash haqida ko‘p ma‘lumotlarni bilib oldik* (“G‘uncha”dan).

2 Biror ixtisos, kasbga tegishli bo‘lgan. *Maxsus ta’lim.*

MAYIN 1 Qo‘lga yumshoq, muloyim tegadigan. *Zidi: dag‘al. Mushugim bor, yoqimtoy, Yunglari m a y i n, qora* (I.Olloberganov. Mushugim). *Qushcha chiroyli, m a y i n patlari sariq, jajji qanotlarining uchlari oppoq edi* (“G‘uncha”dan).

2 Odamga juda ham yoqadigan. *Go'yo qo'shiq kuylaydi, Suvlar m a y i n shildirab* (Po'lat Mo'min. Suv sepaman hovliga). *Onajonim, alla aytsangiz, Tezda uxlab qolgim keladi. Sizning m a y i n ovozingizga To'yib qulq solgim keladi* ("G'uncha"dan). *Onasi ayiqchani o'rniqa yotqizib, m a y i n alla ayta boshladi* (Raim Farhodiy. Ayiqcha Taptapvoy).

MAZAX Birovning ustidan o'rinsiz kulib aytilgan gap-so'z yoki shu ma'noda qilingan xatti-harakat. *Ma'nodoshi: masxara, kalaka. Indamasam, o'zingcha katta ketib, har xil m a z a x gap aytvoryapsan* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

Mazax qilmoq Birovning ustidan kulmoq. *Meni m a z a x q i l g a n d a y – Kulib qo'yardi ukam* (Po'lat Mo'min. Eh, rosa shirin ekan). *Tushlikdan so'ng anhor bo'yida Yuvganida choynak-piyola, Karimjonni "qiz bola" deya, M a z a x q i l d i uch-to'rtta bola* (Abdurahmon Akbar. Yolg'iz farzand).

MAG'LUB Yengilgan. *Zidi: g'olib.* *G'olib polvonni jo'ralari quchoqlab qutlashgan, m a g'lu b polvon tarafidagilar esa "O'sha polvoning endi menga chiqsin!" degandek davra aylanadilar* (A.Ayizov. Polvon yig'lagan tun).

Mag'lub bo'lmoq Yengilmoq. *Sovuq qish m a g'-lu b b o'l i b, Bahorjon g'olib keldi* (H.Murodov. Yakka tut – mingta tut.). *Mag'lub qilmoq* (yoki mag'lub etmoq) Yengmoq. *Ayting-chi, shahzoda ajdarhoni m a g'lu b q i l a oladimi? Agar m a g'lu b q i l s a, u nechta zarb bilan ajdarhoning barcha boshi va dumini uzib tashlay oladi?* (U.Ismoilov. Ertaklarda matematika). *Qo'poradi tog'ni ham, Kelib qolsa xonasi... Uni*

m a g‘ l u b e t o l g a y Faqat tuqqan onasi (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon). *Uni m a g‘ l u b e t i sh g a Bilmam, Qaysi dev qodir...* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon).

MAG‘RUR O‘z qadr-qimmatini biladigan, g‘ururini hamisha saqlaydigan, o‘zini boshqadan past bilmaydigan. *Garchi mag‘lub bo‘lsa ham, Ma g‘-rur tur turgan yosh polvon* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon). *Ma g‘ r u r miz har doim – Baland boshimiz* (Miraziz A’zam. Kelajak bizniki). *Do‘stlarini kutib olish uchun yo‘lakka to‘shalgan qizil gilamdan m a g‘ r u r yurib o‘tdi* (“G‘uncha”dan).

MASHAQQAT Ortiq darajadagi qiyinchilik. *Yo‘l juda olis, Yetmoq – m a sh a q q a t. Kerak behad kuch, Iroda faqat* (Qudrat Hikmat. Oyga poyga). *Kambag‘al ko‘p m a sh a q q a t lar bilan qaytadan uy solibdi* (“Ahmoq podsho” ertagi). *Iste‘dodingni kamolga yetkazish uchun odam ne-ne m a sh a q q a t larga chidashi lozim* (M.Tojimurodova. Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichar).

MASHHUR Hamma biladigan, hamma taniydigan, shuhrati bilan nom chiqargan. *Ma‘nodoshi: taniqli, atoqli. Tinchlikka mas‘ul, Mehnatda mashg‘ul, Jahonga mashhur O‘zbekistonim* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Qizning ahvoli tobora og‘irlasha boshlagach, ona yeri bilan maslahatlashibdi. Mashhur bir tabibni chaqirib kelib, uni ko‘rsatishibdi* (T.G‘oipov. Yashirilgan qiz.). *Payti kelib bu go‘dak Bo‘lar m a sh h u r pahlavon* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon).

MEHMON Birovnikiga to'y, ziyofat, umuman, mehmondorchilikka borgan odam. *Zidi: mezbon. Mehemmon kutar Gulrayhon, Bezab to'kin dasturxon* (Abdurahmon Akbar. Pazanda mezbon). *Xush kelibsiz, mehemmonlar, O'zbekning diyoriga, Xalqimizning quchog'i Ochiq do'st-u yoriga* (Miraziz A'zam. Xush kelibsiz). *Uyning to'rida mehemmon O'lтирар savlat to'kib* (Rauf Tolib. Qurbaqa va chumoli).

MEHMONDO'ST Mehmonni, mehmon kutishni yaxshi ko'radigan. *Bolam, bitta niyatim – Bo'linglar siz mehemmon do'st* (Safar Barno. Mehmon). *Biz, o'zbeklar mehemmon do'st xalqmiz* (Sh.Xolmirzayev. Ko'k dengiz).

MEHNATKASH Mehnatni yaxshi ko'radigan, mehnat qilib charchamaydigan. *Ma'nodoshi: mehnat-sevar. Yerga mehrini bergen Bog'bon, mehnatka sh dehqon* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami). *Onalari singari Bolarilar mehnata tka sh. Ularga yot shu bois Tekin yeb, tekin oshash* (Abdurahmon Akbar. Bolarilar). *Ota-onam mehnata tka sh, Men ularga o'xshayman. Duolari qo'llaydi, Gulday bo'lib yashnayman* (T.O'tarova. Gulday bo'lib yashnayman).

MERGAN Mo'ljalni aniq ola biladigan, har qanday nishonni bexato uradigan. *Xo'p o'rgandim miltiqni, Endi usta meргаn man* (Zafar Diyor. Mergan). *Shunday meргаn bo'lginki, Bo'sh ketkizma bir o'qni* (Zafar Diyor. Ikkimiz ham a'luchi). *Hoy dovyurak meргаnlar; Poylab oting yovlarni!* (Zafar Diyor. Biz yashamoq istaymiz).

MEROS Ota-bobolardan, ajdodlardan avlodlarga qolgan mulk, boylik. *Otalar so'zidir biz uchun me-*



r o s, Otalar so‘zining nafi beqiyos (Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig). *Eshidimki, qiziq, ajab, Ertak butkul yolg‘onmish. Bobolardan, momolardan Bizga m e- r o s qolganmish* (Rauf Tolib. Ertaklarga ishonib...). *Mir Alisher bobomlardan Me r o s bo‘lib qolgan tilim* (T.Adashboev. Ona tilim).

MEZBON Mehmonni kutib oluvchi, mehmondor-chilikning egasi. *Zidi: mehmon. Ikkalamiz bo‘lib m e z b o n, Mehmonlarni kutyapmiz* (K.Turdiyeva. Qush bo‘lib uchgan ona). *Yugurib-yelib m e z b o n Tayyorlar turli ovqat* (Rauf Tolib. Qurbaqa va chumoli). *Yaylov saxiy m e z b o n dek To‘kib solgan borini* (Habib Rahmat. Saxiy mezbon).

MINNATDOR Birovning qilgan yaxshiligidan xursandlik va qarzdorlik tuyg‘usi. *Quvonchdan yay- rar tanam, M i n n a t d o r bo‘lsa onam* (Yo‘ldosh Sulaymon. Men birinchi muallim). *Yashar bo‘lib m i n n a t d o r Qush, hasharot, jonivorlar* (Sulton Jabbor. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam).

MINNATDOR(CHI)LIK Minnatdor ekanlik. *Olim yigitning mard chehrasiga m i n n a t d o r l i k bilan boqibdi* (T.G‘oipov. Mardni maydonda sinang).

Minnatdorchilik bildirmoq Minnatdor ekanligini izhor qilmoq. *Tanlovda faol qatnashgan o‘quvchi-larga samimiyl m i n n a t d o r ch i l ik bildirib, kel-gusi tanlovlарimizda ham ajoyib ijod namunalari bilan qatnashishlarini istaymiz* (“G‘uncha”dan). *Qiz kampirgamin natdorchilik bildirib, xayrlashibdi- da, yo‘lga tushibdi* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Shu Botir cho‘pon bilan xotiniga bir yaxshi gap aytgim, m i n n a t d o r ch i l i k b i l d i r g i m k e l a r d i* (Sh.Xolmirzayev. O‘zbek xarakteri).

MITTI Juda ham kichkina. Zidi: **ulkan**. *M i t-t i, m i t t i j o 'j a l a r, Chiroylisiz m u n c h a l a r* (O.Po'latov Mitti jo'jalar). *Suzib borar barg suvda M i t t i k e m a m i s o l i* (Habib Rahmat. Qo'rqmas kapitan). *D o i m u y g a b i r n i m a T a s h i g a n i - t a s h i g a n*. *Yaxshiyam, m i t t i g i n a, Filday emas, yaxshiyam* (Dilshod Rajab. Chumoli).

MOHIR O'z ishini juda yaxshi biladigan, ishni ustalik bilan bajaradigan. *Q a d i m z a m o n d a M a r g ' i l o n t o m o n d a b i r m o h i r t o ' q u v c h i y a s h a g a n e k a n* (T.G'oipov. Tovusning hadyasi). *M o h i r q o ' l l i T a b i a t O'z h u n a r i n k o ' r g a z a r* (Zafar Diyor. Qor). *N o r e s k i b o t i n k a s i n Q o q i b - a r t i b c h a n g - c h u n g i n, M o h i r u s t a l a r g a x o s M o y l a g a n e k a n, x o l o s* (Abdurahmon Akbar. Bizning Nor).

MUHANDIS Texnika bilan bog'liq oliy malakali mutaxassis. *D a d a m k a t t a z a v o d d a E n g m o h i r m u h a n d i s l a r*. *T e r i m m a s h i n a s i g a H a r x i l d e t a l l a r y a s a r* (Po'lat Mo'min. Dadam ishdan kelsalar). *B i r i b o ' l i b m u h a n d i s C h i z i b b e r d i j o y i n i*. *Q o l g a n l a r i t e z l i k d a K e l t i r i s h d i l o y i n i* (H.Murodov. Qaldirg'och). *K e l a j a k d a k i m b o ' l s a m, D e y a o ' y l a b q o l a m a n: M u h a n d i s m i y o i s h c h i, O l i m y o k i q u r u v c h i* (X.Raimov. Maktabjon).

MUHTOJ Biror narsaga ehtiyoji bo'lgan, o'zgadan yordam kutgan. *O'zi t o p o l m a s i l o j, R o s t i, y o r d a m g a m u h t o j* (Po'lat Mo'min. Yordam kutar do'stingiz). *J u d a m u h t o j b o ' l g a n d a I n s o n o d d i y m e h r g a, K u t a r e k a n m o ' j i z a* (K.Turdiyeva. Qush bo'lib uchgan ona). *H a r k i m n i m a e k s a, a l b a t t a, shuni o ' r a d u r, E k m a g a n l a r o ' z g a l a r g a m u h t o j b o ' l a d u r* (Abdulla Avloniy. Yoz).



MUROD Amalga oshirilishi, erishilishi ko‘zda tutilgan orzu, niyat. *Ma’nodoshi: maqsad.* “*Yashaylik bir o’zbek bo’lib, Bir uzukka ko’zdek bo’lib*” Degan dilning m u r o d i ni Menga bering, menga bering (Muhammad Yusuf. Menga bering). *Bu odamning menga topishmoq berdirishdan m u r o d i meni sinab ko’rish... ekan* (Sh.Xolmirzayev. Ko‘k dengiz).

Murodga yetmoq Avvaldan mo‘ljallangan orzu, niyatga erishmoq. *Yaxshi bilan yursang, y e t a r s a n m u r o d g a, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga* (Maqol). *Har kim istar Vataniga, Oro berib chamaniga, Senday xizmat eta olsa, M u r o d i g a y e t a o l s a* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Ko’p qiynalib, oxiri, M u r o d g a y e t i b d i u* (Ravshan Fayz. Men shamolni tutvoldim). **Murod-maqsadiga yetmoq** Avvaldan mo‘ljallangan barcha niyatlarga erishmoq. *Shunday qilib, hamma yaxshilar bir-birlarini topishib, yaxshi yashashib, m u r o d - m a q s a d l a r i g a y e t i sh i b d i* (“Bir siqim tuproq” ertagi). *Yaxshivoy esa uzoq umr ko’rib, tinch-totuv yashab, m u r o d - m a q s a d i g a yetibdi* (“Yaxshivoy bilan Yomonvoy” ertagi).

MUROSA O‘zaro janjalsiz, kelishuvli munosabat. *Murosa yo’q jamoada ahillikning ham bo’lishi qiyin* (“G‘uncha”dan).

Murosa qilmoq Janjalsiz, kelishuvli munosabatda bo‘lmoq. *Gavjum bo’ldi yuvinish Xonasi rosa. Qani endi, hammayam Q i l s a m u r o s a* (Anvar Obidjon. Hammomdagij mojaro). *Qilisholmas murosa, O’rin-ko’rpa talashib. So’ng uqlashar bir-birin Tonggacha achomlashib* (Abdurahmon Akbar. Egizaklar).

MUSAFFO Juda ham toza, ortiq darajada sof. *Ma'nodoshi: beg'ubor. Quyosh kulib boqadi, Musaffo, tiniq osmon* (A.Karimov. Halollik). *Tanga singadi Tongdagi havo. Malham singari Toza, musaffo* (Po'lat Mo'min. Tong havosi). *Musaffo osmonimiz, Biz uning posbonimiz, Yuksaklarga uchgaymiz, Yurt ko'kini quchgaymiz* (Dilshod Rajab. Yurtning metin qalqoni).

MUSTAQIL 1 Boshqaga tobe, qaram bo'limgan, o'zixtiyori o'zida bo'lgan. *Ozod, mustaqil, Elparvar, ahil, Saxiy, ochiqqa'l, O'zbekistonim* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Tanisak o'z haqimiz, E'zozlab el, xalqimiz, Musataqil yurt bag'rida Bizlar erkin, baxtlimiz* (Dilshod Rajab. Bosh Qomus kitobimiz).

2 Birovning yordamisiz, ishtirokisiz, ta'sirisiz bo'ladigan, faqat o'ziga tegishli. *Bola musataqil tura boshlaganida, yura boshlaganida aytildi: "Toyttoy, bolam, toy, bolam, Shirin erkatoym bolam"* (Aytim-olqishlar. "Gulgina" kitobidan). *Musataqilo'qishni o'rghanib olgan bolalar "G'uncha" jurnaliga sinf bo'yicha obuna bo'lishdi* ("G'uncha" dan). *Mulohaza qilasan O'zingga xos, musataqil* (Miraziz A'zam. Asror).

MUSTAQILLIK Boshqaga tobe, qaram emaslik, davlatning barcha sohalarda boshqa davlatga qaram bo'lmay o'z erki bilan ish yuritishi. *Mustaqillik ne demak, Ne demakdir istiqlol?* Buni bilmog'ing kerak, *Ma'nosini dilga sol: O'z yurting – yer, samosi, Shahri gulshan – ma'nosi.* Tongda esgan sabosi, Tog'i, bog'i, daryosi – Endi o'z mol-u mulking. *O'z qo'lingda o'z erking* (J.Jabborov. Istiqlol). *Xalqimizning xohish-irodasi, davlatimiz rahbarining jasorati bilan qo'lga*

kiritilgan Mustaqillik kuni mamlakatimiz tarixidan aslo o‘chmaydigan abadiy sana bo‘lib qoladi (“Xalq so‘zi” gazetasi). *Madhiya o‘z mustaqilliiga ega bo‘lgan rivojlangan har bir mamlakatning muqaddas ramzidir* (“G‘uncha”dan).

MUXLIS Biror narsani qattiq yoqtiruvchi, unga alohida e’tibor bilan qarovchi. *Poygada charchab, horib, Nafasin olib arang, Marraga eng oxiri Yetib kelsa ham, qarang, Toshbaqani mu xolis lar Olqishlashar emishlar* (Abdurahmon Akbar. G‘aroyib poyga). “Do-mi-sol”, “Bilag‘on – bolajon”, “Landi-landi” kabi ko‘rsatuvlar o‘z mu xolis larini topib ulgurdi (“G‘uncha”dan).

MUSHKUL Qiyin, qiyinchilik. *Zidi: oson. Chap tarafdan quvlasam, Kelardi o‘ngdan. Mu shku ledi judayam Qutulmoq undan* (Po‘lat Mo‘min. Ikki xira). *Sen Quyonni mu shku l ahvoldan qutqarding, ozod qilding* (Anvar Obidjon. Oltin yurakli Avtobola). *Do‘stlik bo‘lsa hamisha, Mu shku loson yechilar* (E.Ro‘zimatov. Fasllar ulug‘i).

MO‘LJALLAMOQ 1 Oldindan rejalahtirmoq, ko‘zlamoq. *Bu payt Qovoqvoy o‘yinga aralasholmay, atrofga alanglab, qochishni mo‘lja illab turadi* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti).

2 Ko‘zda tutmoq. *Agar bizni bu yerga boshlab kelmaganda, biz Xonsupani emas, boshqa joyni mo‘lja illab yo‘lga chiqqan bo‘lardik* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar saltanati). *Soya joyni mo‘lja illab, Uyoq-bu yoqqa qarab, Karavotni ko‘tardi, Olma tagiga bordi* (Miraziz A’zam. Yo‘lini topdi).

3 Nishonga olmoq, poylamoq. *Bir qushni mo 'l-jallab tosh otar edim* (Miraziz A'zam. Qushlar ham). *Chol bedanani urib olmoqchi bo 'libdi. Mo 'l j allab turib, tayoq otgan ekan, bedana uchib ketibdi* (“Hiylakor bedana” ertagi).

MO‘JIZA Sirli, g‘ayritabiyy, odamning aqli hayron qoladigan voqeа-hodisa yoki narsa. *Shu mahal, deng, mo 'jiza Sodir bo 'lib bir onda, Ona qushga aylanib, Charx uribdi osmonda* (K.Turdiyeva. Qush bo 'lib uchgan ona). *Tabiatda mo 'jiza Qancha bo 'lgan azaldan. Qizni toshday qotirib, asrab qoldi g‘azabdan* (H.Murodov. Tosh qiz afsonasi). *Ertaklarsiz, mo 'jiza assiz Olam qanday xunukdir* (Rauf Tolib. Ertaklarga ishonib). *Unmaganni yerdan undirib, Yaratasziz har yil mo 'jiza* (Yo‘ldosh Sulaymon. Ming bir qo'shiq).





NABIRA Farzandning farzandi (boboga, buviga nisbatan). *N a b i r a sini buvi Tergab qoldi bir kuni* (Abdurahmon Akbar. Mehribon uka). *Oyxola n a b i-r a sin Maqtar ekan tinmasdan* (Abdurahmon Akbar. "Gazitxon"). *Sichqon xola n a b i r a sin Erinmasdan koyir uzoq* (Abdurahmon Akbar. Sichqoncha).

NAFRAT Yomonlikka nisbatan qattiq g‘azab va jirkanish tuyg‘usi. *Bir og‘izdan xalq dedi: – Dushmanga o‘lim! Xalq qalbida n a f r a t i, Qahri limmo-lim!* (Shuhrat. To‘maris). *Chaqirtikanak, So‘qir tikanak, Gul senga n a f r a t O‘qir, tikanak* (Qambar Ota. Chaqirtikanak). *Undov novchao ‘zi oldiso ‘z galini, Mixday turib bayon qildi o‘z holini: – Mazmunidan undov, sevinch, n a f r a t, g‘azab Yo hayajon ma’nosini anglatsa gap, Shunday jumla adog‘ida bo‘lar joyim, Mendan so‘ng ham bosh harflar kelar doim* (Sulton Jo‘ra. Tinish belgilarining majlisi).

NAJOT Qiyn ahvoldan qutulish, og‘ir ahvoldan qutulish uchun yordam. *Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, n a j o t, Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!* (A.Oripov. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi.) *Ukam birdan dovdirab, Bo‘lib qoldi gung-garang... Menga mahkam yopishdi N a-j o t kutganday go‘yo* (Habib Rahmat. Aqlim yetdi).

Karaxt bo‘lgan qushchalar N a j o t izlashib hayron
(Habib Rahmat. Bir o‘qning kasofati).

NAQSH 1 Biror narsaga o‘yib, tikib, yopishtirib yoki bo‘yoq bilan ishlangan gulli bezak. *Devorda gul – n a q sh lar, Ko‘rgan odam olqishlar* (Po‘lat Mo‘min. Yosh naqqoshlar qo‘shig‘i). *Devorga chizgan n a q sh i Qanday charaqlar yaxshi* (Obid Rasul. Hunarmand). *Bahoroyning nafasi Iliq hamda huzurbaxsh, Sochib quyosh bo‘yog ‘in, Cho‘qqilarga chizar n a q sh* (Habib Rahmat. Bahor nafasi).

2 Yarashadigan narsa, ziynat, ko‘rk. *Odam borki, odamlarning n a q sh i dir, Odam borki, hayvon undan yaxshidir* (Alisher Navoiy). *O‘qish, yozish qanday yaxshi, O‘qituvchim – umrim n a q sh i* (Abdurahmon Akbar. Quvnoq alifbe).

NAQQOSH Naqsh yaratuvchi, bezak soluvchi usta. *Ikki o‘rtoq so‘zlashdi, Naqqoshlikni ko‘zlashdi. Yo‘ldosh, Qo‘ldosh – Yosh n a q q o sh* (Po‘lat Mo‘min. Yosh naqqoshlar qo‘shig‘i). *Terak ayvonga juda ham mos kelibdi. N a q q o sh lar terakka ajoyib naqshlar, gullar solib, oltin bilan bezashibdi* (“To‘g‘rilik haqida” ertagi).

NASIHAT Birovning yaxshi, aqlli-odobli bo‘lishini ko‘zlab aytilgan gap. *Ma‘nodoshi: pand, o‘git. Ota n a s i h a t i Farzand uchun dars* (Po‘lat Mo‘min. Ota kasbi). *Bobom menga n a s i h a t Qilib, derlar har doim: – Oltin olma, duo ol, Baxting kulsin, iloyim* (Qambar Ota. Savob). *Dangasa hech uqmaydi gap... N a s i h a t ga beradi chap* (Po‘lat Mo‘min. Dangasalik – kasallik).

NIHOL Yosh, hali yetilmagan ko‘chat. *Yo ‘l chetida o’sar n i h o l, Menga salom bergen misol Shoxchalari tebranardi* (Po‘lat Mo‘min. Kim sindirdi bu niholni?). *O‘rik qurib qolgan bo ‘lsa, atrofida danagidan chiqqan qancha n i h o l lar bor* (S.G‘afurov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Ekdir hovliga, Ariq labiga Ni h o l – bodomcha* (A.Karimov. Halollik).

NIYAT Ko‘ngildagi istak-orzu. *Ma ‘nodoshi: maqsad.* Yaxshi n i y a t – yarim mol (Maqol). *Mittivoyning n i y a t ini payqagan Qo‘riqchi xursandligidan o‘zini qo ‘yarga joy topolmay qoldi* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha). *Kiyibsan oppoq libos, Barcha n i y a t ingga mos* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi...).

NODON Ko‘p narsani bilmaydigan, aql-zakovati kam, fahm-farosati yetarsiz. *Zidi: dono.* *N o d o n kuzatar, Dono tuzatar* (Maqol). *Ko‘p narsani bilaman, N o d o n lardan kulaman* (H.Imonberdiyev. Qurbaqa vaq-vaq). *Ustozlarni tinglab, puxta Ilm oling, n o d o n bo ‘lmang.* *Sho ‘x-sho ‘x o ‘ynang tanaffusda,* Lekin darsdan “quyon” bo ‘lmang (Dilshod Rajab. “Quyon yili” tilagi).

NOJO‘YA Odob-axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan, o‘rinsiz. *Botir ko ‘pincha noj o ‘ya qiliqlari bilan bolalarning o ‘yinlarini buzadi* (M.Murodov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Biz n o j o ‘ya ishlarning zararligin so ‘zlaymiz* (Zafar Diyor. Zarar emasmi?).

NOMARD Aytganining ustidan chiqmaydigan, yaxshilikni bilmaydigan, yuragi yo‘q. *Zidi: mard.* *Yurtimni himoya qilaman deb, mard yigitlar oyoqqa turgan, n o m a r d lar o ‘zini panaga olgan zamonlar edi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar saltanati). *Duch*

keldim, eh-he, qancha Qashqir degan n o m a r d-ga, Qon tekkan tumshuqlarin Beladim loy-u gardga (Abdurahmon Akbar. Olaparning bolalariga nasihat).

NORDON Dovuchchaning ta'mi, tishni qamashtiradigan ta'm. *Donamiz bor qip-qizil, Ham n o r d o n u, ham shirin* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami). *Olmaga o'xshar, Go 'yo sariq shar. Hid sochar har yon. Mazasi n o r d o n. Kesib yeyilar. Ezib yeyilar. – Uni topish jo'n, Oltinday...* (limon) (Po'lat Mo'min. Topishmoqlar).

NOCHOR 1 Hech bir iloj topolmay, chorasisz. *Oxiri, n o ch o r qolib, Yumganimcha ko'zimni, Alla aytib, shivirlab, Uxlataman o'zimni* (H.Imonberdiyev. Kim kimni allalaydi?). *Pishgan chog'da Bodomlar Senga boqmas Odamlar. Qishda n o ch o r Qolishar, Seni ishga Olishar* (Anvar Obidjon. Pechkaga yozilgan she'r).

2 Kambag'al, bechora. *Yurtingni sevgin jondan, N o ch o r ga bergen yordam* (T.Adashboyev. Bobur bobom sabog'i). *Yupun, n o ch o r bo'lsa ham, Noliydigan odam yo'q* (Habib Rahmat. Botir askar). *Chol bilan kampir... bir tangalarini ikki qilish ilojini topmay, n o ch o r yashashar ekan* (Olloyor. Sehrli uyqu).

NUQSON Biron-bir jihatdan yetishmovchilik, kamchilik. *Ma'nodoshi: illat, qusur, ayb.* *Endi biz-dan ham... to'g'ri, Sal-pal xato o'tgandir. N u q-s o n imiz yo'q emas, Tuzatamiz – ketadi* (Dilshod Rajab. Echkining shikoyati). *Beg'amlik ekan n u q-s o n, Qaytarilmas endi u* (Obid Rasul. Oftobjon va gunafsha). *Bildirib u nabirasi tomonligin, Yashirardi*



ba'zi n u q s o n – “*yomon*” *ligin* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi).

NO‘NOQ Biron ishni darrov bajara olmaydigan, uquvi yetarli emas. *Zidi: epchil, chaqqon, uddaburon.* *Ma’nodoshi: epsiz, noshud.* *In solishda Qarqunoq Chumchuq, Chittakdan n o‘ n o q* (T.Adashboyev. Bahs). *Sodir juda mehnatkash, So‘zga n o‘ n o q* (Rauf Tolib. Sodir va Qodir). *Mushugim bor, ovunchoq, Biroq n o‘ n o q-da so‘zga* (H.Imonberdiyev. Yakshanbada).





OBRO'(Y) Yaxshi o'qishi, ishi, ibratli xislatlari tufayli odamning ko'pchilik orasida topgan hurmat-e'tibori. *Saxiylikdan, poklikdan O b r o ' kelar behisob. Qachon o b r o ' topibdi Beandisha, beodob?* (Po'lat Mo'min. Obro' qaydan keladi?). *O b r o ' yoki oltinmi? Ehtimol, o'z koni bor? Kimki o b r o ' topmoqqa Urinsa, imkoni bor* (Po'lat Mo'min. Obro' qaydan keladi?). *O b r o ' osmondan tushmas, mehnatdan kelar* (Maqol).

Obro'yini to'kmoq (yoki ketkazmoq, tushirmoq)
Hurmat-e'tiborini yo'q qilmoq. Kemam, qurg'ur, Cho'-kib ketdi. O b r o ' y i m n i T o ' k i b ketdi (Anvar Obidjon. Kemachaning ustasi).

ODAT 1 O'rganish bo'lib qolgan harakat. *Ba'zan qo 'liga tayoq olib, tovuqni quvadigan o d a t ham chiqardi* (M.Murodov. Endi quvmaydi). *Quyosh o'z yorug'ligin, Tuganmas haroratin Barchaga teng ulashar, O'zgartirmay o d a t in* (G'afur G'ulom. Quyoshning yorug'ligi barcha xalqqa barobar). *Tipratikanning o d a t i shunaqa: shirin-shakar tog' mevalarini yeyish bilan birga zaharli ilonlarni ham ov qilib yuradi* (M.To'ychiyev. Ilon bilan tipratikan).

2 Ajdodlardan qolgan tartib, rasm-rusum. *Qishlog'imizda azal-azaldan shunday o d a t bor: ota uyda*

ekan, bola tom ustiga chiqmaydi (“Ota ulug‘, otadan mehmon ulug‘” ertagi). *Sen bizning o d a t larimizni buzibsan, seni o’limga mahkum etaman* (“Yarimtanon” ertagi).

OJIZ 1 Jismoniy jihatdan kuchsiz. *Yirtqichlarni Tinchitma. O j i z larni Cho’chitma* (Anvar Obidjon. Miltiqchaga yozilgan she’r).

2 Hech bir chora qo‘lidan kelmaydigan, ilojini topa olmaydigan. *Mung‘ayib turibman tek, Endi qora rang olib, Yovuzlikning oldida O j i z ligim tan olib* (H.Murodov. Yongan archaning nidosi).

3 Qurbi yetmaydigan, harakatni bajarishga qodir emas. *Shol ko’rga: – Men yurishdan o j i z man, lekin to‘g’ri yo‘l ko’rsatishga qodirman. Sen esa yo‘l ko’rsatishga o j i z san-u, yo‘lyurishga qodirсан. Mumkin bo‘lsa, meni opichlab olsang, men yo‘l ko’rsatsam, zora ikkalamiz birgalikda halokatdan qutulsak, – debdi* (“Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” ertagi).

4 Kuchsizgina, juda ham past. *Shunda bir qo‘zi-choqning o j i z ma’raganini eshitdim* (Sh.Xolmirzayev. O‘zbek xarakteri).

Ko‘zi ojiz Ko‘zi ko‘rmaydigan yoki yaxshi ko‘rmaydigan. *K o ‘ z i o j i z chol yo‘lda Turgan ekan adashib* (H.Imonberdiyev. Tarbiyachi). *Polaponlar esa kasalmand, k o ‘ z i o j i z, ucholmaydigan bo‘lib qolar ekanlar* (N.Karimova. Ona laylak tashvishi).

OILA Ota-onalari, ularning farzandlari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar birligi. *Bir kishining o i l a s ida o‘g‘il tug‘ilib, sevinchiga sevinch qo‘shilibdi* (“Yalqov duradgor” ertagi). *O i l a m deb o‘tganlar Bizning yetti pushtimiz* (S.Barnoyev.

Ostonañiz - uyimiz). So zimning qavhar, duri, O illa
miz g ururi, likki ko zimning nuri Mehribon ongjonim
Zidi: yaqin. Ma nodoshti: uzoq. Uchib kelib o l i s
dan, Ko chib kelib o l i s dan, Qishlog imiz osmonin
To lidirbizi rosmana (Yo, Idosch Sulaymon, Tumalar).
Biz bormodchi bo, ligan manzil Ekan juda o l i s da
Ma, nodoshti: tilia. Podsho vazirlaridan bu o l i n larini
OLTIN I Sarid rangli qimmatbaho metall.
Habib Rahmat, Yo, lida).

(G, uncha, dan).

OLIS Biror joydan ancha masofa narida bo, ligan.
Zidi: yaqin. Ma nodoshti: uzoq. Uchib kelib o l i s
dan, Ko chib kelib o l i s dan, Qishlog imiz osmonin
To lidirbizi rosmana (Yo, Idosch Sulaymon, Tumalar).
Biz bormodchi bo, ligan manzil Ekan juda o l i s da
Ma, nodoshti: tilia. Podsho vazirlaridan bu o l i n larini
OLTIN I Sarid rangli qimmatbaho metall.
Habib Rahmat, Yo, lida).

(Yolg, onchi) ertagi).

2 juda ham qimmatbaho, qadrli va aziz. Do st-
yolar ahil bo, lsa, cho, lda o l i i n undirar (Maqol).

OLTIN kuz Tabiat sarid rangga kirigan, hamma narsa
Bog, imizga o l i i n k u z (Yo, Idosch Sulaymon, Yodgor
pishegan, to, kin-sochim fasl. Kullib keldi, To lib keldi
Qolim kuz). Bahor, yozgi Mehnatimga yakunsan, O l i i n
bog, im). Bog, imizga o l i i n k u z (Yo, Idosch Sulaymon, Yodgor
pishegan, to, kin-sochim fasl. Kullib keldi, To lib keldi
k u z i m, Ham saxiyasan, to,kinsan (Po, lat Mo, min.
Qolim kuzim). Oltin vodiy Juda ham obod, yashnagan
vodiy. O l i i n bu v o d i y lar - jan O zbekiston,
Ajodal lar mar dona ruhi senqa yor! (A. Oripov, O zbe-
kiiston Respublikasi Davlat madhiyasi). Oq oltin
Paxta. Qora oltin Net yoki ko, mir.

OMAD Mo, jalangan ishming osonlik bilan amalga
osishi, ishning o ngidan keliishi, muvaffaqiyatining
dom yor bo, lishi. Yangi vil barachamizga o m a d,

quvonch olib kelsin (“G‘uncha”dan). *Omad tilar ariqcha, O mad tilar keng olam* (Abdurahmon Akbar. Quvonch).

OQ 1 Sut, qor, paxta rangi. *Zidi: qora. Tomda qizil va o q sandiq bor. O q sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib tush* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Ana shu o q bulutlar Goho bexos ko‘chadi* (Yo‘ldosh Sulaymon. Xayolimni tortadi).

2 Oq rangga moyil, oqqa o‘xshagan. *Oq tanli. Oq yuzli.*

Oq-qorani bilmoq (ajratmoq) Yaxshi bilan yomonni, foyda bilan ziyonni farqlamoq. *Kechirilmas xatodir, O q – q o r a ni bilmasam, Biron ezgu niyatda Elga xizmat qilmasam* (Qambar Ota. O‘n yoshdaman). **Oq yo‘l Xatarsiz yo‘l, qiyinchiliksziz safar.** *O q y o ‘l tilang qushlarga, Yaxshi borib kelsinlar* (Z.Isomiddinov. Kuz). *Yuzim sal hayajonli. “O q y o ‘l!” der ayajonim* (Z.Isomiddinov. Xayolparast). **Ko‘ngli oq (yoki oq ko‘ngil)** Birovga yomonlik istamaydigan, sofdil. *Ko‘ngli oq bolaga do‘st bo‘lmoq, U bilan o‘ynamoq va kulmoq – Eng maza, Eh, maza!* (Po‘lat Mo‘min. Eng maza, Eh, maza!).

OQARMOQ 1 Oq tusga kirmoq. *O q a r m a g a n bekorga soch tolamiz* (Safar Barno. Qadimgi erkatoy).

2 Qoni qochib, qizilligini yo‘qotmoq. *Bo‘zday o q a r i b yuzi, Nima deydi, deng, Ro‘zi...* (Rauf Tolib. Tabib tosh). *Bu gapni eshitib Meshpolvonning battar rangi o q a r i b k e t d i* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

3 Rangini yo‘qotmoq, o‘ngmoq. *To ‘quvchi ayni-maydigan, o q a r i b ketmaydigan, chiroyli bo‘yoqlar qidiribdi* (T.G‘oipov. Tovusning hadyasi).

4 Yorug‘ bo‘lmoq, yorishimoq. *Menga qolsa, har tong quyoshning tug‘ilgan kunini qilardim... Osmon o q a r i b, zarrin nurlari gul-u giyoh, dovdaraxt, jamiki mavjudotga nur ulashadi* (S.Ibodinova. Quyoshning tug‘ilgan kuni).

OQIL Katta aql egasi, ko‘p narsani biladigan. *Ma‘nodoshi: dono. Ko‘p-ko‘p o‘qib, ajdodlardek o q i l bo‘ling, Yurtingizni jahon ichra ko‘z-ko‘z qiling. Ilmingizdan hayratlansin butun jahon, Keldi fursat, g‘ayrat qiling siz, bolajon* (Y.Po‘latov. Sog‘lom bola). *Sahifangni birma-bir O‘qib, she’rlar bitaman. Shuftusayli o q i l-u Dono bo‘lib o‘saman* (D.Mahmudov. Kitob mening do‘stim).

OQSHOM 1 Quyosh botgandan keyingi g‘irashira yorug‘ payt. *O q sh o m bo‘ldi deguncha, kirpilar yonimga kelib, oyoqlarimga suykalishadi* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha). *Yusuf o q-sh o m maydonda Do‘stlar bilan o‘ynasa, Oy ham kulib osmonda, Tomosha qilar rosa* (G‘.Shomurodov. Oy nega kirmas uyg?). *O q sh o m cho‘kkan chog‘larda Sayrar ekansan, bulbul* (Abdurahmon Akbar. Bulbul).

2 Qorong‘i tushib bo‘lgan payt, kechqurun. *Qo‘ylar qo‘zilaganda, tashqari sovuq bo‘lsa, ichkariga kirtardik. Tapir-tupur qilib, uyqu berishmasdi. O q sh o m-lari tashqaridagi supada yotardik* (Sh.Xolmirzayev. Bahor).

OROM Hech bir qiyinchiliksiz olingen dam, tan-jonning rohati, huzur-halovat. *Belanchakda Diloram Uxlab, olmoqda o r o m* (M.Valixonov. Jim,



Dilorom uxlayapti). *O r o m berar vujudga Salqin va xush havosi* (Habib Rahmat. Bedazor tongi). *Ona, ona, onajon!* *O r o m olasiz qachon?* (Safar Barno. Ona, ona, onajon).

ORZU Biror maqsadga yetish istagi. *Qarang, buvim o r z u s i Qandayin yaxshi.* Yaxshi *o r z u insonning Husni va naqshi* (Zafar Diyor. Orzu). *Xayol bilan, o r z u bilan Odamlar ham tirikdir* (Rauf Tolib. Ertaklarga ishonib).

Orzu qilmoq Biror maqsadning amalga oshishini astoydil istamoq. *Dunyoni bog' qilishni O r z u q i l a r odamlar* (Habib Rahmat. Bog'im). *Shunday joyni biz ko'pdan O r z u q i l i b yurardik* (Habib Rahmat. Xavotir). **Orzusi ushalmoq** Maqsad qilgan, ko'ngildagi ishi, umidi ro'yobga chiqmoq, amalga oshmoq. *U sh a l a d i b o r o r z u m, Unutmayman biror zum, Bari bog'liq o'qishga, G'ayrat, idrok, uqishga!* (Yo'ldosh Sulaymon. O'ylarim). *Erk-u adolatni Istar edik biz. U sh a l i b o r z u l a r, Chog'dir ko'nglimiz* (Obid Rasul. Uzoq ketma, quyosh).

OZODA 1 Kir-chir tegmagan, ifloslanmagam. *Zidi: iflos, kir. Ma'nodoshi: toza, pokiza.* Kamroq o'ynab loy-tuproq, *O z o d a yurdik ancha* (Abdurahmon Akbar. "Yordamchilar"). *Kiyinadi o z o d a, O'zi juda ham quvnoq. Bo'sh payti onasiga Yordam berar qizaloq* (Obid Rasul. Oftobxon).

2 Supurib-sidirilgan, tozalangan. *Tuvaklarga gul-larni Biz o'zimiz ekkanmiz. Sinfo z o d a bo'lsin deb, Astoydil ter to'kkannmiz* (Muhiddin Omon. Bu bizning sinfxona).

3 Tozalikka rioya qiladigan, hamma narsani toza tutadigan. *O z o d a miz, quvnoqmiz, Yomonmas*

ishlarimiz. Olti yoshga to'lsak ham, Bus-butun tishlarimiz (Abdurahmon Akbar. Dugonalar).

OZOR Tanadagi og'riq yoki ruhiy qiyinoq. *Ma'nodoshi: azob.* *Bundan buyon hech jonivor Mendan ko'rmas sira o z o r* (Rauf Tolib. Tarki odat).

Ozor bermoq Qiynoqqa solmoq, azob bermoq yoki xafa qilmoq. *Xush ko'rар bolalar ham, Ozor berma s lar hecham.* *Qovoq ariday uning Buzmaydilar inini* (Dilshod Rajab. Bolari) *Mayli, o'ynang erta-kech,* *Lekin ozor berma ng hech* (Shukur Sa'dulla. Buzoq). *Uch, uchaver, uchaver, Go'zal bog'cham – gulshanda.* *Sira ozor berma y man...* (Zafar Diyor. Kapalak).

OCHKO'Z 1 Yeb to'ymaydigan, nafsiyi tiyishni bilmaydigan. *Ma'nodoshi: ochofat, suq.* *Ochko'z asli ovqatdan Boshqa narsani bilmas* (Habib Rahmat. Nafs deb). *To'p etib tushgan olma Menga ayanchli dedi: – Ochko'z qurtga do'st bo'ldim,* *Oxir boshimni yedi* (Habib Rahmat. Yomon do'st).

2 Hamma narsani o'ziniki qilishni xohlaydigan. *Dengiz bo'yidagi qishloqlardan birida ochko'z, o'taketgan baxil bir dehqon yashar ekan* ("Ochko'zlikning oqibati" ertagi). *Abduboy devga qarab debdi: – Oshna, endi bizga ikkita uchqur ot bilan kiyim-kechak tayyorla,* *Tezroq borib, meni va bolamni bu ko'ylarga solgan o chko'z karvonboshining jazosini beray* ("Yarimta non" ertagi).





PARVOZ Osmonga ko‘tarilish, yerga tegmasdan harakat qilish, uchish. *Qushcha o ‘ylab, so ‘ng deydi: – Parvoz ga ne yetadi? Quchganingda osmonni, Tanang yayrab ketadi* (H.Murodov. Ilk parvoz). *Ko ‘p kerilma, Vertolyot, Tengim yo ‘q deb p a r v o z da. Inson seni yasashda Mendan olgan andaza* (Dilshod Rajab. Ninachining ta’nasi).

Parvoz qilmoq (yoki etmoq) *uchmoq, taralmoq*. *Bir kuni chumoli do ‘stidan: – Agar xo ‘p desang, seni ham qanotimda ko ‘tarib p a r v o z q i l a-m a n, qo ‘rqmaysanmi? – deb so ‘rabdi* (H.Ahmedova. Do‘stlik). *Kapalakjon, kel beri, Buncha p a r-v o z e t a s a n?* (O.Mahkamov. Kapalak). *Xayolim shirin tushday, Parvoz e t s a y d i m qushday* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha).

PARRANDA Barcha qushlarning umumiyl nomi, qush zoti. *To ‘quvchi... turli dov-daraxt va o ‘simliklarga, hayvon hamda p a r r a n d a larga duch kelibdi* (T.G‘oipov. Tovusning hadyasi). *Anhor bo ‘yi so ‘lim emish, Emish qalin qamishzor. P a r-r a n d a lar o ‘sha yerda Yasharmish tinch, beozor* (Abdurahmon Akbar. Eskirmaydigan ertak). *Bunday qushlar sirasiga o ‘rdak, g ‘oz kabi p a r r a n d a lar kiradi* (S.G‘afurov. Foydali ovchi).



PARHEZ Sog‘likka zarar berishi mumkin bo‘lgan ovqatlardan tiyilish, sog‘likka zarar berish ehtimoli bo‘lmanan. *Qush go‘shti p a r h e z taom hisoblanadi* (Sh.Xolmirzayev. Ozodlik).

Parhez qilmoq Sog‘likka zarar berishi mumkin bo‘lgan ovqatlardan tiyilmoq. *Men bir vaqt kasal bo‘lganimda, hakim «Qirq kungacha go‘sht, tuxum yemasdan, p a r h e z q i l g i n», deb tayinlagan edi* (“Ikki ahmoq” ertagi).

PAYQAMOQ Sezmoq, his qilmoq, bilmoq. *Qo‘zichalar bo‘rining do‘rilloq ovozidan onalari emasligini p a y q a b q o l i b: «Bor yo‘qol, sen bizning onamiz emassan, onamizning ovozi do‘rilloq emas», – deyishibdi* (“Qo‘y bilan bo‘ri” ertagi). *Itim bo‘lsa, bu holatni P a y q a m a d i, sezmadni. Burgut o‘zin ovga chog‘lab, Payt poyladi, tezladi* (T.Adashboyev. Burgutning o‘limi). *Sizni bilib-bilmasdan Ranjitarimiz goh. P a y q a m a y m i z b a ‘zida Chekkaningiz oh* (Po‘lat Mo‘min. Siz bizni deysiz, biz sizni deymiz).

PAZANDA Ovqatni juda yaxshi, mazali qilib pishiradigan kishi. *Ma’nodoshi: oshpaz. Yana usta p a z a n d a, Qo‘sinqchi ham sozanda* (Obid Rasul. Hunarmand). *Hazm bo‘lib ketmoqda. Oh, qancha ovqat yesang. Zap p a z a n da ekansan, Menga ruxsat, xo‘p desang* (Habib Rahmat. Botir askar).

PESHIN Kunning qoq yarmi o‘tgan payt. *Faqat tezroq yuraylik, bu holda markazga p e sh i n da ham yetib bora olmaymiz* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Quyosh bobo esa nurini sochib, tong, p e sh i n, kechni bildirib turarkan* (Oydinniso. Soatshoh).

PORLOQ 1 Yorqin nur sochib turadigan. *P o r - l o q quyosh nuridan Bahra olar hamma yoq* (Zafar Diyor. Burgut).

2 Baxtli-saodatli, yaxshilik bilan to‘lgan. *Har kun tongda to‘rt o‘rtoq Zo‘r ishni bajarishar, Yo‘llari tongday p o r l o q* (Po‘lat Mo‘min. O‘rinbosarlar). *Biz yoshlarmiz – kelajakmiz, Kutar p o r l o q istiqbol* (Qadam G‘oyib. Salom, maktab).

POSBON 1 Xavfsizlikni, tinchlikni saqlash uchun postda turgan odam. *Ma‘nodoshi: qo‘riqchi, soqchi. Bugun ham, onajon, birpas qulq sol, P o s b o n qo‘shig‘ini berayin kuylab. Po s b o n man, qo‘limda jangovar qurol, Postimda turibman, men seni o‘ylab* (G‘afforiy. Bedor o‘tayin). *Biri dedi: “Elimning Mard p o s b o n i bo‘laman”* (Safar Barno. Dadam haqida qo‘shiq). *Omborxona to‘la don. Eshik oldida esa Turar Jirafa p o s b o n* (Rauf Tolib. Posbon).

2 Himoya qiluvchi, muhofaza qiluvchi. *Tabiatning bo‘lib p o s b o n i, Yashillikka burkab dunyoni, Ko‘chat ek, ko‘chat* (Qambar Ota. Daraxtlarga burkansin). *Endi uxlang, qushchalar, sizga p o s b o n oymoma, Xullas, shoir Bulbuljon tamom qildi cho‘pchakni* (Anvar Obidjon. Uyqu oldidan).

POYGA Marraga birinchi yetib kelish bahsi, kim o‘zar musobaqasi. *Haqnazarning toyi uchqur, P o y g a dan tap tortmaydi* (Q.Murzaliyev. Xolmirzaning oti). *Peshonasi oq qashqa, Endi kirdi bir yoshga. Otasi yo‘rg‘a – chaqqon, P o y g a da yutib chiqqan* (Obid Rasul. Toychog‘im). *P o y g a da charchab, horib, Nasasin olib arang, Marraga eng oxiri yetib kelsa ham, qarang, Toshbaqani muxlislar Olgishlashar emishlar* (Abdurahmon Akbar. G‘aroyib poyga).

PUXTA 1 Har tomonlama o‘ylab ish qiladigan. *Zidi: xom. Ma‘nodoshi: pishiq. Ha, Asror ham aqlli, Pishiq va p u x t a bola* (Miraziz A’zam. Asror). *Men ham kichik Ustaman. O‘z ishimga P u x t a m a n*

(Odil Abdurahmon. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Bo‘lsangiz qancha p u x t a, Yovga solasiz no‘xta* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti).

2 Kam-ko‘stsiz, atroflicha, chuqur o‘ylangan. *Biz p u x t a bilim olish maqsadida ustozimiz saboqlarini diqqat bilan o‘rganamiz* (“G‘uncha”dan).

PUSHAYMON O‘zining yomon qilmishi uchun o‘kinish, afsuslanish hissi. *Oh, keyingi p u sh a y m o n Yordam bermas hech qachon* (Po‘lat Mo‘min. Bir odamning afsusi). *Keyingi p u sh a y m o n – o‘zingga dushman* (Maqol).

Pushaymon bo‘lmoq (yoki qilmoq, yemoq) O‘zining yomon qilmishi uchun o‘kinmoq, afsuslanmoq. *Men-la do‘st bo‘lganingga B o‘l a s a n ming p u sh a y m o n* (Habib Rahmat. Uddaburon maymun). *Akam qilmishidan ming p u sh a y m o n b o‘l a r edi* (B.Aminov. Tozi). *Boshlagan ishni yo‘lda qoldirma, Yo‘lda qoldirib, so‘ng p u sh a y m o n y e m a* (Maqol).

PUCH 1 Ichi bo‘sh, mag‘zi yo‘q. *Kasal yong‘oq, P u ch yong‘oq, Tuzalmading hech, yong‘oq* (Miraziz A‘zam. Kasal yong‘oq).

2 Bo‘sh, hech bir asosga ega emas. *Bunday p u ch gaplarga ukasi ko‘nmabdi* (“Tegirmonchi” ertagi). *Shundanmikin, qarangki, Uning aqli p u ch ekan* (Ravshan Fayz. Men shamolni tutvoldim). *Baholarim “uch” bo‘lib, Yurmay ishi p u ch bo‘lib* (Qambar Ota. Yalinchoq).

Qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq Yolg‘on va‘dalar bilan aldamoq. *Chol-kampirning o‘g‘lini So‘ziga ko‘ndiribdi, P u ch y o n g‘ o q q a ularning Q o‘y n i n i t o‘l d i r i b d i* (Po‘lat Mo‘min. Unutgan o‘g‘il).





QADIM Uzoq o'tmish, eng eski zamonlar. *Q a-d i m dan suvni tabiatning eng bebahoe' mati sifatida qadrlab kelishgan* ("G'uncha"dan). *O'sha o'zingiz bilgan Ko'p q a d i m zamonlarda Bo'lgan ekan bir Tulki Buxoro tomonlarda* (Dilshod Rajab. Toshning boshi...).

QADR 1 Boshqalar oldidagi hurmat-e'tibor, muayyan o'ringa egalik. *Shod, ozod xalqimiz bor, Ham g'urur, q a d r imiz bor* (Dilshod Rajab. Bosh Qomus kitobimiz). *Daryo suvini bahor toshirar, odam q a d r ini mehnat oshirar* (Maqol).

2 Qimmatlilik, muayyan baho. *Vatan q a d r in bilmaslik Eng zo'r gunoh dunyoda* (Qambar Ota. Savob). *Azal esi ko'p bola Kitob q a d r in biladi* (M.Oqmamatova. Sovg'a qadri). *Bo'lar-bo'lmas gapni yozib, She'rning q a d r i n arzon qilma* (T.Adashboyev. Qudrat Hikmat aytgan edi).

Qadriga yetmoq Qadr-qimmatiga yarasha e'zozlamoq. *Doim quloq tutish zarur Ota-onal qalbiga. Dil so'zimiz – y e t a j a k m i z Ota-onal q a d r i g a* (Po'lat Mo'min. Ota-onal qalbi, ota-onal qadri). *Kunlar q a d r i g a y e t i n g, Ixlos qo'ying bilimga* (Asqad Muxtor. Juma). *Lekin mening q a d r i m g a Eshmat sira y e t m a y d i* (Po'lat Mo'min. Tish cho'tka, poroshok

va atirsovun ertagi). *Shu kitoblarni o'qigach, tabiatni yanada ko'proq yaxshi ko'radian, qadr i g a y e t a d i g a n bo'ldim* (“G'uncha”dan).

QADRDON 1 Bir-biriga juda ham hurmat-e'zozli munosabatda bo'lgan. *Temirvoy aka qadr do n do'stining ismini, qaysi shahardan ekanini aytdi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Eng qadr do n tanishdek, Salomlashdik, tanishdik* (*Po'lat Mo'min. Bir odamning afsusi*). *Quyon sotgan yigitcha eski qadr do n larini ko'rgandek sevinib, juda-juda xursand kayfiyatda kutib oldi ularni* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

2 Ko'pdan o'rganib qolingan, o'ziniki bo'lib qolgan. *Tom juda baland ekan, u yerdan hamma yoq ko'rinar ekan. Qiz atrofni tomosha qilib turib, qadr do n uyiga ko'zi tushibdi* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Ona kabi mehribon, Ilm-fanlarga makon, Yayrab o'qiyan har on, Qadr do n im maktabim!* (Ilyos Muslim. Maktabim).

QAHRAMON 1 Botirligi, qo'rmasligi, dov-yurakligi bilan hammaga tanilgan. *Alpomish bobojon yurtparvar botir, Xalq sevgan qahrarni hamda bahodir* (Qambar Ota. Alpomish haqida qo'shiq). *Shunday qilib, Ahmadjon G'olib keldi o'limdan, Endi nomi Qahrarni. Hamma aytar: – Bo'l omon!* (Zafar Diyor. Qahramon). *Hakim borar siltab qo'l: "Qahrarni ga o'lim yo'q"* (Habib Rahmat. Qahramonga o'lim yo'q).

2 Badiiy asardagi asosiy ishtirokchilar. *Kitobdag'i qahrarni larning hayotiga havas qilaman* (“G'uncha”dan). *Ertak qahrarni larining bir-*



biridan rango-rang rasmlari ko'zimizni quvnatdi (“G‘uncha”dan).

QAHRATON Juda ham sovuq. *Q a h r a t o n qishda ayiq qayerda uqlashini hamma yaxshi biladi – issiqliqina inida* (Raim Farhodiy. Xush kelding, bahor!). *Q a h r a t o n ning qahridan Qo'rqib qotgan yer-falak.* *Qo'l ko'tarib asirday Qilt etmay turar daraxt* (Dilshod Rajab. Qor).

QALQON 1 Jangchining tanasini qurollar zarbidan himoya qiluvchi narsa. *Jadal kelib chavandoz, Unga qilich tortgan on Xashpash botir qo'lidan Uchib ketdi mis q a l q o n* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon). *Qiz qo'rg'omni makon etib, Devorini q a l-q o n etib, Kular, yovni yakson etib Meshpolvonning askarlari* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

2 Yomonliklardan saqlovchi, himoya qiluvchi narsa. “*Eshikdan kelgan baloga Isiriq – q a l q o n*” dedilar (“Gulgina” kitobidan).

3 Himoya qiladigan, himoyachi. *Huquqimiz q a l-q o n i, Insoniylik dostoni Bizning Bosh Qomus kitob!* (Dilshod Rajab. Bosh Qomus kitobimiz). *O'zbekiston – hur Vatan, Baxtimiz ayvonidir. Armiyamiz mustahkam,* *Ona yurt q a l q o n idir* (Dilshod Rajab. Yurtning metin qalqoni).

QARI Ko‘p yil yashagan, katta yoshga kirgan. *Zidi: yosh. Ma'nodoshi: keksa. Buvijonim q a r i bo'lsa ham baribir chaqqon-da* (“G‘uncha”dan). *Yo'lda q a r i laylaklar To'xtab qolsa holsirab, Uchib kelar yoniga Yosh laylaklar hol so'rab* (Miraziz A‘zam. Laylak). *Buvijonim q a r i lar, Hatto yuzdan narilar* (Yo‘ldosh Sulaymon. Sardorning so‘zi).

QARINDOSH Bir ajdodga mansub kishilar, ota va ona tomonidan bog‘liq bo‘lgan odamlar. *Zidi: yot, begona.* *Uning sira ishi yo‘q Na q a r i n d o sh, yot bilan* (Safar Barno. Mehmon). *Og‘aynilarim kelishmadi. Hechqisi yo‘q, q a r i n d o sh larimni chaqirib kelaman* (“Kaklik bilan dangasa” ertagi). *Baroq dumli Qoramoshman, Yo‘lbarslarga q a r i n d o sh man* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha).

QASAM Gapining to‘g‘riliqi, bergen va’dasining chinligi, undan qaytmasligi haqida aytilgan qat’iy so‘z. *Ma’nodoshi: ont.* “*Yolg‘on gapirsam, non ursin, oq sut oqartirsin, yer qa‘riga olsin*”, – deb, *q a s a m ni taxlab tashlabdi* (“Yarimta non” ertagi).

Qasam ichmoq Qasam mazmunidagi so‘zlarni aytmоq. – *Shu qaroring qat’imi?* – *Q a s a m i ch desangiz, q a s a m i ch a m a n.* – *Yo‘q, q a s a m i ch m a y qo‘ya qol,* – dedi hurmatli direktori, – *shundoq ham gapingga ishondim* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Qasam i ch d i k: Vatanni Toptatmaymiz yotlarga* (H.Imonberdiyev. Komandir). *Sevib yurak-yurakdan Yurtimizni bizlar ham, Uni yovdan qo‘rishga Dilda i ch g a n m i z q a s a m* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon).

QASAMYOD Qat’iy va’da, qat’iy so‘z. **Qasamyod qilmoq.** Qat’iy va’da bermoq. *U q a s a m y o d q i l-g a n d a, Ko‘tarildi olqishlar. Keksalarning og‘zida Yovga qarshi qarg‘ishlar* (Zafar Diyor. Qahramonning kelishi). *Bo‘pti, birga boramiz, seni yolg‘iz tashlab ketadigan ahmoq emasman. O‘la-o‘lguncha birga bo‘lamiz, deb q a s a m y o d q i l g a n m i z, axir* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar saltanati).

QASOS Qilingan yomonlikka javob tarzidagi xatti-harakat. *Ma'nodoshi: o'ch. Jazo tortsa bos-qinchi, Olam uchun q a s o s bu!* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). *Endi Aytsam, armiyamiz – bizning metin himoyamiz. Kuch-qudratda qiyosi yo 'q, lek hech elga q a s o s i yo 'q* (Dilshod Rajab. Askar aytar...).

Qasos olmoq Qilingan yomonlikka javob tarzidagi xatti-harakatni amalga oshirmoq. *Yomonlikdan – yomonlik, Q a s o s o l m o g' im aniq* (Miraziz A'zam. Erk qushi). *Bosqinchidan o l g u m d i r Xalq q a s o s i – o 'chimni* (Zafar Diyor. Qurol...).

QAYSAR Birovning gapiga yurmaydigan, aytgani-da turib oladigan. *Ma'nodoshi: o'jar. Sen o 'qituv-chilarning so 'ziga, o 'zingdan kattalarning so 'ziga kir-maydigan q a y s a r bolasan* (T.G'oyipov. Sirli so'z). *O'jar, q a y s a r to 'rtovlon Tortishdilar chunonam. Yoqalar ham titildi, Ko 'ylaklar ham yirtildi* (Habib Rahmat. To'rt hunarmand haqida ertak). *Bilaman, sen o 'taketgan q a y s a r san, aytganingdan qaytmaysan* (X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati).

QAYG'U 1 Ruhiy qyinoq, ruhiy azob. *Ma'nodoshi: g'am. Onam ko 'zida q a y g' u Qotib qolgandi shamdek* (Safar Barno. Ona haqida ballada). *O'gay onasidan xo'rlanganda, echkisi bilan so 'zlashib, q a y g' u sini targatar ekan* ("Bo'z bola" ertagi).

2 Biror maqsad yo'lidagi bezovta xatti-harakat. *Ma'nodoshi: tashvish. Ularning qornidan boshqa q a y g' u si yo 'q* (Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar).

QASHSHOQ Hech narsasi yo'q, juda ham kam-bag'al. *Bor ekan-da, yo 'q ekan, qadim zamonda bir*

chol-u kampir bo 'lgan ekan. Ular juda q a sh-sh o q yashashar ekan, zo 'rg'a kunlari o'tar ekan (“Hamyon” ertagi). *Siz davlatingizni aslo q a sh sh o q lardan ayamang, yetim-yesirlarning boshini silang...* *Shunda siz butunlay sog 'ayib ketasiz, – debdi cho 'pon* (“Cho‘pon yigit bilan boy” ertagi).

QISQA 1 Uzunligi uncha katta bo‘lmagan. Zidi: **uzun.** *Ma 'nodoshi: kalta.* *Yog 'ochni uzun, temirni q i s q a kes* (Maqol). *Bo 'rivoy: – Sen mana bu yo 'ldan bor – manzilingga tezroq yetasan, – deb uzoq yo 'lni ko 'rsatibdi Qalpoqchaga.* *O'zi esa q i s q a yo 'lni kesib o 'tib, hammadan avval jurnalga obuna bo 'libdi* (“G‘uncha”dan). *Agar mumkin bo 'lsa, bu devorni juda q i s q a va arzonga tushadigan qilib qanday qurish kerak?* (U.Ismoilov. Ertaklarda matematika).

2 Keng emas, batafsil emas. **Ma 'nodoshi: ixcham.** *Endi gapimni qisqaroq qila qolay* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Ayniqsa, muloqotda ishlatiladigan q i s q a gaplarni bolalar rasmlar orqali oson o 'zlashtiryaptilar* (“G‘uncha”dan).

3 Uzoq davom etmaydigan. *Manov daraxt – olu,* *Manov daraxt esa azamat yong'oq.* *Nega bittasining umri q i s q a-yu,* *Nega bittasining umri uzunroq?* (Miraziz A’zam. Xayol surish). *Gulga qo 'ndi nozik kapalak, Pirpiratib o 'tdi qanotin.* *Unga sirdosh gul-zorlar kerak, Mazmunlidir q i s q a hayoti* (F.Hasanov. Kapalak). *Ustalar q i s q a vaqt ichida juda katta ayvon qurishga kirishibdi* (“To‘g‘rilik haqida” ertagi).

QIZARMOQ 1 Qizil yoki shunga yaqin rangga kirmoq. *Chiroyli bog 'day Gulzor, bog 'chamiz.* *Q i z a-rib q o l d i Gilos, olchamiz* (Qudrat Hikmat. Bog‘cha).



Bog'ga kirsam, olmalar Qip-qizarib pishibdi (Zafar Diyor. Olma). Jannat opaning... ko'zлari qiz ar i b d i, bildimki, yig'lab ham olibdilar (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

2 Nojo'ya xatti-harakati uchun xijolat tortmoq, izza bo'lmoq. *Uyati bor qiz ardi, Uyatsizlar bo'zardi* (H.Imonberdiyev. Eshiklar isyonii). *Kechikkanidan quyosh O'zini ko'p siqarkan, Uyatga qoldim, deya Qip-qizarib chiqarkan* (Ravshan Fayz. Men quyoshni tutvoldim). *Maktabiga kechikib, Borar emish ba'zida. Vazifani bajarmay, Qiz arar mi sh darsida* (Po'lat Mo'min. Tish cho'tka, poroshok va atirsovun ertagi).

QIZIL 1 Qon rangi. *Tomda qizil va oq sandiq bor. Oq sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib tush* ("Zumrad va Qimmat" ertagi). *Hozircha svetoforning qizil chirog'i yoniq. Bu paytda yo'ldan o'tish mumkin emas* (S.G'afurov. Ziyarak qiz).

2 Qizil rangga moyil, qizilga o'xshagan. *Birpasda podshoning qiziga qon kirib, yuziga qizil yugurib, ko'zi ochilib, tili gapga kela boshlabdi.* ("Navro'z" ertagi).

QIZG'ANMOQ Narsasini birovdan ayamoq, narsasini birovga berishga og'rinmoq. *Bu ishni men qilayin deb, Goh qiz g'anib, talashamiz* (Safar Barno. Mahallamiz). *Kuchukka ham ozgina bera qolinqiz g'anma y, So'ng yashaysiz u bilan apoq-chapoq, Mushuklar* (Anvar Obidjon. Mushuklar). *O'yinchog'in o'ynamay, Qiz g'anisa, bu qanday gap?* (Z.Isomillinov. Toshtemirni negadir...).

QIZG'ANCHIQ Narsasini birovdan ayaydigan, biror narsasini birovga berishni istamaydigan. *Tovuq-*

larga sepilgan Don-dundan yesam biroz, Shunga ham qo'ymay meni, Quvar q i z g' a n ch i q Xo'roz (Dilshod Rajab, Chumchuqning shikoyati). *Norboy yaxshi bokaku, Ammo chatoq bir ishda. Yozma ishin, q i z g' a n ch i q, Bermaydi ko'chirishga* (H.Murodov. Laqablar). *Do'sting Eson G'irt q i z g' a n ch i q. Sening esa qo'ling ochiq* (H.Imonberdiyev. Qo'li ochiq bola).

QIYIN 1 Bajarilishi, hal qilinishi ko'p kuch, mehnat, harakat, aqlni talab qiladigan. *Zidi: oson. Ma'nodoshi: mushkul.* *Berilgan uy vazifa Bo'lsa q i y i n masala, Do'stlar der: – Qoyiljon, Qilib ko'rchi hafsala* (Po'lat Mo'min. Qodirjon – Qoyiljon). *Ammo Haqqush shunday kattaki, – debdi baliqchi, – uni yuzta odam ham tutishi q i y i n* ("Haqqush" ertagi). *O'qituvchimiz borgan sari q i y i n savollar berib, miyamning qatig'ini chiqaryapti* (Anvar Obidjon. Oltin yurakli Avtobola).

2 Qutulish, chiqib ketish, yaxshilash mushkul bo'lgan. *Bilaman, senga q i y i n, o'gay onang sengayam, mengayam kun bermaydi* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Kitoblar g'oyat zo'r do'starimizdir. Ular hayotning q i y i n daqiqalarida ham bizni tashlab ketmaydi* (A. Dode. "G'uncha"dan).

3 Bo'lmaydigan. *Sichqon qarg'aga javoban: – Durust, lekin siz meni qayerda ko'rsangiz yeysiz, shuning uchun so'zingizga ishonish q i y i n, – degan ekan* ("Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagi).

QIYNAMOQ Jonini og'ritmoq, ruhan ozor bermoq, qiyin ahvolga solmoq. *Nega otni qamchilaysan, Nega otni q i y n a y s a n?* (Qambar Ota. Ot tili). *Bizni shuncha q i y n a d i n g, Qasos olamiz sendan* ("Sehrli

surnaycha” ertagi). Biror ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha, qo’ymaydigan odatim bor. Jonimni q i y n a b bo’lsa ham, maqsadimga erishaman (X.To’xtaboyev. Sariq devning o’limi).

QIYG’OS Hammasi baravariga, bitta ham qolmasdan. Bog’bon bitta shoxiga Uladi gilos. Fursat yetib ikkovi Gulladi q i y g ‘ o s (Po’lat Mo’min. Gilos va olcha). Har bahor o’rik q i y g ‘ o s gullaganda, unga olam-olam quvonch olib kelardi (S.G‘afurov. “Bog’chaga – do’mboqchaga. To’plam).

QODIR Biror ishni bajarishga kuchi, imkoniyati yetadigan, *Qiynalib qolsa odam, Etasan unga yordam. Hoy botir qush, botir qush, Yaxshilikka q o d i r qush* (Qambar Ota. Vertolyot). *Yuolmaydigan odam ko’zi ojizga: – Men yurishdan ojizman, lekin to’g’ri yo’l ko’rsatishga q o d i r m a n. Sen esa yo’l ko’rsatishga ojizsan-u, yo’l yurishga q o d i r s a n. Mumkin bo’lsa, meni opichlab olsang, men yo’l ko’rsatsam, zora, ikkalamiz birgalikda halokatdan qutulsak, – debdi* (“Birlashgan o’zar, birlashmagan to’zar” ertagi).

QOPQON Turli hayvonlarni tutish uchun ishlatiladigan asbob, moslama. *Chiyilladi nimadir, Shoshib chiqdim ayvonga. Ko’rsam, Turar sichqoncha, Dumi esa – q o p q o n da* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi). *Dumsiz sichqon kechagi Xatosini to’g’ri-ladi. Pishloqni q o p q o n danmas, Ombordan o’g’irladi* (X.Komilov. Tuzatilgan xato). *Tulki yugurib ketayotib quyon tutish uchun qo’yilgan q o p q o n ga tushib qolibdi* (“Hiylagar bedana” ertagi).

QORA 1 Ko’mir rangi. Zidi: **oq.** Zebra ola to’n bichar, Ayiq yuvar po’stinin, Pingvin q o r a shim

tikar, kamzulini oq qilib (Anvar Obidjon. Olamda nima gap?). *Mushugim bor yoqimtoy, Junlari mayin, q o r a. Uyqudan uyg'ongach u, O'ziga berar oro* (I.Oolloberganov. *Mushugim*).

2 Qora rangga moyil, qoraga o'xshagan. *Q o r a bulut yirik-yirik tomchilar bilan borliqni savalay boshladi* (H.Imonberdiyev. *Qutichada mitticha*). *Ular-ning Ubay degan o'yinboschisi bor. Ikki yuzi shishib chiqqan q o p-q o r a bola* (Erkin Malik. *Bolaligim ertaklari*).

3 Ma'qul bo'limgan, yomon. *Urishqoqlar ko'p bo'lgan O'sha q o r a zamonda* (H.Murodov. *Bo'ston*). *Ularning ko'pdan o'ylagan qora niyatlarining amalgamoshmasligiga ishonganidan keyin do'stimning uyiga yo'l oldim* (A.Xidirov. *Hurmat*).

Ichi qora Birovga yaxshilik tilamaydigan, birovning muvaffaqiyatini ko'rolmaydigan. *Hakkavoyning i ch i q o r a bo'lib, birovlarning yutug'ini ko'rsa, kuyib-yonib ketar ekan* (Rauf Tolib. *Yolg'onchi hakka*).

QORONG'I 1 Nur tushib turmagan. *Zidi: yorug'*. *Oymomajon, tezroq chiq, Ko'rsataqol rang-ro'ying. Chiqmasang, q o r o n g' i da O'ynay olmaymiz o'yin* (Abdurahmon Akbar. *Chorlov*). *Zax, q o r o n g' i yerto'la, Tuynukdan oy mo'ralar* (H.Imonberdiyev. *Mardon*). *Xo'jayini Qoramoshni q o r o n g' i uyga hafthalab qamab, och qo'yardi* (H.Imonberdiyev. *Qutichada mitticha*).

2 Hech ham aniq emas, noma'lum. *Podsho debdi: - Sen bir usta bo'lsang. Ota-onangning kimligi ham menga q o r o n g' i: kambag'almi, gadoymi, bilmayman* ("Oymoma va ajdarho" ertagi). *Keyin Saidovning u*

bilan birga bo‘lganligi bizga q o r o n g‘ i (O‘. Umarbekov. Yoz yomg‘iri).

QUVNOQ Juda yaxshi kayfiyatli, xushchaqchaq. *U juda q u v n o q edi, Kuldirardi dam-badam* (Safar Barno. Qirq yoshli daraxtlar). *Maymunning ko‘z qorasi – Bor edi bir bolasi, Onasining erkasi, Onasining ertasi, Juda ham sho‘x va q u v n o q* (Habib Rahmat. Uddaburon maymun). *Hammamiz q u v n o q bo‘lsak, Hammamiz inoq bo‘lsak* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar).

QUVONMOQ Ko‘tarinki, xushchaqchaq, juda yaxshi kayfiyatga ega bo‘lmoq. *Zidi: xafa bo‘lmoq. Ma‘nodoshi: xursand bo‘lmoq, sevinmoq.* *Qushlar tilini bilgan sehrgar kampir yana ham q u v o n i b d i* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Bolasining bunday jonkuyarligidan ona ayiq juda q u v o n i b d i* (T.G‘oipov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Rostdanmi, buvi, men ham yaxshi bolamanmi? – Sherzod quvoni b, buvisini quchoqladi* (M. Hamidova. Xunuk baliqchalar).

QULUN 1 Otning bolasi (bir yoshgacha bo‘lgan). *Otning erkagi “baytal”, urg‘ochisi “biya” deyiladi. Otning bolasini “q u l u n”, sut emmay qo‘rganini “toy”, “toychoq” deb ataydilar* (Anvar Obidjon. Mushuk bibi miyovladi). *Irg‘ishlaydi sho‘x q u l u n, Peshonasi qo‘ng‘iroq* (T. Adashboyev. Qizg‘aldoqlar qutlashar).

2 O‘g‘il bolalarni erkatalish uchun qo‘llanadi. *Alla, qulunim, alla, Mangu o‘lanim, alla. Quluntoyginam, alla, Kenjatoyginam, alla* (“Gulgina” kitobidan).

QUNT Biror ishni berilib, astoydil bajarish istagi. *Qu n t bilan uy ishin qilganga, Darsining ma‘nosin*

bilganga, Eng maza, Eh, maza! (Po‘lat Mo‘min. Eng maza, Eh, maza!). *Behzod bu yutuqlarga o‘zidagi qat’iy intizom, mustahkam iroda, q u n t va ziyraklik tufayli erishdi* (“G‘uncha”dan).

QO‘MSAMOQ Biror odam yoki narsani juda sog‘inib, unga yetishishni astoydil xohlamoq. *Yo‘lga tushsa, uyini Yelkaga olar asta, Yo‘qsa, tosh kulbasini Q o‘m s a b q o l a r birpasda* (H.Murodov. Toshbaqa). *Q o‘m s a b q o l s a oyisin, Qo‘zi nozik “ba-a”laydi* (T.Adashboyev. Hushtak chalib turasiz). *Kishi qarigandan keyin kindik qoni to‘kilgan joyini q o‘m s a b q o l a r k a n* (B.Rahmonov. Oltin odamlar).

QO‘POL 1 Beo‘xshov, bichimi kelishmagan. *Uning bo‘yi cho‘zilgan, ...oyog‘ida q o‘p o l etik, qo‘li ishga chopib turardi* (Asqad Muxtor. Insonga qulluq qiladurman).

2 Odamga qattiq tegadigan, odamni ranjitadigan. *Zidi: yumshoq, muloyim. Ma‘nodoshi: dag‘al. Gapping menga keldi malol, Berding picha q o‘p o l savol* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Usmon pulni olibdi-yu, otasining q o‘p o l muomalasidan xafa bo‘lib, uydan chiqib ketibdi* (“Usmon bilan Yoqub” ertagi). *Ammo Abdulla uning q o‘p o l javobidan ranjigan bo‘ldi* (O‘.Umarbekov. Odam bo‘lish qiyin).

3 Muomalasi yumshoq bo‘Imagan, boshqani mensimasdan xatti-harakat qiladigan odam. *Vohid, bu nima qiliq, Q o‘p o l san-a naq ayiq?* (Rauf Tolib. O‘zing-chi?). *Farosatsiz, q o‘p o l, ishyoqmas bo‘lgan boyning qizi farosatli, ziyrak ayolga aylanibdi* (“Iskandar bilan boyning qizi” ertagi). *U ko‘chada bir kampirni jo‘rttaga turtib ketibdi. Kampir xafa*



bo 'lib: – O'g'lim, muncha q o' p o l san? – desa, Olimjon: – O'zing q o' p o l!— debdi to'ng'illab (T.G'oipov. Sirli so'z).

4 Tuzatish, kechirish yoki oqlash qiyin bo'lgan. *Q o' p o l xatoga yo'l qo'ymaslik uchun yetti o'lchab bir kesish kerak* (A.Xidirov. Hurmat).

QO'RIQLAMOQ Himoya qilmoq, o'zgalar xavfidan saqlamoq. *Q o' r i q l a r hur bo'stonni, Ona O'zbekistonni* (Qambar Ota. O'zbekiston askari). *Es o'rgatib Tovuqqa, Beradi yo'l-yo'riqlar: Nafsi yomon Mushukdan Jo'jalarni q o' r i q l a r, Xo'rozmisan Xo'roz-da* (Anvar Obidjon. Xo'roz haqida qo'shiq).

QO'RQMAS Hech narsadan qo'rqlmaydigan, qo'rqlishni bilmaydigan. *Zidi: qo'rqoq. Ma'nodoshi: dovyurak. Shug'ullandim sport bilan, ilm oldim sabot bilan. Botir, q o' r q m a s bo'lib o'sdim. El mehriga to'lib ko'ksim, shu Vatanni sevdim jondan* (Dilshod Rajab. Askar aytar...). *Qalin qanotlarini qarsillagan qish qilichiga qalqon qilgan q o' r q m a s qushlarga qarab, qoyil qolasan* (Dilshod Rajab. Qarg'aga qisqa qasida).

QO'RQOQ Har narsadan qo'rqlaveradigan. *Chunki "Bizning saflarda Q o' r q o q lar hech yo'q" debsiz. "Kulin ko'kka sochamiz Dushman otsa o'q" debsiz* (Yo'ldosh Sulaymon. Chegarachi amakiga). *Eh, biram menga maza, Q o' r q o q ekansan rosa. Aylanmoqda yer-u ko'k, Hey q o' r q o q, yuragi yo'q* (Habib Rahmat. Aylanmachoq). *Tosh, qanaqa o'rtoqsan, Sen quvonsan – q o' r q o q san* (Rauf Tolib. O'zing-chi?).

QO'RS 1 Xachirning erkagi. *Xachirning erkagini "qo'rs" deb ataydilar* (Anvar Obidjon. Xachir).

2 Odamning ko‘nglini og‘ritadigan, boshqalarni mensimaydigan, havoyi. *Sinfingizda, bolalar, Naq bitta q o‘r s bola bor... Doim yurar gerdaiyib, Hech yaxshilik yoqmaydi. Bachkanalik bo‘lar deb, Sira kulib boqmaydi... Gapin eshitmaganlar, Balki, der: “Durust bola”. Hech qayda uchramagan Bunaqangi q o‘r s bola* (Po‘lat Mo‘min. Qo‘rs).

QO‘SHNI 1 Yashash joyi yonma-yon yoki yaqin bo‘lgan odamlar. *Yangi q o‘sh n i miz bilan Tanishib chiqdim, oyi* (Abdurahmon Akbar. Bizning Nor). *Ikkita q o‘sh n i juda inoq yashashar edi* (U.Ismoilov. Ertaklarda matematika). *Tug‘ilganin qutlash uchun Barcha kelgan unikiga... Qarindosh-u yaqin-yiroq, Maktabdosh-u q o‘sh n i, o‘rtoq* (Po‘lat Mo‘min. Mohir bilan Tohir).

2 Yonma-yon joylashgan, bir-biriga yaqin. *Sog‘inchi hech tinchlik Bermay yurakka, Saharda yo‘l oldim Q o‘sh n i qishloqqa* (Qambar Ota. Do‘s’tuyiga yetganda). *Shu kuniyoq ikki q o‘sh n i yurt o‘rtasida to‘y-tomosha boshlanib ketibdi* (“Attang” ertagi).



RAHMDIL Birovga ozor bermaydigan, hamma narsaga rahm-shafqat bilan munosabatda bo‘ladigan. *R a h m d i l man jonzotga, Yo‘q, minmaysizlar otga!* (H.Imonberdiyev. Rassom). *Yuragi pok, r a h m d i l Ukam, ulug‘ odamsan* (Habib Rahmat. Botir askar). *O‘g‘li o‘sib-ulg‘ayibdi, qomati kelishgan, aqli raso, r a h m d i l yigit bo‘lib yetishibdi* (“Zolim xon bilan cho‘pon” ertagi).

RAMZ Biror g‘oya, tushuncha yoki hodisani shartli ravishda ifodalovchi, unga ishora qiluvchi belgi. *Elning erk-u g‘ururin – R a m z i, baxt charog‘i bu. Ozod yurt bayrog‘i bu, Obod yurt bayrog‘i bu* (Dilshod Rajab. Yurt bayrog‘i). *Bayrog‘imizdagи moviy rang mangу osmon va hayot r a m z idir* (“G‘uncha”dan). *Ikkinchи qo‘g‘irchoq esa hamma gapni bir qulog‘i bilan eshitib, ikkinchisidan chiqarib yuboradigan odamlar r a m z idir* (“Uchta oltin qo‘g‘irchoq” ertagi).

RANJIMOQ Birovdan yoki biror nojo‘ya xatti-harakatdan ozor chekmoq, xafa bo‘lmoq. *Buvim dedi: “R a n j i y m a n, Menga qulog solmasang, Toychoqqinam, ozgina Uxlab, daming olmasang”* (Z.Isomiddinov. Endi zerikmayman). *Moshga meni yalqov deb, Rosa yomonlabdi g‘oz. Odatini bilsam ham, R a n j i d i m undan biroz* (Abdurahmon

Akbar. Ehtiyotkor toshbaqa). *Anor kabi sovuqdan Qo'rqadigan anjirman. Qishda ko'mib qo'ymasang, Bilgil, qattiq ranjirman* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami).

RAQIB 1 Yomonlik niyatida bo'lganlar. *Ma'nodoshi: dushman, yov. Bir necha yil kuchli raqib bilan mardonavor kurashishdi* (Nusrat Rahmat. Jadid). ("Yarimta non" ertagi). *Abduboy qo'lini raqib bilan bo'g'zidan bo'shatib, yon-atrofga qarasa, hech kim yo'q emish* ("Yarimta non" ertagi).

2 Bir narsani talashib, janjal qiluvchilar. *Raqib lar bir-birlari bilan qo'l olishdilar. So'ng asosiy maqsadga o'tildi. Janjalning kelib chiqish sababiga aniqlik kiritmoqchi bo'ldilar* (X.To'xtaboyev. Quyonalr saltanati). *Ikki tomon - raqib lar Murosaga kelsin deb, Ming bor ora tushsa ham, Kuni o'tar kaltak yeb* (Abdurahmon Akbar. Tennis sharchasi).

3 Sport o'yinlari, musobaqalarda qarama-qarshi tomonlar. *Ular raqibini o'ziga o'chakishtirish uchun taomilga ko'ra bir-birini masxaralab bo'lib, bellashuvga hozirlanishdi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

RASSOM Hunari rasm chizish bo'lgan odam. *Bilib oling, men - Ali, Mohir rassom bo'laman. Istan sangiz, g'alati Rasmlarni solaman* (H.Murodov. Ahillik). *Rassom jiyanim Shuhrat Chizibdi talay surat* (Rauf Tolib. Shuhrat chizgan suratlar).

REJA Biror ishni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilangan mo'ljal. *Lashkarboshi o'z reja sini xuddi ana shu mahalda amalga oshirishni mo'ljallagan edi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning

janglari). *O'ylabdi kunduz-kecha, Tuzmish o'zicha r e j a* (Po'lat Mo'min. Bilganni qari – bilmaydi pari). *Keyin boshimni silab turib, o'ylab qo'ygan r e j a sini gapirib berdi* (Anvar Obidjon. Oltin yurakli Avtobola).

ROHAT Maza qilish, huzur-halovat. *Qovoq, ko'ngling bo'lzin to'q, Qiynalmasang, r o h a t yo'q* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Mehnatning tagi – r o h a t* (Maqol). *Ko'p ishlagan ko'p olur, oz ishlagan – oz, Qish kuni r o h a t dadur, kim ishlasa yoz* (Abdulla Avloniy. Bahor).

ROST 1 Tik, to'g'ri holatda. *To'la qaddini r o s t tutgan holda kallasini xiyol egib, erkakcha ta'zim qildi* (Mirzakalon Ismoiliy. Bizning roman).

2 *Haqiqatdan iborat, haqiqatga to'g'ri keladigan. Zidi: yolg'on. Ma'nodoshi: to'g'ri, chin.* “*Ikki'si ko'p To'g'onchi, Bahonachi, yolg'onchi. Doim yolg'on izlaydi, Qachon bir r o s t so'zlaydi?*” (Habib Rahmat. Ilojsiz qolganda). *Gaping r o s t mi, Qovoqvoy, Maqtanyapsan, hoynahoy?!* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Akasi gapirganda juda ko'p yolg'on qo'shar ekan. Yolg'on gaplarni r o s t dek qilib gapirishga usta ekan* (“Yolg'on” ertagi).

Ro'yrost (yoki ro'yirost) Yashirmsandan, ochiqchasiiga, qanday bo'lsa, o'shandayligicha. *Oymon ona-siga barcha gapni r o' y – r o s t gapirib berdi* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni). *Boy qiziqib, xotinning rang-ro'yini, hovli-joyini so'ragan ekan, savdogar bola hammasini r o' y i r o s t aytib beribdi* (“Osma savat” ertagi).



SABOQ 1 O'quv mashg'uloti, dars, bilim. *Zaynab opa rasm chizish, sanash, ingliz tilidan s a b o q beradi* ("G'uncha"dan). *Ovozi bor binoyi, Echki qilar xirgoyi. O'rgimchak sal panada S a b o q berar to'qishdan* (Faxriddin Hayit. Kim nima g'amda?).

2 Foydali xulosa chiqarishga yordam beradigan voqeа-hodisa, ibrat, namuna. *Lofchi laylak lof urar Laqma, laqqi baqaga, So'ng cho'qib, shartta yutar; S a b o q dir bu barchaga* (Dilshod Rajab. Qiziq alifbo). *Kimki ilmga mushtoq, Hayotdan olsa s a-b o q, Bir umr bilmas mudroq* (Qambar Ota. Birinchi qo'ng'iroq). *Ha, tushunib yetdim-e Yordamchilar s a-b o g' in: Kerak ekan har ishni O'z vaqtida qilmog'im* (Z.Isomiddinov. Yordamchilar sabog'i).

SABR 1 Biror voqeа-hodisani zerikmasdan, chidam bilan kutish. – "Zumrad bilan Qimmat"ni Aytib bering yana bir: – *Ertalikka ham qolsin, Senda yo'qmi yo s a b r?* (Yo'ldosh Sulaymon. Alla).

2 Qiyinchiliklarga chidash, bardosh berish. *Ayta-versak, arzlar ko'p, Toqat, s a b r qolmadi* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami). *Bersin senga bobolaring Bardoshimi, s a b r i ni* (T.Adashboyev. Onamning so'nggi iltimoslari).

Sabr qilmoq Zerikmasdan, chidam bilan kutmoq, bardosh bermoq. *S a b r q i l, tentak! Bir kun*

s a b r q i l s a n g, o‘zi ochilardi! Atirgul-ku bu, atirgul! (Olloyor. Sehrli uyqu). Non bo‘lgach u, sabr qilib Bor sinov-otashlarga, E‘zoz qilib, ko‘zga surib, Ko‘tardilar boshlarga (Dilshod Rajab. Bug‘doyning taqdiri). Ey, attang, bir kun s a b r q i l s a m bo‘lar ekan, do‘stim ancha oziq olib kelar ekan (“Laylak bilan tulki” ertagi).

SARA Eng yaxshi, tanlab olingan. *To‘qqiz yoshida bo‘zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo‘ladi. Shundan boshlab u bo‘z emas, tarlon ot bo‘ladi. Tarlon – xol-xol ot! Tarlon – otlar s ar a si* (Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom). *Elning aziz farzandlari – g‘oliblar – championlarning s a r a lari ko‘taradi yurt bayrog‘ini* (“G‘uncha”dan). *Ibn Sino quvonib dedi: Barakalla, o‘g‘lim, eng s a r a giyohlarni teribsani* (“Donishmand ustoz” rivoyati).

SARALAMOQ 1 Eng yaxshilarini terib, ajratib olmoq. *So‘zlarni ham s a r a l a b, Terib-terib yozibsani* (Yo‘ldosh Sulaymon. Yasha, jiyan!). *Donni poxoldan ajratib olgach, uni shamolga shopirib s a r a l a y-s i z* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Yetib keldik bozorga, Go‘yoki qovunzorga. Olaylik deb s a r a l a b, Yurdik bozor oralab* (Po‘lat Mo‘min. Eh, rosa shirin ekan!).

2 Tanlab ajratib olmoq. *Egatlarni orala, Pishganganlarin s a r a l a* (Po‘lat Mo‘min. Topishmoqlar). *Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlardan eng yaxshi uchtasi s a r a l a b olinadi* (“G‘uncha”dan).

SARATON Yilning eng issiq oy nomi (22-iyun – 21-iyul davriga to‘g‘ri keladi). *Bolyig‘moqda mevalar, Yer va Quyosh ishlar teng. Saraton ning mevasini*

S a r a t o n da kelib yeng (Habib Rahmat. Saraton). *S a r a t o n da qovjirab, Qancha o'rik, olmalar Qurib qoldi, nachora* (U.Qurbanov. “Bog'chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Meva-cheva pishar ekan S a r a t o n ning hovrida* (Po‘lat Mo‘min. Bir-birin kuzatar fasllar).

SARFLAMOQ 1 Biror narsa sotib olishga ishlatmoq, sarf qilmoq. *Mana bu ko‘milgan xumlar-dagi oltinlarni tejab-tergab s a r f l a s a n g l a r, bir umrga yetadi* (“Uch avliyo” ertagi). *Men bo‘lsam ilmni afzal deb aytaman. Akalarim eshitib olsinlar, birinchisi shuki, ilmni qancha sarflasang, shuncha ko‘payaveradi. Davlatni s a r f l a s a n g, u tobora kamayib boraveradi* (“Ilm afzal” ertagi).

2 Biror maqsad uchun ishlatmoq, ketkizmoq. *Fotima chiqib bog‘ga, Topib oldi toshbaqa. Qo‘lga o‘rgatish uchun S a r f l a d i u bor kuchin* (“G‘uncha”dan). *Dunyoda dangasa va ishyoqmas, vaqtini bo‘lar-bo‘lmasga s a r f l a y d i g a n bolalar-u shoshma-shoshar; vaqtini havogasovuradigan odamlar ham ko‘p ekan* (Azamat Xudoyberdi. Vaqt va baxt). *Men bo‘lsam ilmni afzal deb aytaman. Akalarim eshitib olsinlar, birinchisi shuki, ilmni qancha s a r f l a s a n g, shuncha ko‘payaveradi. Davlatni sarflasang, u tobora kamayib boraveradi* (“Ilm afzal” ertagi).

SARTAROSH Soch oluvchi usta. *Eys a r t a r o sh, s a r t a r o sh, Omon bo‘lsin deysan bosh... Kiyibsan oppoq libos, Barcha niyattingga mos* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi...). *Dili shod s a r t a r o sh i m, Senga tutaman boshim* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi...).

SARG‘AYMOQ 1 Sariq tusga kirmoq. *Yoz tugaydi, kuz kelar, Qishga yuzma-yuz kelar. Sar g‘ aya bo shlar barglar* (D.Omonova. Kuz). Xotinning rangi somondaysar g‘ ayi bdi, husni so‘libdi (“Uch avliyo” ertagi).

2 Juda ham qattiq kutib, qiynalmoq. *Kutaverib sarg‘ aydim Bir yaqin do‘st – qardoshni. Bo‘lsamda yuksakda man, Yakkaman, oh, yakkaman* (Dilshod Rajab. Do‘lananing dardi).

SAXIY 1 Hech kimdan biron narsasini ayamaydigan, qizg‘anishni bilmaydigan. *Zidi: xasis, baxil. Saxi y so‘nggi burdasin Qo‘yar bo‘lib yegani* (Habib Rahmat. Uдум). *Saxi y topsa, bo‘lib yer, baxil topsa, bosib yer* (Maqol). *Bag‘ri quyosh, oy bu el, Yaxshilikka boy bu el, Kafti ochildasturxon, Saxi y, hotamtoy bu el* (Dilshod Rajab. Baxshi bola yurt kezsa).

2 Noz-ne’matlarga boy. *Saxi y yer biznikidir, Bizniki siznikidir* (Safar Barno. Oltin shahar haqida ertak). *Muncha saxi y, bag‘ring keng, Mehnatkash tut daraxtim* (Habib Rahmat. Tutlar).

SAYOHAT Turli joylarga dam olish yoki ko‘rib tanishish uchun borish. *Bizlar, uch-to‘rt og‘ayni Saraton kezi ayni Tog‘ga qildik say o h a t* (Po‘lat Mo‘min. Eshakdan tushib...). *Say o h a t etib davom, Oshdik qancha yo‘l-dovon* (Rauf Tolib. Sehrgar do‘stim bor).

SAYYORA Quyosh atrofida aylanuvchi osmon jismi. *Olis say y or a larga Uchib ketaman, – der u* (H.Imonberdiyev. Urishqoqlar). *Biz kashf etar say y or a Urush nima bilmaydi* (H.Imonberdiyev. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam).

SEVMOQ 1 Muhabbatli munosabatda bo‘lmoq, yaxshi ko‘rmoq. *Muhammadkarim buvamiz shu bувимизни жуда қаттиқ се варкадан* (Miraziz A’зам. Кечмish-kechirmishlarimdan). *Shunday qilib, Zuhra qiz o‘z се вега нигитини олмдан саqlаб qolgan екан* (“Oqila qiz” ertagi). *Bitta bola kelib sekin, Aytdi-qo‘ydi uning sirin: – Chalg‘itmoqda sizni, bizni, Sevib qolga n bitta qizni* (Po‘lat Mo‘min. Xoliq “oshiq”).

2 Mehr-sadoqatli munosabatda bo‘lib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmoq. *Jangchi ona Vatanni Ortiq се варгалбидан, Zafar uchun olar kuch Jonajoni xalqidan* (Zafar Diyor. Biz yashamoq istaymiz). *Podshoh odil, eliga г‘оят г‘амxo‘r bo‘lib, xalqi ham uni жуда се варкадан* (O.Quvvatov. “Odil podshoh, kiyik bolasi va pazanda qiz” ertagi). *Vatanni се вмоq imondandir* (Hadis). *Mening jiyrон toyim bor, Uni жуда се ваман* (Zafar Diyor. Kichkina chavandoz).

3 Xush ko‘rmoq, yoqtirmoq, yaxshi ko‘rmoq. *O‘rdagim севар suvni, Suvda о‘тар har kuni. Yomg‘ir yog‘ganda biroq, Qochib qolishi chatoq* (H.Murodov. O‘rdagim). *Chuchmomajon, chuchmoma, Seni се вади hamma* (Olqor Damin. Chuchmomaning kulgisi). *Tongda turib, hovliga Har kuni suv sepaman. Bu yumushni о‘зим-чи, Juda-juda се ваман* (Po‘lat Mo‘min. Suv sepaman hovliga).

SEZGIR Har qanday ta’sirni darrov his qiladigan, har qanday narsani tez fahmlay oladigan. *Ma’nodoshi: ziyrak, hushyor. Doim се згири, hushyor bo‘л, Hammamizga ko‘rsat yo‘л* (Qambar Ota. Tingla, yo‘lchiroq). *Boboning sakkiz о‘гли ва bir qizi bor*



ekan. Qizi aqlli, s e z g i r ekan (“Ilm afzal” ertagi). *O’jarvoyning ziyrak va s e z g i r bir iti bor ekan* (“O’jarvoy bilan vafodor it” ertagi).

SINAMOQ Haqiqiyligini, chinligini, sifatini aniqlash uchun tekshirmoq. *Olis yo’l otni s i n a y d i, Og’ir yo’l mardni s i n a y d i* (Maqol). *Shogird bo’lish uchun kelganlarni s i n a b ko’rish odaitim bor* (T.G‘oipov. Mardni maydonda sinang). *S i n a m a s dan hech kimni Do’st sanama o’zingga* (Habib Rahmat. Uddaburon maymun).

SIR 1 Boshqalardan yashirin tutilgan, boshqalarga noma’lum bo’lgan biror ish, gap, narsa kabilar. *Hayron boqib, bolalar Tushunolmas bu s i r ga* (H.Murodov. Yangi yil bayramida). *Bu s i r ni men o’sha vaqtning o’zida bilganim yo’q edi* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni). *Bilolmadim men hech bir, Oyimda bor qanday s i r* (Habib Rahmat. Botir askar).

2 Hali bilinmagan, o’rganib aniqlanmagan, noma’lum voqeа-hodisalar. *Endi o’zingga bog’liq, Ne ekib, ne olmog’ing. O’qib, dunyo s i r larin Zarur erur bilmog’ing* (J.Jabborov. Istiqlol).

3 Ma’lum bo’Imagan, yashirin sabab. *Qarg’a kiyikni dasturxonga taklif qilibdi va o’zaro gaplashib o’tirishganda, kiyik qarg’a, sichqon, toshbaqaning birbirlari bilan... nima uchun bunchalik inoqliklarining s i r ini bilishga kelganini aytibdi* (“Ovchi, Ko’kcha va Dono” ertagi). *Qo’shni, biz ham oltin olmani erxotin juda ko’p dumalatib-dumalatib hech qanday xursandchilikka ega bo’lolmadik. Buning s i r i nimada, aytib beringiz-chi?* (“Oltin olma” ertagi). *Shuncha gapirishiga, tushuntirishiga qaramay, xotini:*

“Hayvonlar tilini bilishning s i r ini ayting”, – deb turib olibdi (“Siringni sirtga chiqarma” ertagi).

4 Biror kasb-hunar yoki mashg‘ulotning hamma ham bilavermaydigan zarur qoidalari, o‘ziga xosliklari. *Men dehqonchilikning bunaqa s i r lari borligini bilmasdim* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Qo ‘shni Yoqut opamdan zamonaviy to ‘quvchilik s i r larini o ‘rganmoqdaman* (“G‘uncha”dan). *Daraxt ekish s i r larin O‘rgatdilar dadamlar* (Habib Rahmat. Bog‘im).

Sir tutmoq Biror gap, voqeа-hodisadan birovni xabardor qilmaslik, ular haqidagi xabarni yashirin tutmoq. *Dunyoga kelar ekan, har bir insонning o‘z orzusi bo ‘ladi. Kimdir u haqda gapiradi, kimdir esa uni s i r t u t a d i* (“G‘uncha”dan). *Sir boy bermaslik O‘zining noma’qul tomonlarini birovga bildirib qo ‘ymaslik.* *Boyning joni hiqildog‘iga kelibdi-yu, ammo s i r b o y b e r m a p t i* (“Hunarli yigit” ertagi). *Ammo ola quyon sir boy bermay: – Xush ko ‘rdik, keling, – debdi* (Rauf Tolib. Sho‘rva).

SOF 1 Hech qanday g‘ubori, chang-chungi, iflosligi yo‘q. *Ma ‘nodoshi: beg‘ubor, musaffo, toza.* *Toychoqlardek o ‘ynoqlab, Simiramiz s o f havo* (Obid Rasul. Quvnashib dam olamiz). *Sog ‘lom bo ‘lish qo ‘lingizda, Shunday ekan, quloq soling: Erta tongda s o f havodan To ‘yib-to ‘yib nafas oling* (D.Kamoljonova. Doktor Voyjonimdan xat).

2 Boshqa narsa aralashmagan. *Ma ‘nodoshi: asil, toza.* *Ipak qurti Uy qurdi. S o f kumushdan G‘isht urdi* (Anvar Obidjon. Kumush uy). *O‘zbek tilida sof gapirish ham yaxshi tarbiyalanganlik belgisidir.*

3 Har qanday ayb, nuqsondan xoli, har jihatdan halol, haqqoniy. *Buni s o f vijdon bilan ayta olaman* (O‘.Hoshimov. Bu daraxtning nomi edi Yaxshilik).

SOTQIN Dushman tarafiga o‘tgan, unga xizmat qilgan odam. *Urushmasdan asir tushib, Bir-biridan endi cho‘chib, Yuraversin rangi o‘chib, S o t q i n larga rahm qilma* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Afsuski, ularning orasida s o t q i n bor ekan* (Olloyor. Sehrli uyqu).

SOVUQ 1 Past harorat. *Zidi: issiq. Shu kuni Nodir s o v u q da ko ‘p o ‘ynagani sababli qattiq shamolladi* (“G‘uncha”dan). *Qahraton s o v u q da ham, Topilib turar bizda: Bodring, Karam, Pamildori, Baqlajon-u Garndori* (Miraziz A’zam. Qoyil qoling). – *Tashqarida Nima bor? – Picha s o v u q, Picha qor...* (Anvar Obidjon. Qish). *Kunning issig‘imi, qishning s o v u g‘ imi – bizga baribir – maqsadni ko ‘zlab borayotirmiz, – dedi G‘ayrat* (T.G‘oipov. Pahlavon).

2 Harorati juda ham past, juda ham salqin. *O‘tib ketdi Qishning s o v u q Ham bo‘ronli kunlari* (Zafar Diyor. Bahor yaqin). *Kuz o‘tib, birpasda s o v u q kunlar boshlanib, qish oyi ham keldi* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni). *Quyosh asta usqqa bosh qo‘ydi, tog‘lar ortiga berkindi. S o v u q shamol esdi, bola qaltirab ketdi* (“G‘uncha”dan).

3 Harorati unchalik baland emas, muayyan me'yorda salqin bo‘lgan. *Dilshodjonning yuzini S o -v u q suvga yuvma* (“Aytim-olqishlar”dan). *Safar aka Nasibaoyning peshonasiga kaftini bosdi — peshonasi s o v u q edi* (U.Nazarov. Qish nafasi).

4 Yoqimsiz. *O'rtaga juda ham s o v u q jimlik cho 'kdi* (Said Ahmad. To'lqinlar). *Men uning s o v u q qiliqlariga qarab turib, yoshlikdagi bir o'rtog 'imni eslab ketdim* (Said Ahmad. Yuk). *Bu qush menga nechundir Ko'rindi-dashubhali. Sovuq boqdi go'dakka Kirib kelgan mahali* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon).

5 Ko'ngilga ozor beradigan, noxush, xunuk. *S o v u q xabar aytmoqchiman, o shohim! Og'ir botsa, kechirgaysiz gunohim* (Anvar Obidjon. Qorinbotir).

Sovuq yemoq (yoki **qotmoq**) Sovuq ta'sirida og'riq sezmoq. *Shunda Valijon dadasiga yalinib: – Axir uning momiq yunglarini qirqsangiz, qishda s o v u q y e y d i - k u, – debdi* ("G'uncha"dan). *O'shanday bir bolakay Maktabdan qaytayotib, Diydirar s o v u q q o t i b* (Po'lat Mo'min. Maktabdan qaytayotib). *Yurdim bekordan-bekor, S o v u q q o t i b dir-dir. Mana, endi yotibman, Tanim og'rir zir-zir* (Dilshod Rajab. Xulosa). *U sahargacha jim yotib, tong otgach, eshikni tepib: "Eshikni oching, s o v u q q o t - d i m", – deb baqiribdi* ("Handalak polvon" ertagi). **Sovuq urmoq** Sovuq qattiq ta'sir qilib, shikastlamoq. *Kurtaklar bo'rtgancha qotib qolganga o'xshaydi. – S o v u q u r d i m i k a n, nimaga barg yozmayapti? – akam onamni savolga tutadi* ("G'uncha"dan). *Turqi sovuq Ko'rinishi hech kimga yoqmaydigan, qiyofasi yoqimsiz.. Qo'shnilarim orasida eng t u r q i s o v u g' i, bu – Chayon* (Anvar Obidjon. Suvarakning hikoyasi).

SOG'AYMOQ Kasallikdan qutulmoq, shifo topmoq. *Maslahat beraman, agar aytganimni qilsang, s o*

g‘ a y i sh i ng mumkin (T.G‘oipov. Sirli so‘z). *Toza havo va mehnat qizchaning ishtahasini ham ochib yuboribdi, u ovqatni ishtaha bilan yeb, s o g‘ a y a b o sh-l a b d i* (T.G‘oipov. Yashirilgan qiz). Odamlardan yaxshiligingizni hech ayamang. Shunda siz butunlay s o g‘ a y i b k e t a s i z (“Cho‘pon yigit bilan boy” ertagi).

SOG‘INMOQ 1 Birovni juda ham ko‘rgisi kelmoq. *Faqat Azizmikin dadasini s o g‘ i n g a n, o‘zim ham juda-juda s o g‘ i n d i m* (Rahmat Fayziy. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Faqat oyim, dadamni Tez s o g‘ i n i b q o l a m a n* (K.Turdiyeva. Qush bo‘lib uchgan ona). *Sizni juda s o g‘ i n d i m, Ikki ko‘zim bilan teng. Ko‘rgim kelyapti juda, Tez kunda boraman, deng* (H.Imonberdiyev. Sog‘inish).

2 Biror narsani alohida yaxshi ko‘rib, suyib, qo‘msamoq. *Yozdim senga bu xatni, Qishloqni xo‘p s o g‘ i n i b. Kutyapman besabr Yana ta‘til chog‘ini* (Dilshod Rajab. Shahardan xat). *Tezroq bahor kelsaydi, uni s o g‘ i n i b k e t d i k* (“G‘uncha”dan).

SUHBAT Ikki yoki undan ortiq kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv. *Ma‘nodoshi: gurung. S u h b a t i xo‘p serma‘no, Yurish-turishi a‘lo. Olar faqat “besh” baho Kitob o‘qigan bola* (Po‘lat M o‘min. Kitob o‘qigan bola). *Buloqning suvi tiniq, dononing – s u h b a t i* (Maqol).

Suhbat qilmoq (yoki **qurmoq**) *Birozdan keyin uch og‘a-ini botirlar o‘zaro s u h b a t q i l a boshladilar* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi). *Bir necha kishi bo‘lib, gaplashib o‘tirmoq. O‘ltirishib uch o‘rtoq S u h b a t q u r d i l a r uzoq* (Qudrat Hikmat. Uch o‘rtoqning sovg‘asi).

SO‘LMOQ 1 O‘sib turgan paytidagi holatini yo‘qotib, shalpaymoq (o‘simlik haqida). *So‘lib qol-ga n sabzilarni Bir chekkaga otdi quyon. Karamlarni eslab-eslab, Och holicha yotdi quyon* (H.O‘rolova. Qo‘rkoq quyon). *Tog‘dan olib kelgan gulim Bugun birdan s o‘lib qoldi. Dadam dedi: “O‘z yeridan Ayrildi-yu... “O‘lib” qoldi... ”* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi).

2 Qiyinchiliklar natijasida chiroyi, rangi ketmoq (odam haqida). *Yig‘lab-yig‘lab, kelinchakning yuzlari s o‘li y boshla badi* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi).





TABIB Kasallarni xalq tibbiyoti asosida davolovchi odam. *U hamma t a b i b larni chaqirtirib, o'zini davolashni buyuribdi* ("Oqil tabib" ertagi). *Busora der: – Onajon, Ikki qilmay so'zingiz. Dunyoda eng zo'r t a b i b Ekansiz-ku o'zingiz!* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami).

TAJANG 1 Jahli chiqqan, jahllangan. *Ertasi Omon t a j a n g holda ovga ketdi* (Sh.Xolmirzayev. Omon ovchi). *Suv berishsa, to'karmish, Ko'ringanni so'karmish. Judayam emish t a j a n g, Boshlashga tayyormish jang* (Po'lat Mo'min. To'rt sehrgar).

2 Huda-behuda jahli chiqaveradigan, har narsadan janjal chiqarishga urinaveradigan. *Begemotlar g'irt garang, Tustovuqlar sal satang, Bo'rilar qo'rs va t a j a n g, Mushukchalar yulishqoq* (Anvar Obidjon. Fe'l-atvor).

Tajang bo'lmoq Bekordan-bekorga jahli chiqmoq, injiqlanmoq. *So'zlasang, so'zla tayin, Tushunib eshitayin. Yuzingdan qochirib rang, Unaqa b o 'l m a t a j a n g* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti).

TANBAL Jonini qiynashni xohlamaydigan, ishdan qochadigan. *Zidi: ishchan, mehnatsevar. Ma'nodoshi: ishyoqmas, dangasa, yalqov. Hamma t a n b a l uyquchingning Qochirvorar uyqusini. Erta turgan to'po-*

lonchi Xo'rozlarning qichqirig'i (Dilshod Rajab. Tong). *Bunchat anba lbo'lmasa Ayiqpolvon degani. Boribidi kir-chir bo'lib, Yangi asal yegani* (Abdurahmon Akbar. Erinchoq mehmon).

TANBEH Nojo'ya xatti-harakat uchun aytilgan koyish, qilingan tanqid. Zidi: **maqtov**. *Tanbeh larga sabr bilan Quloq tutib, talashmay gap, Sichqoncha der: – Men-chi, buvi, Gullar terdim, sizga atab* (Abdurahmon Akbar. Sichqoncha).

Tanbeh bermoq Nojo'ya xatti-harakat uchun koyimoq, tanqid qilmoq, dashnom bermoq. *Ikkisi ham o'yinqaroq. Shu sabab darsni o'zlashtirishlari ham bo'sh. Ustozi ularga bir necha bor tanbeh bergan* ("G'uncha"dan). *Yanglishsalar hamki... eh, Birov ber maydi tanbeh* (Rauf Tolib. Kim baxtiyor?). *Tanbeh, dashnom ber moqning Bo'lsa hamki xonasi, Bir so'z demay, o'g'liga Horg'in boqar onasi* (Abdurahmon Akbar. Ziyrak chumoli haqida ertak).

TANLAMOQ Biror belgi-xususiyatiga ko'ra ajratmoq. *Sizlar qaysi kasbni tanla mang, fidoyi bo'ling. O'qib, izlaning! Albatta, maqsadingizga yetasiz* ("G'uncha"dan). *Poliz keng, to'la tarvuz, Pishganini tanla, uz* (Abdurahmon Akbar. Quvnoq alifbe).

TANTANA Shodiyonalik, xursandchilik, o'yinkulgi bilan, bayramona o'tkaziladigan yig'in, marosim. *Davlatimiz madhiyasi tan tan a larda ijro etiladi. Unga hamma qo'lini ko'ksiga qo'yganchajo'r bo'ladi* ("G'uncha"dan). *Butan tan ana Bo'lar xuddi Bezanganda gulbog'lar* (Zafar Diyor. Bahor yaqin). *Yangi yil kirdi, mana, Qildik rosa tan tan ana* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi).

TASLIM Jang, kurash, tortishuvlarda yengilib, qarshilikni to‘xtatish.

Taslim bo‘lmoq Jang, kurash, tortishuvlarda yengilib, qarshilikni to‘xtatmoq. *Dedilarki*: “Ular ko‘pdir, Chekin yoki b o‘l t a s l i m”. *Sado keldi*: “T a s l i m b o‘l i sh Mening uchun bu o‘lim” (Habib Rahmat. Kurash). *Dushman t a s l i m b o‘l i b-d i*. *Yasar mamlakatiga o‘tinchi yigit podsho bo‘libdi* (“Dushmanning katta-kichigi bo‘lmas” ertagi). *Biz oz qoldik. Lekin yovga t a s l i m b o‘l m a d i k* (E.Vohidov. Istanbul fojiasi). **Taslim qilmoq** Jang, kurash, tortishuvlarda yengib, dushmanni qarshilikni to‘xtatishga majbur qilmoq.

TAVAKKAL Nima bo‘lsa bo‘lar qabilida, oxirini o‘ylab o‘tirmasdan qilingan harakat. – *Qovoqmantim Achchiq sal...* – *Yeb ko‘ray-chi, T a v a k k a l!* (Anvar Obidjon. Qizg‘anchiq bilan surbet). *Qimirlamay tura-versa, ochlikdan o‘lishini sezib, t a v a k k a l qilib, duch kelgan tomonga jo ‘nabdi* (T.G‘oipov. Yulg‘ichning tavbasi). *Bir t a v a k k a l qilib ko‘raylik, quduqda suv bo‘lsa, olib chiqamiz* (“Yarimta non” ertagi).

TAVALLUD Tug‘ilish, dunyoga kelish. *Ulug‘ bobolarimiz – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur t a v a l l u d i yurtimizda keng nishonlandi* (“G‘uncha”dan).

Tavallud topmoq Tug‘ilmoq, dunyoga kelmoq. *9-aprel – buyuk bobomiz Amir Temur t a v a l l u d t o p g a n kun* (“G‘uncha”dan).

TAVBA 1 Biror nojo‘ya harakatdan pushaymon bo‘lib, uni boshqa takrorlamaslik haqida berilgan qat’iy va’da. *Militsiya ham uning t a v b a s i g a*

ishonmay, nazoratini susaytirmaydi (Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo‘li).

2 Hayron bo‘lish, taajjublanganlikni bildidirish uchun qo‘llanadi. *Negadir bugun holsizlanib qoldim, xuddi bo‘ynimga og‘ir yuk osib qo‘yganday, qimir etgim kelmaydi-ya, t a v b a, – dedi kampir so‘ng* (M.Tojimurodova. O‘kinch). *T a v b a, men tush ko‘rayotganim yo‘qmi?* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi).

Tavba qilmoq Biror nojo‘ya harakatdan pushaymon bo‘lib, uni boshqa takrorlamaslik haqida qat’iy va’da bermoq. *Bolalar bo‘lsa yig‘lashib: – Jon ota, to‘qmoqni to‘xtating, biz sizning xumchangizni, dasturxonningizni olib, o‘rniga boshqa xumcha, boshqa dasturxon qo‘ygan edik, t a v b a q i l d i k, ota, to‘qmoqni to‘xtating, – deyishibdi* (“Ur, to‘qmoq” ertagi). *Boy juda yomon ahvolga tushib, yigitning oyog‘iga yiqilib, o‘z qilmishlariga t a v b a q i l i b- d i* (“Hunarli yigit” ertagi). Tavbasiga tayanmoq Nojo‘ya qilmishidan pushaymon bo‘lib, qiynalib, ta’zirini yemoq. *Yo‘q, baribir, sen jazolanishing kerak, t a v- b a ng g a t a y a n i sh i ng kerak, – deb ruchkani otib, stolni bir mushtladi-da, tashqariga chiqib ketdi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati).

TASHNA 1 Suv ichgisi kelgan, suvga zor bo‘lgan. *Ma‘nodoshi: chanqoq. Desang agar: “T a sh n a- m a n”, O‘ltir, suv ich, chashmaman* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami). *Bir podsho ovdan qaytayotib, t a sh n a bo‘libdi va bir hovli oldiga kelib, suv so‘rabdi* (“Aqlli qiz” ertagi). *Kech kirib qolganida u qum ustiga*

yotibdi, lekin och va t a sh n a bo 'lganidan ko 'ziga uyqu kelmabdi (“Saxiy bilan baxil” ertagi).

2 Biror narsaga juda ham muhtoj, talabgor. *Dilim t a sh n a ilmga, O'qish – menga qoida* (Q.Sobirova. Maktabim). *Har bir fanga t a sh n a m a n, Ko'p hunarga oshnaman* (Habib Rahmat. Orzu).

TA'ZIM Yuksak hurmatni ifodalash uchun qaddini egib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini quyi solish. *Shahri azim, Senga t a 'z i m. Sen onaday muqaddas* (Obid Rasul. Toshkent). *Yoqmas edi xoqonga Maishatlar, bazmlar. Yolg'on-yashiq maqtov-u Va ortiqcha t a 'z i m lar* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). *Hammasini eslab bahuzur, T a 'z i m bilan so'rayman uzr* (Po'lat Mo'min. Uzr so'rayman).

Ta'zim qilmoq (yoki etmoq) Yuksak hurmatni ifodalash uchun qaddini egib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini quyi solmoq. *T a 'z i m q i l i b, Xoqonni Qarshi oldi malika* (Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon). – *Nega bug'doy bosh egar?* – *Savol berdim dadamga.* – *Mehnatini olqishlab, T a 'z i m q i l i a r odamga* (T.Adashboyev. Bug'doyzorda). *Buviga e t i b t a 'z i m, Yuzlarida tabassum, Turar yetti og'ayni* (Q.Nosirova. Non haqida qo'shiq).

TEJAMOQ Isrofga yo'l qo'ymasdan ish tutmoq. *Zidi: isrof qilmoq. Elektrning quvvatin Har chog' t e j a sh yaxshidir* (Zafar Diyor. Tokni isrof qilmagin). *Ko'cha-ko'yda quvvatni T e j a sh uchun kurashgin* (Zafar Diyor. Tokni isrof qilmagin). – *Bo'lar-bo'lmas gaplarni Gapirma, – degan oyim. Shuning uchun sinfsda So'zni t e j a y m a n doim* (Abdurahmon Akbar. “Tejamkor”).

TENGDOSH Bir xil yoshdagি, teng yoshli. *Ma'nodoshi: tengqur. Qani, yur, ey t e ng d o sh im, Yuring, jajji singillar* (Yo'ldosh Sulaymon. Lola sayli). *Nabiramiz Musharrafxon T e ng d o sh lari Ichra gapdon* (T.Adashboyev. "Assalom"ni qilmas kanda). *T e ng d o sh do'stlar maydonchada To'p o'ynashar baqirishib* (H.Imonberdiyev. Araz).

TENGQUR Yoshi bir-biriga teng yoki yaqin, yosh jihatidan bir-biridan ko'p farq qilmaydigan. *Ma'nodoshi: tengdosh. Bobomlarning t e ng q u r lari Hazillashar, tegishar: – Katta bo'lib qoldingmi-ey, Bog'chabobo, – deyishar* (Po'lat Mo'min. Bog'chabobo). *Bor ekan t e ng q u r lari, O'ziday polvon bari* (Po'lat Mo'min. Oltin tosh). *Egamberdi chayir bola, bolaligidan buyon t e ng q u r lari bilan olishaverib, kurashaverib xiyla pishib ham qolgan ekan* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

TETIK 1 Jismoniy va ruhiy ahvoli joyida, yomon emas. *Ma'nodoshi: bardam. Yer tagida sariq boshi, Yer ustida taram sochi. Uni yegan t e t i k, sog'lom. Shamollashni quvar...* (sholg'om) ("G'uncha"dan. Topishmoq). *Yuramiz xursand, t e t i k, Hamma sevar bizlarni* (Dilshod Rajab. "Tez yordam"chi sinf). *Bobomlar bor, bobomlar, Gap-so'zлari alomat. Buvimlar bor, bувimlar, Bizdek t e t i k, salomat* (A.Yunusov. Mehribonlarim).

2 O'z fikrini bemalol ayta oladigan, dadil gapiradigan. *Bolalar ichida Yetuk ko'paysin. Bilimdon, azamat, Te t i k ko'paysin* (Po'lat Mo'min. Yaxshilar ko'paysa).



TIRISHQOQ Har qanday ishni qilishga astoydil kirishadigan, bir ishning oxiriga yetishga bor kuchi bilan urinadigan. *Qani endi, mening o'g'lim ham shunaqa t i r i sh q o q bo 'lsa* (“G‘uncha”dan). *To 'la Karim degan-chi, kichkina, ushoq, O'qish, ishi joyida, juda t i r i sh q o q* (Po‘lat Mo‘min. Bir yarim Karim). *Latifjon ko 'rib qolib, T i r i sh q o q chumolini, Tortib bermoqchi bo 'ldi Ombor to 'la donini* (T.Adashboyev. Shirmon kulcha).

TOBLAMOQ 1 Olovga, issiqqa tutmoq, shunday qilib qizdirmoq, isitmoq. *Xo 'jayin o 'choqqa qo 'llarini t o b l a b, isinib, yog 'li palovni yeb maza qilibdi* (“Susambil” ertagi). *Bozillagan olovga Bag 'rimizni t o b l a y m i z* (T.Adashboyev. So‘nggi jang).

2 Chidamli qilmoq, chiniqtirmoq. *Qalam, bolg 'a, kitoblar Seni po 'latdek t o b l a r* (Quddus Muhammadiy. Yigitga qirq hunar oz). *Ko 'kka ustun tog 'lari bor, Bol yetilar bog 'lari bor. Po 'lat kabi t o b l a r bizni Yozning qaynoq chog 'lari bor* (Dilshod Rajab. Oromgoh madhiyası).

TOL(IQ)MOQ Kuch-quvvati ketmoq, madori qurimoq. *Ma 'nodoshi: charchamoq. U buloqni necha kun, Mana, izlab t o l m a y m a n. Qancha yonib axtarmay, Hech uni topolmayman* (Qambar Ota. Buloq ko‘zin ochaman). *Oyimlar mendan Xursand edilar. Bag 'riga bosib, Shunday dedilar: – Jajji qo 'llaring T o l m a s i n, qizim* (O.Po‘latov. Chevar bo‘laman). *Havasim keltirar... Gulzorlar bo 'yida Kezishlariningiz, Goh charchab, t o l i q i b, Mizg 'ishlariningiz* (Po‘lat Mo‘min. Keltirasiz havasim). *Olimlarda charchar*

asab, T o l i q a r bosh. Charchaganday tuyuladi Oqshom quyosh (Po‘lat Mo‘min. Ishlagan charchaydi).

TOMOSHA 1 Teatr, sirk kabi joylarda ko‘rsatiladigan o‘yin, sahna asari. *Bolalar o‘rtasida o‘tkazilayotgan o‘zaro bellashuvlar, teatr, sirk t o m o sh a lari, musiqali dasturlar olam-olam quvonch ularashmoqda* (“G‘uncha”dan). *Yillar o‘tib, teatr – bino, spektakl – teatr sahnasida ijro qilinadigan t o m o sh a ekanligini tushundim* (“G‘uncha”dan). *Shunda xotini: – Artistlarning t o m o sh a lariga nega aralashasiz? Endi siz biron ta odam urishayotgan bo‘lsagina, ularni ajratib qo‘ying. Keyin ular sizga rahmat aytishadi, – debdi* (“Baliq sotuvchi Ahmad” ertagi).

2 E’tiborni tortadigan, zavq beradigan narsa, voqeahodisa. *Dars ham yo‘q, ish ham yo‘q, O‘yin-kulg‘i, t o m o sh a. To‘y ovozi – karnay-surnay, Devor osha, tom osha* (Asqad Muxtor. Yakshanba). *Qushlar bozorin ko‘rib, Bolalar ham hang-u mang. Bog‘dagi t o m o sh a ga Zimdan boqar sinchalak* (T.Adashboyev. Hasharchilar). *Shunda tulki: – E bedana, meni ko‘p to‘ydirib yubording, ovqatni hazm qilishim qiyin bo‘lib qoldi. Endi menga bir qiziq t o m o sh a larni ko‘rsatib, aylantirib kelgin va meni kuldirgin, – debdi* (“Hiylagar bedana” ertagi).

3 G‘alvali, mashmashali, kulgili voqeahodisa. *To m o sh a ning qizig‘i So‘qmoqli yo‘lda bo‘pti. Xo‘roz bilan Chigirtka Tulkiga o‘lja bo‘pti...* (T.Adashboyev. Tongda).

Tomosha qilmoq Biror narsa, voqeahodisani kuzatmoq, ko‘rmoq. *Uchta nabirasi bilan bobo bog‘ni to m o sh a q i l i sh ga chiqibdi* (U.Ismoilov. Ertaklarda

matematika). *Hatto qulog'i og 'ir Mosh ham keldi tom osha Va itlar janjalini Q i l d i l a r xo 'p t o m o sh a* (Abdurahmon Akbar. Tomosha). *Behzod atrofni, Jonli kitobni, Qirma-qir osha Q i l d i t o m o sh a* (Po'lat Mo'min. Besh boshoqdan sumalak).

TOMOSHABIN 1 Tomoshani ko'ruchchi. *Deysan, tinchlik zamon bo 'lsin, Sho'x g'unchalar omon bo 'lsin, To m o sh a b i n jahon bo 'lsin, Qizlar raqsga tushganda* (Qambar Ota. Qizlar raqsga tushganda). *To m o sh a b i n lar filning juda ko 'p ovqat yeyishini eshitib, buni ko 'zlari bilan ko 'rishga qiziqib qolishdi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *To m o sh a b i n mushuklar O'tirishar suyunib* (H.Imonberdiyev. "Bog'chaga – do'mboqchaga". To'plam).

2 Biror ishga aralashmasdan, chetdan qarab turuvchi odam. *Arzimagan gap, arzimagan narsa bahona bo 'lib, ikki mahalla bolalarining jiqqamusht bo 'lib, urishgan paytlari ko 'p bo 'lgan. Qiziq, bunaqa paytlarda katta odamlar ham ko 'pam aralashavermaydi, goho t o m o sh a b i n bo 'lib o 'tirishaveradi* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

TONG Quyosh chiqish payti. *Zidi: kech. Ma'nodoshi: sahar, azon.* Mana, qanday go'zal bir t o n g, tur, qo 'zim, Jonajoning – maktab tomon yur, qo 'zim! (Zafar Diyor. Yaxshi o'qi!). *Yulduzlarni Oymoma Erta t o ng terib ketar. Yo 'qsa, Quyosh taftidan Birma-bir erib ketar* (H.Murodov. Voy, mehribon-ey). *Quyosh kulib, t o ng chog'i Olamga zar nur sochdi* (H.Murodov. Quyoshga o'xshaysiz).

TONMOQ Aytgan so'zi, qilgan ishini bo'yniga olmaslik, "meniki emas" demoq, o'ziga tegishliligini

inkor qilmoq. So 'zidan t o n m o q – nomardning ishi (Maqol). Shunday tildan tonar bo 'lsam, Yoki o 'gay sanar bo 'lsam, Qiyma-qiyma bo 'lsin tilim, Ona tilim – jon-u dilim (T.Adashboyev. Ona tilim). Ha, mug 'ambir, Ishqasam – Darrov yonasan. O't qo 'ygan men emas, deb Keyin tonasan (Anvar Obidjon. Gugurtga yozilgan she'r).

TOPQIR Tez fahmlaydigan, darrov yechim topa oladigan. Bolalar doim T o p q i r bo 'lsalar, Chaqqon-u epchil, Chopqir bo 'lsalar (Po'lat Mo'min. Dovyuraklar).

TOVLANMOQ Bir yoki bir necha rangda nur chiqarmoq, yarqiramoq. Quyoshda zap t o v l a n a r, cho 'g 'day sarg 'ayib yonar Bog 'imdagi shaftoli, Mazasi shirin, totli (H.Murodov. Shaftoli). Qo 'qon gilos shoxida T o v l a n a d i marjonday (N.Dushayev. Qo 'qon gilos). To 'quvchi bunday qarasa, tovusning patlari quyosh nurida t o v l a n i b, yal-yal yonarmish (T.G'oipov. Tovusning hadyasi).

TUHMAT Birovni ayblash, qoralash uchun o 'ylab topilgan yolg 'on gap. Uch-to 'rt odam: – Sening gaping nohaq gap, t u h m a t, bu xotinning yolvorgani to 'g 'ri ekan, – deyishibdi ("Tuhmat" ertagi).

Tuhmat qilmoq Birovni ayblash, qoralash uchun yolg 'on gap aytmoq. Bilar-bilmas do 'stimni Chiqarsam-a o 'g 'riga, Bilmay t u h m a t q i l s a m - a, Ranjib qolar, to 'g 'ri-ya (Habib Rahmat. Uddaburon maymun). Bu gaping g 'irt yolg 'on-ku, Tu h m a t q i l - m a g i n menga (Po'lat Mo'min. Suqatoy Konfetvoy). Bir vazir turib: – Qosimni esa beginoh bir odamga t u h-



m a t q i l g a n i uchun jazoga tortish kerak, – debdi (“Tuhmat” ertagi).

TUZOQ Qush yoki boshqa hayvonlarni tutishga mo‘ljallangan moslama. *Kaptarlar orasida Ko‘kcha degan keksa bir kaptar bor ekan. U kaptarlarga qarab: – “Pastga tushmanglar, t u z o q bor, ilinib qolasizlar”, – debdi* (“Ovchi, Ko‘kcha va Dono” ertagi). *Ovchi noumid bo‘lib, t u z o q ni olib ketmoqchi bo‘lgan ekan* (“Ovchi, Ko‘kcha va Dono” ertagi).

Tuzoq qo‘ymoq Qush yoki boshqa hayvonni tutish uchun tuzoqni joylashtirmoq. *Bu t u z o q ni q o‘y a m i z, Nima bo‘lar, ko‘ramiz* (Po‘lat Mo‘min. Suqatoy Konfetvoy). *Qushlar, hey, ketmang uzoq, Q o‘y-m a y m a n sizga t u z o q* (Mirtemir. Qush tili). *Bir bola t u z o q q o‘y i b, Chumchuq ushlar, qush ovlar* (T.Adashboyev. Chaqmoq). **Tuzoqqa tushmoq** (yoki **ilinmoq**) Ushlanmoq, tutilmoq. *Bir kuni chol tuzoq poylab o‘tirgan ekan, t u z o q q a katta bir laylak t u sh i b d i* (“Ur, to‘qmoq” ertagi). *U t u s h g a n d i r t u z o q q a, Ketolmaydi uzoqqa* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi...). *Ovchi t u z o q q a i l i n g a n kiyikni ko‘rib, yugurib kelgan ekan, kiyik bir intilishdayoq uch tola ipni uzib qochibdi* (“Ovchi, Ko‘kcha va Dono” ertagi).

TO‘NG‘ICH Oilada birinchi tug‘ilgan bola. *Zidi: kenja. To‘n g‘ich o‘g‘li mehnatda Nom chiqargan pahlavon* (Zafar Diyor. Bayram). *Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar. To‘n g‘ich i yigirma*



bir yoshda, o‘rtanchasi o‘n sakkiz yoshda, kenjası o‘n olti yoshda ekan (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi).

TO‘G‘RI 1 *Qing‘ir-qiyshiq emas, tik. Zidi: egri. Ayvonga t o‘g‘r i va silliq ustun kerak ekan* (“To‘g‘rilik haqida” ertagi). *Uning hovlisida bitta-yu bitta teragi bo‘lib, u juda t o‘g‘r i va chiroyli bo‘lib o‘sgan ekan* (“To‘g‘rilik haqida” ertagi). *To‘g‘rilarni hamisha Ardoqlaymiz, sevamiz. O‘qni t o‘g‘r i bo‘lsa ham, Yoqtirmaymiz hecham biz* (Dilshod Rajab. O‘q).

2 Xatosi yo‘q, yanglish emas. Zidi: **xato**. *Javob qaytar. Javobing T o‘g‘r i bo‘lsin misli o‘q* (Miraziz A’zam. Asror). *Unutmagin sen shuni: Do‘srlaringga har kuni Yordam berishdan qochma, To‘g‘r i yo‘ldan adashma* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Men kallani ishlatib, t o‘g‘r i buyruq berib turdim, xolos* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

3 Haqiqatdan iborat, haqiqatga mos. Zidi: **yolg‘on**. *Ma’nodoshi: rost, chin, haq. Bu gal t o‘g‘r i gapirding* (Miraziz A’zam. Asror). *T o‘g‘r i til tosh yorar, egri til bosh yorar* (Maqol). *T o‘g‘r i aytgan odamlar* (T o‘g‘r i so‘z hech o‘lmaydi), *Do‘stim, kerakli toshning Og‘irligi bo‘lmaydi* (Dilshod Rajab. Toshbaqa).

4 Odob-axloq doirasidan chiqmaydigan, odob-axloq doirasida bo‘ladigan, quvlik-shumligi yo‘q. *Ma’nodoshi: halol, insofli. T o‘g‘r i bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi). *Urganmish do‘q: “Hoy, insofi yo‘q, Yurgin-da t o‘g‘r i!”* (Anvar Obidjon. Botirvoyning kundaligi). *To‘g‘r i larni hamisha Ardoqlaymiz, sevamiz. O‘qni to‘g‘ri bo‘lsa ham, Yoqtirmaymiz hecham biz* (Dilshod Rajab. O‘q).

5 Boshqaga, boshqa tomonga chalg‘imasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri. *Buni eshitib, qizning otasi t o‘ g‘-r i podshoning oldiga boribdi* (“Podsho va dehqon qizi” ertagi). *Oshiqbola, Rayhon qiziq, Chumakovoylar Meshpolvonnikida mehmon bo‘lib kelish uchun t o‘ g‘ r i Oltiariqqa qarab yo‘l olishibdi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *O‘g‘lon tepdi koptokni, Mo‘ljal olib oftobni. Koptok uchdi osmonga, T o‘ g‘ r i quyosh tomonga* (Po‘lat Mo‘min. Oftob va koptok).

6 Qarshi, ro‘para, old tomon. *Qarasam, t o‘ g‘ r i -dan o‘qituvchimiz kelyapti* (Y.Sa’dullayeva. Izza – bir qoshiq jizza). *Tag‘in xiyol nari bor, Salom bergen-chi bir bor; T o‘ g‘ r i ga qarab* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti).



ULG‘AYMOQ Katta bo‘lmoq. *Shunday tinib-tinchimas, Ishga chanqoq bolaman. Mehnat qilib, u l g‘ a y i b, Odam bo‘lib boraman* (H.Murodov. O‘sypman). *Orzularim ushalar; U l g‘ a y a m a n hademay* (Yo‘ldosh Sulaymon. Hey Qo‘qon shamoli). *Uch-to‘rt yil o‘tib ketdi, Uch o‘rtoq ham u l g‘ a y d i* (Zafar Diyor. Tilsiz o‘rtoq).

UMR Tug‘ilgandan to o‘lguncha bo‘lgan davr, hayot, yashash. *Vaqtni o‘tkazishni o‘zining yetmish yillik u m r ida o‘rganib olgan* (Olloyor. Sehrli uyqu). *Yaxshivoy esa uzoq u m r ko‘rib, tinch-totuv yashab, murod-maqsadiga yetibdi* (“Yaxshivoy bilan Yomonvoy” ertagi). *Sandiq qimmatbaho kiyimlar; shoyi va taqinchoqlarga liq to‘la emish. Zumradning butun u m r iga yetib, ortar emish* (“Zumrad va Qimmat” ertagi).

UMRBOD 1 Umrining oxirigacha, o‘lguniga qadar. *Shunday qilib, ho‘kiz, echki, qo‘ylar bu joyda u m r b o d yashab qolishibdi* (“Botir echki” ertagi). *Bir iloj qilib o‘sha joyga yetib borsak, u m r b o d rohatda o‘tardik* (“Botir echki” ertagi). *Shunda sher: Ey azamat yigit, men odamzod ko‘rib, seningdek mard va odamiysini uchratmagan edim. Xohlasang, men sen*

bilan qolib, u m r b o d xizmatingda bo'lay, – debdi (“Qayroqtosh bola” ertagi).

2 Hamma vaqt. *Ma'nodoshi: abadiy, mangu.* Quvnab erkin, shod, Bo'laman katta. *Baxt bor u m r-b o d Tinch mamlakatda* (Obid Rasul. Tinchlik yashar). *Unutilmas so'ng u m r b o d Biron so'zi onaning* (Miraziz A'zam. Antiqa).

UNUTMOQ Esdan, xotiradan chiqarmoq. *Yaxshi odamlarning yaxshi ishlari, yaxshi nomlari hech unutilmas ekan* (X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati). *Unuta ko'rma ng faqat Endi o'zbek tilini* (H.Imonberdiyev. Sog'inchli salom xat). *Unutmang, odam bajarganni odam uddalay olar ekan. Faqat qunt va mehr bilan yondashilsa, bas!* (“G'uncha”dan).

URISHQOQ Huda-behuda birovlar bilan urishaveradigan, urish-janjalni yaxshi ko'radigan. *Urish qoqlar ko'p bo'lgan O'sha qora zamonda* (H.Murodov. Bo'ston). – *Chiroqli qush-a hakka, Nega yasharkin yakka? – Bo'lgach o'g'ri, urish q o q,* *Hech kim bo'lmaydi o'rtoq* (H.Murodov. Hakka).

USTA 1 Muayyan kasb-hunar egasi. *Us ta lar ham bir ko'rib, Tan beradi astoydil* (Po'lat Mo'min. Qodirjon – Qoyiljon). *Us ta lar qisqa vaqt ichida juda katta ayvon qurishga kirishibdi* (“To'g'rilik haqida” ertagi). *Siz aytgan uyni quradigan us ta ni qayerdan topaman?* (“Sehrli tulpor” ertagi).

2 Biror kasb-hunarni o'rgatuvchi. *Ma'nodoshi: ustoz.* *O'n besh kun deganda, ikki derazali, tagi polli ustaxonamiz bitdi.* *O'n oltinchi kuni us ta mikkovimiz kun bo'yi ko'ch tashidik* (X.To'xtaboyev. Sariq devning o'limi).

3 Juda ham mahoratli. *Ma'nodoshi: mohir.* *O'zları xo'po'qigan, Ertak, she'rilar to'qigan. Yana us ta pazanda, Qo'shiqchi ham sozanda* (Obid Rasul. Hunarmand). *Taram-taram husniga Qarasa uzoq, Us ta rassom rosayam Berganday bo'yoq* (Po'lat Mo'min. Saxiy bola va olma).

4 Biror ish-harakatni a'lo darajada bajaradigan. *Ma'nodoshi: epehil, chechan.* *Jo'nadik uchalamiz, Yo'lida g'iz-g'iz uchamiz. Dadam haydashga us ta, Mashinamiz ko'ktusda* (Po'lat Mo'min. Eh, rosa shirin ekan). *Tog'da o'sgan pistaman, Men kulishga us ta man* (H.Murodov. Tog' pista). *Qoyil qilar gap, ishni, Us ta dars-u hunarga* (Po'lat Mo'min. Qodirjon – Qoyiljon).

UYALMOQ 1 Noma'qul, nojo'ya, yarashiqsiz xatti-harakatidan xijolat bo'lmoq, uyat hissini tuymoq. *Salim yolg'on gapirgani uchun u y a l i b k e t d i* ("G'uncha"dan). *Akalar qilmishlaridan u y a l i b, ukalariga mehr-oqibatda bo'lishibdi* ("Tulpor ko'l" ertagi). *Dadam esa o'ynolmay, U y a l i b, terga hotdi* (A.Karimov. Halollik).

2 O'zini noqulay sezmoq, odob saqlab, o'zini chetga tortmoq. *Ma'nodoshi: iymanmoq, tortinmoq.* *Tanishing, singlim Dildor; Bir qiziq odati bor. O'qituvchi darslarni So'rasha der: – Bilaman, Faqat, opa, doskaga Chiqishga u y a l a m a n* (Q.Nosirova. Uyalarmish).

UYAT 1 Noma'qul, nojo'ya, yarashiqsiz xatti-harakatidan xijolatlik hissi. *Hattoki tulkida ham U y a t bor ekan-da sal* (Dilshod Rajab. Ertak). *Bola og'riq va u y a t ga chidolmay, yig'lab*



yuboribdi (“G’uncha”dan). *U y a t o’limdan qattiq* (Maqol). *Ovqatga unnar yana Chumolivoy xijolat: Xasis ekan, deb meni O’ylasa-ya, voy, u y a t* (Rauf Tolib. Qurbaqa va chumoli).

2 Axloq-odobga to’g’ri kelmaydigan, unga zid xatti-harakat, gap-so’z. *Yashasin, kelsa mehmon, To’lib ketar dasturxon... Konfetga qo’l uzatish, Deyishadi, u y a t ish* (Po’lat Mo’min. Ko’zim va o’zim). *O’zi bir oy mehnat bor; Charchadim desam, u y a t* (N.Norova. Ipak curti).

UZOQ 1 Ko’p masofa, muayyan masofa narida joylashgan. *Zidi: yaqin. Ma’nodoshi: olis, yiroq. Do’stlari ko’p har yoqda, U z o q shahar, qishloqda* (Rauf Tolib. Rahmat yozar xat). *Bilasizmi, aslida, Olis joyni der u z o q* (T.Adashboyev. Ishonmasang). *Demak, bu yerdan sakson kilometr u z o q qa borish kerak* (X.To’xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Shoshib u z o q o’lkadan qaytar qushlar galasi, Oldin keldi marraga sho’x Chumchuqlar pirillab* (Anvar Obidjon. Bahor).

2 Ko’p vaqt, davomli vaqt. *U otasini u z o q kutibdi, lekin darak bo’lmabdi* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Kechqurun Gulnora o’rniga yotdi-yu, u z o q vaqt u الخلیل olmadi* (M.Murodov. Endi quvmaydi). *Kechqurun katta uyda* (Men ham bor edim unda), *O’tirishib uch o’rtoq Suhbat qurdilar u z o q* (Qudrat Hikmat. Uch o’rtoqning sovg’asi).

3 Qarindoshligi, tanishligi to’g’ridan-to’g’ri bo’lmagan. *U yerda Elmurodning ham bir emas, ko’pgina u z o q qarindosh-urug’lari bordir* (Parda Tursun. O’qituvchi).

UZR 1 Biron noma'qul ish yoki xatti-harakatni oqlash uchun aytilgan sabab. *Ishlashdan qo'rqishim to'g'risidagi u z r imni aytib, yig'ladim* (G'afur G'ulom. Tirilgan murda).

2 Kechirish haqidagi iltimos. *Ma'nodoshi: kechirim. Ey bolalar, iltimosim bor; Xatolarim qilmanglar takror; Sizlar uchun imkon bor hozir; Keyin ketmas pushaymon – u z r* (Po'lat Mo'min. Uzr so'rayman).

3 "Kechiring" ma'nosida ishlatiladi. *Ilhaq qildim sizni ham, Kechiring, ona, u z r* (Abdurahmon Akbar. Ziyrak chumoli haqida ertak). *Yeb yuribman G'o'rmi-sho'r: U z r; do'stlar; Ko'zim ko'r* (Anvar Obidjon. Ko'rsichqonning bahonasi). *Sizlarni kuttirib qo'yganim uchin u z r* (T.G'oipov. Mardni maydonda sinang).

Uzr so'ramoq Aybini kechirishni iltimos qilmoq. *U aybi uchun S o'r a y d i u z r: "Hechqisi yo'q", – deb Qilaman huzur* (H.Imonberdiyev. Xayol). *Imkon bor; so'zingdan qayt, S o'r a u z r; kechirim. Menda bor rahm-shasqat, Mayli, bir gal kechirgum* (Dilshod Rajab. Eng buyuk boylik). *Yolg'onimidan ko'nglim behuzur; Bo'ynim egib, s o'r a y m a n u z r* (Po'lat Mo'min. Uzr so'rayman).





VAHIMA Qo'rquvga tushish, qo'rquv holati. *Yulg'ich v a h i m a to'la ko'zlari bilan atrofga boqibdi* (T.G'oipov. *Yulg'ichning tavbasi*). *Narigi xonadagi egizak buzoqlar ma'rab, katakdagi tovuqlar qaqqag'lab, boboxo'roz v a h i m a ichida ustma-ust qichqirib yubordi* (Erkin Malik. *Shaytonvachcha*).

Vahimaga tushmoq Qo'rqib ketmoq. *Kech kirganda Qimmat cholning boltasi osib qo'yilgan daraxt tagiga kelibdi. Baqirib, ho'ng-ho'ng yig'labdi. V a h i m a g a t u sh i b, yugura boshlabdi* ("Zumrad va Qimmat" ertagi). *Qora papoqlilar endi butunlay v a h i m a g a t u sh i b, lashkar orasida g'ala-g'ovur ko'tarildi* (Anvar Obidjon. *Meshpolyonning janglari*).

VAJ Biror noma'qul ish yoki gapni oqlash uchun ko'rsatiladigan yolg'on sabab. **Ma'nodoshi; bahona.** *Dangasaning v a j i ko'p, ohangsizning – avji* (Maqol). *Bo'lganiningda och, Toparding-da v a j* (Po'lat Mo'min. Uch haqiqat). *Har xil v a j larni o'ylab topishyapti.* Lekin hech biri ma'qul bo'lmayapti (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati).

VASIYAT Biror kishining o'z yaqinlariga vafotidan oldin aytib yoki yozib qoldirgan istagi. *Qani, ayt-ting-chi, ota v a s i y a t ini qaysi o'g'il to'g'ri tushuna olgan ekan?* ("Shirin uyqu" ertagi). *Ustozim shunday*

deb v a s i y a t qilgan (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi). *Shu odam o‘layotganida bolalariga: “Uyquni shirin qilib uxmlang, ovqatni shirin qilib yeng”, – deb v a s i y a t qilibdi* (“Shirin uyqu” ertagi).

VATAN Kishi tug‘ilib o‘sgan joy. *Yashna, V a t a n, Jon V a t a n, Senga sharaf-shon, V a t a n. Sensan Bizning onamiz, Hadya senga jon va tan* (Zafar Diyor. Vatan). *O‘qiyimiz faqat beshga, O‘ynaymiz quvnab, kulib Va o‘samiz V a t a n ga Munosib farzand bo‘lib* (A.Ko‘chimov. Tezroq yangra, qo‘ng‘iroq). *Chol juda dono bo‘lgani uchun el-yurtini jamiki narsadan ortiq sevar; xalqining tinchi, V a t a n ining erkini barchasidan yuqori qo‘yardi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

VATANPARVAR O‘z vatanini, xalqini juda ham yaxshi ko‘radigan, vatani uchun jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan. *Bular shu tuproqda tug‘ilib o‘sgan mard, tanti, so‘zi bilan ishi bir o‘g‘lonlardir! Bularning deyarli hammasi v a t a n p a r v a r; shu yurt uchun hech narsasini ayamaydigan, uning or-nomusi uchun oxirigacha kurashadigan yigitlardir* (Sh.Xolmirzayev. Yozuvchi).

VAYRON Buzilib ketgan, qulab, xarobaga aylangan. *Sohiblik mulk – obod, sohibsiz – v a y r o n* (E.Vohidov. Sultonmurod).

Vayron bo‘lmoq Buzilib, xarobaga aylanmoq. *Urush paytida bu joylar v a y r o n b o‘l i b ketgan ekan* (M.A’zamov. Bog‘). **Vayron qilmoq.** *Go‘zallik tuyg‘usi bilan to‘liq qalblar esa v a y r o n q i l u v c h i emas, balki yaratuvchi bo‘ladilar* (R.Barakayev. Bolalarga beraylik dunyonи).

VAYRONA Vayron bo‘lib, xarobaga aylangan joy. *Do‘st bilan obod uying, Gar bo‘lsa u v a y r o n a ham* (E.Vohidov. Do‘st bilan). – *Senga bitta savol bor, Menga qulq sol, hoy, qush. V a y r o n a da yashaysan, Noming esa hm... Boyqush. Ayt-chi, nahot, sen boy san? – Asl boylik neligin Tushunmaysan, chamasi. Bu – v a y r o n a bo‘lsa ham, O‘zimni hammasi. Shuning uchun men boyman!* (Anvar Obidjon. Boyqush).

VA’DA Biror ishni qilish yoki qilmaslik haqida berilgan qat’iy so‘z. *Kechagi v a ’d a m esimda, asal toyim. Bugun siz bilan dunyodagi eng kuchli so‘z nima ekanligini bilib olamiz* (O.Quvvatov. Eng kuchli so‘z).

Va’da bermoq Biror ishni qilish yoki qilmaslik haqida qat’iy so‘z aytmoq, so‘z bermoq. *Sobir kuchukni xafa qilmaslikka v a ’d a b e r d i* (A.Qudratova. Mehr istab). *Ammo do‘stlik yaxshi ekan, endi sizga sira zarar yetkazmayman, – deb chinakam v a ’d a b e - r i b d i* (“Ovchi, Ko‘kcha va Dono” ertagi). *Va ’da berdingmi – bajar! Bajarmasang-chi agar, Seni derlar betayin* (Po‘lat Mo‘min. Qovoqvoyning sarguzashti). **Va’dani buzmoq** Bergan so‘zidan qaytmoq. **V a ’d a n i b u z m o q – og‘ir gunoh.** So‘z heraman – so‘zimda turaman (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi). **Va’dada turmoq** Bergan so‘zidan qaytmaslik. *Bo‘ldi, v a ’d a m d a t u r a m a n. Ming yillik to‘plagan xazinam seniki bo‘lsin* (“Yarimta non” ertagi).

VIJDON Kishining o‘z xatti-harakati uchun boshqalar oldidagi javobgarlik tuyg‘usi. *Mana, bugun do‘stlaringni sotmading, o‘rtoqlikni hech narsaga almashtirmading. Oriyatning, v i j d o n i n g bor*

ekan. Sendan juda xursand bo'ldim (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Lekin boshqa ayblari* *Vijdoniga havola* (Miraziz A'zam. Asror). *Insomni qilgan inson Vijdoni dir, vijdon, vijdon* (Po'lat Mo'min. Vijdon nima degani?).

VORIS Merosga egalik qiluvchi, ota-bobolarning ishini davom ettiruvechi. *O'quvchilar istiqlolning buyuk ne'mat ekanligi, uni qadrlash, avaylab-asrash kelajak vorislarining burchi ekanligini chuqurroq anglab yetdilar* (“G'uncha”dan).



XAFА I Tushkun, qayg‘uli kayfiyat. *Zidi: xursand.* *Echki Bo‘z bolani x a f a ko‘rib: – Ha, Bo‘z bolakay, nega buncha x a f a s i z? – debdi* (“Bo‘z bola” ertagi). *Makiyonlar hayron, x a f a, Ko‘zlariga yosh olib* (T.Adashboyev. Xo‘roz). *O‘ng qo‘l vaziri so‘rabdi: – E podshohi olam, nega x a f a siz? Davlatingiz bor. Hamma fuqaro sizning ixtiyorингизда bo‘lgandan keyin buncha xafagarchilikning nima keragi bor?* (“Tohir va Zuhra” ertagi).

2 Birovdan ranjigan, norozi bo‘lgan, arazlagan. *Men Loladan x a f a man, Boshqa o‘rtoq topaman* (H.Imonberdiyev. Bir so‘z). *Shu vaqtda burgut, aqiq va tulkilar undan nima uchun x a f a ekanligini so‘rabdilar* (“Burgutlar” ertagi). *Bola undan: – Menden x a f a emasmisiz? – deb so‘rabdi* (“Tadbirli bola” ertagi).

Xafa bo‘lmoq 1) tushkun, qayg‘uli kayfiyatda bo‘lmoq. *X a f a b o‘ l m a, men senga yordam beraman* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Shu paytda xursand bo‘lishim kerakmi yoki x a f a b o‘ l i b, yig‘laymi?* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi); 2) birovdan ranjimoq. *Bolalar bilan Davron Qilsa biroz to‘polon, Darrovda bog‘cha opa Davrondan b o‘ l a r x a f a* (Rauf Tolib. Davronsher). *Katta qizil burunli Qiziqchiman, bilasiz. Aybingizni gapirsam, X a-*

f a b o ' l m a y, kulasiz (Anvar Obidjon. Masxaraboz bola). *Shu kundan boshlab u sira yomon baho olmadi.* *Yomon baho olsa, dadasi undan x a f a b o ' l i b qolishini biladi-da* (M.Tojimurodova. Bir kunda uchta “besh”). **Xafa qilmoq** Ranjitmoq, ozor bermoq. *Qo'ng'iroqchagul kum sayin kekkayib boraveribdi.* *Opalarini ham kamtsitib, x a f a q i l a d i g a n odat chiqaribdi* (H.Ahmedova. Qo'ng'iroqchagul). *Meni birov x a f a q i l d i m i, tamom, alamimni olmasam bo'lmaydi* (Y.Sa'dullayeva. Izza – bir qoshiq jizza).

XALAQIT: *xalaqit bermoq* Biror ish-harakatni bemalol bajarishga to'sqinlik qilmoq. *Oraga gap qo'shib, ishingga yana x a l a q i t b e r y a p s i z.* *Bu turishda fikrim chalg'ib, kitobimning navbatdagi boblarini chalkashtirib tashlashim hech gapmas* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Butoqda o'tirgan zag'izg'on ayiqchadan qushlarning kuylashiga x a l a q i t b e r m a s ligini iltimos qilib so'radi* (Raim Farhodiy. Taptapvoy). *Doim bиргамиз, фақат кечқурунлари узлаш oldidan bir-birimizga x a l a q i t b e r m a y m i z* (“G‘uncha”dan).

XARXASHA O'rinsiz talab bilan qilingan injiqlik. *X a r x a sh a m m i ham tashlab Men asta, Odobli qiz bo'lardim Birpasda* (O.Po'latov. Odobli qiz).

Xarxasha qilmoq O'rinsiz talab bilan injiqlik qilmoq. *X a r x a sh a q i l a r Dilshod: – Oyi, bering shokolad. – Shirinlikka bo'lsang o'ch, Og'zingda qolmaydi tish* (Qadam G'oyib. Shirinlikka bo'lsang o'ch). *Bog'chaga bormayman deb, Atay yig'layman doim. X a r x a sh a q i l s a m rosa, Konfetlar berar oyim* (S.Rahimova. Shirinlik).

XASIS Birovga biror narsa berishni yoqtirmay-digan, hamma narsaning faqat o‘ziniki bo‘lishini xohlaydigan. *Zidi: saxiy. Ma’nodoshi: ziqna.* *Ola quyon ancha x a s i s, ziqna ekan.* *Birovlarnikiga mehmonga horar ekan-u, lekin o‘zi biror marta ham uyiga birovni chaqirmagan ekan* (Rauf Tolib. Sho‘rva). *Ular ham otasi singari x a s i s ekan.* *Mol-u dunyo topishda har qanday yomonlikdan qaytmas ekanlar* (“Xasislik oqibati” ertagi). *Biroq egasi juda x a s i s odam ekan.* *Tovuqlarga loaqal uch kunda bir marta ham don sochib qo‘ymas ekan* (“Susambil” ertagi).

XAVFLI Biror juda yomon voqeа-hodisa sodir bo‘lish ehtimoli bor bo‘lgan. *Ma’nodoshi: xatarli, qo‘rqinchli.* *Lekin bu baliqlarni tutib yeyish juda x a v f l i ekan.* *Chunki bu baliqlar ba’zi kunlari zaharli, ba’zi kunlari zaharsiz bo‘lib qolar ekan* (“Ochko‘z boy” ertagi). *Ogoh bo‘ling avval, qu-qu, Mushuk degan yovuzdan.* *Lekin undan x a v f l i roq suv, Uzoq yuring hovuzdan* (H.Imonberdiyev. G‘alati jo‘jalar).

XAVOTIR Biror odam, narsaning holatidan, biror voqeа-hodisaning oqibatidan yetarli xabardor bo‘lolmasdan notinchlanish, bezovtalanish. *Quyonoy uyda qolgan bolalaridan x a v o t i r da edi* (A.Qudratova. Tungi mehmon). *Dadam qo’llarini og‘ziga karnay qilgancha akalarimni chaqira boshladi.* *Javoh bo‘lmadi. X a v o t i r imiz oshdi* (“G‘uncha”dan).

Xavotir olmoq Biror odam, narsaning holatidan, biror voqeа-hodisaning oqibatidan yetarli xabardor bo‘lolmasdan notinchlanmoq, bezovtalanmoq. *Endi uyingga bor. Kech ho‘ldi.* *Oying ham x a v o t i r*

o l i b o 'tirgandir (Olloyor. Sehrli uyqu). *Sig 'may keng uyasiga, X a v o t i r o l i b bu chog'*, *Kenjatoy o 'g 'lin kutar Ona chumoli mushtoq* (Abdurahmon Akbar. Ziyarak chumoli haqida ertak). *Nabirangiz, – dedim, – A'lochi hamon. X a v o t i r o l m a n g siz, Yuribdi omon...* (Miraziz A'zam. Sevimli nabira). **Xavotirga solmoq** Biror odam, narsaning holatidan, biror voqeа-hodisaning oqibatidan yetarli xabardor qilmay notinchlantirmoq, bezovtalantirmoq. *Tilla tangacha hammani x a v o t i r g a s o l g a n i uchun qon-qarindoshlaridan uzr so 'rabdi* (A.Qudratova. Tilla tangacha). **Xavotirga tushmoq** Biror odam, narsaning holatidan, biror voqeа-hodisaning oqibatidan yetarli xabardor bo'lolmasdan notinchlanmoq, bezovtalantirmoq. *Biroq nimagadir buxabardan oyim quvonmadilar, qaytaga x a v o t i r g a t u sh i b qoldilar* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

XAZON Sarg'ayib, qurib to'kilgan barglar. *Bu payt hovli supurgan Ba 'zi abjis qizlarjon Keksalardan yashirib, Suvga oqizar x a z o n* (Abdurahmon Akbar. "Oqizoqchilar"). *Meva o 'rniga bog'-u bo 'stonda Shaldirab qaqshagan x a z o n ko 'rinur* (Abdulla Avloniy. Kuz).

XACHIR Ot bilan eshakdan tug'ilgan hayvon. *Kimligimni bilvoling, Ja-a ajoyib bir zotman. Meni X a ch i r deydilar; Na Eshakman, na Otman* (Anvar Obidjon. Tanishuv). *Ko 'lda maymoq Bo 'taloq Chal-qancha suzib, Lol qoldirdi hammani, X a ch i r dan o 'zib* (Anvar Obidjon. Sport maktabi).

XIJOLAT Nojo'ya gapi, xatti-harakatidan o'zini noqulay, o'ng'aysiz sezish, uyalish. *Tayyorlanmay*



Boshlasang ish, Sira-sira kelmas o'ngi. Undan o'zing Xijolat san, Boshqaning ham to'lmas ko'ngli (Po'lat Mo'min. Yaxshilikka tayyorlan). *Nodirjon xijolat dan Qarolmas o'ng-so'liga* (N.Dushayev. Qo'llar).

Xijolat bo'lmoq (yoki **tortmoq, chekmoq**) Noqulay, o'ng'aysiz holatga tushmoq, uyalmoq. *Podshocholning bu gapidan judaxijolat bo'libdi* ("Balli, balli" ertagi). *Sal engashib turaman, – dedi otam bo'yinovchaligidan xijolat bo'lib* (X.To'xtaboyev. Besh bolali yigitcha). *Bolaning otasi o'sha paytda o'g'lini nohaq xafa qilganidan ancha xijolat tortibdi* ("Uch nasihat" ertagi). *Mendan o'tar ba'zilar Etigini artmasdan. So'ng Tepalar to'shakni, Hech xijolat toرتmasdan* (Anvar Obidjon. Eshikning darvozaga yozgan xati). *Bola shunchalik havas, g'ayrat bilan o'rganib, o'qib, tajriba orttiribdiki, qayoqqa borsa ham, xijolat tortimaydig'an bo'lib olibdi* (T.G'oipov. Pahlavon). **Xijolat qilmoq** Birovni noqulay, o'ng'aysiz holatga solmoq, uyaltirmoq. *O'g'lining tantiqliklari yaxshi kayfiyatda o'tirgan otani xijolat qila; u nima qilishini bilmasdan qizarib o'tirar edi* (Z.Obidov. Hurmat). **Xijolatda qolmoq** Noqulay, o'ng'aysiz holatga qolmoq, uyalib qolmoq. *Butun sinf oldida Xijolatda qoldidi-da* (Z.Isomiddinov. O'rtoq).

XIYOL Bilinar-bilinmas darajada, salgina. *Joni-vorning ko'zлari ham xiyol yosha langandek edi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Biror odam so'rasa savol, Quloq tutar jilmayib xiyol* (Po'lat Mo'min. Ilmdan odob kuchli). *Hamma dong qotib turgan bu soniyada Meshpolvon labini sezilar-*

sezilmas qimirlatib qo'yib, x i y o l ko'zini ochdi
(Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

XIYONAT Ahdni, berilgan va'dani buzish, birovning ishonchini oqlamaslik. *Yig'loqlikni oqlash mumkin, Qo'rqoqlikni oqlash mumkin, X i y o n a t - ni oqlab bo'lmas* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

Xiyonat qilmoq Ahdni, berilgan va'dani buzmoq, birovning ishonchini ayyorlik bilan yo'qotmoq. *Ukasiga x i y o n a t q i l g a n, mol-dunyoga qattiq berilgan odamlarning ahvoli shunday bo'ladi, bundan boshqacha bo'lmaydi, – debdi kenja o'g'il* ("Kenja o'g'il, qumursqa va sirli shamshir" ertagi). *Baqako'pga x i y o n a t Q i l m o q ch i edi, Makkorligi o'zining Boshini yedi* (Anvar Obidjon. Juda qiziq voqeа). *Ammo shunday shartim bor: shu kundan boshlab yolg'on gapirmaysan, birovning haqiga x i - y o n a t q i l m a y s a n, mehnatdan qochmaysan, odam oldidan besalom o'tmaysan* ("Ajdar bola" ertagi).

XOLIS Hech kimning tarafini olmaydigan, taraf-kashlik qilmaydigan, haqqoniy. *Qing'ir yo'ldan, adovatdan olis turdik, Tarafkashga qo'shilmadik, x o l i s turdik* (T.Adashboyev. Safar bilan).

XOMUSH Xafa bo'lib, hech narsa bilan ishi bo'limgan holatda. Ma'nodoshi: **ma'yus**. *Bozor aylanib yurib, bir joyda x o m u sh o'tirgan bolaga ko'zi tushib qolibdi* ("Yarimta non" ertagi). *Shunda menga tikilib, gaplarimga qulq solib turdi-da, x o - m u sh bo'lib qoldi* (Rahmat Fayziy. "Bog'chaga – do'mboqchaga". To'plam). *Qizcha ko'zlarini katta ochib, soyabon tagidan bir qaradi-da: – Yomg'ir*

yog‘ayotir, – dedi x o m u sh (L.Mahmudov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam).

XORIJIY Mamlakatdan tashqaridagi, chet eldag. *X o r i j i y tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish maqsadida ingliz tilida multfilm va ko‘rsatuvlar o‘zbek tilidagi tagmatn bilan namoyish etiladi* (“G‘uncha”dan).

XOTIRA 1 Odamning esda saqlash qobiliyati. *Ma‘nodoshi: es, yod. Juda qiyin ekan-da, Yomon bo‘lsa x o t i r a. X o t i r a si haqida Farhodjon bosh qotirar* (K.Turdiyeva. Qush bo‘lib uchgan ona). *Nomi... hah, esim qursin, X o t i r a m sal yomon-da* (Ravshan Fayz. Men shamolni tutvoldim).

2 Vafot etib ketganlar yodi, ular nomining esda saqlanishi. *Men bu o‘rik daraxtini o‘g‘lim x o t i r a-si uchun parvarish qilardim, bu ham quribdi, – deb chuqur xo‘rsindi ota* (S.G‘afurov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”). To‘plam). *Undan qolgan parcha xat, surat, Tishlangan non – shular x o t i r a* (Q.Nosirova. Non haqida qo‘sinq). *Mamlakatimizda 9-mayda X o t i r a va qadrlash kuni keng nishonlanadi* (“G‘uncha”dan).

3 Esda saqlangan voqeа-hodisalar, ilgari ko‘rgan bilganlar haqidagi hikoya. *Omina opa dadam haqidagi x o t i r a larini aytib bersa, oyim ikkovimiz yig‘lab-yig‘lab eshitardik* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

4 Eslatib turadigan narsa, esdalik. *Lekin birinchi tumoring x o t i r a uchun* (E.Vohidov. Ikkinchи tumor).

XUDBIN Faqat o‘zini o‘ylaydigan. *Faqat “besh” olish uchungina o‘qishga mukkasidan ketgan, na sinfnинг, na mакtabning hayotiga aralashmaydigan, birorta sinfdoshiga na o‘qish, na boshqa ishda*

yordam qo‘lini cho‘zmaydigan... x u d b i n bolani nega qadrlash kerak? (T.Sodiqova. Dunyo buyuk ustaxonadir). Bu x u d b i n shoh hammasidan o‘tib tushdi (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha).

XUFTON Quyosh botgandan bir-ikki soat keyingi vaqt. *Bechora Guloyim erta tong-saharda turib to xufton gacha timay mehnat qilar ekan* (“Sabr tagi – sariq oltin” ertagi).

Dilini xufton qilmoq Qattiq xafa qilmoq. *Tishlab yurdim ko‘p vaqt tilimni, Xuフトon qilmay, dedim, diligni* (Anvar Obidjon. Odil Burgutshoh... haqida ertak).

XULQ Odamning o‘zini tutishi, xatti-harakatlarining odob-axloq qoidalariga mosligi. *Soz bo‘lsa kimming xulqi, Tugamas baxt-u mulki* (Po‘lat Mo‘min. To‘rt sehrgar). *Shukurlar bo‘lsin, aql-idrokim, yaxshi xulqim, shirin so‘zim orqasida sizday podshohga hamsuhbat bo‘ldim* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi). Yaxshi xulq – odamning husni (Maqol).

XULOSA Biror fikr-gapning natijasi, yakuni. *Xulosa asasi to‘g‘ri emasdir Yetti o‘lchab, bir kesmaganning* (Dilshod Rajab. Dahshatli matematika). *Xulosa: Boshi borlar Zavol bilmaydi Toshday. Tulkilarga yem bo‘lar Faqatgina beboshlar* (Dilshod Rajab. Ertak).

Xulosa chiqarmoq (yoki qilmoq, yasamoq) yoki **xulosaga kelmoq** Biror fikr-gap, xatti-harakat oxirida yakuniy fikrga kelmoq, ibratli fikrga kelmoq. *Halima o‘rtog‘ining gaplaridan xulosa chiqarib, nonni uvol qilmaydigan bo‘ldi* (“G‘uncha” dan). *Ko‘pdan mening boshimda Charx uradi bir narsa. Sizga to‘kib*

solsam-u, ch i q a r s a n g i z x u l o s a (Habib Rahmat. Hurmat haqida hikoyat). Lekin u oldi *X u l o s a y a-s a b*: *Endi hech kimga To 'qimas laqab* (K.Turdiyeva. Qush bo'lib uchgan ona). *O'tgan darsda biz buyum va uning qadri haqida suhbatlashib, oxiri to 'g'ri bir x u l o s a g a k e l g a n edik* (Anvar Obidjon. Oltin yurakli avtobola).

XUNOB Juda ham diqqat bo'lgan, bo'g'ilgan. *Salom, O'rgimchakkina, Nega x u n o b san yana?* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Yetmay qoldi shirinlik – Olimjon bo 'lar x u n o b* (N.Murodova. Shirinlik). *Xonamda ko 'p O'tirmasdan, Hadeb yozib, O'chirmasdan, O'z-o 'zimdan Bo 'lmay x u n o b, O'z-o 'zimga Bermay azob, O'ynab kelsam* (Po'lat Mo'min. O'ynab kelsam, o'ylab kelsam...).

Xunob qilmoq Juda ham diqqat qilmoq, asabiy-lashtirmoq. *Toshbaqa Emasmi kar? Juda ham Q i l d i x u n o b. Chaqirsam, Bermas javob* (Habib Rahmat. O'zi bilmaydi). **Xunobi oshmoq** O'ta diqqat bo'imoq. *O'zin noshudligidan Xo 'p x u n o b i o sh i b d i* (Habib Rahmat. Uvoq qadri). *Hech narsa tushunmagan mehmonning battar x u n o b i o sh i b d i* ("Ota ulug", otadan mehmon ulug"" ertagi).

XUNUK 1 Ko'rinishi yoqimsiz. Zidi: **chiroyli**. *Yurib-yurib, bir joyga kelishsa, ko 'chada ikkita qiz o 'tirgan ekan. Ularning biri juda chiroyli, ikkinchisi x u n u k ekan* ("Aka-uka" ertagi). *Harflarni x u-n u k yozsam yig 'lagim keladi...* *Maktabda ustozim, uyda oyim qo 'limdan tutib, chiroyli yozishga yordam berishadi* ("G'uncha"dan). *Qaranglar, mana bu joy*

qarovsiz, juda x u n u k bo'lib yotibdi (F.Yusupova. "Bog'chaga – do'mboqchaga". To'plam).

2 Ko'ngilga xush kelmaydigan, odamning ko'nglini og'ritadigan. *Qilgan x u n u k ishidan Natija tayin – ayon* (Habib Rahmat. Bir o'qning kasofati). *Attang, o'zi chiroyli bo'lsa ham, odobi x u n u k ekan* (Olloyor. Sehrli uyqu). *Bu x u n u k xabar ishdan charchab kelib, beholgina bo'lib o'tirgan Siroj akaning... g'azabini oshirdi* (X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati).

3 Ko'ngilga qo'rquv soladigan. *Bog' tomondan Siroj aka chiqib kela boshladи.* *Qo'lida ketmon, qovog'i soliq, vajohati x u n u k, salomlashmadi ham* (X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati).

4 Yoqimsiz eshitiladigan, qulqoqqa yoqmaydigan. *Qanday x u n u k ovoz bu, Kelmoqda u qay yerdan?* (Habib Rahmat. Tortishuv). *O'zi qolgach Kenguru, O'zicha x u n u k kuldi. Yoqmaganday bir nima, U burnini jiyirdi* (Habib Rahmat. Uddaburon maymun).

XURSAND 1 Ko'tarinki, xushchaqchaq, juda yaxshi kayfiyat. *Zidi: xafa. Ma'nodoshi: shod, surram.* *Ko'chatlar o'sar ko'r kam, Kim ko'rsa, x u r-s a n d ekan* (Po'lat Mo'min. Ko'chatlar ko'chishibdi). *Meni ko'rsa toyginam, X u r s a n d bo'lib kishnaydi* (Zafar Diyor. Kichkina chavandoz).

2 Biror odam yoki narsadan rozi, minnatdor. *Tur; uka, qani, Qulochni yoz, Bajarsak soz Badantarbiyani, Bizzan oyim X u r s a n d doim* (Yo'ldosh Sulaymon. Quyoshdan erta turib). *Men archaman, archaman. Men x u r s a n d man Barchadan* (E.Vohidov. Archa).

Xursand qilmoq Birovga ko'tarinki, xushchaqchaq, juda yaxshi kayfiyat bermoq. *Ravshan qilib*

*dilimni, Xursand qılıb elimni, Guldek qilib
yerimni Ochildingmi, Paxtajon!* (Habib Rahmat.
Paxtajon). Ular deydi: “Qanday baxt, Sizni qılsak
biz xursand” (Habib Rahmat. Saraton).



YAGONA Faqat bitta, boshqa tengi yo‘q. *Tog‘lari osmon o‘pgan, Cho‘lida ham gul o‘sgan, Madhi olamga ketgan Bu vatan y a g o n a dir* (O.Quvvatov. Vatan yagonadir). *Qiyosi yo‘q, Bu y a g o n a. Sen-u menga Vatan – ona* (T.Adashboyev. Qiyosi yo‘q). *Nasiba singillariga qarab: – Bor hunarimni ishlatib, unga shohona kiyimlar tikib berar edim. Bu kiyimlar duniyoda y a g o n a bo‘lar edi, – debdi* (“Hasan va Zuhra” ertagi).

YAKKA 1 Bor-yo‘g‘i bitta. *Juda qadim zamonda Bizning Bo‘ston tomonda O‘sgan ekan y a k k a tut* (H.Murodov. Yakka tut – mingta tut). *Bu orada Karimjon tug‘ilib, onasi ikkovimizga ovunchoq bo‘lib qoldi. Ya k k a o‘g‘il emasmi, uni shunaqangi papalab katta qildikki, oxiri bola rasvo bo‘ldi* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi).

2 Yolg‘iz, yonida boshqa kimsa yo‘q. *Kutaverib sarg‘aydim Bir yaqin do‘st-qardoshni. Bo‘lsam-da yuksakda man, Ya k k a m a n, oh. Ya k k a m a n* (Dilshod Rajab. Do‘lananing dardi). *Ya k k a qolsam, shular-la Bo‘lajakman hamisha* (Zafar Diyor. Qanotli do‘stlar). *Halimaxon qo‘g‘irchog‘in Yotqizib belanchakka, Zavq bilan alla aytar So‘rida o‘zi ya k k a* (T.Adashboyev. Ishlarim ko‘p).

Yakka-yu yagona Bittagina. *Ota-on a k k a - y u y a g o n a qizini sog'lom o'stirmoqchi bo'libdilar* (T.G'oyipov. Yashirilgan qiz).

YALINMOQ Juda ham qattiq iltimos qilmoq. *U y a l i n d i o'tinib, So'ng yig'ladi o'tirib (Po'lat Mo'min. Eh, rosa shirin ekan!). Qanday yaxshi, qanday soz, O'qishni bilsang o'zing... Yolvorib turmay, Yoki opajoningga Y a l i n i b yurmay, Kutib, chorlab o'tirmasdan, Shart o'qiysan Tutilmasdan* (T.Adashboyev. O'qishni bilsang o'zing). *Ahmadjon y a l i n a boshlabdi: – Amakijon, tishimni olib tashlamang* (Olim Mahkam. Nega og'ridi?).

YALLA O'yin bilan aytildigan qo'shiq, o'yinkulgi. *Avjga chiqar Maymunjon, Chapak chalar Maymunjon, Ya l l a ga y a l l a ular; Ashula aytib, kular* (Habib Rahmat. Uddaburon maymun). *Qayga boqsang, Gurullaydi Zavqli mehnat y a l l a si* (Zafar Diyor. Bahor keldi). *Handalakman Polizda, Lekin qandman Og'izda. Yayrab o'sdim Dalada. Oftob chiqsa, Ya l l a -da* (Anvar Obidjon. Handalak).

YALQOV Mehnatni yaxshi ko'rmaydigan, ishdan qochadigan. *Zidi: ishchan, mehnatsevar. Ma'nodoshi: dangasa, ishyoqmas, tanbal.* *Ishyoqmasga, y a l -q o v ga Men ham endi dushmanman* (Zafar Diyor. Kichkina bog'bon haqida doston). *Y a l q o v san deb, yoz bo'yi Pand o'qigan chog'ingiz Menga hisob, amalni O'rgatdi o'rtog'ingiz* (Abdurahmon Akbar. E'tiroz). *Tag'in o'ylab ko'raman, Hammasi ham yaxshi ish. Faqat y a l q o v bo'lmayman, Hecham tortmang Siz tashvish, Men... odam bo'laman, dada* (Anvar Obidjon. Odam bo'laman).

YAMLAMOQ Chaynamasdan yemoq, yutmoq. *Ko'kat bersam, y a m l a y d i, Orqamdan hech qolmaydi* (Shukur Sa'dulla. Uloqcham). *Hammaga to'rttadan somsa tarqatib chiqilguncha, Meshpolvon o'ziga tegishlisini y a m l a b bo'ldi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari).

YANGRAMOQ Baland ovozda taralmoq, har tomonga jaranglab yoyilmoq. *Bolalar guruuhlarining sho'x-shodon qo'shiqlari yangradi* ("G'uncha"dan). *Shu mahal qayerdandir jarangdor qah-qaha y a n g r a d i* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Qo'shiqlarim Ya ng r a y v e r s i n, Chin do'stlarim Anglayversin* (Po'lat Mo'min. Ona tilim).

YARADOR Yarali, jarohatlangan. *Bandilar orasida Meshpolvonning y a r a d o r dadasi va ko'zlarini kiyiknikidek chiroyli onasi ham bore edi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Yarador bo'lgan bobom, Qutqazay deb Vatanni* (Z.Isomiddinov. Chiniqish).

YARATMOQ Vujudga keltirmoq, bunyod qilmoq. *Karim, biz ham tadbirkor bo'lsak, xudo xohlasa, shularga o'xshash yangiliklar y a r a t a m i z* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Ostobday nur Taratar u, Qalhda chaman Y a r a t a r u* ("Kitob" she'ri, "G'uncha"dan). *Gullar dunyoga kelar; Go'zallik y a r a t a y deb* (Qambar Ota. Burchim).

YARASHMOQ | Bir-biri bilan urish-janjal, arazni to'xtatib, yaqin bo'lmoq. *Zidi: urishmoq. Men ukangiz G'ulom bilan y a r a sh a y l i k deb, quyon olib bordim* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Urishar, y a r a sh a r: Hazillar yarashar* (Po'lat Mo'min. Xo'p maza – o'n lahza). *Na tunov kun arazlashgan O'ktam bilan y a r a sh d i m* (Abdurahmon Akbar. Esiz yakshanba).



YARASHMOQ II 1 Chiroyini ochadigan bo‘lib turmoq. *Haligi-chi, atlas ko‘ylak Menga rosa y a r a-sh a r* (T.Adashboyev. Sehrgar qiz).

2 Munosib bo‘lib tushmoq. *Urishar, yarashar: Hazillar y a r a sh a r* (Po‘lat Mo‘min. Xo‘p maza – o‘n lahza). *Dadam menga qarab der: “Ish senga y a r a sh y a p t i, Faqat tushuntirib ber, Kim kimga qarashyapti?”* (K.Turdiyeva. Qush bo‘lib uchgan ona). *Yolg‘onchilik o‘g‘il bolaga y a r a sh m a y d i* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati).

YASSI Tekis, yalpoq. *Zidi: yumaloq. Bilasizmi, bolajonlar, qadim zamонlarda odamlar yerni y a s s i shaklda deb o‘ylashgan* (“G‘uncha”dan). *Shu gapdan so‘ng Egam jahldan bir nav tushib, atrofдagi yirik-yirik toshlardan ustma-ust qo‘yib, o‘zicha qo‘rg‘oncha yasay boshladi. Atrofda y a s s i - y a s s i toshlar ko‘pedi* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati).

YAYOV Biron ulovda emas, o‘z oyog‘i bilan (harakatlanmoq). *Ma‘nodoshi: piyoda. Bepoyon yaylov, Ketardim y a y o v. O‘tlar xilma-xil, Hammayoq yashil* (Po‘lat Mo‘min. Yaylov rohati). *Kelayotir el asov, kimda – bolta, kimda – bel, Kim – tulporda, kim – y a y o v* (Miraziz A’zam. Erk qushi).

YASHIL Bahordagi barg yoki maysaning rangi. *Dalalarim Y a sh i l rang-la Bezar bahor* (Po‘lat Mo‘min. Bahor sabog‘i). *Butun borliq uyg‘onib, Daryo, ko‘llar to‘lg‘anib, Yashil kiyib adirlar; Gullar sochar atirlar* (Po‘lat Mo‘min. Bahor kelaveradi). *Kun qiziy boshlagan sari y a m - y a sh i l bedalar ustidan jimir-jimir harorat ko‘tariladi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

YASHNAMOQ 1 Yorqinlashmoq, chiroyli holga kelmoq. *Ayji bahor faslida Ya sh n a g a n da dalalar; Yashil qirlar bag'ridan Chechak terar bolalar* (H.Murodov. Elchi gul). *Bog' ya sh n a y d i Bog'bon bilan. Dala ya sh n a r Dehqon bilan. Uy ya sh-n a y d i Bola bilan. Tog' ya sh n a y d i Lola bilan* (Umarali Qurbon. Yashnar olam).

2 Rivojlanmoq, kamol topmoq. *Ya sh n a g a y to abad ilm-u san, ijod, Shuhrating porlasin toki bor jahon!* (A.Oripov. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi).

YENGILMOQ 1 Mag'lub bo'lmoq, g'alabani boy bermoq. *Yovning ye n g i l i b qochganini ko'rganlar g'ala-g'ovur bilan Meshpolvonni o'rab olishdi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Olishuv boshlanib, u yetti kecha-yu kunduz davom etibdi. Oxiri sher ye n g i l i b d i, bolaga qarab: – Sen zo'r chiqding, men ye n g i l d i m, endi olisha olmayman. Ammo meni o'ldirma. Yaxshilingning unutmayman, – deb yalinib-yolvoribdi* ("Qayroqtosh bola" ertagi).

2 Bartaraf bo'lmoq, yo'q bo'lmoq. *Og'ir yumush ye ng i lar; G'ayrat oti kishnasa* (Zafar Diyor. Mehnat qo'shig'i).

YENGMOQ 1 Dushmanni mag'lub qilmoq, g'alaba qozonmoq. *Unga uchrasa ajdar, Darrovda ye ng a r, yanchar* (Po'lat Mo'min. Changyutar botir). *Xon: – Chol, to'qmog'ingni to'xtat, sen ye ng d i n g, meni o'limdan olib qol, yurtga sen hokim bo'la qol, – debdi* ("Ur, to'qmoq" ertagi). *Ye ng s a m, eson-omon qaytib kelaman, mabodo yengilib qolsam, ular meni sog' qoldirishmaydi* ("Qayroqtosh bola" ertagi).



2 Bartaraf qilmoq, yo‘q qilmoq, ustun kelmoq. *Yomonlikni y e ng a m i z, Maqsadlarga yetamiz* (Po‘lat Mo‘min. Suqatoy konfetvoy). *Urushga yo‘l bermaymiz, Tinchlik y e ng a r, tinchlik haq!* (Quddus Muhammadiy. Urushga yo‘l bermaymiz). *Seni ish y e ng m a s i n, sen ishni y e ng* (Maqol).

YETUK Har jihatdan pishib yetilgan, mukammal, barkamol. *Bolalar ichida Yetuk ko‘paysin. Bilimdon, azamat, Tetik ko‘paysin* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshilar ko‘paysa). *O‘z hunariga butun umrini bag‘ishlagan bu qariya y e t u k bir olim bo‘lib tuyulardi* (Said Ahmad. O‘rik domla).

YIRTQICH Jonivor go‘shti bilan ovqatlanadigan. *Bir yili qish qattiq kelib, y i r t q i ch bo‘rilar soy bo‘ylarigacha tushib kelibdi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Baxil qo‘rqaq ekan, lekin ochko‘zligi qo‘rqoqligidan ustun kelibdi va u y i r t q i ch hayvonlarning g‘origa kirib yotibdi* (“Saxiy bilan baxil”ertagi).

2 Rahm-shafqatni bilmaydigan. *Y i r t q i ch larni Tinchitma. Ojizlarni Cho‘chitma* (Anvar Obidjon. Miltiqchaga yozilgan she’r).

YOLVORMOQ Qattiq iltimos qilmoq. *Ma‘nodoshi: yalinmoq. Ayiqchalar unga y o l v o r i b: – Biz uyimizga boraylik desak, yo‘limizda och bo‘ri yuribdi, jon o‘rtoq, eshicingni och, – deyishibdi* (“Baroqxon” ertagi). *Zuhra bechora esa zolim otasiga y o l v o r i b-d i* (“Tohir va Zuhra” ertagi).

YOLG‘ON Haqiqatga zid, noto‘g‘ri. *Zidi: rost, chin. Y o l g‘ o n emas, bo‘lgan gap, Hamma rosa kulgan gap* (Po‘lat Mo‘min. Eshakdan tushib qolgan



odam). *So 'laqmonday kishining g'irt y o l g' o n gapirayotganini ko 'rib, haddan tashqari uyalib ketdim* (Anvar Obidjon. Oltin yurakli Avtobola). *Qo 'rqib u mashaqqatdan, So 'zlaydi y o l g' o n. Y o l g' o n so 'zlab, mehnatdan Qutular oson* (Rauf Tolib. O'rtog'imiz yo 'qoldi).

YOQIMTOY Hammaga yoqadigan. *Gap-so 'zlar biram shirin, O 'zlar ham y o q i m t o y* (Po'lat Mo'min. Ahil do'stlar). *Ichkariga tortinibroq kirdilar. Nozikkina, y o q i m t o y gina, jilmayibgina turgan qiz kutib oldi* (X.To'xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Men momiq y o q i m t o y man, Ola mushuk Moshvoymen* ("G'uncha"dan).

YOQMOQ Ma'qul bo'lmoq. *Zumrad kampirga juda y o q i b qolibdi* ("Zumrad va Qimmat" ertagi). *Go 'yo xursand boqasan, Menga juda y o q a s a n* (Yo'ldosh Sulaymon. Sochiqcham). *Sharqirab ogardi suv, Badanga y o q a r d i suv* (Miraziz A'zam. Yo'lini topdi).

YORDAM Biror ishni bajarishda qarashish, ko'maklashish, foydali ta'sir. *Ma 'nodoshi: ko'mak. Y o r d a m desang, biz bormiz, Y o r d a m ga biz tayyormiz!* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti). *Odam kerak odamga, Bir-biriga y o r d a m ga* (Po'lat Mo'min. Hamma joyda do'st kerak).

Yordam bermoq Yordamlashmoq, ko'maklashmoq. *Ariq olsa dadamlar, Y o r d a m b e r a m a n d o i m, Havas qilar odamlar* (H.Murodov. O'syapman). *Y o r d a m b e r i sh dan qochma, To 'g 'ri yo 'l dan adashma!* (Po'lat Mo'min. Qovoqvoyning sarguzashti).

YORDAMLASHMOQ Ko‘maklashmoq, qarashmoq. *Chalg‘i tortsa dalada, O‘tirmayman panada. Pichan bog‘lab, yig‘ishib, Y o r d a m l a sh s a m, harna-da* (H.Murodov. O‘syapman). *Sarvarjon bobosini Biram yaxshi ko‘radi. Daraxt eksa, yonida Y o r d a m l a sh i b yuradi* (O.Po‘latov. Yordamchi). *So‘ng qizcha buvisiga nonushta tayyorlashga y o r d a m l a sh d i* (D.Hotamova. Katta opa).

YORUG‘ 1 Yonib turgan narsadan tarqaladigan nur. *Shu xursandchilikka o‘rtoqlarim ham chiroq y o r u g‘ i da bir kosadan ugra osh ichvolishsa, qani?* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

2 Nur tushib turgan, charog‘on. *Zidi: qorong‘i. Sinfdoshlarim orasida bog‘chadagi do‘stilarim ham bor ekan. Ular bilan y o r u g‘ va gullarga to‘la sinf xonasiga kirdik* (“G‘uncha”dan). *Yop-yorug‘ maktablarda Ilm va fan seniki* (G‘afur G‘ulom. Avlodlar). *Xonada ikkita deraza bo‘lib, ular Zebi xolaning hovlisiga qaragan, ichkari y o p - y o r u g‘ edi* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari).

3 Baxtga to‘liq. *Qarashlariningda y o r u g‘ umidlaring aksi havasni orttiradi: eling seni suygisi keladi, erkatalatgisi keladi* (“G‘uncha”dan).

Yuzi yorug‘ Kamchiligi yoki aybi yo‘q, hammaning oldida hurmatga ega. *Bor bilimin tugal sarflab, O‘quvchilar aqlin charxlab, Ich-ichidan xursand, quvnar, Y u z i y o r u g‘, dili yayrar* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Chol xafa bo‘lib, ichida “Hay, attang, biron ta o‘g‘lim bo‘lganda, men ham yurtni mudofaa qilishga jo‘natib, y u z i m y o r u g‘ bo‘lardi” deb, uyiga kelibdi* (“Bir siqim tuproq” ertagi). *O‘z*

yurtingiz tarixin Bilasizmi o'zingiz? Bobolarning oldida Y o r u g' m i k i n y u z i n g i z (Rauf Tolib. Ertangizni o'ylayman).

YOV 1 Urush, jangda qarshi tomon. *Ma'nodoshi: dushman.* *Onam qo'liga oldi Nina-yu angishvona. Issiq kiyimlar tikar U jangchilarga yana. Uning har bir ninasi Y o v ko'ksiga o'q bo'lar* (Zafar Diyor. Bizning oila). *Botir bo'lib o'sarkan, Y o v yo'lini to'sarkan* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami). *Yo'lida uchraganni o'ldirib, yondirib, quritib kelayotgan y o v ga qarshi yurt yigitlari otlanibdi* ("Bir siqim tuproq" ertagi).

2 Yomonlik, zarar keltiradigan. *Ma'nodoshi: dushman.* *Kasallik – bizlarga y o v, Kurashamiz beayov* (Rauf Tolib. Tabib tosh). *Mushugim erta-kech "Mi-yov, mi-yov"* deydi. *"O'g'ri sichqonboyga Men – y o v, men – y o v", – deydi* (H.Murodov. Mushugim).

YOVUZ Rahm-shafqati yo'q, o'taketgan rahmsiz. *Y o v u z odam niyati O'zi kabi y o v u z-da. Shunday ulkan daraxtni O'g'irlashdi bir kunda* (H.Murodov. Yakka tut – mingta tut). *Izzat-u baxt topar dili pok kimsa, jazoga yo'liqar, kim y o v u z bo'lsa* (T.G'oipov. Bo'ri bilan ertakchi). *Y o v u z lar endi o'q uzmasin, uzmasin. Bizlarning o'yinni buzmasin, buzmasin* (Safar Barno. Tinchlik qo'shig'i).

YOVVOYI 1 Qo'lga o'rgatilmagan, xonakilashmagan (jonivorlar haqida). *Dadam mototsiklni loy yo'lning bir chekkasida qoldirarkan: – Uzoqlab ketmanglar, y o v v o y i cho'chqalar yuradi, – dedi* ("G'uncha"dan). *Ho'kiz juda ham semiribdi. Uning savlatini ko'rganda, har qanday y o v v o y i hayvonlar ham qochadigan bo'libdi* ("Botir echki" ertagi).

2 O‘z holicha o‘sadigan, madaniylashtirilmagan. *Kel, ularni y o v v o y i o ‘tlardan tozalab, sug‘oramiz* (V.Po‘latova. Nihollarning “rahmat”i).

YUKSALMOQ 1 Balandga ko‘tarilmoq. *Ilgari har hovlida Turardi tut y u k s a l i b* (Miraziz A’zam. Asror). *Maqtovlardan ko‘k sari Y u k s a l a d i qad-bo‘ying* (Po‘lat Mo‘min. Obro‘ kelar qayerdan?).

2 O‘sib rivojlanmoq, kamolotga erishmoq. *Vatan bizga mehribon, Y u k s a l m o q q a bor imkon* (M.Dadaboyev. Sog‘lom bola qo‘shig‘i).

YURT Ma’lum xalq yashab turgan joy. *Ma’nodoshi: vatan, mamlakat.* *Do’stlar, mening y u r t imni O‘zbekiston deydilar. Dong‘i tutgan dunyoni Bog‘-u bo‘ston deydilar* (Zafar Diyor. Serquyosh o‘lka). *Hamma uchun baxt – y u r t ning Ozodligi bo‘ladi* (H.Murodov. Bo‘ston). *Qo‘rquv bilmay xalqimiz Dushman bilan olishgan. To‘kilsa ham qonlari, Y u r-t in saqlab qolishgan* (H.Murodov. Bo‘ston).

YUTUQ Ish, o‘qish, musobaqa kabilarda qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyat, erishilgan g‘alaba. *Aziz bolajonlar, ota-onangizga mehribon bo‘lib, ularning gapidan chiqmasangiz, juda katta y u t u q larga erishasiz* (H.Ahmedova. Musicha bola). *Qo‘lga kiritgan y u t u q lari haqida G‘unchaoyga ko‘zlari chaqnab gapirib berishdi* (“G‘uncha”dan). *Qutlaydi uni Y u t u g ‘i bilan, Yuzida ostob Yorug‘i bilan* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi...).

YUVOSH To‘polon, sho‘xlik qilmaydigan, beozor. *Jahongir der: “O‘g‘il bola Y u v o sh, gapga kiradi”* (Safar Barno. Topag‘onlik). *Asilbekning iti-chi, Juda y u v o sh aslida* (Abdurahmon Akbar. Asilbekning

iti). *Qachon qarasang, beozor, y u v o sh jonivorlarni kalaka qiladi* (T.G‘oipov. Bo‘ri bilan ertakchi).

YO‘LDOSH Yo‘lda, safarda va boshqalarda birga bo‘luvchi. *Ma‘nodoshi: hamroh.* *U tuyaga minib, o‘z y o‘ l d o sh ini cho‘lda yolg‘iz tashlab ketibdi* (“Saxiy bilan baxil” ertagi). *Yuragingdan arimasin Yuksak niyat – y o‘ l d o sh ing* (Miraziz A’zam. Ota bilan bola). *Hayotimda Quyoshim bo‘l, Bir umrlik Y o‘ l d o sh im bo‘l, Kitobjonim* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar).



ZAFAR Biror ish yoki tortishuvda erishilgan muvaffaqiyat. *Ma'nodoshi: yutuq, g'alaba. To'siqlar-dan dadil o'tdik z a f a r bilan* (T.Adashboyev. Safar bilan).

ZARAR Yomon ta'sir, ziyon-zahmat. *Sog' bo'l-sang bas, yig'ingning Z a r a r i yo'q menga hech - Sen tufayli maktabdan, Axir, qolmayapman kech* (Abdurahmon Akbar. Rahmat senga, chaqaloq). *Ayb emasdир bilmaslik, Bilsangiz, z a r a r emas* (Habib Rahmat. Udum). *Ortiq ichsang, z a r a r miz, Dorimasmiz, zaharmiz* (Rauf Tolib. Tabib tosh).

ZAVQ Huzurli, ko'tarinki kayfiyat, xursandchilik. *Halimaxon qo'g'irchog'in, Yotqizib belanchakka. Z a v q bilan alla aytar, So'rida o'zi yakka* (T.Adashboyev. Ishlarim ko'p). *Salom, ona maktabim, O'rganib, olim bo'lay, Xizmat qilib elimga, Quvonch-u z a v q qa to'lay* (Q.Sobirova. Maktabim). *Aqling to'lishib, Fikring oshadi. Zehning charxlanib, Z a v q ing toshadi* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar).

ZAVOL Yo'q bo'lish, ofat. *Xulosa: Boshi borlar Za-vol bilmaydi Toshday. Tulkilargayem bo'lar Faqatgina beboshlar* (Dilshod Rajab. Toshning boshi...). *Ochlik hamma narsaga, jumladan, kayfiyatga ham z a v o l*

ekan (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Haq so'zga z a v o l yo'q* (Maqol).

ZEHN Tushunish, bilish qobiliyati. *Ma'nodoshi: idrok.* *U qo'shni sultanat fuqarolarining z e h-nini bilmoqchi bo'libdi va sovg'a tariqasida o'sha mamlakat sultoniga uchta oltin qo'g'irchoq yuboribdi* (“Uchta oltin qo'g'ichiq” ertagi). *Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi maktab o'quvchilari bilimi va z e h n i bilan diqqatimizni tortdi* (“G'uncha”dan).

Zehni o'tkir Darrov tushunadigan, aqli. *Zidi: zehni past.* *Ma'nodoshi: zukko.* *Nodiraxon yaqinda besh yoshga to'ladi. Tili burro, z e h n i o't k i r. Sanashni, quyosh va yulduz rasmini chizishni qoyillatadi* (“G'uncha”dan). *Bolaning z e h n i o't k i r ekan, sal fursatda ustozidan ham o'zib ketibdi* (“Hunarli yigit” ertagi). *Z e h n i o't k i r-u hushyor, Ota yonida dastyor* (Po'lat Mo'min. Oltin tosh).

Zehn qo'ymoq *Diqqat bilan qaramoq, butun aqlini ishga solmoq.* *Z e h n i m q o'y i b, sabot bilan Jilo berib harflarga, To'g'ri, aniq ko'chiraman Har bir so'zni daftarga* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Z e h n i q o'y i b o'qishda O'rganaman ko'p narsa* (Zafar Diyor. Sentabr qo'shig'i).

ZIQ Juda ham cheklangan, nihoyat darajada oz. *Chumolining vaqtiz i q roq, Gapi qisqa, qalbi qaynoq* (T.Adashboyev. Osmon qayerdan boshlanadi?). *Bassavlat kiyangan haydovchi ilojsiz eshikni ochdi. – Qayerga borasiz, xolajon?.. Vaqtim z i q, xolajon.* *Tushadigan joyingizni ayting* (Hakim Nazir. Paltocha).

ZIQNA Juda ham xasis, o'taketgan qizg'anchiq. *Zidi: qo'li ochiq.* *Buncha z i q n a bo'lma, Chittak,*

Menga ham joy ber-da qittak (Anvar Obidjon. Qarg‘a haqida qo‘shiq). *Ola quyon ancha xasis, z i q n a ekan.* *Birovlarnikiga mehmonga borar ekan-u, lekin o‘zi biror marta ham uyiga birovni chaqirmagan ekan* (Rauf Tolib. Sho‘rva). *Qo‘li ochiq yashnaydi, Z i q n a odam so‘ladi* (Safar Barno. Mehmon).

ZILOL Juda ham tiniq (ko‘proq suv haqida). *Tog‘dan kelar pildirab, Ariqlarda shildirab, Muzday tiniq z i l o l suv* (Qudrat Hikmat. Suv). *Favorajon, favvora, Suvlari tiniq, z i l o l. Buncha tinim bilmaysan, Sho‘xliging misli shamol* (D.Ibragimova. Favvora). *Sonsiz-sanoqsiz buloqlardan z i l o l suvlar qaynab chiqib turgan emish* (“Uch avliyo” ertagi).

ZIYORAT Muqaddas joylarga, ulug‘, hurmatli kishilar huzuriga borish, hurmat-ehtirom ko‘rsatish. *Avval Sohibqiron Amir Temur haykalini z i y o r a t qilishdi, so‘ng yangigina bunyod etilgan Majlislar Saroyini borib ko‘rishdi* (Luqmon Bo‘rixon. Adashgan bola). *Bersin senga bobolaring Bardoshini, sabrini.* *Z i y o r a t qilib turgin, O‘g‘lim, otang qabrini* (T.Adashboyev).

ZIYRAK Har bir narsani darrov tushunadigan, tez fahmlaydigan. *Ma‘nodoshi: sezgir.* *U yoshligidanoq uddaburon, z i y r a k bo‘lib o‘sibdi* (“Alisher bilan bulbul” rivoyati). *Chuqur, puxta o‘ylaydi Z i y r a k olim misoli* (Po‘lat Mo‘min. Qodirjon – Qoyiljon). *Dars vaqtida sergak bo‘l, Qushdek sezgir, z i y r a k bo‘l* (Quddus Muhammadiy. Yigitga qirq hunar oz).

ZOLIM Birovga zulm qiluvchi, qiyonoqqa soluvchi, rahm-shafqatni bilmaydigan. *Qadim zamonalarda bir z o l i m podsho bo‘lgan ekan* (U.Ismoilov. Ertaklarda

matematika). *Ular juda z o l i m, adolatsiz bo 'lganidan qashshoq xalq adolatli podsho yurtiga ko 'cha boshlabdi* (“Podsho, vazir va boyo‘g‘li” ertagi). *Zuhra bechora esa z o l i m otasiga yolvoribdi* (“Tohir va Zuhra” ertagi).

ZUKKO Aqli hamma narsaga yetadigan, dono. *Gap nimadaligini tushungan z u k k o qiz: “Otajon, men tuyani ushlab turay, siz pichoqni topib chiqing”, – debdi* (“Kashmirlik sehrgar” ertagi). *Ziyrak, z u k k o bolajonlar, O'ylab ko 'ring-chi biroz. Navbatdagi yetti jumboq, Sizlar uchun qulay, mos* (T.Adashboyev. Farqi bitta harfdadir). *Z u k k o o 'quvchilarimizning kitob haqida yozgan she'r, hikoya, insholarini katta qiziqish bilan o 'qib, kitobga chin o 'rtoq ekanligidan quvondik* (“G‘uncha”dan).

ZULMAT Hech narsani ko‘rib bo‘lmaydigan darajadagi, zim-ziyo qorong‘ilik. *Savol berdim o 'zimga: “Nega keldim dunyoga, Z u l m a t qoplagan joyni To 'ldirmasam ziyoga?”* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Z u l m a t dagi chaqmoq uchun, Yolg 'onlarni yoqmoq uchun Kichik joning kerakmidi?* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Qarasa, quduq tagi keng, hamma yer qorong 'i, z u l m a t, qup-quruq, suv degan narsa yo 'q emish* (“Hunarli yigit” ertagi).

ZUMRAD 1 Och yashil rangli qimmatbaho tosh. *Eng katta o 'g 'li z u m r a d ko 'zli oltin uzuk taqqan qo 'lini uzatibdi* (“Aql va boylik” ertagi).

2 Ana shunday tosh rangidagi. *Z u m r a d bog 'lar bag 'riga Kelaqol deb, chorlaydi* (H.Imonberdiyev. Yakshanbada). *Kumush qishdan, z u m r a d*

bahordan Qolishmaydi kuzning ziynati (Uyg‘un. Kuz qo‘shiqlari). *Tabiatning erkasi – Egnida z u m r a d libos. Borliqqa jon bag‘ishlar, Nomi ham jismiga mos* (F.Jalilova. Topishmoq javobi: bahor).

ZO‘RG‘A Qiyinchilik bilan, bir amallab. Ma’nodoshi: **arang**. *Kampir uni tomga chiqishga z o‘r g‘a ko‘ndiribdi* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Qimmat uyiga z o‘r g‘a – z o‘r g‘a yetib kelibdi* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Fil xartumi bilan ola hakkani urmoqchi bo‘lgan ekan, u z o‘r g‘a qochib qutulibdi* (Rauf Tolib. Yolg‘onchi hakka).



O‘GAY 1 Tug‘gan yoki tug‘ishgan sifatida qarindosh bo‘limgan. *O‘ g a y ona Zumradni yoqtirmas ekan. Eng og‘ir ishlarni unga buyurar, qarg‘ab, urarkan* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Anavi Shakarxon opa bor-ku, ...o‘shaning o‘g a y o‘g‘li ... quyon boqayotgan emish* (X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Yaxshiyamki sen borsan. Axir, o‘g a y opamdan Qolgan yolg‘iz yodgorsan* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon).

2 Begona, o‘ziniki bo‘limgan. *Shunday tildan tonar bo‘lsam, Yoki o‘g a y sanar bo‘lsam, Qiyma-qiyima bo‘lsin tilim, Ona tilim – jon-u dilim* (T.Adashboyev. Ona tilim).

O‘GIT Odamni har jihatdan yaxshi, aqlli-odobli bo‘lishga chorlab aytilgan gap. *Ma‘nodoshi: nasihat, pand. Ishim ko‘rib, Dadajonim sevindi. Menga hergan O‘g i t lari sezildi* (Po‘lat Mo‘min. Dadamlardan o‘rgandim). *Ahvvolimiz juda tang, Holdan toydi yigitlar. Ulardagi so‘nggi kuch – Ona aytgan o‘g i t lar* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon).

O‘JAR O‘z bilganidan qolmaydigan, birovning gapiga yurmaydigan. *Ma‘nodoshi: qaysar. O‘j a r, qaysar to‘rtovlon Tortishdilar chunonam. Yoqalar ham titildi, Ko‘ylaklar ham yirtildi* (Habib Rahmat.

To‘rt hunarmand haqida ertak). Keyinchalik qaysar, o‘ja r, o‘zining aytganidan qolmaydigan bo‘lgani uchun bolani O‘jarvoy deb chaqiradigan bo‘lishibdi (“O‘jarvoy bilan vafodor it” ertagi). O‘ja r, shuncha tepsak ham, O‘zgarmaydi qittak ham (Dilshod Rajab. To‘p).

O‘LKA Muayyan bir yurt, mamlakat. *Bu o‘lk a ning ustida Quyosh ham ko‘proq kezar* (Zafar Diyor. Serquyosh o‘lka). *Tezroq kelib, bahorjon, O‘ra gulga o‘lk a mni* (Habib Rahmat. Tortishuv). *Dunyoda o‘lk a m – eng ko‘rkam mening* (Habib Rahmat. Hur o‘lkam mening).

O‘RNAK Boshqalar ergashsa bo‘ladigan ish, xattiharakat, voqeа-hodisa. *Ma‘nodoshi: ibrat*. *O‘qiganda, bo‘lgan ibrat, Ey mazmuni o‘rnaklarim, Ertaklarim* (Po‘lat Mo‘min. Ertaklarim).

O‘rnak ko‘rsatmoq (yoki **bo‘lmoq**) Boshqalarga namuna, ibrat bo‘lmoq. *U sheriklariga o‘rnak ko‘rsatib, charchoq nimaligini bilmay, jangni davom ettiraverdi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). **O‘rnak olmoq** Ma‘qul ko‘rib, ibrat olmoq. *O‘rnak ols a ajabmas, Sendan opang Marhamat* (Orifxon Shokir. Shirinak bayrami). *Barcha oshnoga‘yning O‘rnak olsinlar sendan* (Zafar Diyor. Ikkimiz ham a’lochi). *Hazilkash bolalardan Go‘yo o‘rnak olishib, Kurash tushishar ko‘kda Bulutlar to‘planishib* (Abdurahmon Akbar. Polvon bulutlar).

O‘TINMOQ Juda ham qattiq iltimos qilmoq. *Bitta boyning eshidiga kelib, yeysihga biror narsa berishini o‘tinib so‘rashibdi* (“Aka-uka” ertagi). *Ukam... Ergashdi, boraman deb* (*Borishin ko‘rmasdim ep*).

U yalindi o' t i n i b, So'ng yig'ladi o'tirib (Po'lat Mo'min. Eh, rosa shirin ekan). *Qaysidir bir yili yangi yil kirib kelishidan oldin men dadamdan uyga qorboboni taklif qilishni o' t i n i b so'radim* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni).

O'TLOQ O't-o'simlik o'sib yotgan joy. *Bedana bir o' t l o q da o'tlarning urug'larini yeb yurgan ekan, birdan zavq bilan sayrab yuboribdi* ("Hiylagar bedana" ertagi). *Birozdan so'ng ona echki o' t l o q dan qaytib kelibdi* ("Echkining o'ch olishi" ertagi). *Maysa chaynar qo'y-qo'zi Daradagi o' t l o q da* (Anvar Obidjon. Taxir sovg'a).

O'ZMOQ 1 Yurib yoki yugurub, boshqadan oldinga o'tib, uni ortda qoldirmoq. *Shuning uchun tez-tez yurib, undan o'zib keta boshladi* (Sh.Shokirova. Izza). *Bir-biridan o' z i sh i b, Kishnab chopar toychoqlar* (Yo'ldosh Sulaymon. Xayolimni tortadi).

2 Biror musobaqa yoki ish-hunarda boshqalardan oldinda bo'lmoq. *Qani, kimdan kim o' z a r, Ajoyib jumla tuzar?* (Safar Barno. Rost bo'lsa, xo'p yaxshi). *Kurash tushgan, suvda suzgan, Tortishuvda doim o' z-g a n* (Po'lat Mo'min. Chaqqonlar – chiniqqanlar). *Ko'chatlarim Barq urmoqda, o'smoqda. Dadamlar der: – O'g'lim mendan o' z m o q d a* (Po'lat Mo'min. Dadamlardan o'rgandim).

O'CH I Biror yomonlikka javob tarzidagi xattiharakat. *Ma'nodoshi: qasos, qasd. Inoq-ahil ulg'aysak, Ortar yana kuchimiz. Ojizlarga hech qachon Yo'qdir bizning o' ch i m i z* (Anvar Obidjon. Bizlar o'yin o'ynasak). *Ajdod qoni, o' ch hissi Berdi unga kuch, dalda* (Anvar Obidjon. Uchinchi polapon).



O'ch olmoq Yomonlikka javob tarzidagi xatti-harakatni qilmoq. *Meni kichik demangiz, Kamsit-mangiz kuchimni. Bosqinchidan o'lgu mdir Xalq qasosi – o'chimni* (Zafar Diyor. Quro'l...). *Ranjitsa uni birov, O'ch olar edim darrov* (H.Imonberdiyev. Bir so'z). *Men bo'ridan boplab o'chingni ol-dim, – deya maqtanishga tushibdi ayyor tulki* (“Bo‘ri, tulki va it” arab ertagi).

O'CH II Biror narsani juda yaxshi ko‘radigan. *Lola istab, qirga qistar Lolaga o'ch ko'ngillar* (Yo‘ldosh Sulaymon. Lola sayli). *Nega bargga o'ch Bu pilla qurtlar?* (D.Shokirov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam).



G‘AZAB Juda ham achchiqlanish hissi. *Podshoh g‘ a z a b bilan cholga qarab: – Ha, chol, nima qilib yuribsan? – debdi* (“Sirli gilamcha” ertagi). *G‘ a z a b dan qaltirab ketdim. Bilmadim, bu g‘ a z a b midi, qo‘rquvmidi, har qalay, qaltirab, tizzalarim bukilib ketayotganini sezdim* (X.To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi).

G‘ALABA 1 Jang yoki turli bellashuvlarda erishilgan muvaffaqiyat. *Ma‘nodoshi: zafar. Bu – Sepkilshoh ustidan qozonilgan uzil-kesil g‘ a l a b a edi* (Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari). *Yurtimizda sog‘lom avlod tarbiyasiga katta e‘tibor berilayotgan bir paytda Akromjonning qator g‘ a l a b a si ana shu e‘tiborga ayni javob bo‘lmoqda* (“G‘uncha”dan).

2 Turli ish-faoliyatda qo‘lga kiritilgan yuksak natija, jiddiy muvaffaqiyat. *Ma‘nodoshi: yutuq. Yuk-saklarda hilpirab – Porlab turar hamisha. Buyuk g‘ a l a b a larga chorlab turar hamisha* (Dilshod Rajab. Yurt bayrog‘i).

G‘AM 1 Ruhiy azob, qiyinalish tuyg‘usi. *Zidi: shodlik. Ma‘nodoshi: qayg‘u. Bechora to‘tining quvonchi tugabdi. Shodligi g‘ a m ga almashibdi* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi). *Juda uzoq kutdilar, G‘ a m, alamlar yutdilar* (Orifxon Shokir. Shirinak).



2 Biror maqsad yo‘lidagi bezovtalik. *Ma’nodoshi: tashvish. Nonim bor, hech g‘am im yo‘q, O‘zgalardan kamim yo‘q* (Obid Rasul. Non va mehmon).

G‘am yemoq 1) Ruhiy qiyonoqda bo‘lmoq. “*Podshoga endi nima javob qilaman*” deb, o‘ylanib turgan ekan, xotini: – *G‘am yemangan, javobini o‘zim beraman, – debdi* (“Podsho va dehqon qizi” ertagi); 2) Biror maqsad yo‘lida harakat qilmoq, tayyorgarlik qilmoq. *Tinch kulsin, deysiz, zamin, Yesiz bolalar g‘am in, Go‘zallikni bil, deysiz, Yaxshi odam bo‘l, deysiz* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar). *Quyonga dedi Ayiq: – Buncha shoshasan, qiziq? – Qish kelar qilich qayrab, Qandoq o‘tiray qarab? Qish g‘am in iye yapman* (Rauf Tolib. Qish yaqin).

G‘AMXO‘R Birovga yaxshi bo‘lishi uchun harakat qiladigan, birovning g‘amini yeydigan. *Bir qalin do‘stim bor, zo‘r, Juda mehribon, g‘am xo‘r* (Dilshod Rajab. Qalin do‘st). *Bu fazilating yaxshi, o‘g‘lim. Atrofdagilarga doimo g‘am xo‘r bo‘lsang, ular ham senga mehribon bo‘ladi* (“G‘uncha”dan).

G‘AYRAT Bir ishni tugal bajarishga astoydil kirishish istagi. *Bahor tansiq fursatdir, G‘ayrat ingni ko‘rsat der* (Po‘lat Mo‘min. Bahor kelaveradi). *Tanda g‘ayrat jo‘sh uradi ayni mehnat pallasi* (Zafar Diyor. Bahor keldi). *G‘ayrat bilan shu kundan Bog‘chada ish boshladi* (Zafar Diyor. Kichkina bog‘bon haqida doston).

G‘IRROM 1 Halollik qoidalariga rioya qilmaydigan, aldov yo‘li bilan harakat qiladigan. *Zidi: halol. Or qilaman qo‘rqoqdan; G‘irrom ekan bu bola, Chalar ekan oyoqdan* (Habib Rahmat. G‘irromlik).

G' i r r o m topgan tillasin Yashar xalqdan yashirib
(Qambar Ota. Savob).

2 O‘zbek kurashida katta xatoga yo‘l qo‘ygan kurashchiga beriladigan oxirgi ogohlantirishni bildiruvchi atama.

G‘OLIB Urush, jang yoki turli bellashuvlarda g‘alaba qozongan, qarshi tomonni yengib chiqqan. *Zidi: mag‘lub. Dedilar: – Kelmay g‘ o l i b, Qaytma O‘zbekistonga* (H.Imonberdiyev. Ajdarho komida). *Shu g‘ o l i b lar safida Sening otang ham* (Zafar Diyor. Orzu). *Har bir g‘ o l i b G‘unchaoyning maxsus sovg‘alari bilan taqdirlanadi* (“G‘uncha”dan). *Kim ko‘rikning g‘ o l i b i, Kim chizolmay qolibdi* (A.Nosirov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam).

G‘OV O‘tib ketishga, harakatga imkon bermaydigan narsa. *Ma’nodoshi: to‘sinq. Yo‘limizga g‘ o v bo‘layotganing uchun seni jazolaymiz. Qani jarga uloqtiring* (T.G‘oipov. Bo‘ri bilan ertakchi). *Fildek basti bilan u Buzib o‘tar g‘ o v larni. Tirqiratar quyondek Manman degan yovlarni* (Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon).

G‘URUR 1 Odamning o‘z qadr-qimmatini, bosh-qalardan kam emasligini bilish tuyg‘usi. *Tani sog‘, aqli teran bolakay! Sening qiyofangdagi millat bolasining g‘ u r u r i yanada baland bo‘lsin!* (“G‘uncha”dan). *O‘z tarixin bilmagan Kelajagin angolmas. O‘z ulug‘in bilmagan G‘ u r u r i n ham asrolmas* (D.Imomaliyeva. Saboq).

2 Faxrlanish, o‘ziga bo‘lgan hurmat-e’tibordan xursandlik tuyg‘usi. *Ma’nodoshi: faxr, iftixor. Egam bilan Karim bo‘lsa “besh” bahoga javob bergan*

o‘quvchidek g‘urur ga to‘lib, jilmayibroq turishibdi
(X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati).

3 Faxrlanishga asos beradigan, faxrni yuzaga keltiradigan manba. *So‘zimning gavhar, duri, Oilamiz g‘urur i, Ikki ko‘zimning nuri Mehribon onajonim* (O‘.Hoshimova. Mehribonim).

4 Kibrlanish, o‘zini boshqadan baland qo‘yish tuyg‘usi. *Bunday holni ko‘rmagandim Sira-sira. Yo ko‘zlarin bosdimikan G‘urur – shira?* (Po‘lat Mo‘min. Salomiga zor emasdim). *Unutib bor va ‘dasin, Na biror xat bitibdi. Paydo bo‘libdi g‘urur, Yengibdi foyda qurg‘ur* (Po‘lat Mo‘min. Unutgan o‘g‘il).



SHAFAQ Kun chiqish yoki kun botish oldidan osmon bilan yer tutashganday bo‘lib ko‘rinuvchi joyda paydo bo‘ladigan qizillik. *Osmonning yarmin tutib, Gulxanday yonmish sh a f a q* (Miraziz A’zam. Erk qushi). *Kampir... quyosh botayotgan tomonga o‘girildi. Qo‘lini peshonasiga ayvon qildi: sh a f a q ichidan qushlar galasi ko‘chib chiqayotganga o‘xshardi* (D.Shomalikova. Tabib qushlar).

SHARSHARA Balandlikdan pastga shovqinli ovoz chiqarib oqib tushadigan suv, shunday suv oqib turgan joy. *Olimlar, insoniyatning ilk so‘zlari tovushga taqlidan paydo bo‘lgan deydilar. Darhaqiqat, qadimgi ajodolarimiz tog‘dan shovullab tushgan suvni shovva, shar-shar etib to‘kilganini sh a r sh a r a degan* (E.Vohidov. So‘zga aylangan tovushlar). *Yuksaklikdan qo‘rqqanlarni Qilib go‘yo masxara, O‘zin otib, Qotib-qotib Qah-qah urar sh a r sh a r a* (Dilshod Rajab. Xonobod).

SHIRIN 1 Shakarli, shirasi o‘tkir. *Zidi: achchiq. Xo‘rozqandim, xo‘rozqandim sh i r i n, sh i r i n. Mazasini darrov bilar Tilim, tilim* (Habib Rahmat. Xo‘rozqand). *Sh i r i n bo‘lar sharbati, Olma, olcha ham terdik* (Z.Isomiddinov. Endi zerikmayman).

2 Ta’mi yoqimli, mazali. *Atayin sizni xursand qilish istagida uyimda sh i r i n taomlar tayyorladim*

(O.Quvvatov. Hasadgo‘y tulki qismati). *E-e, – dedi Shirin yana o‘ziga-o‘zi. – Ovqat qach-o-on pishadiyu! Oyim o‘zlari kelsalar, tezroq va sh i r i n roq qiladilar* (“G‘uncha”dan).

3 Odam huzur qiladigan, yoqimli. *Sh i r i n so‘zlar izlaydi, Yaxshi ishni ko‘zlaydi* (Yo‘ldosh Sulaymon. Men birinchi muallim). *Uxla ko‘rib sh i r i n tush, Jon bolam, ko‘rar ko‘zim* (H.Imonberdiyev. Shirin aldov). *Ko‘p qand yeydi Ukam Uchqun, “Tili sh i-r i n” Shuning uchun* (“G‘uncha”dan). *Shildirab qirga Oqadi jilg‘a, sh i r i n kuylari Xush yoqar dilga* (Olqor Damin. Jilg‘a).

SHOD Quvonchga to‘lgan, xushchaqchaq, juda yaxshi kayfiyat. *Zidi: xafa. Ma‘nodoshi: xursand, xurram. Quvnab erkin, sh o d, Bo‘laman katta. Baxt bor umrbod Tinch mamlakatda* (Obid Rasul. Tinchlik yashar). *Sh o d boqib sinfdoshim, Cho‘zdi yordam qo‘lini. Endi men ham bilaman “5” olishning yo‘lini* (Obid Rasul. Sinforsch). *Tezda o‘sib-uningiz, sh o d o‘tsin har kuningiz, Kulib tursin gulingiz, Bolajon, Bolajonim* (Po‘lat Mo‘min. Bolajon, bolajonim).

Shod qilmoq Quvontirmoq, juda yaxshi kayfiyat bermoq. *Onam ishga ketganda Polimizni artaman, Onamni sh o d q i l a m a n Kunda necha marta man* (Miraziz A’zam. Onam ishdan keladi). *Bizlar ko‘l, dengizlarni Etdik ko‘p obod. Siz ham tushib bizlarni Q i l i n g juda sh o d* (Ilyos Muslim. Turnalar).

SHOGIRD Ustozdan o‘rganuvchi. *Biz sizga sh o-g i r d – farzand, Zehn qo‘yib har bola, O‘qiymiz doim a‘lo, Dillarda toshib g‘ayrat* (Qambar Ota. Sizday yashagim kelar).

Shogird tushmoq Biror ustozdan doimiy o‘rganishga kirishmoq. Bola polvonlarga sh o g i r d t u sh i b d i (T.G‘oipov. Pahlavon). *Bir kuni ikki yigit shu olimga sh o g i r d t u sh i sh uchun kelibdilar* (T.G‘oipov. Mardni maydonda sinang).

SHUDRING Erta tongda barglar ustiga tushgan mayda va nozik tomchilar. *Bosh egdi tol Qирг‘оqда, sh u d r i n g uxlar Yaproqda* (Odil Abdurahmon. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam). *Boqsang, ko‘zing qamashar, Bargda yonar sh u d r i n g lar. Dildirashib uqlashar Polizdagi bodringlar* (Anvar Obidjon. Bodringlar). *Bodringlar Ustida Tomchitomchi sh u d r i n g. Ul bechora Tomchilar To‘kilmay deb, Qaltirar* (Po‘lat Mo‘min. Yaxshi bo‘ldi).

SHUM 1 Juda ham yomon, yovuz, rahm-shafqatsiz. *Hoy bosqinchi, sh u m niyatingga hech qachon yetolmaysan. Bu mamlakat senga hech vaqt bo‘ysunmaydi* (“Bir siqim tuproq” ertagi).

2 Juda ayyor, yomonlik qilishga usta. *Podshoning bosh vaziri, qirq xotin, sh u m kampir ko‘p afsus qilibdilar* (“Hasan va Zuhra” ertagi). *Shifokor Sher oldiga sh u m Tulki shoshib keldi. “Voy boshim” deb yolg‘ondan, Maktabdan qochib keldi* (Dilshod Rajab. Qiziq alifbo). *Taxtamushuk* (sichqon tutadigan qopqoncha) *sh u m mezbon. Ilgagida – Dasturxon* (Anvar Obidjon. Tekin ziyofat).

3 Juda sho‘x va abjir, to‘polonchi va topag‘on. *Sh u m bolalar Kelishadi, Shimi ho‘ldan kulishadi* (Anvar Obidjon. Boshdan o‘tgan-da). *Yer-u ko‘kka ishonmasdan Ko‘zining oq-qorasini, Ona maymun yuvintirar sh u m kenjatoy bolasini* (T.Adashboyev. Maymunning shukronasi).

SHU'LA Biror narsadan taraluvchi yorug'lik. *Har kuni quyosh derazalardan bir marta mo'ralab o'tar, uning sh u'l a lari qizaloqlarni tashqariga chorlardi* (Olloyor. Sehrli uyqu). *Yaproqlarning oralaridan Tanga-tanga tushar sh u'l a lar* (Miraziz A'zam. Antiqa). *Oyning sh u'l a si – suvda, Hamma narsa uyquda* (S.Zunnunova. Alla).

SHO'X 1 Tinib-tinchimaydigan, bir joyda tinch turmaydigan, o'yinni yaxshi ko'radigan. *Zidi: yuvosh. Ma'nodoshi: to'polonchi.* *Sapchigani sapchigan Jajjigina sh o'x ukam, Hatto o't-u suvdan ham Toymaydigan cho'g' ukam* (Yo'ldosh Sulaymon. Hey Qo'qon shamoli). *Aziz o'zi sh o'x bola, Fikri misli o'q bola: Xuddi nishonga urar, Tag'in iljayib turar* (Miraziz A'zam. Azizning orzulari). *Tinmagur juda sh o'x-da. Yerga ursang, Sapchir ko'kka* (Dilshod Rajab. Koptok).

2 O'yin-kulgini, hazil-huzilni yaxshi ko'radigan, hazil-huzil aralashgan. *Ma'nodoshi: xushchaqchaq, quvnoq.* *O, bizning yigitlar juda sh o'x bo'ladi, – dedi Muharram o'tirayotib, – bitta namunasi mana, qarshingizda o'tiribdi* (Shuhrat. Shinelli yillar).

3 Tez harakat qiladigan, tinim bilmaydigan. *Feruzaxon – oy qiz, Kulgiga ko'p boy qiz. Kulcha yuzi shirmoy qiz, Jo'shqinligi sh o'x soy qiz* ("Gulgina" kitobidan). *Bolajonlar, sh o'x quyonday Sakrab-o'ynab, choping har yon* (Dilshod Rajab. "Quyon yili" tilagi). *Ustozlarni tinglab, puxta Ilm oling, nodon bo'lmang. Sh o'x-s h o'x o'ynang tanaffusda, Lekin darsdan "quyon" bo'lmang* (Dilshod Rajab. "Quyon yili" tilagi).

4 Ko‘ngilga jo‘shqinlik beradigan, quvnoqlikka chorlaydigan. *Ma‘nodoshi: jo‘shqin, o‘ynoqi. Uni tabriklaganday Radio sh o‘x kuy chalar* (Ilyos Muslim. Odobli qizcha). *Bunchalar sh o‘x – o‘ynoqi Musiqasi, notasi, Jimirlatar jismingni Bu “Andijon polkasi”* (Dilshod Rajab. “Andijon polkasi”).



CHAKKI Ma'qul, o'rinli, durust deb bo'lmaydigan. *Ey podshohim, men ch a k k i ish qilganim yo'q* ("Navoiy bilan cho'pon" ertagi). *Uning ch a k k i yurishidan Tovuqlar ham norozi* (T.Adashboyev. Xo'roz). *Ch a k k i yursang, dakki yersan* (Maqol). *Mamanazar ham ch a k k i emas: bir ishni boshlasa bormi, uni oxiriga yetkazmay qo'ymas ekan* (T.G'oipov. Ajoyib xazina).

CHAMAN Gullar ko'p o'sgan, juda ham chiroyli joy. *Ma'nodoshi: gulzor, gulshan.* *Bulbul ch a m a n ini sevar, odam – vatanini* (Maqol). *Bu Vatan, shu Vatan Yashnasin, bo'lsin ch a m a n* (Dilshod Rajab. Do'stlik). *Sentyabrning sevinchlari Bamisoli kelajak. ch a m a n larda Ochilganday Turfa rangda gulchechak* (Po'lat Mo'min. Sentyabrning sevinchlari).

Chaman bo'lib ochilmoq (yoki **gullamoq**) Bitta ham qolmasdan gullamoq. *Chaman bo'lib tog'larda o ch i l g a n m i sh lolalar, Soz bo'lardi, Bulbuljon, borib kelsang g'irillab* (Anvar Obidjon. Bahor).

CHAMBARCHAS Hech ham uzilmaydigan, ajralmaydigan, mustahkam. *Odamzodning hayoti va turmushi tabiat bilan ch a m b a r ch a s bog'liqdir* (Asad Asil. Jonzotlar ham mehrga muhtoj). *Vataning daxlsiz, Muqaddas, Jonlarga tutashday ch a m b a r ch a s* (Po'lat Mo'min. Saqlagil mardona).

CHANQOQ 1 Suv ichish istagi juda kuchaygan.
Ma'nodoshi: tashna. Shu quduqdan suv chiqarib, hamrohlarim ch a n q o g' ini qondirsangiz bas ("Yarimta non" ertagi).

2 Biror narsani juda ham xohlagan, talabgor.
Shunday tinib-tinchimas, Ishga ch a n q o q bolaman.
Mehnat qilib, ulg‘ayib, Odam bo‘lib boraman
(H.Murodov. O‘sypman). *Yoshligingizdanoq bilimga*
ch a n q o q, zehnli va iste‘dodli bo‘lganiningizga havas
qilganman (“G‘uncha”dan).

CHAQIMCHI Yomon maqsad bilan birovning gapini boshqaga yetkazuvchi. *Do'stlikka yaramay-digan shaxslarning bir turi – ch a q i m ch i* (Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig). *Ko'rib turib, Tanimasga Olar go 'yo... Oramizda Bormi biror ch a q i m ch i yo?* (Po'lat Mo'min. Do'stim nega xafa?). *Qari Chumchuq ch a q i m ch i, So'zini tinglab boqing-chi: Balki, o'sha muttaham Tuhmat qilar sizga ham* (Anvar Obidjon. Chumchuq haqida qo'shiq).

CHAQQON 1 Tez, g‘ayrat va epchillik bilan harakat qiladigan. *Zidi: bo‘shang, lapashang, noshud.* *Ma‘nodoshi: epchil, abjir.* *Tashkil topib yaylovda Sport maktabi, O‘sib borar polvon-u ch a q q o n lar safi* (Anvar Obidjon. Sport maktabi). *Buvijonim qari bo‘lsa ham, baribir ch a q q o n - da* (“G‘uncha”dan). *Yugurishda mohir Avaz, To‘p tepishda ch a q q o n, abjir.* *Mashq qilishni kanda qilmas, Yerga ursang, ko‘kka sapchir* (“G‘uncha”dan).

2 Tez, epchillik bilan. *Gap yo‘q mashqiga, Bajarar ch a q q o n. Olqishlar olib, Hammaga yoqqan* (Dilshod Rajab. Qiziq alifbo). *Ch a q q o n ishlatib*

oyoq-qo 'limni, Topib yuraman unda yo 'limni (Qambar Ota. Velosipedim).

CHAVANDOZ Ot minishni yaxshi biladigan odam. *Katta bo 'lsam, otlarni Qiynalmasdan minaman. Ch a v a n d o z lar qatori Zo 'r janglarga kiraman* (Zafar Diyor. Kichkina chavandoz). *Tunov kuni otam menga O'yinchoq – toy keltirdi. – Mana senga uchar tulpor, Bo 'lsang ch a v a n d o z, – dedi* (Zafar Diyor. Sovg'a). *Ot minganda, ayt, ch a v a n d o z, Sen nimani o 'ylaysan?* (Qambar Ota. Ot tili).

CHASHMA 1 Yer ostidan chiqib turgan suv. *Ma 'nodoshi: buloq. Chinor tagidan bir ch a sh m a suvi qaynab chiqib turibdi* (“Sabr tagi – sariq oltin” ertagi). *Oradan bir-ikki oy o 'tgach, haligi ch a sh m a suvidan Boqijon shifo topa boshlabdi, tuzalaveribdi* (“Sabr tagi – sariq oltin” ertagi).

2 Biror narsaning koni, manba. *Endi bilsam, onamning bitta o 'zлari hozirgi zamон bolalariga har xil axborot beruvchi o 'nlab manbalar o 'rnini bosar ekanlar. Agar iste 'dodim bor bo 'lgan bo 'lsa, uning ch a sh m a si – onam* (Zulfiya. Hayot varaqlari).

CHEGARA 1 Muayyan hududning boshqasidan ajralish joyi. *Xon o 'z yeridan odam o 'tkazmaslik uchun ch e g a r a dagi daryo ko 'prigiga kuzatuvchi qo 'yibdi* (“Zolim xon va ziyrak dehqon” ertagi).

2 Muayyan bir davlatning maxsus qo 'riqlanadigan atrofi. *Ch e g a r a da siz kabi Soqchi bo 'lish chin o 'yim* (Yo 'ldosh Sulaymon. Chegarachi amakiga). *Demak, endi shartdir, bas, Bezovalik, bedorlik, Faqat ch e g a r a damas, Hamma joyda hushyorlik* (D.Rajabov. Endi zerikmayman).



3 Biror narsaning me'yori, o'lchovi. *Har qanday sabr-toqatniyam ch e g a r a si bo'ladi, yetar endi* (Anvar Obidjon. Kuchukning hikoyasi). *Mening o'sha paytdagi quvonchimning ch e g a r a si yo'q edi* (M.Tojimurodova. Bolalikning bir kuni). *U tarqatgan bo'htonning, Tuturiqsiz yolg'onning Aslo ham yo'q ch e g a r a si* (Qambar Ota. Gap tarqatib, tan olmas).

CHEGARACHI Davlat chegaralarini qo'riqlovchi harbiy xizmatchi. “*C h e g a r a c h i yigitlar dovyurag-u mard*”, – debsiz (Yo'ldosh Sulaymon. Chegarachi amakiga).

CHEVAR 1 O'z ishini yaxshi bajaradigan tikuvcchi. *Men ham ch e v a r bo'laman Xuddi oyim singari* (Turob Niyozi. Chevar bo'laman). *Yosh ch e v a r qiz Gulasal Ko'ylakni bichib avval, Ip o'tkazib ninaga, O'tirdi mashinaga* (Obid Rasul. Chevar Gulasal). *Ch e v a r qizning qoyil kasbga mehriga. Yuraklar rom ignasining Sehriga* (Qambar Ota. Chevar).

2 O'z ishining ustasi, har ish qo'lidan keladigan. *Ishchi onam fabrikada O'z kasbiga ch e v a r dir* (Zafar Diyor. Ikkimiz ham a'lochi). *Lekin podshoning qizi juda chiroyli, dono va ch e v a r ekan* (“Dono xotin” ertagi).

CHECHAK Tabiiy ravishda o'sadigan gulli o'simlik. *Ma'nodoshi: gul. Bahordan elchi – ch e-ch a k, Rahmat senga, boychechak* (T.Adashboyev. Boychechak). *Shinni yig'ib ch e ch a k dan uyga jo'nar Bolari, Qaytib kelar u yana xumchasini qoq qilib* (Anvar Obidjon. Olamda nima gap?). *Chir aylanib o'ynaydi Chiroyli kapalaklar. Chapak chalib quvnaydi Chamandagi ch e ch a k lar* (Dilshod Rajab. Qiziq alifbo).

CHECHAN Har qanday ishni osonlik va ustalik bilan tez bajaradigan. *Zidi: lapashang, noshud.* *Ma'nodoshi: epchil, abjur, chaqqon.* *Tog'da so'zga ch e ch a n, qo'shiqchi Ali degan cho'pon yashar ekan* (“Zolim xon bilan cho‘pon” ertagi).

CHIDAMOQ Qiyinchiliklarga, har qanday ta’sirga bardosh bermoq, sabr-toqat qilmoq. *Azoblarga ch i- d a d i, Yig'ib hamma bardoshni* (H.Murodov. Tosh qiz afsonasi). *Dosh beraman ochlikka, Suvsizlikka ch i d a y m a n* (Anvar Obidjon. Tuya). Lekin bolakayning quvonishi uchun har qanday og‘riqqa ch i d a s a bo‘ladi (Olloyor. Sehrli uyqu).

CHIGAL 1 Uchini topib, yechib bo‘lmaydigan. *Chigal ip. Chigal sim.*

2 Hal qilish qiyin bo‘lgan. *Bu jumboq juda ch i-g a l, Etolmayman o‘zim hal* (Habib Rahmat. To‘rt hunarmand haqida ertak). *Bitta ch i g a l ishning oxiriga yetmoqchiman* (Erkin Malik. Bolaligim ertaklari). *Ha, bu ancha ch i g a l masala. Hammaning ham tezda fahmi yetavermaydi. Keling, sizga boshqa osonroq savol berayin* (Anvar Obidjon. Oltin yurakli avtobola).

CHIN Haqqoni, haqiqatga mos, haqiqatdan iborat. *Zidi: yolg‘on.* *Ma'nodoshi: rost, to‘g‘ri, haqiqiy.* *Ulg‘aysak, askarmiz ch i n, Oqlaymiz el ishonchin* (Yo‘ldosh Sulaymon. Askarmiz). *Tanitasan Yurt – olamni, Dunyo sirin, ch i n odamni, Kitobjonim* (Qambar Ota. Kitobjonim). *Endi ch i n so‘z beraman, yolg‘on gapirmayman, – debdi quyoncha* (M.Murodov. “Bog‘chaga – do‘mboqchaga”. To‘plam).

CHINIQMOQ Bardosh berish qobiliyatini oshirmoq. *Ma'nodoshi: toblanmoq.* *Yurtga posbon*

bo'lishni, Do'stga qalqon bo'lishni O'rganaman mashq qilib, ch i n i q i b, kuchga to'lib (Qambar Ota. Bo'sh vaqt). *Ko'chaga – bayramga chiq, Qorda, sovuqda ch i n i q* (Po'lat Mo'min. O'yna, kul!). *Yurtimning har o'g'loni, ch i n i q q a n mard polvonni... Qo'riqlar hur bo'stonni – Ona O'zbekistonni* (Qambar Ota. O'zbekiston askari).

CHIRANMOQ 1 Bor kuchi bilan harakat qilmoq. *Ho'kiz o'rnidan turibdi, bir ch i r a n i b boshvoqni uzib, yo'lga tushibdi* (“Susambil” ertagi). *Shiddat bilan oldinga Otildi Cho'rtan. Suvkalamush ch i r a-n a r Qolishmay undan* (Anvar Obidjon. Juda qiziq voqeа).

2 O'z imkoniyatini hisobga olmay harakat qilmoq. *Ming ch i r a n d i Kayxusrav, Bo'ljadi biroq! Qochib qoldi qo'shinin Tashlab tumtaroq* (Shuhrat. To'maris). *Maktabga qatnayman deb, ch i r a n d i dakang xo'roz* (H.Murodov. Xo'roz).

CHIROYLI 1 Ko'rinishi yoqimli. *Zidi: xunuk. Ma'nodoshi: go'zal.* Zumrad nihoyatda *ch i r o y l i, odobli, muloyim, aqli qiz ekan* (“Zumrad va Qimmat” ertagi). *Dunyoning eng ch i r o y l i Gullaridir bolalar* (Quddus Muhammadiy. Urushga yo'l bermaymiz!). *Chiroylixonat yozmoqqa Juda havasmand edim* (Obid Rasul. Sinfdosh). *Binafshaxon, binafsha, Kulishlaring ch i r o y l i.* *Bog'imizda ochilib Turishlaring ch i r o y l i* (Zafar Diyor. Binafsha).

2 Ma'no-mazmuni yoqimli, yaxshi. *Bundan boshqa ham dunyoda juda ko'p ch i r o y l i so'zlar bor* (O.Quvvatov. Bobo va nabira suhbatidan). *Bobojon, shu ch i r o y l i ismingizni sizga kim, qachon qo'ygan?*

(X.To‘xtaboyev. Quyonlar sultanati). *Juda boy, ch i-r o y l i tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo‘lmaydigan fikr, tuyg‘u, holat yo‘q* (Abdulla Qahhor. Hushtakni kim chaladi?).

3 Tartib va mahorat bilan qilingan. *Uni ko‘rgan kishi inson aql-u zakovati va qo‘llari shunday ch i r o y l i ishlarni bajarishga qodir ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi* (“G‘uncha”dan). *Javondagi rasmlı ertak va hikoyalari, ayniqsa, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Mark Tven va boshqa yozuvchilarning kitoblari ch i r o y l i taxlangan* (“G‘uncha”dan). *Ustozimizning darsni ch i r o y l i tushuntirishi, uzoq she’rlarni ham doimo yod o‘qishi, kitobga qarab gapirmasligi qiziqishimizni orttirdi* (“G‘uncha”dan).

4 Yoqimli eshitiladigan, qulorra yoqadigan. *Uning juda ham ch i r o y l i ovozi ko‘pchilikka tanish edi* (A.Xidirov. Do‘st).

CHORAK 1 Butunning to‘rtga bo‘lingandagi har bir bo‘lagi. *G‘oz qumdagи shaklga qarab fikr-lay boshlabdi: To‘daning yarmini tasvirlovchi kesma to‘daning to‘rtdan birini* (yoki ch o r a g ini) *tasvirlovchi kesmadan ikki marta uzun, ya’ni yarim ikkita ch o r a k ka teng. Demak, yarim va ch o r a k -bu uchta ch o r a k demakdir* (U.Ismoilov. Ertaklarda matematika).

2 O‘quv yilining to‘rtdan bir qismi. *Ko‘rasiz, bu ch o r a k da “Uch” olmayman biron ta (Qambar Ota. Yalinchoq). Uchinchi ch o r a g i m ga hisobdan “uch” chiqqanligini Karim kemshik aytib qo‘yganga o‘xshaydi* (H.Imonberdiyev. Qutichada mitticha).

CHORLAMOQ Chaqirmoq, biror narsaga undamoq. *Qoyadan uchib tushib, Billur bo'lib porlaydi. Zavqimni kuya o'rab, Tomoshaga ch o r l a y d i* (H.Murodov. Sharshara). *Zumrad bog'lar bag'rige Kela qol, deb ch o r l a y d i* (H.Imonberdiyev. Yakshanbada). *Yuksaklarda hilpirab – Porlab turar hamisha. Buyuk g'alabalarga ch o r l a b t u r a r hamisha* (Dilshod Rajab. Yurt bayrog'i).

CHO'QQI 1 Tog'ning eng baland joyi. *Qorli, muzli ch o'q q i lar ham Qolib ketar poyimizda. Jasur qo'shiq bizga hamdam Har bir qo'ngan joyimizda* (Miraziz A'zam. Biz yengamiz bo'ronlarni). *O'g'il yo'l yuribdi, yo'l yursa ham, mo'l yuribdi, oxiri tog' ch o'q q i siga yetib boribdi* ("Nima eksang, shuni olasan" ertagi). *Burgut uchun osmon, asli, Boshlanadi ch o'q q i lardan* (T.Adashboyev. Osmon qaydan boshlanar?).

2 Eng yuksak daraja. *Fan ch o'q q i larini egallash orzusi har bir o'quvchida bo'lmog'i kerak* ("G'uncha"dan).

162000

NIZOMIDDIN MAHMUDOV

SO‘Z SANDIQCHASI

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATCHASI

(BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN)

Muharrir *O’tkir Yo ‘ldoshev*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*

Musahhih *Fotima Ortigova*

Kompyuterda sahifalovchi *Zilola Aliyeva*

Nashr. lit. AI № 154. 14.08.09.

2016-yil 8-iyunda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 84x108^{1/32}. Offset bosma.

Times New Roman garniturasi.

11,34 shartli bosma taboq. 9,3 nashr tabog‘i.

Adadi 3000 nusxa. 447 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi

100128, Toshkent, Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz

info@gglit.uz

Nizomiddin MAHMUDOV



SO‘Z



SANDIQCHASI



ISBN 978-9943-03-865-3



A standard barcode is positioned above the ISBN number. The ISBN number is printed below the barcode: 9 789943 038653.